

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

**Ziyovuddin Atxamovich Ilxomov
Ra’no Abdulladjanovna Mulladjanova**

**O‘ZBEKISTON XALQLARI MADANIYATI TARIXI
METODIK QO‘LLANMA**

TOSHKENT - 2014

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

O'ZBEK XALQLARI MADANIYATI TARIXI
**(Metodik qo'llanma akademik O'tkur Islomovich Islomovning yorqin
xotirasiga bag'ishlandi)**

TOSHKENT – 2014

Ushbu metodik qo‘llanmada madaniyatshunoslik va uning kelib chiqishi, vazifalari va funksiyalari, madaniyatshunoslik asoslari va uning taraqqiyot jarayonlari, madaniyat tarixi bosqichlari va ularning xususiyatlari, uning asosiy jihatlari haqida vatanimiz madaniyati tarixiga oid yangi manbalar bilan tanishasiz. Shuningdek, “O‘zbekiston madaniyati tarixi” kursining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, tamoyil va usullari, madaniyat nazariyasi va tushunchasi, «O‘zbekiston madaniyati tarixi»ga oid manba va bibliografik ko‘rsatgichlar haqida muhim ma’lumotlar berilgan.

Metodik qo‘llanma oliy o‘quv yurtlari bakalavr bosqichi talabalari, kasb - hunar kolleji va akademik litsey o‘quvchilari hamda madaniyatshunoslik bilan qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tuzuvchi:

Tarix fanlari nomzodi., dotsent Z.A.Ilxomov

Pedagogika fanlari nomzodi., dotsent R.A. Mulladjanova

Taqrizchilar:

S.Tillaboyev – tarix fanlari nomzodi O‘zRFA

Tarix instituti ilmiy xodimi

M.Esonov – tarix fanlari nomzodi, Nizomiy nomidagi TDPU

“Tarix” kafedrası

Metodik qo‘llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy-metodik kengashining 2014 yil “0000” sentabrdagi №0000-sonli majlis qaydnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

M U N D A R I J A

Kirish	5-6
1-Mavzu: “O‘zbekiston madaniyati tarixi”kursining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, tamoyil va usullari.....	5
2-Mavzu: Madaniyat nazariyasi va tushunchasi.....	
3-Mavzu: «O‘zbekiston madaniyati tarixi»ga oid manba va bibliografik ko‘rsatgichlar.....	
4-Mavzu: «O‘zbekiston xalqlarining Qadimgi va Ilk O‘rta asrlar davri madaniyati tarixi. (Miloddan avvalgi. VI asrdan - milodiy IV asrgacha)..	
5-Mavzu: «O‘zbekiston madaniyati tarixi»ga oid o‘rta asrlar davri madaniyati. (Milodiy V – IX asrgacha).....	
6-Mavzu: O‘rta Osiyodagi ilk madaniy islom uyg‘onishi – Islom renesansi davrida madaniyat ravnaqi (IX-XII asrlar).....	
7-Mavzu: Mo‘g‘ullar istilosi davrida madaniyatning topatalishi va asta sekin jonlanishi XSH asr - XIV asrning birinchi yarmi.....	
8-Mavzu: Markaziy Osiyodagi ikkinchi madaniy uyg‘onish temuriylar renesansi davrida madaniyat taraqqiyoti (XIV asrning ikkinchi yarmi - XV asr)....	
9-Mavzu: Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida madaniyat (XVI asr oxiri - XVIII asrning birinchi yarmi).....	
10-Mavzu: O‘zbek xonliklari davrida madaniyat (XVII asr - XIX asrning birinchi yarmi).....	
11-Mavzu: Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida madaniyat (XIX asrning birinchi yarmi - XX asrning boshlari).....	
12-Mavzu: Turkistondagi uchinchi madaniy uyg‘onish - jadidlar renesansi davrida milliy madaniyatning yangilanishi (XIX asr oxiri - XX asrning boshlari)	
.....	
13-Mavzu: Kommunistik mustabid mustamlaka davrida «sotsialistik madaniyat» rivoji va uning mohiyati (1917-1991).....	
14-Mavzu: O‘zbekistondagi to‘rtinchi uyg‘onish istiqlol davrida milliy madaniyatning ravnaq topishi.....	
O‘zbek xalqlari madaniyati tarixiga oid qo‘shimcha ma’lumotlar.....	
Xulosa	102-103
Izohli so‘zlar	104-109
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar	110-111
Ilovalar	112-163

Kirish

Ma'lumki, o'tmishni o'rganmay kelajakni yaratib bo'lmaydi. Ma'daniy merosimizni o'rganish faqat ilmiy jihatdan katga ahamiyat kasb etibgina qolmay, ayni vaqtda buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy xazinadan baxramand bo'lishda, ijtimoiy-siyosiy muammolarni xalq etishda va insonning barkamol bo'lib shakllanishida muhim omil xisoblanadi.

O'zbek xalqining tarixi va madaniyati uzoq moziyga borib taqaladi. Mamlakatimiz xududi insoniyat tamadduni — sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biridir. Bu esa bugungi qo'lga kiritgan yutuqlarimizning, ertaga erishajak g'alabalarimizning hayotbaxsh asosi. Zero, biz o'tmishdan kul emas, cho'g' olamiz. Shunday ekan, beqiyos me'rosni asrash, avaylash, ularni har tomonlama jiddiy o'rganish bilan bir qatorda, uni yoshlar ongi va qalbiga jo qilish masalasi eng muhim vazifalardan biridir.

Millat tarix ne'mati bo'lmish merosdan ildam yo'l bosish uchun kuch-quvvat oladi. Ajdodlarimizning xar jabhadagi yaratuvchanlik faoliyati, aql-zakovatiga tan berib, dilimizda g'ypyp tuyg'usini tuyganimizda buni qalban xis qilamiz. Zotan, o'z tarixi va madaniyati bilan faxrlanish, milliy iftixor hissi insonni ma'naviy kamolot sari yetaklaydi. Binobarin, "O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi"ni ilm dargohlarida o'qitish jarayonida madaniy merosimizni chuqur va puxta o'rganishni ta'minlash komil insonni shakllantirishning ishonchli kafolati ekan, mazkur metodik qo'llanma ana shu dolzarb vazifalarni nazarda tutib yozildi.

O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixini o'rganish, uni ilmiy yoritish va targ'ib etish masalasiga O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng jiddiy e'tibor berila boshlandi.

Prezidentimiz I.A.Karimov 1997 yil 29 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqida "... dasrliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerak"ligi ta'kidlangan.

"Chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni, eng avvalo, tarix o'qituvchilarini chalg'itadi. Ular eshitganlarini haqiqat shu ekan, deb o'quvchilarga ham yetkazishadi. Faqat baxs, munozara tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin"¹. Darhaqiqat, sobiq sho'rolar davrida O'zbekiston tarixi va madaniyatiga oid yaratilgan ilmiy asarlar, qo'llanma va adabiyotlarda xalqimizning ko'p ming yillik boy tarixi va madaniyati bir tomonlama bayon qilindi.

Har bir xalq o'z ona tarixini qanday voqea bo'lgan bo'lsa shunday, hech qanday bo'yoqlarsiz bilishi kerak. Bu xalqning o'zligini anglashida, o'tmish otabobolari, avlodu-ajdodlari ruhi va xotirasiga hurmat va sadoqatni kamol toptirishda, siyosiy va milliy ong madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

"O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi" kursiga dasturda jami 118 soat ajratilgan. Shundan: 36 soat ma'ruza, 36 soat seminar, 46 soat mustaqil ta'limdan

¹ Каримов И.А.Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.: "Шарқ", 1998. 6-б.

iborat bo'lib, Nizomiy nomidagi TDP Uning Tarix fakulteti, 4 - bochiqich talabalariga, 7 - semestrda o'qitiladi.

Metodik qo'llanmada, «O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi» o'quv kursini o'qitishdan maqsad va vazifa, uning hozir oliy o'quv yurtlarida raqobatbardoshli, yuqori malakali tarixchi-pedagoglarni tayyorlashda tarixan zaruriyatga aylanganligi, Rossiya mustamlakachiligi davrida O'zbekiston madaniyatiga bo'lgan munosabat, uning maqsadi va mohiyati, milliy istiqlol tufayli tarixiy madaniy qadriyatlarni tiklash imkoniyatining paydo bo'lishi, rivojlantirish o'tmish madaniyati tarixiga bo'lgan talab va extiyojning yuksalishi, I.A.Karimovning milliy madaniy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasi va uning- Vatan madaniyati tarixini o'rganishda tutgan o'rni, shuningdek, Prezidentimiz tomonidan "tarix va o'tmish madaniyati milliy o'zlikni anglash, milliy g'oya va mafkura takomil topishining asosi" - degan nazariy tamoyilni olg'a surilishi, «Tarix - xalq ma'naviyatining asosi», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» ekanligi «O'zbekiston madaniyati tarixi»ning umumiy mazmuni, xarakteri, yo'nalishi va rivojlanishi bosqichlarini davrlashtirish tamoyillari, kursni o'rganish obyekti va predmeti, vazifalari o'z aksini topgan.

Ushbu metodik qo'llanmani yaratishda respublikamiz olimlarining ushbu sohada yaratgan ilmiy ishlaridan keng foydalanildi. Jumladan, B.A.Axmedov, A.Axmedovlarning "O'zbekiston tarixi va madaniyati"¹, H.Hamidovning "XVI-XIX asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar"² metodik qo'llanmalaridan foydalanildi. Buning uchun ushbu taniqli, ko'zga ko'ringan olimlarimizga chuqur minnatdorchilik bildiramiz. Qolaversa, mualliflarning bu say-harakatlari O'zbekiston xalqlari tarixi va madaniyati bo'yicha ma'ruzalar kursini yaratish bobida dastlabki urinishidir. Shu boisdan, ayrim kamchilik va u yoki bu tarixiy voqealar kitobxonning talabi darajasida bayon etlmagan bo'lishi tabiiydir. Mualliflar cheksiz hurmat va ehtirom bilan kitobxonlardan taklif va mulohazalarni kutib qoladilar.

¹ Ўзбекистон тарихи ва маданияти. Тузувчилар: Б.А.Ахмедов., А.Ахмедов. Т.: "Ўқитувчи". 1992. 290б.

² Хамидов Х. XVI-XIX асрлар юртимиз маданияти тарихидан лавҳалар. Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. «Фан». 2009. 111б.

1-Mavzu: “O‘zbekiston madaniyati tarixi”kursining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, tamoyil va usullari

Reja:

- 1.“O‘zbekiston madaniyati tarixi” fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, tamoyil va usullari.
- 2.“O‘zbekiston madaniyati tarixi” fanini o‘rganishning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati.

Adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O‘zbekiston”. 2011. 727b.
- 2.Asqarov A.A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T.: “Universitet”. 2007. 333b.
- 3.Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. T., O‘qituvchi, 1994.
- 4.Jabborov I. Antik madaniyat va ma’naviyat xazinasini. T., O‘zbekiston, 1999 y.
- 5.O‘zbekiston tarixi va madaniyati. Tuzuvchilar: **B.A.Axmedov., A.Ahmedov.** T.: “O‘qituvchi”. 1992. 290b.

«O‘zbekiston xalqlari tarixi va madaniyati fani predmeti, nazariy metodologik asoslari, manbalari va aramiyatiga 6ag‘ishlashan dastlabki diars mashg‘ulotida o‘qituvchi Vatam tarixi va madaniyatini o‘rganshida moddiy va yozma manbalarning o‘rni va ahamiyati behad katta ekanligiga talabilarining e’tiborini qaratadi. Xalqimizning ma’naviy-madainiy merosi bebaho boylik sifatida maxsus arxivlarda, kugubxona va muzeylarda hamda arxivlarda avaylab saqlanayotganligi ta’kidlanadi.

Manbalar o‘z xolatiga ko‘ra, yozma va moddiy ko‘rinishlarga ega bo‘lishi, tariximizning eng qadimgi, ya’ni yozuvsiz zamonlarga oid davrini o‘rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalar yordamga kelishi aytiladi.

Moddiy ashyoviy manbalarga mehnat va jang qurollari, sopol idishlar, turmush va xo‘jalikda ishlatiladigan buyumlar, shaxar va qo‘rg‘on xarobalari, xullas, qadimda inson qo‘li bilan yaratilgan xamma narsalar shular jumlasiga kirishi uqtiriladi.

Yozma manbalarga esa qoyatoshlarga, sopolga bitilgan qadimgi yozuvlar yoki kitoblar kiradi. Shu o‘rinda O‘zbekiston tarixi bo‘yicha eng qadimgi manba zardushtiytlarning mukddas kitobi «Avesto» ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, qadimgi davr tarixiga doir yozma manba Erondagi Behistun qoyasi yozuvlari xaqida ma’lumot berib o‘tish bilan birga, qadimgi dunyo, ya’ni Yunon, Rim, Xitoy tarixchilarining asarlarida yurtimiz xalqlarining turmushi, dini, madaniyati, iqtisodiy va siyosiy tuzumi to‘g‘risida ma’lumotlar berilganligi xususida to‘xtaliniladi.

Tarixiy manbalar davr nuktai nazaridan qadimiy va kundalik ahamiyatga ega ekanligiga urg‘u berilib, ular o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra, birlamchi va ikkilamchi ahamiyat maqomiga egaligi, ya’ni tarixiy hujjatlarning asl nusxasi birlamchi manbaga kirsa, bu manbalarning e’lon qilingan nusxalari, kitob holiga kelgirilganlari ikkinchi manba deb hisoblanishi qayd etiladi.

Umuman, moddiy va yozma manba ma’lumotlarini solishtirib, qiyoslab, tarixni talqin etish muhim ahamiyat kasb etishi uqtiriladi.

«O‘zbekiston xalqlari tarixi va madaniyati» fani o‘rganish yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, el-yurt va millat manfaatining otashin himoyachilari qilib kamol toptirishda cheksiz imkoniyatlarga egadir. Yurtboshimiz I.A.Karimov “Vatan hissi, vatan tuyg‘usi barcha narsadan qadrliroqdir. Biz farzandlarimiz ongiga va qalbiga ana shu tuyg‘uni singdirishimiz kerak”¹ – deb bejiz aytmaganlar.

Vatan deganda nimani anglash kerak?

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga binoan, “Vatan” – kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat, ona yurt.

Biz “Vatan” so‘zini ne-ne so‘zlarga qo‘shib, ne-ne qadriyatlarga nom topamiz: Vatan adabiyoti, Vatan tuyg‘usi, Vatan tarixi.....

Umrimizning har bir lahzasi Vatanga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi. Vatan – umrimizning mazmuni, maqsadimiz g‘oyasi.

Vatan chegarasini uning tarixi, uning madaniy merosi belgilaydi. O‘tmishni bugun yaratib bo‘lmaydi, o‘tmish bugunni yaratadi. Tarixdagi har bir ijtimoiy yuksalish jamiyatning o‘z merosiga, o‘z o‘tmishiga bo‘lgan munosabatini isloh qilishdan boshlanadi. O‘tmishga bo‘lgan har qanday ijodiy murojaat esa hamisha inqilobiy o‘zgarishlarga zamin tayyorlaydi, o‘tmish aqidalari bugun uchun xizmat qiladi. Biroq o‘tmishga murojaat qilishdan avval unga bo‘lgan munosabatni halol, to‘g‘ri yo‘lga solish kerak.

Vatan nima demak. O‘tkir Xoshimov - mangu haqiqat - “Ona – bitta, Vatan - yagona” desa, Muhammad Yusuf:

Men dunyoni nima qildim, o‘zing yorug‘ jahonim,
O‘zim hoqon, o‘zim sulton, sen taxti Sulaymonim,
Yolg‘izim, yagonam deymi, topingan koshonam deymi?
O‘zing meni ulug‘lardan, ulug‘imsan Vatanim! –

deydi. Chunki, Vatandan tashqari baxt yo‘q, begona yurt hech qachon Vatan bo‘lolmaydi. Haqiqat vatan manfaati yo‘lida kerak bo‘lsa qurbon bo‘lishga ham tayyor turishda namoyon bo‘ladi. Chunki o‘zingni vatanga qanchalar yaqin his etsang, uni shu qadar vujud kabi aniqroq va sevibroq tasuvvur qilasan. Prezidentimiz aytadilarki, “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”.

Ko‘hna ona tariximizni o‘rganish, uni bitmas-tuganmas sarchashmalaridan bilimga chanqoq zamondoshlarimizni bahramand etish, ularning mahnaviy talab-ehtiyojlarini qondirish – vatan tarixchilaridan, bu fan jonkuyarlaridan ko‘p narsani talab etadi. Negaki, yosh avlod tarbiyasining ko‘p jihatlari ham mana shunga bog‘liq ekanligini unutmasligimiz kerak albatta. Axir, vatanparvarlik tarbiyasi ota-onaga, o‘z mahalla, qishlog‘iga bo‘lgan cheksiz muhabbat, uning tarixi va madaniyatiga bo‘lgan mislsiz va tengsiz sadoqatidan boshlanmaydimi? O‘z ota-onasi, o‘z Ona tuprog‘i, o‘z millati va xalqi, o‘z tarixi va madaniyatini sevmagan kimsa qanday qilib “begonalar”ni seva olsin?! O‘zbekiston xalq shoiri

¹ Инсон бахт учун туғилади: Ўзбекистон Президенти Ислом Каримовнинг ҳикматли сўзларидан (Тузувчилар: Д.Ғаниев, З.Ғафуров). – Т.: “Шарқ”, 2001. 86.

Muhammad Yusufning “Vatanim” qasidasidagi quyidagi satrlarga e’tibor bering-a...

Sen – shoxlari osmonlarga tegib turgan chinorim,
Ota desam, o’g’lim deb, bosh egib turgan chinorim,
Qo’ynimdagi iftixorim, bo’ynimdagi tumorim,
O’zing mening ulug’lardan Ulug’imsan, Vatanim!

Ha, o’zbek xalqirining ming-ming yillik boy tarixi bor. Bu ona tarixini bemalol ko’z-ko’z qilib, ko’kragimizni toh qilib, tashviqot va targ’ibot qilsak, farzand-nabiralarimizni ana shu muqaddas tarixga, madaniyatga sodiqlik ruhida tarbiyalasak, o’zligimizni anglagan bo’lur edik.

- 1.Moddiy-madaniy ashyolar nima?
- 2.Tarixining qanday yozma manbalarini bilasiz?
- 3.Tarixiy malbalar davr nuqtay nazaridan, mazmuni va mohiyatga ko’ra qanday ahamiyatga ega?
- 4.O’tmishning eng qadimgi zamonlarini o’rganishda tarixga qanday fanlar yordam beradi?
- 5.Vatan tuyg’usi - deganda nimani tushunasiz?
- 6.O’zingizni vatanparvar deb o’ylaysizmi?

Ushbu mavzuni o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ma’ruza darslari tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Ushbu mavzuni **“Tarozi” (Vesi)** texnologiyasi asosida tashkil etishni tavsiya etamiz:

“Tarozi” (Vesi) texnologiyasi o’tkazish tartibi

Mazkur texnologiya munozarali mavzularni o’rganishda qo’l keladi. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikriy tajribalarni rivojlantirishga yo’naltirilgan. Bu texnologiya dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o’z dalillarini yozma va og’zaki shaklda ishonchli va lo’nda ifodalashni shakllantiradi (biz og’zaki ifodalashni nazarda tutdik). O’z nuqtai nazarini himoya qiladi. Muxolifatlarni ishontiradi, munozara madaniyatiga o’rgatadi.

“Vesi” texnologiyasi o’quv materialini o’rganishning turli bosqichlarida qo’llanilishi mumkin. Ammo u o’tilgan materiallar bo’yicha xulosa qilish bosqichida yuqori samara va natija beradi, chunki, o’qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o’rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi. Bu texnologiya kichik guruhlarda va jamoalar orasida amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.

Asosiy tushunchalar:

Mavzu turli nuqtai nazarlarning to’qnashuviga imkoniyat beruvchi hamda ularning birontasiga ham imtiyoz bermaydigan tasdiqdir. Mavzu shunday tanlanishi kerakki, u o’rganilayotgan mavzuning barcha qarralarini ochishi, o’quvchilarning axborot qidirish hamda izlanuvchanlik faoliyatlarini rag’batlantirsin.

Argument – bu o’z nuqtai nazarini tasdiqlashga olib keluvchi asosli dalil, g’oya, mulohazadir. Dalillash aniq, mantiqli, asoslangan bo’lishi, faktlar, sharhlar, mulohazalar, isbotlar, misollar, manbalarga, havolalar bilan quvvatlangan bo’lishi kerak.

Kontrargument- (qarshi dalillash) – bu muholiflarning dalillarini rad etish bo’lib, u dalillashga qo’yiladigan talablarga mos kelishi kerak. To’g’ri tanlangan kontrargument

muholiflarning nuqtai nazarini zaiflashtirishi hamda o'zining himoya yoki rad etish chizig'ini mustahkamlashi lozim.

3-Mavzu: «O'zbekiston madaniyati tarixi»ga oid manba va bibliografik ko'rsatgichlar.

Reja:

1. "O'zbekiston tarixi va madaniyati" fani, uning vazifalari, davrlari, manbalari.
2. "O'zbekiston madaniyati tarixi»ga oid bibliografik ko'rsatgichlar.

Adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston tarixi va madaniyati. Tuzuvchilar: B.A.Axmedov., A.Ahmedov. T.: «O'qituvchi». 1992. 290b.
- 2.Hamidov H. XVI-XIX asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. Toshkent.O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. «Fan». 2009. 111b.
- 3.Mualliflar jamoasi. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: «O'qituvchi», 1980.
- 4.Nisoriy Hasanxoja. Muzakkiri ahhob (Do'stlar yodnomasi). Forschadan Ismoil Bekjon tarjimasi. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
- 5.Oydinov Norsaid. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. Toshkent: «O'qituvchi», 1997.
- 6.Kabirov M., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi.T., O'zbekiston, 1990.

Mamlakatimiz uzra esayotgan mustaqillik shamoli O'zbekiston fuqarolarining sobiq sovet davrida uzoq yillar davom etgan karaxtlik uyqusidan uyg'otib juda shiddat bilan o'zligini anglab olishlariga qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Ayniqsa, mustaqilligimizning keyingi 23 yili jamiyat a'zolari, xususan yoshlar shuuri va ongiga ijobiy va ijodiy ta'sir ko'rsatdiki, yoshlarning Vatanimiz tarixi va madanitiga qiziqishlarining ortishi buning yaqqol misolidir.

"O'zbekiston tarixi va madaniyati" fani dunyodagi eng qadimiy va boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqining qariyb uch ming yillik tarixiy va madaniyat taraqqiyotini o'rgatuvchi fandir. O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda yashab kelayotgan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga munosib xissa qo'shib kelmoqdalar.

O'zbek xalqi O'rta Osiyodagi barcha xalqlar qatorida doimo erkinlik, hurlik, ozodlik va mustaqillik uchun mustamlakachilar va yod kelgindilarga qarshi kurash olib borgan va shu jihatdan u o'zining inqilobiy an'analariga egadir.

"O'zbekiston tarixi va madaniyati" fanini o'rganishda uning davrlarini to'g'ri – ilmiy asoslash katta ahamiyat kasb etadi. Shu paytga qadar chop etilgan "O'zbekiston tarixi»ga oid barcha adabiyot yoki bosma asarlarda bu borada jiddiy xatoliklar va nuqsonlarga yo'l qo'yildi. Jumladan, ko'pchilik adabiyotlarda "O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi va uning ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy

oqibatlari” O‘zbekistonni kapitalizmni chetlab, sotsializmga o‘tishi”, “O‘zbekiston rivojlangan sotsializm davrida”, “KPSS XXV syezdi va O‘zbekiston SSRning yangi tarixiy g‘alabalari” kabi davrlarni ko‘ramiz.

O‘zbekistonning tarixiy taraqqiyotini ilmiy nuqtai nazardan davrlarga bo‘ladigan bo‘lsak, u quyidagi katta davrlarni o‘z ichiga oladi:

1.O‘zbekiston xududida ibtidoiy jamoa tuzumi davri.

2.O‘zbekiston xududida quldorlik tuzumi.

3.O‘zbekiston xududida feodal tuzum.

4.O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi.

5.O‘zbekiston 1917 yil fevral burjua demokratik va oktyar sotsialistik inqiloblari davrida.

6.O‘zbekiston sovet hokimiyati yillarida (1917 yil oktabr – 1991 yil).

“O‘zbekiston tarixi va madaniyati” fanini o‘rganishda uning manbalarini bilish g‘oyatda muhim. Bunday manbalar nimalardan iborat? Bu eng avvalo o‘tmish ota-bobolarimiz qoldirib ketgan va dunyodagi juda ko‘p xorijiy mamlakatlar, chunonchi, Hindiston, Xitoy, Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Angliya, Fransiya kabi davlatlarning hamda ittifoq va O‘zbekistonning kutubxona va arxivlarida saqlanayotgan boy qo‘lyozma asarlaridir.

Biz xalqimizning ana shu o‘tmish tarixini mustaqillik sharofati bilangina o‘rganishga kirishdik. Sobiq sovet davrida chet elga faqat qo‘lyozma izlab borgan olimlarimizning ilk qaldirg‘ochi Hamid Sulaymonov bo‘ldi. U Hindiston, Angliya va Fransiya borib bir necha bor safar qildi va nafaqat Navoiy, Hofiz Xorazimiy devonlarining, balki shuningdek, O‘rta Osiyo tarixiga oid talay qo‘lyozma asarlarining mikrofilm va foto nusxalarini olib keldi.

Respublika kutubxonalarida ham ko‘plab hali qo‘l urilmagan qo‘lyozma asarlar navbat kutib turibdi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi Sharqshunoslik instituti fondida xalqimizning boy o‘tmish me‘rosi bor. Ammo, eski o‘zbek tilida - arab alifbosida yozilgan, bu noyob asarlarni O‘zbekistonlik olimlarimiz ilmiy o‘rganib, tarjima qilib, undan xalqni baxramand qilishdek hayrli ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Ana shu qo‘lyozmalar orasida xon, amirlar saroyida yashagan salnomachilarning yozib qoldirgan asarlari qimmatlidir. Ular mazkur hukmdorlar yoki ularning keyingi vorislari hukmdorlik qilgan yillarda mamlakatda yuz bergan voqealarni yilma-yid, oyma-oy, hattoki kunma-kun yozib borganlar. Shuning uchun ham salnomachilar yaratgan asarlar hukmdorlarning nomi bilan atalgan: “Zafarnomai Temuriy”, “Shayboniynoma”, “Ubaydullanoma”, “Abdullanoma”, “Tarixi Xudoyorxon” va hakozi.

Ikkinchi va g‘oyat muhim manbalardan yana biri shoirlar, yozuvchilar, olim-u ulamolarning qoldirgan asarlari ham “O‘zbekiston tarixi va madaniyati” fani bo‘yicha axoyib ma’lumotlar beradi. Al-Xorazimiy, Axmad Farg‘oniy, Beruniy, Aba Ali Ibn Sino, Ulug‘bek, Ali Qushchi, Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiy, Furqat va boshqa allomalarning ijodlarida ular yashagan tarixiy va madaniy muhitga oid qimmatli fikr-xulosalar mavjud.

“O‘zbekiston tarixi va madaniyati” fani o‘rganishda tarixiy obidalar, arxeologik qazilmalar asosida topilgan nodir buyumlar, qadriyatlarimiz, O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi, san’ati, Turkiston harbiy okrugi va boshqa Respublikamiz muzeylarida muzeylarda saqlanayotgan ko‘rgazma jixozlar g‘oyat qimmatli bilim manbalaridir. Bu sohada Samarqand shahrida joylashgan O‘zbekiston Arxeologiya instituti ham foydali ishlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birgalikda tarixiy qadriyatlarimizga munosabat va uni ko‘z qorachig‘iday asrashda jiddiy nuqsonlarimiz va loqaydligimiz ham bor. Masalan, O‘zbekistonda agar 50-yillarda 30 000 ta tarixiy yodgorliklar bo‘lgan bo‘lsa, endilikda ulardan 7 000 ta qoldi xolos.


“O‘zbekiston tarixi va madaniyati” fanini o‘rganishda tarixshunos, sharqshunos, adabiyotshunos, madaniyatshunos va boshqa fan olimlari va muttaxislarning O‘zbekiston tarixi va madaniyatining u yoki bu davrida oid asarlari ham diqqatga sazovordir.

Turkiston va O‘zbekiston tarixi va madaniyatini yaratishda O‘rta Osiyolik va O‘zbekistonlik olimlardan Muhammad Narshahiy, Ahmad Donish, Qori Niyoziy Bo‘lat Soliyev, Musajon Saidjonov, Yaxyo G‘ulomov, Ibrohim Mo‘minov, O‘tkur Islomov, Axmadili Asqarov, Bo‘riboy Axmedov va boshqalar ham bu borada muayyan salmoqli ish olib bordilar.

- 1.“O‘zbekiston tarixi va madaniyati” fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat.
- 2.“O‘zbekiston tarixi va madaniyati” fanini o‘rganishga doir qanday yozma manblarni bilasiz?
- 3.Bu manbalarda qanda g‘oyalar ilgari surilgan?
- 4.“O‘zbekiston tarixi va madaniyati” fanini o‘rganish nima uchun zarur?
5. O‘zbekiston tarixi va madaniyatini yaratishda qaysi o‘zbek olimlari o‘zlarini munosab hissalarini qo‘shganlar.

Mavzusini o‘qitishda **“Klaster” metodidan** foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.


“Klaster” metodini o‘tkazish tartibi
«Klaster» metodi



Klaster tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

Topshiriq: Madaniyat so'zini klaster ko'rinishida ishlab chiqish



4-Mavzu: «O‘zbekiston xalqlarining Qadimgi va Ilk O‘rta asrlar davri madaniyati tarixi. (Miloddan avvalgi. VI asrdan - milodiy IV asrgacha)

Reja:

- 1.Eng qadimgi davr madaniyat tarixi.
- 2.Ilkl o‘rta asrlar madaniyat tarixi.

Adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O‘zbekiston”. 2011. 727b.
- 2.Asqarov A.A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T.: “Universitet”. 2007. 333b.
- 3.O‘zbekiston tarixi va madaniyati. Tuzuvchilar: **B.A.Axmedov., A.Ahmedov.** T.: “O‘qituvchi”. 1992. 290b.
- 4.Islomov O‘.I. Odamzodning paydo bo‘lishidagi ba’zi muammolar: Markaziy Osiyo hududi misolida // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. № 1-2. Toshkent. 2012. 25-30b.
- 5.Kabirov M., Sagdullayev A. O‘rta Osiyo arxeologiyasi.T., O‘zbekiston, 1990.
- 6.Pugachenkova G.A., Rempel L.M. Istoriya iskusstv Uzbekistana. M., 1974 g.
- 7.Raxmatullayev T. O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘qitishda arxeologiya materiallaridan foydalanish. T., O‘qituvchi, 1994.

«O‘zbekiston xalqlarining Qadimgi va ilk O‘rta asrlar davri madaniyati tarixi» mavzusini yoritish jarayonida o‘zbekistonlik arxeolog olimlar O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamiyatning yoshi bir million yildan ziyodroq ekanligini isbotlaganliklari ko‘rsatib o‘tiladi.

Bu borada **akademik O‘tkur Islomovning** el-yurt oldidagi xizmatlari cheksiz. Farg‘ona viloyatining So‘x tumanidagi **Selung‘ur g‘oridan** topilgan eng qadimgi odamning qoldiqlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Fanda «Farg‘ona odami» — «Fergantrop» deb nom olgan bu qazilma O‘zbekistonning insoniyat paydo bo‘lib rivojlangan o‘choqlaridan biri ekanligini uzil-kesil tasdiqlagani qayd etiladi. **Ilk paleolit**, ya’ni, qadimgi tosh davriga oid bunday makonlar Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinidagi **Ko‘lbuloq mavzeidan**, shuningdek, **Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron) manzilgohlaridan** topilganligiga e’tibor qaratiladi.

Bu davr ibtidoiy odamlari tabiatda mavjud bo‘lgan tayyor mahsulotlarni o‘zlashtirib yashaganlar. Ular hayvonot olamidan farq qilib, mehnat qurollarini yasay olishlari bilan farq qilganliklari arxeolog olim O‘tkur Islomov tomonidan isbotlangan. Shu sababli ham akademik O‘tkur Islomovni olimlar orasida **“Farg‘ona odami”ning otasi** deb bejizga aytmaydilar.

O‘rta paleolit (Mustye) madaniyatiga oid dastlabki yodgoplik **Surxondaryo vohasining Boysun tog‘idagi Teshiktosh g‘oridir**. Bu davr odami **neandertal** nomi bilan fanga kirgan.

Teshiktoshdagi g‘ordan topilgan neandertal odam (9 yashar bolaga tegishli)ning suyak qoldiqlari fan olamida jiddiy kashfiyot bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda neandertal zamondoshlari yashagan makonlar O'zbekistonning **Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi Xo'jakent, Obirahmat, Angren yaqinidagi Ko'lbuloqning yuqori qatlami, Samarkand yaqinidagi Omonqo'ton, Takalisoy, Zarafshon vodiysidagi Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Uchtut va Ijond manzillarida** topilgan va tadqiq qilingan.

So'nggi paleolit (miloddan avvalgi 40-12 ming yillik) davriga kelib odamlarning hayoti va turmushida turli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Zamonaviy qiyofadagi odam (**kromonyon**) shakllandi. U ongli, idrokli odam - **xomosapens** deb ataladi. Ularda dastlabki diniy e'tiqodlar paydo bo'lganligini tog' g'orlarida chekilgan so'nggi paleolit davriga doir tasvirlar isbot etadi. Zotan, tasviriy va amaliy san'atning ibtidosi ham o'sha davrdan boshlanadi. O'zbekiston xududida bunday rasmlar **mezolit** davrida kashf etilgan.

Olimlarning aksariyati O'rta Osiyodagi so'nggi paleolit davrini asosan uchta - **Samarqand, Xo'jag'or (Farg'ona vodiysi) va Ko'lbuloq (Angren yaqinida) madaniyatlariga** ajratadilap.

O'zbekiston olimlari **o'rta tosh asri - mezolit davriga** oid 100 dan ko'proq yodgorliklarni o'rganganlar. **Obishir** (Farg'ona vodiysi), **Qo'shilish** (Toshkent), **Machay** (Surxondaryo) makonlari shular jumlasiga kiradi.

Bu davrda O'zbekiston xududida ungurlar devoriga, qoyalarga chizilgan yoki rangli buyoqlar bilan tasvirlangan ibtidoiy san'at paydo bo'ldi. Shu o'rinda o'qituvchi ajdodlarimiz tarixining eng qadimgi davrlarida tasviriy ifodalar beqiyos ahamiyat kasb etishi ustida to'xtaladi. Chunonchi, eng qadimgi odamlar bir-birlarga fikrlarini, munosabatlarini, istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, sodda tasvirlar orqali yegkazishga intilganlar. Masalan, ular ov qurollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali o'sha xayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar.

Hozirgi O'zbekiston xududida xam shunday ibtidoiy jamoa davriga mansub tasvirlar qoldiklari topilgan bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Bularning eng nodir namunalari **Surxondaryo viloyatidagi Zaravutsoy, Jizzax viloyatidagi Takatosh, Zarafshon etaklaridagi Sarmishsoy qoya tasvirlaridir.**

Qoyatosh rasmlari ishlash usuliga ko'ra **ikki xildir**. Bir xillari **bo'yoq (oxra)** bilan, ikkinchi xillari esa **urib-o'yib ishqalash-chizish** bilan ishlangan. Bunday rasmlar keng tarqalgan.

Shulardan biri - **Zarautsoy g'orida** qizil bo'yoq bilan tasvirlangan ov manzarasining kattalashtirilgan rasmi o'qituvchi tomonidan ko'rsatilib, atroflicha sharxlab berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zarautsoy so'zi **zar - oltin, ut - olov**, ya'ni «**Oltin olov darasi**» degan ma'noni bildiradi. Unda ov manzarasidagi turli rasmlarni kuzatish qadimgi odamlarniig hayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilishga yordam berishi, ibtidoiy odamlar hayotida ovchilik asosiy mashg'ulot turi bo'lganligi sababli ibtidoiy tasvirlarda ov manzarasi keng o'rin egallaganligi ko'rsatiladi. Umuman, qoyatosh, daralar va g'orlardagi rasmlar mazmunan boy bo'lishi bilan birga, xilma-xil ekanligi, bu rasmlarda har bir belgi, qoralama va shakl o'ziga xos fikrni, hatto sehu- jodularni ifodalab berishi bois ajdodlarimiz hayotida, turmush tarzida tasviriy san'at alohida o'rin tutganligi uqtirib o'tiladi.

Neolit davri (miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklar) O'rta Osiyo tarixida odamlarni o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalik, dehonchilik, chorvachilik, hunarmandchilikka o'tish davri bo'lib, bu davr xo'jalik shakllariga ko'ra **Joytun (Janubiy Turkmaniston), Kaltaminor (Xorazm) va Xisor (Xisor-Pomir) tog'lari madaniyatiga bo'linadi.** Bu davrda ypyg' jamoasi o'troq hayotga o'tib, tosh qurollar yasashning yangi usullarini ixtiro qilganlar. O'qituvchi ushbu davr madaniyati haqidagi suhbat davomida neolit davrining **eng buyuk kashfiyotlaridan biri kulolchilik** bo'lganligiga e'tiborni qaratadi.

Neolit davrida tuxumsimon qilib ishlangan dastlabki idishlardan ovqat pishirishda, saqlashda foydalanilgan. Bu idishlar avval oftobda quritilib, so'ng gulxanda pishiriltan. Dastlab qo'lda tagi yumaloq, turli chiziqli bosma va o'yma naqshlar solingan sopol idishlar yasash bilan ayollar shug'ullangan. Bu etnografik taqqoslash va neolit idishlaridagi barmoq izlari **daktiloskopiya** usuli bilan o'rganilib isbot qilingan, keyinchalik charxdan foydalanila boshlangach, ularni erkaklar yasagan.

Xorazm xududidagi ushbu davrga oid ovchi va baliqchilarnint qadimgi yodgorligi **Kaltaminor** madaniyatidir. Mazkur madaniyatga xos naqshlar sopol idishlarda aks etgan bo'lib, ular juda oddiy boshq, siniq, chiziq, yuqoridan pastga va gorizontal o'tkazilgan to'g'ri chiziqlar va ayrim geometrik shakllardan iborat. Zarafshon etaklaridagi Darvozaqir manzili ushbu madaniyatga mansub yodgorlik hisoblanadi.

Miloddan avvalgi 4-3 ming yillikda tosh davri tugab, eneolit (mis-tosh) davri boshlanadi.

O'qituvchi bu davrning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirar ekan, talabalar diqqatini eneolit davriga doir quyidagi tarixiy-madaniy jarayonlarga jalb etadi:

1.Xo'jalikning boshqa xamma turlariga qaraganda sug'orma deyhqonchilik qilishi.

2.Xom g'ishtdan, paxsadan katta jamoalarning ko'p xonali uylarini qurish.

3. Rangdor sopol buyumlar, ya'ni hayvon, qush, o'simlik shaklidagi naqshlar bilan bezatilgan idishlarning mavjudligi.

4.Turli hayvonlarning loydan yasalgan va matriarxatga xos xaykallari.

5.Kulolchilikda xumdonlarning ishlatilishi.

6. Tosh qurollar bilan birga mis qurollarning paydo bo'lishi.

Bu davrga oid eng muhim yodgorliklar Buxoro voxasidagi Lavlakon, Beshbuloq makonlari, Zamonbobo qabristonining eng pastki qatlamlari xamda Panjakent yaqinidagi Sarazm qishlog'i xarobasi hisoblanadi.

Bronza davri O'zbekiston yerlarida miloddan avvalgi 3 ming yillik oxiri – 2 ming yilliklarga to'g'ri keladi.

Bronza asri boshlanishi bilan ibtidoiy kishilarning xo'jalik faoliyati va ijtimoiy tuzumida tubdan o'zgarishlar yuz berib, madaniyat nisbatan yuqori pog'onaga ko'tarildi. Bu davrning muhim xususiyati shundan iboratki, mehnat qurollari mehnat unumdorligini oshirishi natijasida ortiqcha mahsulot naydo bo'ldi. Bu hol chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishiga olib keldi va birinchi mehnat taqsimoti ro'y berdi. Shuningdek, urug'ni yetarli mahsulotlar bilan ta'minlash erkaklar qo'liga o'tib, patriarxat boshlandi. G'ildirak ixtiro qilinib, hayvonlarga qo'shilgan aravalar vujudga keldi h,amda qo'l tegirmoni (yorg'uchoq), kulolchilik charxi, charxpalak kashf qilindi.

Bronza davriga mansub yodgorliklar Xorazmdagi Tozabog'yob, Amirobod, Surxondaryoning Sopolli, Buxoro viloyati xududidagi Zamonbobo, Farg'ona vodiysidagi **Chust madaniyati** nomlari bilan mashhurdir.

Tozabog'yob madaniyati o'yma naqshlar berilgan, yassi tubli sopol idishlarning bo'lishi, ishlab chiqarish texnikasining oddiyligi, jez metallurgiyasining yaxshi rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Qo'lda yasali, qora va to'q, kul rangga bo'yalgan hamda og'zi to'g'ri va tagi yassi holda boshoqsimon naqsh berib ishlangan sopol idishlar **Amirobod madaniyatiga** xosdir.

O'zbekistondagi bronza davri dehqonchilik madaniyatiga doir yirik yodgorlik bo'lmish Surxondaryo viloyatining Sherobod cho'lida joylashgan Sopollitepa haqida alohida to'xtalib o'tish lozim.

Dastlab shuni ta'kidlash kerakki, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rcha Osiyo xo'jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon O'zbekistonning janubida bronza davrida, Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysi xududlarida esa ilk temir davrida shakllanib rivojlangan. O'lkamizda ilk davlat uyushmalari aynan sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo oqimlari bo'yida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlandi.

Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga kelib, O'rta Osiyoda sodir bo'lgan iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari bu xududlarda ilk shahar madaniyatining shakllanishiga imkon yaratdi.

Sopollitepani o'rganish O'zbekiston xududida sug'orma dehqonchilik va ilk shaharsozlik madaniyati bundan qariyb to'rt ming yil oldin vujudga kelganligini ko'rsatadi. U yerdan topilgan ashyolar aholining o'sha davrdagi xunarmandchiligi, turmushi, san'ati haqida boy material berganligi qayd etib o'tiladi. Jumladan, Sopollitepa aholisi dehqonchilik qatori chorvachilik va ovchilik bilan xam shug'ullangan. Topilmalar bu yerda xunarmandchilik, xususan, metallurgiya (mehnat va mudofaa qurollari, idishlar, bezak va ko'zgu), to'qimachilik (ip va ipakdan to'qilgan mato qoldiqlari), yog'ochsozlik (qurilish konstruksiyalari, uy jihozlari), kulolchilik (20 dan ziyod kulolchilik xumdonlari o'rganilib, yuqori sifatli nafis idishlar: qadah, ko'za, xum, choynak, piyola, kosa, lagan va x.k.) keng rivojlanganligidan dalolat beradi.


Sopollitepaning markaziy kal'a qismi mudofaa qoidalariga amal qilib) qurilgan. U uch qator qalin devorlar bilan o'rab olingan. Qal'aning ichki qismida 150 dan ortiq uy-joy binolar qoldiqlarining ochilishi ilk shahar tipidagi qadimgi tarixiy qishloqning topografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Zamonbobiliklarning turar joylaridan juda ko'p miqdordagi sopol buyumlar, tuxumsimon va xumchasimon shakldagi idishlar, to'rtburchakli suvdonlar va tovoqchalar chiqqan. Sopol idishlar, asosan, qo'lda ishlangan, onda-sonda kulolchilik charxida ishlangan idishlar xam uchraydi. Idishlarning deyarli xammasi yupqa, jarangdor bo'lib, ba'zi hollarda ularga qizil bo'yoqlar berilgan.

Xo'jaligi shunga o'xshash bo'lgan moddiy madaniyat yodgorliklari Namangan viloyatidagi qadimgi Chust qishlog'ida xam topilgan. Ular orasida labi bukilgan turli shakldagi sopol tovoqlar, piyolalar, shuningdek, xilma-xil xurmachasimon idishlar, qo'lda yasalgan guldor sopol qozon va tovoqlar uchraydi. Uy ziynati sanalgan idishlarga qizil buyoq, berilgan va sayqallangan. Ko'pincha shoxchalar,

uchburchaklar, romblar, tasmachalar ko‘rinishida qora chiziqlar va boshqa to‘rsimon shakllar tushirilgan. Bu xol shu guruxga mansub yodgorliklarni alohida arxeologik madaniyatga ajratish uchun imkon beradi.

1. Ibtidoiy tasviriy san’at qachon va qay tariqa vujudga kelgan hamda u ibtidoiy odam xayotida qanday rol o‘ynagan?
2. Ibtidoiy jamoa davriga mansub tasviriy yodgorliklar O‘zbekistonning qaysi yerlaridan topilgan?
3. Eng qadimgi diniy e’tiqodning vujudga kelish sabablari va uning tosh asri odami uchun ahamiyatini tushuntirish.
4. Neolit davri odamlarining eng muhim ixtirosi nima?
5. Neolit davridagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar iimadan iborat?
6. Bronza davridagi odamlarning ijtimoiy tuzumida qanday o‘zgarishlar asosida madaniyat nisbatan yuqori pog‘ognaga ko‘tarilgan?



- **CH.Darvin “Odamning kelib chiqishi va ularning tanlanishi” (1871) asarida odamni quyidan-yuqoriga oddiylikdan-murakkablikka qarab og‘ir mexnat qilish natijasida oxirgi qiyofaga kirgan, deb hosiblagan.**




BOYSEY AVSTROLOPITEKI –

Ilk bora Janubiy Afrika g'orlaridan topilgan. Toshidan mehnat qurollari yasashni bilishmagan



Ishbilarmon odam (Homo habilis)-

Ilk bora 1962 yilda Tanzaniyaning Olduvoy g'oridan topilgan. Miya hajmi 642 sm³. Boshqa topilmalarda 500-800 sm³ kuzatilgan



Vrach E.Dyubua


Yava orolidan Pitekantrop odam suyak qoldiqlarini topgan.

E. Dyubua bu suyak qoldiq-larini dastlabki odam deb tarif berib Pitekantrop nomini bergan. Hozirda maymunsimon odamlarni arxantrop deb ataydilar.

“Homo erectus”-tik yuruvchi odam. Arxantropalar butun ko’hna dunyoga tarqalgan. Ular 1,5-0,5 mln. yillar muqaddam yer yuzining egalari bo’lgan.



PITEKANTROP




Aksariyat olimlarning fikricha odamning shakllanishi yuqoridagi kabi rivojlanish yo'lini bosib o'tgan.

Odam paydo bo'lishining biologik evolyutsiyasi kromanonlar bilan o'z yakunini topdi.




Mavzuni o'qitishda «Nima uchun» texnologiyasidan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING QO'LLANILISHI:
«Nima uchun» texnologiyasi



«Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari

1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
 2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chizikli emasligini o'zingiz tanlaysiz.
 3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.
- Topshiriq: Irqlarning kelib chiqishi va shakllanishi muammosi.



5-Mavzu: «O‘zbekiston madaniyati tarixi»ga oid o‘rta asrlar davri madaniyati. (Milodiy V – IX asrgacha)

Reja:

- 1.«O‘zbekiston xalqlari madaniyati tarixi»ga oid o‘rta asrlar davri madaniyati.
- 2.«O‘rta asrlar o‘zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot»
- 3.Qadimgi xalqlar madaniy darajasining rivojlanishida qadimgi yozuvlarning ahamiyati.

Adabiyotlar:

- 1.Meros (to‘plam)T., Kamalak, 1991.
- 2.Murodov A. O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. T., Fan, 1993.
- 3.«Mustaqillik» (izohli ilmiy-ommabop lug‘at). T., Sharq, 2000.
- 4.Muxamadjonov A. O‘zbekiston tarixi. (7-sinf uchun darslik). T., O‘qituvchi, 1999.
- 5.Xo‘jamov M., R.Mulladjanova., M.Lapasov. Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm.T., Mumtoz so‘z, 2014.
- 6.Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. T., O‘qituvchi, 1997.

«O‘zbekiston xalqlari madaniyati tarixi»ga oid o‘rta asrlar davri madaniyati” mavzusini o‘tishda dastlab o‘lkamiz hududida shaharsozlik madaniyatining shakllanishi xususida so‘z yuritiladi.

Bronza davrida aholining o‘trok, dehqonchilikka o‘tishi va keng vohalar bo‘ylab yoyilishi, hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan bog‘liq, iqtisodiy va madaniy aloqalar, savdo-sotiqning taraqqiy etishi hamda tabiiy-geografik va harbiy-strategik shart-sharoitlar natijasi o‘laroq, mustahkam manzilgohlar o‘rni va atroflarida (masalan, Sopollitepa, Afrosiyob, Jarqo‘ton, Nomozgoh, Qiziltepa, Yerqo‘rg‘on, Uzunqir) dastlabki shahar madaniyati shakllanib rivojlanganligi haqida xulosa chiqariladi.

Ilk shaharlar paydo bo‘lishi esa dastlabki davlatchilik shakllanishida eng muhim va asosiy omil bo‘lib, bu ikkala jarayon uzviy holda kelganligiga talabalar diqqati qaratiladi.

O'zbekiston xududidagi dastlabki davlat uyushmalari haqidagi yozma manbalar zardushtiylilikning muqaddas diniy kitobi «Avesto», ahamoniylar davri mixxat yozuvlari, yunon-rim tarixchilarining asarlari hisoblanadi.

«Avesto»da O'rta Osiyo, Ozarboyjon va Eron hududlarida yashagan xalqlarning qadimgi davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam haqidagi tasavvurlari, urf-odatlar, manaviy madaniyati o'z aksini topgan. Dastlab «Avesto» 21 ta kitobdan iborat bo'lgan. Bizgacha «Avesto»ning Yasna («Qurbonlik keltirish»), Visprat («Xamma hukmronlar»), Yasht («Qadrlash»), Videvat («Devlarga qarshi qonun») qismlari saqlanib qolgan.

«Avesto» O'rta Osiyoda miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda harbiy - demokratik tuzilishga ega bo'lgan davlatlar, xususan, Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya davlatlari haqida ma'lumot beradi.

Umuman, «Avesto» qadim o'lkamizda buyuk davlat, buyuk ma'naviyat va madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy manba ekanligi, uning 2700 yilligi 2001 yili mamlakagimizda keng nishonlantirilgiga ypg'y berib o'tish lozim.

O'rta Osiyoning katta qismi (Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasidan tashqari) miloddan avvalgi VI—IV asrlarda Eron ahamoniylari tasarrufida bo'ldi. Ahamoniylar davlati sarhadlari Misrdan to Shimoli-G'arbiy Hindistongacha cho'zilib, turli xalqlar va elatlarni bosib olib birlashtirish yo'li bilan tashkil topgan edi. O'rta Osiyo xalqlari ahamoniylarning madaniy yodgorliklarini bunyod etishda muhim xissa qo'shganlar. Bu davr san'ati ayrim xususiyatlarining ma'lum qismini mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan mashhur Amudaryo xazinasidagi buyumlar ochib beradi. Misol tariqasida O'zbekistonning 100 so'mlik milliy so'mida aks etgan taqinchoq tasvirini ko'rsatish mumkin. Shu davrdagi Naqshi Rostam, Behistun tasvir yozuvlarinish paydo bo'lishi xam Eron va O'rta Osiyo xalqlari san'ati bilan bog'lik namunalarning vujudga kelishiga sababchi bo'lgan. Mazkur davrda o'lkamiz aholisi ilk marta zarb qilingan tanga pullar bilan tanishdilar va muomala qildilar. Miloddan avvalgi 329 yilda makedoniyalik Iskandar boshchiligida Yunon-Makedon qo'shinlari yurtimizga bostirib keladi. U faqat miloddan avvalgi 327 yildagina og'ir janglardan keyin Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona va boshqa hududlarni egallay oldi.

O'rta Osiyo xalqlari bosqinchilarga qarshi uch yil davomida mardonavor kurash olib bordilar. Ular yunonlar o'ylaganidek, «varvarlar» va madaniyatdan orqada qolgan emas, balki o'z davrining yuksak harbiy san'ati va madaniyatiga ega ekanliklarini namoyish etdilar. Shu bilan birga, O'rta Osiyo janubiy viloyatlarining ellinistik davlatlar tarkibiga kirishi o'sha davrda bu xududlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muxim o'zgarishlarga olib keldi.

Bu yerga Ellin (Ellada) madaniyati kirib keldi. Bu o'zgarishlar shaxarsozlik, me'morchilik va amaliy san'atda o'z ifodasini topdi. Yunon yozuvi tarqaladi. Ayniqsa, miloddan avvalgi 250 yilda O'rga Osiyoning katta qismida mustaqil Yunon-Baqtriya podsholigining vujudga kelishi bu jarayonni kuchaytirdi. Natijada mahalliy va yunon madaniyatlari an'analari o'zaro omuxta bo'la bordi. Arxeologik topilma yodgorliklar bu ma'lumotlarni tasdiqlamoqda.

O'qituvchi mahalliy ustalar va rassomlar yasagan kulolchilik buyumlarida, tanga va taqinchoqlarda, turli ko'rinishdagi haykallarda xam ellinistik an'analari alomatlari mavjuddigini ta'kidlaydi. So'ngra miloddan avvalgi III asrdan — milodniy IV

asrlarigacha O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan Qang', Farg'ona (Davon), Kushon davlatlarining tashkil topishini va rivojlanishini bayon qilar ekan, Kushonlar saltanati mamlakatimiz davlatchiligi tarixida yangi davr ekanligiga alohida urg'u beradi.]Milodning boshlarida O'rta Osiyo qudratli Kushon imperiyasi tarkibiga kiradi. Kanishka (78 - 123 yillar) xukmronlik qilgan davrda Kushon qudratli davlatga aylanib, Rim, Xitoy kabi buyuk davlatlar bilan bir qatorda turadi. Kushonlar podsholigida xo'jalik, savdo va xunarmandchilikning rivojlanishi, sug'orish inshootlarining kengayishi xaqida to'xtalib o'tilgach, uning xalqaro savdo aloqalari xarakteriga talabalar diqqatini tortish maqsadida quyidagi masala ustida fikr yuritish taklif qilinadi: «Arxeologik qazilmalar natijasida olimlar Hindiston, Xitoy, Rim imperiyasida tayyorlangan xar xil buyumlar, boshqa mamlakatda zarb qilingan tanga pullar topganlar. Bu tonilmalarga asoslanib qanday xulosa chiqrish mumkii?»

Ularning xulosalari tinglangach, kushonlar davrida xo'jalikning rivojlanishi xaqidagi masalani yakunlab, Buyuk Ipak yulining sharqiy qismi kushonlar qo'lida bo'lganligi, bu esa tashqi savdoning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi qayd etiladi.

Talabalar iqtisodiy sohadaga rivojlanish madaniy hayotning xam gullab-yashnashiga olib kelganligini tushunib olishlari kerak. Avvalo, kushonlar davridagi din masalasini yoritishga o'tib, Kushon davlati xukm surgan I—IV asrlarda o'lkamizda zardushtiylik dini bilan bir qatorda, budda dini xam xududimiz janubida tarqalganligi aytiladi. Budda ibodatxonalari va u bilan bog'liq san'at asarlari namunalari **Surxondaryoning Ko'xna Termiz, Dalvarzintepa, Xolchayon, Ayritom, Zartepa, Fayoztepa, Qoratepa, Kampirtepa kabi yodgorliklaridan** topilgan. Bu davrga mansub ko'pgina yodgorliklar Xorazmda xam (Tuproqqal'a, Govurqal'a, Ayoqzal'a, Anqaql'a) topilib, tadqiq qilingan. Shuni ta'kidlash joizki, O'rta Osiyoning asosiy xududlarida zardushtiylik va buddaviylik ustunlik qilishiga qaramasdan, ular bilan bir qatorda yunon dinlari, moniylik ham yoyilgan edi.

Kanishka tomonidan o'sha davrda barcha dinlarga erkinlik berilishi bilan birga, buddizmga keng ko'lamda xomiylik qilingan.

Kushon madaniyati to'g'risida talabalarda to'liq tasavvur hosil bo'lishi uchun yuqorida zikr qilingan yodgorliklardan topilgan tasviriy san'at namunalari ayrimlarini olimlarimiz tomonidan nashr etilgan kitoblardagi rasmlardan foydalanib, sharxlab tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, yurtimiz qadimgi haykaltaroshligining ajoyib namunalaridan biri Termiz yaqinidagi Ayritomdan topilgan piramon, ya'ni ibodatxonaning yuqori qismiga yopishtirilgan xaykal xoshiyasi xisoblanadi. U mahalliy oxakgoshdan yasalgan bo'lib, unda qo'shnay, arfa, ud, xind nog'orasini chalayotgan uch ayol sozanda, qo'llarida gulchambar, meva va idishlar ko'garib kslayoggan qiz-yigitlarning tasviri ishlangan. Xalqimizning qadimgi zamonlardagi san'ati namunasi sifatida Xolchayon to'g'risida qisqacha gapirib o'tish mumkin. Denov shahri yaqinidagi Xolchayonda ochilgan saroy xaykal va devoriy rasmlar bilan bezatilgan.

U yerdan haykaltaroshlik san'atidagi barcha talab va qonuniyatlarga javob bera oladigan darajada ishlangai bir turkum haykallar topilgan. Bu yerdagi xaykallar diniy mazmunga ega bo'lishi bilan birga, ularda dunyoviy tasvirlar xam bor. Chunonchi, xarbiy kishining bosh qiyofasi tasvirlangan xaykalni olaylik. Bu xaykalda bosh

skeletining tuzilishi, yuz kiyofasidagi peshona, burun, koʻz, lab kabi aʼzolarining shakllari meyoriga yetkazilgan xolda katta mahorat bilan ishlanganligi yaqqol koʻzga tashlanadi.

Devoriy tasvir va haykaltaroshlik namunalarida uzoq tarix qvridagi bobokalonlarimiz eʼtiqodi, dini, mehnat va hayot tarzi aks etadi.

Odamlar dunyoqarashining rang-barang ifodasi namoyon boʻlgan, inson bosh qismining barcha anatomik tuzilishlariga toʻliq javob bera oladigan bunday sanʼat asarlari sirasiga Fayoztepa va Kampirtepadan topilgan Budda, Dalvarzintepadagi boshiga toj kiygan Kushon shahzodasi, Devvoto boshi kabi haykal namunalarini kiritish mumkin.

Shu oʻrinda talabalarga shunday savol beriladi: arxeologik qazilmalar natijasida topilgan haykallar, devoriy rasmlar oʻsha xalqlarning diniy eʼtiqoddidan tashqari yana nimalar haqida maʼlumot beradi? Talabalarning javoblari umumlashtirilib, Oʻrta Osiyo xalqlarining Kushonlar podsholari davridagi sanʼati yuksak boʻlgan, degan xulosaga olib kelinadi va uning eng muhim xususiyatlaridan biri haykaltaroshlik va rangtasviriing meʼmorchilik bilan uygʻunlashuvida namoyon boʻlganligi qayd etiladi.

Sanʼat asarlari bunday mukammal boʻlganligini Xorazm davlatining milodning 305 yiligacha poytaxti boʻlgan Tuproqqala yodgorligi misolida ham gapirib berish lozim. Tuproqqalning asosiy boyligi unda ochilgan devoriy rasmlar va haykallardir. Rassomlar rang-barang boʻyoqlardan foydalanib, ssrmazmun rasmlar chizgan boʻlishsa, xaykaltaroshlar odamlar va haykallarning jonli tasvirlarini yaratganlar. Haykallar asosan loydan, qisman ganchdan tayyorlangan. Katta haykallar, barelyeflar qurilish arxitekturasi bilan uygʻunlashtirilgan, devor rasmlari bilan hamohang mazmunga ega. Haykallarning umumiy soni 138 ta.

Qadimgi xalklar madaniy darajasini koʻrsatuvchi belgilardan biri yozuv hisoblanishi, arxeologik qazilmalar tufayli turli yozuv namunalari mamlakatimiz xududida topilayotganligi qayd qilib oʻtiladi. Bular Oromiy, Xorazm, Soʻgʻd, Kushon-Baqtriya, Kxaroshtxi, Yunon yozuvlaridir.

Eng kdsimgi yozuv miloddan avvalgi IV—III asrlarga tegishli boʻlib, u Amudaryo xazinasi buyumlaridan boʻlgan gemma (muxr)da bitilgan oromiy yozuvidir. Oromiy yozuvi asosida Soʻgʻd, Xorazm yozuvlari vujudga kelgan va rivojlangan. Teri va taxtaga bitilgan xorazmiylar yozuvi namunasi ilk bor Tuproqqalʼadan, hind alifbosiga asoslangan kxaroshtxi yozuvi koʻxna Termizdan topilgan. 22 harfdan iborat Yunon-Baqtriya yozuvining namunalari Qoratepa, koʻxna Termiz va Ayritomdan topilib, bunda xarflar burchakli, toʻrtburchakli va aylana shaklda boʻlgan.

Oʻqituvchi yozuvlar haqidagi hikoyasini tugatib, uning turlichaligi Oʻrta Osiyo xalqlari tillarining xilma-xilligi nishonasi ekanligini uqtirib oʻtadi. Shundan soʻng Buyuk ipak yoʻliniig tiklanishi va rivojlanish bosqichlari bilan tanishtiriladi. Sharq va Gʻarb xalqlari oʻrtasida tarixiy-madaniy aloqalar va savdo munosabatlari taraqqiyotida Buyuk ipak yoʻli muhim oʻrin tutdi. Miloddan avvalgi II asrda vujudga kelib, 16 asrgacha harakatda boʻlgan bu yoʻl 12 ming km boʻlib, Xitoydan Oʻrta Yer dengizining shimoliy qirgʻoqlariga qadar choʻzilgan. Buyuk ipak yoʻli tashkil topmasdan oldin Oʻrta osiyo va qadimgi sharq hududida savdo va madaniy ayirboshlash uchun turli-tuman yoʻllar boʻlgan.

Eron ahamoniylar saltanati davrida uning hududi bo'ylab "Shoh yo'li" o'tgan. Undan ham ilgariroq O'rta va yaqin Sharqda Badaxshon lojuvardi "la'l-tosh"ga bo'lgan ehtiyojining ortishi natijasida "Lojuvard yo'li" paydo bo'lgan.

Xitoydan O'rta Osiyoga olib keluvchi yo'lining birinchi kashfiyotchisi xan imperiyasining elchisi Chjan Syan edi.

Bu yo'l fanga "Ipak yo'li" nomi bilan 1877 yilda nemis olimi Rixdgofen tomonidan kiritilgan. Ilgari u "G'arbiy meridional yo'l" deb atalgan. Bu yo'lining tarixiy rivojlanishi bir tekisda ketmagan. Masalan, mo'g'ullar istilosi davrida harakatdan to'xtagach, bu yo'lni Amir Temur qayta tiklagan.

16 asrga kelib Buyuk geografik kashfiyotlar davrida asosiy savdo yo'llari dengizga ko'chganidan so'ng Buyuk ipak yo'lining mavqei pasayib, bu yo'l bo'ylab harakat to'xtadi.

Buyuk ipak yo'lining ahamiyati haqida gapirganda uning faqatgina Xitoyni O'rta Osiyo orqali Sharqiy O'rta yer dengizi mamlakatlari bilan bog'langanligi hamda undan noyob va qimmatbaho mollar olib o'tilganligi bilan cheklanmaslik lozim. Bu yo'l xalqlarni va ular madaniyatini o'zaro bog'lagan, ularning bir – birlariga yaqinlashuviga imkon yaratgan.

O'zbekiston hududi Buyuk ipak yo'lining chorrahasida turadi. Bu yo'l tufayli O'rta Osiyo xalqlari Sharq va G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyati bilan oshno bo'lishi barobarida G'arb mamlakati xalqlari ham bizlarning ilg'or madaniyatimizni o'zlari uchun kashf qildilar. Shu sababli Buyuk ipak yo'lining tarixini va madaniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqish keyingi yillarda butun dunyo miqyosida keng avj oldi. 1987 yilda YUNESKO "Buyuk ipak yo'li – muloqot yo'li" dasturini qabul qildi.

1998 yili Boku shahrida bu yo'lni Yevropadan Yaponiyagacha qaytib tiklash masalalariga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. TRASEKA deb nom olgan bu qurilishda O'zbekiston faol ishtirok etmoqda.

Mavzuning mazmunini yoritishda Eftaliylar davlati, Turk xokonligi, Arab xalifaligining tashkil topishi, rivojlanishi hamda yurtimizning arablar tomonidan istilo qilinishiga bag'ishlangan masalalarga ham e'tibor qaratish zarur. Eftaliylar davri madaniyatiga oid savolni o'rganish davomida O'zbekiston xalqlarining V-VI asrlardagi hayoti, moddiy madaniyat va san'atda oldin o'tgan davr bilan uzviylik saqlanib qolganligini ko'rsatish zarur.

Madaniyat xaqidagi savolni yoritish o'rganilayotgan davrning yozuvi bilan tanishtirishdan boshlanadi. Shu narsa ta'kidlanadiki, bu davrda Xorazm, So'g'd hamda Baqtriya yozuvi asosida paydo bo'lgan 25 harfdan iborat eftallar yozuvi tarqalgan edi.

Malumki, eftallar siyosiy jihatdan ko'p xalqlarni birlashtirganligi sababli turli e'tiqoddadagi aholi yonma-yon yashagan. Zardushtiylik va budda (shomon) kabi dinlarga e'tiqod qiluvchilar bilan birga, shaharlarda nestorian-xristian va yahudiy jamoalari ham mavjud bo'lgan. Ayrim viloyatlarda esa Moniy va Mazdak talimotlari tarqala boshlagan edi.

Bu davrda ko'chmanchilarning tazyiqi ostida o'troq xayotning madaniy an'analari dasht udumlari bilan omuxtalashib, ilk o'rta asrlarga xos madaniyat shakllana boshladi. Bu o'zgarishlar binokorlik, me'morchilik va tasviriy san'atning ayrim

jabhalarida ko'proq namoyon bo'ldi. Ushbu davrda o'lkamizning dehqonchilik vohalarida baland tagkursi ustiga bino qilingan ko'plab istehkomli qasrlar va feodal qo'rg'onlari qad ko'tardi.

V-VI asrlarda diniy e'tiqod va tasavvurlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan tasviriy san'at - koroplastika -ma'budalarning sopol haykalchalarini yasash keng yoyildi. Bu davrga oid sopol haykalchalar juda ko'pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Eftaliylar davri tarixiga oid moddiy madaniyat yodgorliklari **Buxoro viloyatidagi Poykand, Varaxsha shahar xarobalaridan, Surxondaryo viloyatining Angor tumanida joylashgan Bolaliktepa ko'rg'onidan, Xorazmning qadimiy Kat (Beruniy yaqinida) shahridagi Fir- qal'adan topilgan.**

Shuni ta'kidlash joizki, VI-VII asrlarda O'zbekiston xududida tasviriy san'at yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Bularning namunalaridan biri sifatida Bolaliktepa va Varaxsha rang-tasvir san'ati haqida o'uzlab o'tish o'rinli. Bolaliktepa yodgorligidan topilgan xashamatli saroyga o'xshash bino devorlarining ttrtala tomoni xam turli ko'rinishdagi rangdor tasvirlar bilan to'ldirilgan bo'lib, odamlarning o'tirgan xolatdagi ko'rinishlari aks ettirilgan. Gilamchalarga o'xshash to'shamalar ustida sharqona tiz cho'kib, chordona qurib, yonboshlagan holda juft-juft bo'lib o'tirgan erkak va ayollarning obrazlari diqqatga sazovor.

Erkaklar egnidagi kamzulga o'xshash kiyimlar uzun, yoqasi uchburchak shaklda keng qaytarmali ko'rinishga ega. Bellarida ingichka tasma va unga o'tkazilgan xanjar tasvirlari aniq ko'rinishga ega. Bellarida ingichka tasma va unga o'tkazilgan xanjar tasvirlari aniq ko'rinishga ega.

Ayollarning liboslari esa o'ta rang-barang. Quloq, bo'yin va barmoqlariga serbezak taqincholdar taqilgan. Ko'zgu ushlab turgan bu ayollar chiroyi sharqona ko'rinishga yanada joziba kiritgan.

Bolaliktepa rangtasvir san'atida odamlarning kayfiyati, o'zaro munosabatlari, xarakterlari rassom tomonidan o'ta ustalik bilan tasvirlangan. Orqa tomondan esa qomati deyarli to'liq tasvirlangan xizmatkorlar yelnig'ich ushlab turishibdi. Odamlarning qo'llarida qadahlarining tasvirlanishi, bir-birlariga bo'layotgan samimiy iltifotlar to'ydagi bazmi jamshidni ifodalaydi. Devorlarda xammasi bo'lib 47 kishining rasmi tasvirlangan.

Varaxshadan xam devorlari suratlar bilan bezatilgan xashamatli saroy qoldiqlari topilgan. Devoriy rasmlarning birida fil mingan o'rta yoshli kishi obrazi bir oyog'i uzangida, bir oyog'i esa bukilgan holda tasvirlangan. Bundan tashqari, rasmda arslonga o'xshash xaybatli xayvonni filga xamla qilgan xolatidagi tasviri ham aks ettirilgan. (Ushbu rasm ko'rsatiladi.) Shuningdek, yana bir devoriy suratda podshoning qabul marosimiga bag'ishlangan xashamatli ko'rinishlari o'rin olgan. Tasvirlar rang-barang tabiat manzaralari bilan boyitilgan va ma'lum bir go'zallikni o'zida mujassamlashtirgan. Ilk o'rta asr ganchkorligining nodir namunalari xam mazkur yodgorlikdan topilgan.

Umuman, Varaxsha saroyi me'morchilik, xaykaltaroshlik va rassomchilikning ajoyib namunasi xisoblanadi. Turk xoqonligi, ya'ni arablar istilosigacha bo'lgan davrdagi madaniy xayot xaqida gapirilganda, yurtimizda me'morchilik, xat-savod, diniy e'tiqlar, tasviriy san'at ravnaq topganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, san'atning musiqa, raqs, qo'shqchilik, qiziqchilik, dorbozlik kabi soxalari xam kamol topganligi Xitoy manbalarida qayd etilganligiga to'xtalibo'tgiladi.

Ilk bor Yevrosiyo saltanatini barpo etgan turk xoqonlari xukmronlik qilgan davrda turkiy xalqlarining siyosiy va madaniy merosi Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo va Janubi-Sharqiy Yevropa tarixiga jiddiy ta'sir ko'rsatganligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, u O'rta Osiyo aholisining yuqori darajadagi dehonchilik madaniyati bilan uyg'unlashib Turon o'lkasining ilk o'rta asr madaniyatini qiyomiga yetkazgani aytiladi.

Buning ayrim namunalaridan biri sifatida Afrosiyobda kovlab ochilgan mashhur devoriy rasmlardan ko'rsatilib, mazmunini quyidagicha izohlash mumkin:

Devoriy rasmda qandaydir tantanali holat tasvir etilgan. Oldinda oq fil ustida taxtiravonda malika, fil sag'risida joriya taxtiravonni tutib bormoqda. Fil ortidan qorabayir, to'riq va saman mingan uchta ayol, ulardan birinchisining bilagidan pastrog'igacha so'g'dcha «malikaning yangasi» degan so'zlar yozilgan. Ayollarni tuya mingan ikki nafarqururollangan erak kuzatib bormoqda. Ular boshlarini peshanabog' bilan bog'lab olganlar, qo'llarida esa mutabarlik ramzi sifatida gurzi bor. Erkaklardan birining yoshi kattaroq bo'lib, soch va soqollariga oq oralagan, ikkinchisi esa yoshroqdir. Ikkala erkak xam uzun dich bilich bilan qurollangan. Ularning belbog'larigta katta xanjar ilingan. Dastalarida yovvoyi qushlar boshining tasviri solingan. Yuqoriroqda ot yetaklagan kishi hamda to'rtta oqqush haydab borayotgan o'spirinning surati chizilgan. Ularning og'zi va burunlari oq mato bilan bog'langan. Devorning markazida boshq rasmlardan ikki barobar kattalashtirilgan otliqlar qurshovidagi suvoriy tasviri chizilgan. Xonaning g'apbiy devorida shohona liboslarda, qimmatbaho tuxfalar ko'targan 3 kishi tasvirlangan. Devorda 16 qator so'g'd yozuvi bitilgan. Unda hozirgi Surxondaryo viloyatida joylashgan Chog'aniyon davlati elchisiniig Samarqand hokimiga topshirgan xati bayon etiladi.

Talabalar diqqatini rasmning qanchalik mahorat bilan chizilganligiga qaratish kerak. Unda har bir detalning aniq chiqishiga katta e'tibor bsrilgan.

Turk xoqonligida oromiy, so'g'd, xorazm yozuvi bilan bir qatorda «Turk-run yozuvi», «Urxun-Enasoy yozuvi», «Ko'k turk yozuvi» kabi yozuvlar qo'llanilgan. Turk xoqonligi haqida bitiktoshlar, ayniqsa, qimmatli ma'lumotlar bsrishi aytib o'tiladi.

Arab xalifaligi VIII asr boshlarida Movarounnahrni zabt etishga munaffaq bo'ldi. Arablar mahalliy din namoyandalarini quvg'in qilib, so'g'd yozuvida bitilgan kitoblarni hamda sanamlarni gulxanda yoqib, yo'q kilib tashlaydilar.

Bosib olingan yerlarda islom dini yoyilib, mahalliy xalqlarning ijgimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayoti arab xalifaligining tartib - qoidalariga buysundirildi.

Movarounaxrda arab tilining davlat va fan sifatida joriy etilishi bilan uni o'zlashtirishga bo'lgan intilish ortdi. Natijada arab tili va yozuvini ona tilidek o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ladi. O'rta Osiyolik olimlar o'sha davrda o'z asarlarini arab tilida yozganlar.


Bu davrda Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch, Xiva kabi shaharlar madaniyat markazlari sifatida mashhur bo'ldi. Bu yerlarda savdo-sotiq, ijtimoiy-siyosiy xayot bilan bir qatorda, madaniy aloqalar, bilim o'choqlari rivoj topdi. Bunday iqdisodiy-madaniy markazlar ulkan musulmon Sharqining turli o'lkalarini, Fapb va Sharq, Shimol va Janub mamlakatlarini bog'lab turuvchi qadimgi «Ipak yo'li» an'analarini davom ettirgan holda aloqa o'choqlari sifatida dovrug' taratdi. Mahalliy olimlar o'zga

mamlakatlarga borib ilm olish, xam-kasblari bilan yaqindan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bu davrda O'rta Osiyodan ulkan olimlar yetishib chiqdiki, ular o'z ijodlari, asarlari bilan o'z xalqlarini dunyoga mashxur qildilar.

1. Dastlabki shahar madaniyati qay tariqa shakllanib rivojlandi va u qanday jarayonni shakllangirish omiliga aylandi?
2. «Avesto» kitobining ahamiyati haqida so'zlang.
3. Ahamoniylar madaniyati yodgorliklari bunyod etilishida O'rta Osiyo xalqlarining qo'shgan xissalarini aniqlang.
4. Ellinlashtirishning ma'nosi nima?
5. Kushon davlatida madaniyat ravnaq topganligi nimalarda ko'rinadi?
6. Buyuk ipak yo'li qanday yuzaga kelgan?
7. O'rta Osiyo xalqlari uchun Buyuk ipak yo'lining qanday ahamiyati bor?
8. Eftaliylar davlatida ilk urta asrlarga xos madaniyat shakllan- ganligi nimalarda aks etgan?
9. Eftaliylar davrida qaysi san'at turi yuksak cho'qqiga ko'tarilgan?
10. Eftaliylar dani va yozuvi haqila nimalarii bilasiz?
11. Qanday manbalar turk xoqonligi haqida qimmatli malumotlar beradi?
12. O'rta Osiyoga arablarning kirib kelishi o'lkamiz madaniyatiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
13. Islom dini ta'limotini rivojlantirishda movarounaxrlik islomshunos olimlar qanday hissa qo'shganlar?

Mavzuni o'qitishda «VENN» diagrammasidan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.






Ellinlashtirish tarmoqlarini talaba to‘liq anglab yetishi uchun o‘quv guruhi 3 ta kichik guruhga ajratiladi. Ularga ellin madaniyatining ta’sirini “Venn” diagrammasi asosida taqqoslash va umumiy jihatlarini aniqlash topshiriladi.

Topshiriq:

- 1-guruh – etnografik jihatdan o‘rganadigan obyektlarini aniqlash va umumiy jihatlarini ko‘rsatish.
- 2-guruh – antropologik jihatdan o‘rganadigan tomonlarini aniqlash va umumiy jihatlarini ko‘rsatish.
- 3-guruh – Lingivistik jihatdan o‘rganadigan tomonlarini aniqlash va umumiy jihatlarini ko‘rsatish
- 1-guruh blankasi



6-Mavzu: O'rta Osiyodagi ilk madaniy islom uyg'onishi – Islom renesansi davrida madaniyat ravnaqi (IX-XII asrlar)

Reja:

- 1.O'rta Osiyodagi ilk madaniy islom uyg'onishi – Islom renesansi davrida madaniyat ravnaqi
- 2.IX—XII asrlarda o'zbek davlatchiligi, siyosiy, ijtimoni, iqtisodiy va madaniy hayot.
3. O'rta Osiyoda madaniy yuksalishning ushbu davri Yevropa uyg'onish (Renensans) jarayoniga ta'siri.

Adabiyotlar:

- 1.Samarqand tarixi. Ikki jildlik.T., Fan, 1969 - 1971y.
- 2.Sulaymonova F. Sharq va **Fapb.** T., O'zbekiston, 1997 y.
- Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. Toshkent: 1971.
- 3 Maqsetov Q. Qoraqalpoq jirov baxshilari. Nukus, 1983.
4. Matyoqubov Otanazar. Maqomot. Toshkent: «Musiq» nashriyoti, 2004.
- 5.Mualliflar jamoasi. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: «O'qituvchi», 1980.
- 6.Nisoriy Hasanxoja. Muzakkiri ahhob (Do'stlar yodnomasi). Forschadan Ismoil Bekjon tarjimai. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
- 7.Oyidinov Norsaid. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. Toshkent: «O'qituvchi», 1997.

« O'rta Osiyodagi ilk madaniy islom uyg'onishi – Islom renesansi davrida madaniyat ravnaqi » **mavzusini yoritishda dastlab IX—XII asrlarda O'rta Osiyo madaniy yuksalishining tarixiy shart-sharoitlari xususida fikr yuritish zarur. Chunonchi, IX—XII asrlarda mamlakatimiz xo'jaligi hamda fan va madaniyatning gullab-yashnashiga markazlashgan mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, boy madaniy an'analarning tiklanishi, arab tilining ilm-fan va din tili sifatida ustun mavqeda turishi natijasida musulmon sharqi mamlakatlari bilan din va til asosida madaniy aloqaning kuchayishi muhim sabablardan bo'lib xizmat qilganligiga e'tibor qaratiladi.**

Shu asnoda O'rta Osiyoda madaniy yuksalishning ushbu davri Yevropa uyg'onish (Renensans) jarayoniga ta'sir ko'rsatilganligini al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, al-Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk allomalarimizning jahon ilm-fani va madaniyatiga qo'shgan ulkan hissalar misolida ochib beriladi. Jumladan, ushbu vatandosh allomalarimizning ilmiy faoliyatlariga quyidagicha qisqa tavsif berilib o'tiladi: **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** (taxminan 783-850 yillar) asli Xiva shahridan bo'lib, matematika, astronomiya, geografiya va boshqa fanlar sohasida barakali ijod qildi xamda **«Aljabr» (algebra)** fani va **«algoritm»** tushunchasiga asos soldi. «Algebra» so'zining o'zi esa uning **«Kitab al-Jabr val-muqo-bala» («Tiklash va qiyoslash kitobi»)** degan risolasi nomidan olingan. Uning arifmetikaga oid risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash tizimi va shy tizimdagi amallarning Yevropada tarqalishiga sabab

bo'ldi. Olimning «**al-Xorazmiy**» nisbasi esa «algoritm» shaklida fanda abadiy o'rnatilib oldi. Uning XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan «**Zij**» (**Astronomik jadvallar**), «**Xisob al-hind**», «**Quyosh soati haqidagi risola**» va boshqa asarlari Sharq va Fapb mamlakatlarida o'rta asrlar ilmiy tafakkurining taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Movarounnaxrning Farg'ona viloyatidagi qadimgi Kubo (hozirgi Quva) shahrida tavallud topgan **Ahmad al-Farg'oni**ning (798—865 yillar) ijodiy faoliyati Bag'doddagi ilmiy markaz («**Baytul-hikma**») bilan bog'liq bo'lib, hozirgi kunda uning 8 asari bizga ma'lum. Allomaniig eng mashhur asari «**Yulduzlar ilmi va samoviy harakatlar haqida to'plam**»i hisoblanadi. Uning bu kitobi Yevropada Kopernikkacha bo'lgan astronomiya fanida asosiy ko'llanma bo'lib xizmat qilgan. U sferik trigonometriya asoschilaridan biridir. **Al-Farg'oni** nisbasi lotincha «**alfraganus**» shaklida yozilib, shu nom ostida u fanga abadiy kirdi.

Buyuk faylasuf, qomusiy olim **Abu Nasr al-Forobiy** (873—950) Sirdaryo qirg'og'idagi Forob degan joyda tug'ilib, Forob, Toshkent, Buxoro va Samarqandda o'qidi. Keyinroq Bag'dod va Damashqda yashab o'z ma'lumotini oshirib, umrini ilmga bahshida etdi. U fanning barcha sohalarini qamragan 160 dan ortiq asarlar yozgan va ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 70 dan ortiq tilni bilgan.

Al-Forobiy barcha ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, xususan, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga tanishtirganligi uchun Sharq mamlakatlarida «**Ikkinchi Aristotel**» deb ulug'langan.

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi **Abu Rayhon Beruniy** (973- 1048 yillar) Xorazmnipg qadimgi poytaxti Kot shahrida tug'ildi. Uning ilmiy merosi to'rtta fan sohalariga doir 150 dan ortiq asardan iborat bo'lib, ulardan faqat 30 tasi bizgacha yetib keldi.

Beruniy fanning turli sohalarida yangi fikrlar va kashfiyotlarni olg'a surdiki, bu kashfiyotlar o'rta asr Sharqida uzoq vaqtgacha fan taraqqiyotini belgilab berdi. Jumladan, u birinchi bo'lib Yerning Quyosh atrofida aylanishi xaqidagi fikrni ilgari surdi va Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi xamda **yer globusini** yaratdi. Shuningdek, olim dunyoning geografik xaritasini tuzib, **Amerika qit'asi borligini ilmiy bashorat qilgan.**

Beruniy turli joylarning geografik kengligi va uzoqligini aniqlash yo'llarini ishlab chiqqan. Uning foydali qazilmalar qatlamining paydo bo'lishi, jinslar yemirilishining ahamiyati, tog' jinslarining nurashi kabi xulosalari katta ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. Olim zichlik tushunchasini birinchi bo'lib fanga kiritish bilan qazilma boyliklarni qidirib topish qonuniyatlari ochilishini boshlab bergan edi. Uning «**Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar**», «**Hindiston**», «**Geodeziya**», «**Minerologiya**», «**Saydana**», «**Qonuni al- Mas'udiy**» kabi asarlarining tarixdagi roli beqiyos.

Beruniy o'rta asr sharoitida xaqiqiy tajribaga, kuzatish, eksperimentga asoslanuvchi aniq ilmiy tafakkurni boshlab beruvchilardandir.

Sharqning buyuk siymolaridan biri, qomusiy olim, mutafakkir, tabib, faylasuf, shoir **Abu Ali ibn Sino** (980-1037 yillar) bo'lib, u Yevropada **Avitsenna** nomi bilan mashxurdir. Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan, iste'dodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lganligidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tez

egallagan. U 16 yoshdayok, mashhur tabib - xakim bo'lib tanildi va keyinchalik «**Olimlar boshlig'i**», «**Tabiblar podshoxi**» kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi.

Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, biroq bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan. Uning, ayniqsa, «**Tib qonunlari**» asari XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, ko'p asrlar davomida G'arb mamlakatlari universitetlarida asosiy qo'llanma bo'lib kelgani va hozir xam bir qancha tibbiy o'quv yurtlarida o'rganilishi aytiladi.

Ilm-fan sohasida XI asr boshlarida Xorazmda tashkil toptan «**Ma'mun akademiyasi**»ning salmoqli o'rni ta'kidlab o'tiladi. Bu davrda badiiy adabiyot yuksak darajada ravnaq topib, forsiy va turkiy adabiyotning ajoyib durdona asarlari yaratilganligi, xususan, turkiy yozma adabiyotning yuzaga kelganligiga talabalar diqqati tortiladi. Bu adabiyotning rivojiga katta xissa qo'shgan **Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariylarning** ijodiy faoliyatiga qisqacha tavsif beriladi.

Shundan so'ng Movarounnahrda islom madaniyatining yuksak taraqqiyoti haqida so'z yuritiladi. Dunyoviy fan olimlari bilan birga, bu davrda islom ta'limoti va mafkurasining takomili yo'lida movarounnahrlik diniy ulamolarning xizmati katta bo'ldi. Zero, islom Arabistonda vujudga kelgan bo'lsa xamki, u Movarounnahrda ravnaq topdi. Bu diyor allomalari o'z durdona asarlari bilan o'rta asrlarda **Quryon tafsiri, xadisshunoslik, arab filologiyasi, fiqh (islom huquqshunosligi), kalom (islom falsafasi)** ilmlarining turli sohalarida taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdilar.

Qur'onni tafsir qiluvchilarning aksariyati (**Imom al-Motirudiy, Imom Abu Lays as-Samarqandiy, Imom az-Zamaxshariy, Imom an-Nasafiy**) ushbu diyor vakillari edi.

Xadis islomda Quryondan keyingi muqaddas manba hisoblanib, Muhammad alayhissalomning diniy va axloqiy qo'rsatmalari, hikmatli so'zlaridan iboratdir. Hadislar to'plami **sunna** deb nom olgan bo'lib, islom dunyosida eng nufuzli deb e'tirof etilgan 6 ta ishonchli hadislar to'plami mualliflarining xam aksariyati O'rta Osiyoliklardir. Shular ichida «**Xadis ilmida amir al mo'minin**» degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan buyuk muxaddis olim **Imom al-Buxoriyning «Saxixi Buxoriy»** to'plami eng mo'tabari hisoblanadi.

Bu davrda ushbu zaminda islom huquqi-shariat ancha rivoj topgan bo'lib, bu sohada ham movarounnahrlik allomalar boy meros qoldirganlar. Ayniqsa, **Burxoniddin al-Marg'inoniyning «Al-xidoya»** asari islom olamida mashhur bo'ldi. Shuningdek, musulmon olamida keng tarqalgan buyuk ta'limot-tasavvuf jamiyat ma'naviy va madaniy hayotining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu yerda **yassaviya, kubraviya** kabi turli sufiylik tariqatlari shakllandiki, ular orqali insoniyat islom dinining ichki va tashqi go'zalligini, uning buyuk iisonparvarlik mohiyatini anglab yetganligiga talabalar e'tibori qaratiladi.

Yoshlar ongiga milliy istiqlol mafkurasining ijgimoiy adolat haqidagi g'oyalarini singdirish uchun mazkur davrning yetakchi g'oyalari - insonparvarlik, Vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do'stlik, o'zaro yordamga chaqirish, shuningdek, yuksak ahloqli kishilardan tashkil toptan ideal jamiyag to'g'risidagi qarashlar sodda, tushunarli tarzda yetkazilsa, ayni muddao bo'ladi.

O'sha davr **memorchiligi va tasviriy san'ati** xaqida so'z yuritilar ekan, shuni alohida ta'kidlash lozimki, Movarounnahr va Xorazmda bu soha yangi rivojlanish bosqichida bo'ldi. Bu yerda qabul qilingan islom dini mafkurasi madaniy hayotning bu sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Arablar dastlab bu yerlarga machitlar qura boshlaganlar. Ular qurgan ilk machitlar ko'hna Termiz harobalaridagi **Chorustun** va Buxorodagi **Mog'aki Attor**dir. Har ikkala machit bir-biriga o'xshaydi, ularning gumbazli tomi g'ishtdan ishlangan yumaloq ustunlar ustida turadi. Xar ikkala binoda ilgari qasr, qo'shklar qurilishida ishlatilgan tutash yarim ustunli gofrlar - jimjimalar bilan bezash usuli arablar istilosigacha bo'lgan qadimgi me'morchilik an'analariining qoldig'i sifatida saqlanib qolgan. Keyinchalik boshqa jamoat binolari qad ko'tara boshladi. O'sha davrdagi mamlakatimizning ko'pgina shaharlari asosan 3 qismga bo'lingan bo'lib, bular: ark, shahriston (ichki shahar) va rabod (tashqi shahar)dan iborat edi. Shaharning markaziy qismiga mustahkam qilib ko'rilgan ark (kox) ichida hukmdorning saroyi va hukumat muassasalari, idoralari joylashgan. Zodagonlarning uylari, bozor va boshqa binolardan iborat shahriston arkka tutashib, shahar mustahkam devor bilan o'rab olingan. Shahriston atrofida rabod joylashgan. Hunarmandlar ustahonalariga savdo-sotiq do'konlaridan iborat rabod ko'pincha shahristonni ko'p tomonlama qisib qo'ygach, keyinchalik rabod atrofiga ham qal'a devorlari qurilgan. Bu davr me'morchiligida ro'y bergan o'zgarishlar quyidagilar edi:

1. Ommaviy binokorlikda xom g'isht asosiy qurilish materiali bo'lsa ham, ammo muhtasham binolar pishiq g'ishtdan qurila boshlandi, unda turli xil ganch hamda ohakli qurilish qorishmalarini keng ishlatishga o'tildi.

2. XII asrda me'morchilikda ilk bor muhtasham binolarga sirlangan va rangli g'ishtaxta (koshin, plitka)lar ishlatila boshlandi. Buni shu asrda qurilgan Buxorodagi **Minorai Kalon** minorasining ravoqli tomi fonusning muqarnas qilib ishlangan qismida naqsh bilan so'zlar yozilgan moviy tusdagi koshinlarda ko'rish mumkin. Uni yasovchi ustalar **koshinchilar** deb atalgan.

3. X-XII asrlarda ganch o'ymakorligi ham ichki, ham tashqi qismiga, shuningdek, ganch g'isht orasiga ishlatilgan.

4. Matematik bilimlar, ayniqsa, geometriyaning rivojlana borishi o'laroq, tajribali usta-binokorlar imoratlarni dastlabki loyixalash hamda qismlarini matematik nisbatlar asosida hisoblash usullaridan foydalandilar.

5. XII asrda ko'p binolarni qurishda muqarnaslar (stalaktitlar) ishlatiladi. U ko'proq binolarning ichki qismiga bezak sifatida ko'llanila boshlandi.

6. Ilgari qullanilmagan bostirmalarning yangi konstruksiyalari - ravoq va gumbazlar, toqlar ishlandi.

7. Binolar yerga chuqur o'rnatilgan poydevor ustiga qurildi, ilgari xom g'isht bilan qurilgan binolarda bu usul deyarli qo'llanilmas edi.

8. Me'morchilikda yangi hodisalar: peshtoqqa zeb berish, ayniqsa, arabcha yozuvli epigrafik ziynat va boshqa naqsh turlari keyingi davrda takomillasha bordi.

9. Bu davr imoratlarida yog'och katta rol o'ynadi. Ustunlar yog'ochdan qilinib, yog'och to'sinli tomlar ana shu ustunlarga o'rnatildi. Shuningdek, sinchli binolarning konstruksiyalari keng tarqaldi. Sinchlarning orasi hom g'isht yoki guvala bilan urilardi. Bu hildagi uylarni qurish rasm bo'lib, hozirgacha saqlanib keladi.

Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarining ko'p asrli me'morchilik san'ati arab xalifaligi ko'l ostiga o'tgan mamlakatlar o'rtasida aloqalar kuchaygan sharoitda rivojlandi.

Bu aloqalarning natijasi o'laroq, xalifalikka qaram mamlakatlarning me'morchiligida, ayniqsa, diniy binolarning qurilishida qandaydir umumiylik bo'ladi. Shu bilan birga, halifalik qo'l ostiga birlashirilgan xar bir mamlakat tarixiy-madaniy an'analar va mahalliy sharoitlarga qarab o'z me'morchiligini yaratgan.

O'rta Osiyo me'morchiligi o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu me'morchilik o'z xalqi va uning did-nafosati bilan chambarchas bog'langan xalq ustalarining ijodidan iborat ekanligi ko'rsatib o'tiladi.

Ushbu davr me'morchiligidan ba'zi obidalar saqlanib qolgan. Bular: ***Buhorodagi Ismoil Somoniy, Tim qishlog'idagi Arabota maqbaralari, Nomozgoh va Mohaki Attoriy masjidlari, Minorai Kalon, Vobkent va Surxondaryodagi Jarqo'rtan minoralari*** shu davr me'morchiligining nodir namunalaridandir.

Bu tarixiy yodgorliklardan Ismoil Somoniy va Minorai Kalon xaqida ko'rgazmali vositada qisqacha ma'lumot berib o'tish darkor.

IX-X asrlarda qurilgan Somoniylar maqbarasi o'sha davr binokorlarining mahorati va yuksak badiiy dididan dalolat beradi. Maqbara kub shaklidagi bino bo'lib, tomi gumbaz qilib yopilgan. Kvadrat shakldagi xonaning gumbazi 8 ta ravoq ustiga qurilgan va 8 qirrali asosga o'rnatilgan. Ravoqlardan to'rttasi xonaning tepa burchaklarida qurilgan. Ravoqlar orasida binoning tepasida yorug'lik galereyasi bor. Bu galereya tashqi tomondan kichik darchalardan iborat bo'lgan toqlar shaklida ko'rinadi. Bular maqbaraning ichini yoritadi.

Binoning to'rttala old tomoni xam bir xil ishlangan. Binolarning ichi va sirti naqshinkor g'isht bilan ishlangan. G'ishtlarning joy-joyi bilan ma'lum mikkorda gox tikka, gox, yotqizib turli xil naqshinkor qilib terilishi natijasida bino xuddi g'ishtdan uralganga o'xshab turadi. Unga xusn bo'lsin uchun burchaklariga to'rtta kichkina kubba o'rnatilgan. Devor qalin (1,8 metr) bo'lganligi tufayli ming yildan beri yaxshi saklanib kelmoqda.

Naqshinkor devorlar soya va yorug'lik tushadigan tomonni munosib rang bilan ko'rsatadi.

Xullas, san'atkor usta memorning aql-zakovati bilan oddiy g'ishga jon va til bag'ishlagan. Maqbarani naqshinkor qilib bezatish natijasida, quyosh oqqan sari, ertadan kechgacha devorning g'ishtlari turli tusda tovlanadi. Oy nurida, ayniqsa, chiroyli bo'lib ko'rinadi. Jaxon me'morchiligi bu usulda bezatilgan birorta tarixiy yodgorlikni uchratgan emas.

Minorai Kalon 1127 yilda Qoraxoniylardan Arslonxon xukmronlik qilgan davrda qurilgan.

Minora ganch qorishmasi bilan pishiq g'ishtdan naqshshinkor qilib terilgan dumaloq ustundan iborat bo'lib, balandligi 46,5 metrdir. Uning ichida 104 pillapoyali aylanma zinasi bor. Minoraning yuqori tomoni sal ingichkaroq bo'lib, silindr shaklli gumbazida 16 ta darcha bor.

Minoradan azon aytilgan. U yov paydo bo'lishini kuzatadigai nuqta hamda karvonlarga yo'l ko'rsatadigan mayoq vazifasini ham bajargan.

Mang'itlar xukmronligi davrida o'lim jazosiga hukm qilingan kishilarni minoradan pastdagi tosh maydonchaga tashlaganlar.

Tarixchi olimlarning xulosasiga ko'ra, Buxorodagi Chashmai Ayub maqbarasining bir qismi Minorai Kalon bilan bir vaqtda qurilgan. Shuningdek, Samarqanddagi Shohizinda ansamblining eng qadimgi qismi xam XI-XII asrlarga oiddir. Bu davrga kelib tasviriy san'at, naqqoshlik, o'ymakorlik san'ati ham o'zgacha tus olganligini ko'rsatib o'tish kerak.

Ustalar naqqoshlikda va rassomchilikda odamlar va hayvonlarning suratini tasvirlash kompozitsiyalari o'rniga murakkab geometrik (girix), o'simliksimon (islamiy) va arabcha yozuv «**xatti kufiy**» bilan bitilgan epigrafik naqshlarni ishlatganlar. Bu san'at tobora takomillashib, butun Sharq mamlakatlari ichida bunday eng murakkab va eng go'zal naqshlar faqat bizning yurtimizda yaratildi.

Yog'och, ganch o'ymakorligi ham ravnaq topdi. Samarqanddagi Shohizinda me'moriy ansamblidan topilgan yog'och o'ymakorlik namunasi, Xivadagi Juma machitida saqlanib qolgan eng qadimgi ustunlar shundan dalolat beradi.

Tasviriy san'at asarlari sanalmish sanamlar haykallarini yasash, jonli mavjudotlarni tasvirlash barham topgan bulsa-da, islomgacha bulgan san'at ananalari kitob miniatyuralarida, turli mayda amaliy san'at buyumlarida, ba'zi binolarga tabiat manzarasi va xayvonlarning tasviri orqali saqlangan. Naqqoshlik san'atining taraqqiyoti o'z navbatida kulolchilik, misgarlik va zargarlikning ravnaqiga yordam berganligini ta'kidlash zarur. Shuningdek, bu davrda xattotlik va musiqa san'ati rivoj topganligiga dalillar keltiriladi. Qo'lyozma kitoblarni turli uslubdagi xusnixat bilan bitish va bezash ushbu davrda yuqori darajaga ko'tariladi.


Ko'rilayotgan davrda sozandalar xilma-xil torli, zarbli va puflab chalinadigan musiqiy cholg'u asboblaridan keng foydalanganlar. Vokal hamda cholg'u asboblar va professional darajadagi yakka ijrochilik keng rivojlandi. Bu, avvalo, to'y marosimlari va xalq sayillari bilan bog'liq cholg'u asboblar jo'rligida musiqiy tomoshalar edi. Xalq kuylari asosida keyinchalik o'zbek va tojik xalqlarining klassik kuyi «Shoshmaqom» uchun asos bo'ladigan yangi-yangi kuylar ijod qilindi.

Ulug' allomalarimizdan Forobiy va Ibn Sino musiqa nazariyasi bo'yicha nodir asarlar yaratib, musiqa inson axloqini tarbiyalovchi, salomatligini mustahkamlovchi zo'r vosita deb qaraganlar.

1. IX-XII asrlarda O'rta Osiyo madaniy yuksalishining tarixiy shart- sharoitlari nimalardan iborat?
2. Islom dini xalqning ma'naviy xayotiga qanday ta'sir o'tkazgan?
3. Buyuk vatandosh allomalarimizning jahon ilm-faniga qo'shgan xissalari haqida so'zlang.
4. O'rta Osiyolik diniy ulomalar islom madaniyatining rivojiga qanday xissa qo'shdilar?
5. Tasavvuf ta'limoti jamiyat ma'naviy va madaniy hayotining rivojida qanday o'rin tutgan?
6. Bu davr me'morchiligida qanday o'zgarishlar yuz bergan?
7. IX-XII asr Movarounnahr tasviriy san'atining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.
8. Bu davrda adabiyot, xattotlik va musiqa san'ati rivoj topganligiga dalillar keltiring.

Mavzuni o'qitishda «FSMU» texnologiyasidan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

«FSMU» mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi texnologiyadan foydalanish jarayonining bosqichlari



Topshiriq: «**Islom renesansi davrida madaniyat ravnaqi haqida nimalar bilasiz?**» degan savolni «FSMU» texnologiyasi asosida muhokama qiling.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrlarini hamoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F- fikringizni bayon eting
S- fikringizni bayoniga **sabab** ko'rsating
M- ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi **misol** keltiring
U- keltirilgan **fikr, sabab, misol**larni **umumlashtiring**

1-guruh

Savol	Islom renesansi davrida madaniyat ravnaqi haqida nimalar bilasiz?
F - fikringizni bayon eting	
S- fikringizni bayoniga sabab ko'rsating	
M- ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
U- keltirilgan fikr, sabab, misol larni	

<i>umumlashtiring</i>	
-----------------------	--

2-guruh

Savol	?
F - fikringizni bayon eting	
S- fikringizni bayoniga <i>sabab</i> ko'rsating	
M- ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi <i>misol</i> keltiring	
U- keltirilgan <i>fikr, sabab, misolarni umumlashtiring</i>	

7-Mavzu: Mo'g'ullar istilosi davrida madaniyatning topatalishi va asta sekin jonlanishi XSH asr - XIV asrning birinchi yarmi

Reja:

- 1.XSH asr - XIV asrning birinchi yarmida me'morchilik.
- 2.Mo'g'ullar istilosi davrida madaniyatning topatalish.

Adabiyotlar:

- 1.Buyuk siymolar, allomalar (uch kitob). T., Meros 1995, 1996, 1997 yy.
- 2.Dostchanov T., Xasanov S. Zvezdi akademii Mamuna. T., TMI. 2004 g.
- 2.Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. T., O'qituvchi, 1994.
- 3.O'zbekiston tarixi (qisqacha ma'lumotnoma). T., Sharq, 2000 y.

Mo'g'ullar istilosi va asorati Movarounnaxr yurtiga qanchalik vayronagarchilik keltirmasin, mag'pyp va masrur ajdodlarimiz iste'dodini, bunyodkorlik dahosini so'ndira olmadi. Aksincha, ular vayron bo'lib, kuli ko'kka sovrilgan shaxaru qishloqlar o'rnida fusunkor me'moriy binolar, tarixiy obidalar, ko'rkam arxitektura yodgorliklarini bunyod etdilar. Bu davrda barpo etilib, gavjum savdo-sotiq xunarmandchilik markazlariga aylana borgan Andijon, Qarshi, Urganch qaytadan ta'mirlanib, chiroy ochgan, oldingi mavqei, ahamiyatini birmuncha tiklagan Samarqand, Buxoro, Shosh, Xo'jand singari shaharlar, ularning o'ziga xos me'morchilik qiyofasi shundan dalolat beradi. Bu davr me'morchiligida xashamatli diniy ziyoratgohlar, masjidu maqbaralar qurilishi ko'proq ko'zga tashlanadi. Bu, bir tomondan, islom an'analari davomi bo'lsa, ikkinchi tomondan, mo'g'ullar hukmronligi davrida xalq orzu-armonining o'ziga xos ifodasidir.

Ko'hna Urganchda qad ko'targan, balandligi 62 m bo'lgan ulug'vor minora XIII asrning noyob yodgorligi xisoblanadi. Musulmon olamining yetuk olimlaridan biri, shayx Sayfiddin Boxarziy (vafoti 1258) nomi bilan Buxoroda barpo etilgan maqbara va unga tutash binolar majmui xam o'rta asr me'morchiligining go'zal namunasidir.

Samarqanddagi Shohizinda majmui, Buxorodagi Bayonqulixon maqbarasi, Ko'hna Urganchdagi Najmidsin Kubro, To'rabekxonim, Xo'janddagi To'baxonim maqbarasi va shu singarilar XIV asrning nodir me'moriy yodgorliklari sirasiga kiradi.

Usta Abdurahmon tomonidan 1321 yilda ishlangan, naqshinkor bezaklar bilan jilolangan ikkita ko'za topilmasi yoxud Xorazm va Janubiy Turkmanistonda topilgan sirli sopol idishlar namunalari xam o'zining yuksak badiiy qimmatini bilan ajralib turadi.

Ilm-fan va badiiy adabiyot. O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati, xususan, ilm-fan va badiiy adabiyot ham katta kiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, bu davrda rivoj topib bordi.

Sufiylik ta'limoti, ilmu nujum, tarixshunoslik kabi sohalarda zabardast olimu fuzalolar yetishib chiqdi. Ular yaratgan o'lmas asarlarda o'sha zamonning muhim muammolari, tarixiy voqealar, xodisalar tafsilotlari bayon etilgan yoxud sharxlab berilgan. Butun Sharq, olamiga mashhur bo'lgan Najmiddin Kubro (1145—1221), shayx Sayfudsin Boxarziy Baxovuddin Naqshband (1318— 1389) singari ilohiyotchi olimlarning tarixiy asarlari xozirda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Juvayniy (vafoti 1383), Fazlulloh, Rashididdin (1318 yilda o'ldirilgan) kabi tarixnavis allomalar xam shular jumla- sidandir. Masalan, Rashididdinning «**Jome ut-tavorix**» asari, ko'plab mu'tabar olimlarning e'tiroficha, o'rta asr «Jaxon tarixi»ni yaratish bobidagi dastlabki jiddiy urinishlardan biri bo'lgan edi.

O'rta Osiyo xalqlari dahosining eng yuksak badiiy in'ikosi o'sha davrda yetishib chiqqan nafis adabiyotning ko'plab yirik namoyandalari ijodida yorqin aks etdi. Jaloliddin Rumiy, Muslihiddin Sa'diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Nosiriddin Rabg'uziy, Pahlavon Maxmud, Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi singari xalq orasidan chiqqan mumtoz ijodkorlar ijodiga nazar tashlar ekanmiz, bu davr adabiyotida yaratilgan qanchalar umrboqiy, o'lmas asarlarga, ularda yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan, hamma zamon kishilarini birdek hayratlantiruvchi, to'lqinlantiruvchi umumbashariy g'oyalar, tuyg'ularga tan bergimiz keladi.

Asl nasl-nasabi xorazmlik bo'lib Turkiyadan qo'nim topgan, she'riyat daholaridan Jaloliddin Rumiy (1207—1277) ning 6 jildli, 25 ming 700 baytdan iborat muqaddas kitob darajasida ulug'langan go'zal «Masnaviy»si, nazm va nasrda barobar qalam tebratgan ulug' g'azalnavis shoir Sa'diy She'roziy (1219—1292) ning mashhur «Bo'ston» va «Guliston»i yoxud Pahlavon Maxmud (vafoti 1322) ning chuqur falsafiy mazmun bilan yo'g'rilgan boy ruboiyoti va, shuningdek, XIII asr oxiri — XIV asr birinchi yarmida yashab, ijod etgan Rabg'uziyning ilk o'zbek nasr namunalari o'zida aks ettirgan ikki jildli «Qissai Rabg'uziy» asari va shu singarilar mana shunday hayotbaxsh ruh va mazmun bilan sug'orilgandir.


Bular jumlasiga XIV asrning birinchi yarimlarida ijod etib, o'zlaridan boy meros qoldirib ketgan Xorazmiy, uning o'zbek dunyoviy she'riyatining dastlabki ajoyib namunasi hisoblangan «Muxabbatnoma», Qutbning «Husrav va Shirin», Sayfi Saroyining «Suhayl va Guldursun», «Gulistoni bitturkiy» singari go'zal dostonlarini ham nisbat berish mumkin. Ularda yuksak ohanglarda tarannum etilgan vafodorlik, mehr-muhabbat, sadoqat, fidokorlik, mardlik singari olijanob insonparvarlik g'oyalari hech bir kimsani befarq qoldirmasligi, aksincha, ular kishilarga olam-olam quvonch, ma'naviy ozuqa berishi shubhasizdir.

Shunday qilib, XIII—XIV asrlar davomida Movarounnar hududi mo‘g‘ullar xukmronligi bilan bog‘liq qanday ziddiyatli, murakkab yotiy jarayonlarni boshdan kechirmasin, uning ko‘hna madaniyati, ilm-urfoni o‘ziga yo‘l topib rivojlanishda davom etdi. Xalq dahosi, ijodkorligi, uning asl iste’dodli, salohiyatli namoyandalari say-harakatlari ila sayqal topib, yangi jozibador qirralar kashf etib bordi. Bu esa, shubhasiz, o‘lka xalkdari ma’naviy merosi, qadriyatlarining mazmunan boyib, yuksalishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

1. XIV asrning nodir me’moriy yodgorliklaridan misollar keltiring.
2. Ushbu memoriy yodgorliklarning qaysi biri hozirgi kungacha o‘z tarovatini yuqotmagan.
3. XIII asr oxiri — XIV asr birinchi yarmida yashab, ijod etgan ijodkorlardan kimlarni bilasiz?
4. XIII asr oxiri — XIV asr birinchi yarmida sufiylik ta’limoti, ilmu nujum, tarixshunoslik kabi sohalarida qanday zabardast olimu fuzalolar yetishib chiqdi? Misollar keltiring.

Mavzuni o‘qitishda «Insert» usulidan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

Insert jadvali



Topshiriq: XIV asr birinchi yarmida sufiylik ta’limoti, ilmu nujum, tarixshunoslik kabi sohalarida qanday zabardast olimu fuzalolar yetishib chiqqanligi masalasini **Insert jadvali** bo‘yicha ishlab chiqing.

Insert usulidan foydalanish qoidasi

1.Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

B- bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot

2.Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

No	Savollar	B	-	+	?
1					
2					
3					
4					

8-Mavzu: Markaziy Osiyodagi ikkinchi madaniy uyg'onish temuriylar renesansi davrida madaniyat taraqqiyoti (XIV asrning ikkinchi yarmi - XV asr)

Reja:

1.Markaziy Osiyodagi ikkinchi madaniy uyg'onish.

2.XIV asrning ikkinchi yarmi - XV asr - Temuriylar renesansi davrida madaniyat taraqqiyoti.

3.Kitobat, xattotlik, musavvirlik va tasviriy san'at ijodi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Amir Temur haqida so'z. T., O'zbekistan, 1996.
2. Bobur. Boburnoma. — T., Yulduzcha, 1998 y.
3. Buyuk siymolar, allomalar (uch kitob). T., Meros 1995, 1996, 1997 yy.
4. Dostchanov T., Xasanov S. Zvezdi akademii Mamuna. T., TMI. 2004 g.
5. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. T., Fan, 1993.

«Markaziy Osiyodagi ikkinchi madaniy uyg'onish - temuriylar renesansi davrida madaniyat taraqqiyoti» mavzusini o'tishda Vatanimiz tarixida temuriylar davrining tom ma'noda milliy va ma'naviy uyg'onish (**ikkinchi «Renessans»**) davri sifatida namoyon bo'lishi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan birgalikda madaniy yuksalishga erishishi Amir Temur nomi bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. Aynqsa, sohibqiron va uning avlodlari (Ulug'bek va boshqalar)ning bunyodkorlik faoliyati, ilm-fan va madaniyatga xomiylik qilishi ushbu soxalarning ravnaqiga zamin bo'lganligi tarixiy dalillar asosida yoritiladi.

Dastavval memorchilik soxasidagi yutuqlar xususida so'z yuritiladi. Zero, Amir Temur davri me'morchilikning ulkan yuksalishi bilan mashhur.

XIV asr oxiri XV asr boshidaridagi me'morlik o'zining hashamatliligi, muxandislik ilmining yuksakligi, serhasham bezatilishi bilan ajralib turadi.

Bu davr **me'morchiligida** imoratlar o'ziga xos, ma'lum maqsadga qaratilgan yechimlar asosida quriladi, ularni bezashda xam yangi usullar qo'llaniladi.

Binolarning peshtoqlari va ichki devorlarni qabartma rango-rang parchinlar, zangori yoki oq rang ustiga zarhal berilgan «islami» naqshlar bilan pardozlangan.

Bu davr me'morchiligi va amaliy san'atida asriy an'analar yanada takomillashtirilib, o'ziga xos uslub yaratiladi. Bu uslubdagi me'morchilikda ichki ravoqlari chuqur, qo'sh gumbazli (tashqi va ichki), qobirg'ali, koshinkori naqshlar bilan gilam nusxa bezaklar qo'llanilgan. Bunday me'moriy obidalar o'zining uyg'unligi, qismlarining mutanosibligi, rang-barangligi va tantanali manzara kashf ettiruvchi vositalari bilan ajralib turadi. Unda hozirgi zamon shaharsozligida infrastruktura deb ataladigan uyg'unlikka erishishga harakat qilingan.

Amir Temurning say-harakatlari bilan Samarqanddagi Shohizinda me'moriy majmuasida qurilgan bir guruh maqbara va binolar, Bibixonim jome' masjidi, Go'ri Amir, Turkistondagi Ahmad Yassaviy, Toshkent yaqinidagi Zangiota maqbaralari, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Dorus-sodat va Dorut-tilovat ansablari yuqoridagi fikrlarning dalilidir.

Amir Temur tomonidan Samarqandda bunyod etilgan Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy bizgacha yetib kelmagan. Saroy ichidagi yodgorliklardan faqat bittasi - o'yma naqshlar tushirilgan, yonlariga guldor chiziqlar tortilgan Ko'k tosh saqlangan bo'lib, hozir u Go'ri Amir majmuasining hovlisiga qo'yilgan.

Mamlakat obodonchiligi yo'lida turli jamoat binolari va boshqa inshootlar barpo etish bilan birga chorbog'lar, istirohat bog'lari tashkil etish san'ati ham daqqatta sazovordir. Samarqandda bunyod etilgan chorbog'lar, bir qator shaharlar atrofidagi istirohat bog'lari ushbu san'at namunalaridan sanaladi.

Temuriy xukmdorlar orasida, ayniqsa, Ulug'bek buyuk bobosidek bunyodkor bo'lib, mamlakatda qurilish ishlariga katta ahamiyat bergan.

Ulug'bek xukmronlik qilgan yillarida fan va san'at, madaniyat yanada ravnaq topdi. Bu davrdagi me'morchilik, tasviriy va amaliy san'atida sohibkiron davrining uslubi aks etgan. Jumladan, XIV asrdagi me'morlar va ustalarning an'analari XV asrda yanada chuqur, keng tus oladi. Bu esa me'moriy majmualar va ularning rejalarini tuzishda, me'morchilikda - yangi shakllar, mutanosibliklarda, konstruksiyalarni hal etishda ko'rinadi. Binobarin, me'morchilik va san'atning boshqa turlarida matematika fanining muvaffaqiyatlari o'z aksini topgan.

Ulug'bek davrida Samarqandda shaharning olti asosiy yo'li kesishgan joyda Registon maydoni shakllandi. Maydonning g'arbiy qismida dastlabki bino - Ulug'bek madrasasi (1417-1420) qurildi. Madrasadan tashqari xonaqoh, karvonsaroy, masjid qad ko'tardi.

Ulug'bekning Buxoro (1417 yil) va G'ijduvon (1432-1433 yillar) da qurdirgan madrasalari, Shaxrisabzdagi gumbaz masjidi bizning davrimizgacha yetib kelgan bo'lsa, tarixiy manbalarda ta'riflangan «**Chil ustun**» va **Chinnixona** saroylari bizgacha yetib kelmagan.

Ulug'bek davrida Shohizinda ansambli to'la qurib bitkazildi. Shuni ta'kidlash kerakki, Shohizinda (XI-XX asrlar) tasviriy uslubdagi memorial ansambl bo'lib, naqqoshlik san'atining mu'jizasi hisoblanadi.

Xar bir maqbaraga sir berilgan mayda g'ishtchalar, guldor sopollardan ishlangan naqshlar, nozik did bilan ishlangan koshinlar mozaikasi rango-rangligi, polixrom glazur bo'yoqlarining ming xil tovlanib turishi kishida zavq uyg'otadi. Me'morlar

geometrik shakllarining hayratomuz to'qimasini, o'simlik tasvirini, turli xil gumbazsimon tizimni vujudga keltirgan. Kufiy, suls va nasx dasxatlari uslubida ijro etilgan arab yozuvlari taqsiinga sazovor.

Ulug'bek tomonidan qurdirilgan me'moriy binolar ichida Samarqand rasadxonasi alohida o'ringa ega. O'z zamonasining eng mukammal inshooti sanalgan ushbu rasadxonada ilmiy dunyoda olamshumul ahamiyat kasb etgan natijalarga erishildi.

Temuriylardan Xusayn Boyqaro xukmronlik qilgan (1469-1506) davrda Xurosondagi me'morchilik-qurilish, obodonchilik ishlari bevosita Alisher Navoiyning nomi bilan bog'liq bo'lib, o'sha davrda bunyod etilgan mashhur inshootlarni sanab o'tish muhimdir.

O'qituvchi o'rganilayotgan davrda Ulug'bek Amir Temur an'analarini davom ettirib, o'zi barpo etgan ilmgoxlarda ilohiyot ilmlari bilan bir qatorda matematika, geometriya, astronomiya, tarix, poetika kabi dunyoviy ilmlar o'qitilgani, ilm-fan rivojlanganligini ta'kidlaydi.

Ulug'bek boshqa ko'pgina xukmdorlardan farqli o'laroq davlat arbobi sifatida emas, balki asl olim sifatida ajralib turardi.

Adabiyot, sanat, fan va madaniyat namoyandalari Ulug'bek atrofiga to'plangan edi. Ular orasida astronomlar yetakchi faxrli o'rin egallardi. Bulardan: Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Alouddin Ali Qushchi va boshqalar Ulug'bek maktabining mashhur namoyandalari edilar.

1437 yilda yozib tugallangan Ulug'bekning mahur astronomik jadvali «**Ziji Kuragoniy**» 100 dan ortiq olimlarni o'z bag'riga olgan Samarqand akademiasining ulkan yutug'i bo'ldi.

A.Temyp va temuriylar davrida tarix fani ham keng rivoj topdi. Bu davr tarixchilaridan Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», xofiz Abro'ning «Zubdat at-tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai Sa'dayn va majmai baxrayn», Ibn Arabshoxning «Amir Temur tarixi», Mirxondning yetti jildli «Ravzat us-safo», Xondamirning «Makorimul axloq», «Xabibus-siyar», Isfizoriyning «Xirof tarixi», Davlatsho'ning «Tazkiratush-shuaro» singari asarlarini keltirib o'tish joizdir. Bu tarixchilar temuriy xukmdorlarning turli-tuman faoliyati, say-harakatlari bilan bog'liq tarixiy hodisalar, voqealarni o'z imkoniyatlari darajasida xolis va haqqoniy aks ettirishga intilganlar.

Amir Temur va temuriylar madaniyatining to'laqonli mazmuni va manzarasi badiiy adabiyotda yaqqol namoyon bo'ldi. Bu davrda adabiyot badiiy uslub jihatdan takomillashdi. **Masnaviy, ruboiy, tuyuq, g'azal, qita, qasida** kabi janrlar bilan birga, **noma va munozara janrlari** rivojlandi. Bu o'rinda o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan Lutfiy, Xaydar Horazmiy, Durbek, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiy, Qutb, Sayfi Saroyi, Bobur kabi badiiy so'z sehrgarlari nomini tilga olib o'tish joiz. Buyuk davlat arbobi, ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri, mumtoz adabiyotimiz asoschisi Alisher Navoiyning sermahsul ijodi ham shu tarixiy davr bilan bog'liqdir. Uning ijodida yuksak insonparvarlik, vatanparvarlik, yurtparvarlik, erksevarlik g'oyalari butun tarovati bilan namoyon bo'ldi. Shu o'rinda Navoiy ilm-fan, madaniyat xomiysi bo'lganligi qayd etib o'tiladi. XV asrda tasviriy san'at nihoyatda taraqqiy etdi. Amir Temurning o'zi yashagan davrdagi musavvirlardan Ustod Gung, Abdulxay, Ustod Shamsiddin, Pir Said Axmad, Ahmad Bog'shamoliy,

Ustod Jahongir tasviriy san'at dong'ini olamga taratdilar. Ular chizgan yorqin tasvirlar, portretlar, tabiat manzaralari, xayotiy lavhalar, jang tafsilotlari o'zining tabiiyligi, tiniqligi va o'ziga xosligi bilan kishi diqqatini o'ziga jalb qiladi. Bu davrda miniatyuralarning katta bir qismi **muroqqa**, yani al'bomlarga ishlash qator mo'yqlam ustalari ishlagan 96 ta muroqqa (albom) shunday tasvirlar sirasiga kiradi.

Ulug'bek zamonida devorga surat chizish san'ati yuqori pog'onaga ko'tarilgan. Tarixnavislar Chilustun va Chinnixona saroylari, rasadxona devorlarida turli tasvirlar g'oyat nafis va jonli naqsh etilgaligini yozib qoldirganlar.

Samarqandda shakllangan tasviriy san'at maktabi Xirotda orqali jahon xalqlari madaniyatiga ta'sir o'tkazganini alohida qayd etmoq kerak. Bu jihatdan zamondoshlari tomonidan «**Moniyi soniy**», keyinchalik Fapb olimlari tomonidan «**Sharq Rafaeli**» deb ulug'langan **Kamoliddin Behzod** ijodi va u asos solgan miniatyura maktabi (yirik vakillari - **Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Maxmud Muzaxib, Shohmuzaffar va b.**) katta yutuqlarga erishdi. Shu o'rinda Behzodning hayoti va ijodiy faoliyati bilan qisqacha tanishtirib o'tish muhimdir.

Behzod (1455-1537) Xirotda kambag'al oilada tug'ilib, yoshligida yetim qolgan. Mirak Naqqosh uni o'z tarbiyasiga olgan. Alisher Navoiy xomiyligida Behzod o'z zamonasining mohir, nafis mo'yqalam sohibi darajasiga ko'tarilgan. Rassom Reyx ishlagan «**Bexzod o'z ustaxonasida**» suratini ko'rsatish mumkin. Tasvirning nozikligi, jonli va xaqqoniyligi, bo'yoqlarni «so'zlata olish» san'ati tufayli u katta xurmatga sazovor bo'la boshlaydi. U 1487 yili Xusayn Boyqaroning Xirotdagi kutubxonasiga rahbar etib tayinlanadi.

Buyuk rassom Sharafiddin Ali Yazdiy, Abduraxmon Jomiy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Shayx Sa'diy kabi mutafakkirlarning asarlarini go'zal miniatyuralar bilan bezagan.

Musavvir portret san'ati borasida bebaxo yutuqlarni qo'lga kiritgani xususida gapirib, Alisher Navoiy, Sulton Xusayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Abdurahmon Jomiy portret asarlari orqali tengsiz san'atkor ekanligi isbotlagani aytiladi va u ishlagan Xusayn Boyqaro rasmi ko'rsatiladi. Bunda musavvir tomonidan inson tanasiga xos mutanosibliklarning g'oyat ustalik bilan chizilganiga talabalar diqqati jalb qilinadi.

Temuriylar madaniyati ravnaqida kitobat san'atining o'rni ham alohidadir.

Kitobat san'ati deganda, qo'lyozma asarlarni ko'chirib yozish va u bilan bog'liq bo'lgan xattotlik, musavvirlik, lavvoqlik (lavha chizish) va sahhoflik (muqovasozlik) san'ati tushunilgan va nafis kitob bu san'atning mahsuli xisoblangan.

Bir necha kasb-xunar sohibining uzoq va mashaqqatli mehnati bilan bunyodga kelgan nafis kitob oz nusxada bo'lib, u nihoyatda qimmat bo'lar edi.

Xatgotlik maxsus kasb, o'ta nozik va o'ziga xos san'at bo'lib, yetuk xattot bo'lib tanilish uchun mukammal savodli, badiiy didi baland, sabr-matонатli, ijodkor kishi bo'lishi lozim bo'lgan. Bu davrda mashhur **xattot Tabriziy nasta'liq** deb nomlangan **yangi uslubdagi xatni** yaratdi. Bu uslub xatti **kufiy, xatti shikasta, nasx** va boshqa uslubdagi dasxatlar o'rnini egalladi.

Bu davrda Samarqand va Xirotda maxsus saroy kutubxonalari tashkil etilgan bo'lib, bu yerda qo'lyozma asarlarni to'plash va saqlash bilan birga, ulardan nusxalar

ko'chirish, turli tasvir va nakqshlar bilan bezash xamda muqovalash ishlari amalga oshirilgan.

Navoiy davrida Xirotda xattotlik san'ati namoyandalari **Sulton Ali Mashxadiy**, uning shogirdlari **Rafiqiy** nomi bilan mashhur bo'lgan **Mir Ali kotib**, **Sultonali Xandon**, **Darvesh Muxammad Samarqandiy**, **Abdujamil** kabilar faoliyat ko'rsatishgan. Bular orasida «**Sulton ul xattoton**», «**Qiblat ul-xuttob**» nomini olgan **Sulton Ali Mashxadiy** alohida o'rin egallaydi. U mashhur shoir va mutafakkirlap asarlarini ko'chiradi. Cylton Ali tomonidan ko'chirilgan 50 dan ziyod **kitob va qitalar** bizning davrimiztacha yetib kelgan.

Musika san'ati ham ushbu asrlarda san'atning boshqa turlari bilan aloqada yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tarildi.

Amir Temur davrida musiqa olamida **Abduqodir Go'yanda** (1334— 1435) mashhur bo'lgan.

Temuriylar davri musiqa san'atida, ayniqsa, Xirotda ijodiy muhitining roli katta bo'lgan. Bu yerda juda ko'p mahoratli **sozandalar, bastakorlar va hofizlar** yetishgan.

Qulmuhammad, Abduqodir Nayiy, Xusayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy va boshqalar shular jumlasidandir.

Navoiy, Jomiy, Binoiy musiqa nazariyasiga doir asarlar yaratganlar.

XII-XIII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan «**Duvozaqmaqom**» («12 maqom») turkumi takomillashib, yangi kuylar bilan boyidi.

Xattotlik san'ati o'ziga xos soha bo'lib, arabcha xusnixat yozuvchi ma'nosini beradi. Xattotlik – yozuv (xat) san'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning yozuvli qismlarini yaratish kasbi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli xattotlikning rivoji tezlashgan.

Turkistonda kitob bosish vujudga kelgunga qadar qo'lyozma kitob tayyorlash, ularning nushalarini ko'paytirish (matn ko'chirish) bilan xattotlar shug'ullanganlar. Xattotlar saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida guruh bo'lib ishlashgan. Masalan, temuriy shahzoda Boysung'ur Mirzo (1397-1433) saroyidagi kutubxonada **musavvir, naqqosh** va boshqa ustalar bilan bir qatorda 40 dan ziyod xattotlar qo'lyozma kitoblar tayyorlash, ta'mirlash bilan mashg'ul bo'lganlar.

Kitobat san'ati bilan bir qatorda binolarning kitobalari, qabrtoshlardagi bitiklar va buyumlarga yozuvda ham xattotlik keng qo'llanilgan. Umuman olganda, Movarounnahrda kitobat san'ati X-XII asrlarda muayyan soha sifatida shakllangan va XIV-XV asrlarga kelib yangi **taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan. XV-XVI asrlarda bir qancha iste'dodli xattot, musavvir, lavvoh, sahhoflar Abdurahmon Xorazmiy, Sultonali Mashhadiy, Sultonali Xandon, Mirali Qilqalam** va boshqalar yetishib chiqqan. Shaxsan Sultonali Mashhadiy Nizomiy, Hofiz, Sa'diy, Navoiy, Husayn Boyqaro va boshqalarning asarlarini ko'chirib shuhrat qozongan. U ko'chirgan 50 dan ortiq kitoblar bizgacha yetib kelgan.

Deyarli barcha hukmdorlar saroyida kutubxonalar bo'lib, ularning boshliqlari «**kutubxona dorug'asi**», «**kitobdor**» deb atalgan.

Endi ana shu yuqorida nomlari zikr etilgan ijod yo'nalishlarining xonliklar davridagi rivojiga e'tibor qaratsak. Keyingi asrlar tasviriy san'ati rivojiga muhim asos bo'lib xizmat qilgan Hirotidagi mashhur Kamoliddin Behzod maktabi (XV asr II

yarmi) ni eslab o'tish joiz. Behzod ijodidan ilhomlangan izdoshlari **Qosim Ali, Sulton Muhammad, Muzaffar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Mirsaid Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo** kabilar keyingi asrlar ushbu janrlar rivojini yuksalishida samarali ijod qilib, madaniyatimiz xazinasini boyitdilar.

O'rganilayotgan davrida yurtimizdan yetishib **chiqqan kitobat, xattotlik va musavvirlik** ijodining ayrim vakillari faoliyati haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Darvesh Muhammad Toqiy (XV asr II yarmi-XVI asr boshlari). Xirotlik. Mashhur xattot, nasta'liq xati ustasi. Jomiy va Alisher Navoiy asarlarini, Husayn Voiz Koshifiyning «Lubob ul-albob» asarini, Alisher Navoiyning 3 ta terma devonini, Muhammad Tohiriy G'azzoliyning «Ma'rifat ul-Mazohib» asarini, Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa»sini nasta'liq xatida ko'chirgan. Bu asarlar O'z FA SHI fondida, Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin kutubxonasida saqlanmoqda.

Qosim Ali (XV asr II yarmi-XVI asr 30-yillari). Xirotlik. Musavvir, xattot va olim. Kamoliddin Behzodning eng yaqin shogirdi. Xirot miniatyura maktabining yirik vakili. Alisher Navoiyning shaxsiy kutubxonasida ijod qilgan. Husayn Boyqaro xukmronligi davrida saroy kutubxonasida ishlagan. Qosim Ali chizgan «Alisher Navoiy va Sulton Muhammad Mirzo» asari mashhur bo'lgan. Shuningdek, u Navoiyning, Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa» dostonlari va boshqa qo'lyozmalarini nafis, mo'jaz rasmlar bilan bezagan. Rasmlar rangga boyligi, tiniqligi va kishilarni o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishga intilganligi bilan diqqatga sazovordir.

Sulton Muhammad Nur (1472-1530). Xirotlik. Xattot, nasta'liq xati ustasi. Sultonali Mashhadiyning shogirdi. Alisher Navoiy homiyligida xattotlik san'atini o'rgangan. Asosan Xirotda ijod qilgan. Ma'lum muddat Buxoroda ham bo'lgan. Salim kotib, Ayniy va boshqa bir qator yetuk xattot shogirdlar tayyorlagan.

Sulton Muhammad ko'chirgan qo'lyozmalar: Abdulla Hotifiyning «Xamsa» dostonidan terma baytlar, Sa'diyning «Bo'ston» asari, Nizomiyning «Xamsa»si, Jomiyning «Yusuf va Zulayho», «Suhbat ul-abror» asarlari, Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»si, Nizomiyning «Xusrav va Shirin», Navoiyning «Devon»i, «Kalila va Dimna» asarlari bugungi kunda Britaniya, Texron, Nyu-York, Istanbul, Lohur, Hindiston, Rossiya davlatlari muzeylari va kutubxonalarida saqlanmoqda.

Sulton Muhammad Xandon (XV asr-XVI asr II yarmi). Xirotlik xattot, shoir va nasta'liq xati ustasi. Sultonali Mashhadiyning shogirdi. O'zi ham ko'plab shogirdlar tayyorlagan.

Xandon ko'chirgan qo'lyozmalar: Sa'diyning «Bo'ston» asari, Hofizning «Devon»i, Husrav Dehlaviyning «Devon»i va «Qiron us-sadayin» asari, Jomiy va Navoiyning «Devon»lari bizgacha yetib kelgan.

Mahmud Shahzoda (XV asr oxiri-XVI asr). Naqqosh va musavvir. Behzod, Og'a Miraklardan ta'lim olgan. Behzod an'analarini davom ettirib, o'ziga xos maktab yaratgan. Musavvir Hofiz Sheroziyning «Devon»i, Jomiyning «Tuhfat ul-afkor», «Haft lanzar», Nizomiy Ganjaviyning «Mahzan ul-asror», Sa'diy Sheroziyning «Bo'ston», «Ravzat ul-muhibbin» qo'lyozmalariga miniatyuralar yaratgan.

Yusuf Naqqosh (XV asr oxiri-XVI asrning 30-yillari). Xirot va Movarounnahrda ijod qilgan musavvir. Kamoliddin Behzoddan ta'lim olib, ustoz an'analarini Movarounnahrda davom ettirgan.

Tarixchi Zayniddin Vosifiy musavvirning bilimi va mahoratiga baho berib:


«Mavlono Jaloliddin Yusuf fazilat va kamolot mujassami, badiiy rasmlar musavviri, latif raqamlar nafis ijodkori, naqqoshlik va suratgarlik san'atida kamolot martabasida erdi», deb yozgan edi.


Yusuf Naqqosh shayboniylar xonlaridan Abulmuzaffar Sulton va Muhammad Bahodir saroyida xizmatda bo'lgan.

O'qituvchi temuriylar davri shaharsozligi va me'morchiligini keyingi paragraflarda alohida va batafsil to'xtalsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Amir Temur va temuriylar davri memorchiligining o'ziga xos xususiyatlari aks etgan me'moriy yodgorliklarni tavsiflang.
2. Temuriylar davrida ilm-fanning barq urib rivojlanishi sabablarini nimadan deb bilasiz?
3. Ulug'bekning ilmiy ijodi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Temuriylar davri adabiyotining rivojlanishi, badiiy uslub jihatidan takomillashganligini o'sha asrlarda faoliyat yuritgan shoir va adiblar ijodi orqali ta'riflang.
5. Tasviriy san'atdagi yutuqlar, «Sharq Rafaeli» - Behzod ijodi hakdla gapirib bering.
6. Musiqa san'atining rivojlanishida XIV-XV asr yangi bosqich bo'lganligini isbot qiling.
7. Ktgobat san'ati deganda siz nimalarni tushunasiz?
8. Temuriylar davri madaniyati olamshumul tarixiy ahamiyat kasb etganligini ko'rsatib bering.

Mavzuni o'qitishda **«Aqliy hujum»** metodidan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.





9-Mavzu: Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida madaniyat (XVI asr oxiri - XVIII asrning birinchi yarmi)

Reja:

1. Shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronligi davrida madaniyat.
2. XVI asr oxiri - XVIII asrning birinchi yarmi tarixnavislik maktablarining shakllanishi.
3. Tarixiy - badiiy asarlar va tarjimonlik ijodi.
4. Kitobat, xattotlik, musavvirlik va tasviriy san'at ijodi.
5. SH ye ' r i ya t.
6. Diniy ilm namoyandalari ijodi.
7. Musiqa-qo'shiqchilik ijodi, musiqa nazariyasi namoyandalari.
8. Dostonchilik - baxshichilik ijodi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti. I-XII jildlar.
2. Qayyumov Po'latjon Domulla. Tazkirai Qayyumiy. I-II-III jildlar. Toshkent: O'z R FA qo'lyozmalar tahririy nashriyoti bo'limi, 1998.
3. Qilichev To'ra. Xorazm xalq teatri. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
4. Qodirov M. O'zbek xalq og'zaki dramasi. Toshkent: «O'qituvchi», 1963.
5. Homidiy Hamidjon. Qo'hna Sharq darg'alari. Toshkent: «Sharq», 1999.
6. Hasanov Soli. Xorazm ma'rifati - olam ko'zgusi. Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
7. Hamidov Hojiakbar. Musiqa-qo'shiqchilik madaniyatimiz tarixidan. Toshkent: «O'qituvchi», 1995.

8.Hamidov Hojiakbar. O‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi. Toshkent: «O‘qituvchi», 1996.

9.Hakimov N., Karimov SH., Sodiqov M., Xakimjonov A. Vatan madaniyati tarixi. Toshkent: TDIU, 1995.

« Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida madaniyat **mavzusini bayon qilish jarayonida Shayboniyxon va Ashtarxoniylar davlatining tashkil topishi va bu davrdagi yurtimiz madaniy hayoti bilan tanishtiriladi.**

XVII-XVIII asrlarda Turkistonda xukmronlik uchun o‘zaro kurashlar, talon-tarojlik, boshboshdoqlik avj oldi. Mustaqil xonlikka ajralib chiqqan Xiva va Buxoro xonligi o‘rtasida ichki ziddiyatlar kuchaydi. Bu xammasi madaniyatga salbiy ta’sir etmay qolmadi. Nisbiy tushkunlik, susayish bu davr madaniyatini tasvirlovchi xislatlar bo‘lib qoldi.

Shayboniy va ashtarxoniylar xukmronligi davrida (1500—1753 yillar) fan va madaniyat, xususan, tarix, adabiyot, me’morchilik ma’lum darajada rivojlandi. Lekin XVII asrga kelib, ashtarxoniylar zamonasida madrasalarda diniy adabiyot asosiy o‘rinni egallab, dunyoviy fanlarni o‘qitish ikkinchi o‘ringa tushib qoldi.

Bu davrda Buxoro, Xiva, Qo‘qon tarixnavislik maktablari shakllandi.

XVI-XIX asrlar Buxoro xonligi (amirlik) ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganishda tarixnavislar: Fazlullox ibn Ruzbexonning «Mehmonnomai Buxoro», Xofiz Tanish Buxoriyning «Sharafnomai shoxiy», Zaynuddin Vosifiyning «Badoye’ ul-vaqoye’», Muxammad Vafo Karmanagiyning «Tuxfat ul-xoniy», Mirza Muxammad Xaydarning «Tarixi Rashidiy», Muxammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy», Abdurahmon Tolening «Tarixi Abulfayzxon», Muxammadsharifning «Tarixi Amir Xaydar», YAqub Buxoriyning «Gulshan ul-muluk», Mirolim Buxoriyning «Fatxonmayi sultoniy», Mirza Abdul Abduazim Somiyning «Mang‘it sulolalari tarixi» singari asarlari muhim o‘rin tutadi.

Movarounnahrda XVI—XVII asrlarda adabiyot, tarix, me’morchilik ma’lum darajada rivojlandi. Xasanxoja Nisariyning (1566) «**Muzakkiri-ahbob**» va **Mutribi**yning (1604—1605) «**Tazkiratul shuaro**» nomli O‘rta Osiyo adabiyoti antologiyalarida o‘lkaning Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlarida yashab, ijod qilgan adabiyot va fan arboblarning ko‘plab nomlari keltirilgan.

XVI asrning birinchi yarmida o‘zbek tilida adabiy, tarixiy asarlar paydo bo‘ldi. «**Tavorix-i guzida**» yoki «**Nusratnoma**» shu sohadagi ilk asarlardan bo‘lib, muallifi hozirgacha noma’lum. Muhammad Solihning (1455 - taxm. 1535) «**Shayboniynoma**» dostoni ham o‘zbek tilida tuzilgan.

Asar Shayboniyxon tug‘ilgandan boshlab, to 1505 yilgacha bo‘lgan davrdagi Dashti Qipchoq Movarounnahr xamda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy hayotidan bahs yuritadi. Asar boy etnografik ma’lumotlarga xam ega.

Zaxiriddin Muhammad Bobur o‘zining ajoyib she’rlari va «**Boburnoma**» nomli ensiklopedik asari bilan tarixda o‘lmas iz qoldirdi.

Muhammad Shayboniyxon (1457—1510) ham o‘zidan so‘ng tuzukkina adabiy asarlar va she’rlar yozib qoldirgan. Uning 1508 yilda chig‘atoy-turkiy tilda yozgan «**Bahr ul-xudo**» («**Xaqiqiy yo‘lning dengizi**») nomli diniy qasidasida: «Podsholikda Shayboniy farzdan ayrilmag‘il, fakro shohi ikki olam ichra bo‘lur podsho. Tangri gar

berdi senga Eronu Turon, bandalik tavdin Shayboniy bermagil esdin daho» deyiladi. Bu yagona qo'lyozma nusxasi Londondagi «**Britaniya Muzeyi**» kutubxonasida saqlanmoqda.

Shayboniy o'z she'rlarida Turkiston shaharlarini hurmat bilan tilga oladi. Samarqandni jannatga o'xshatsa, Buxoroni Ka'ba singari ulug'laydi.

Turkistonga cheksiz muhabbat qo'ygan Shayboniyxon Movarounnahrning temuriylar davridagi madaniy shuhratini tiklashga intilgan.

Bu vaqtda Rashiddin va Sharofiddin Ali Yazdiyning Ulug'bekka bag'ishlangan tarixiy asarlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi, Alisher Navoiy ijodiy an'alarining avlodan-avlodga o'tib borganligi diqqatga loyiqdir.

Xiva tarixchilik maktabiga marifatparvar davlat arbobi **Abulg'oz Baxodirxon** (1603-1664) o'zining «**Shajarai turk**», va «**Shajarai tarokima**» nomli tarixiy asarlari bilan asos soldi. Ushbu asarlar ruhida tarbiya topgan Munis Xorazmiy («Firdavs-ul iqbol»), Ogahiy («Gulshani davlat», «Zubdat ut-tavorix», «Jome' ul-voqeoti Sultoniyy»), Bayoniy («Xorazm tarixi, «Shajarai Xorazmshoxiy») tomonidan Xorazm tarixi XX asr boshiga yetkazildi.

Abulg'oz Baxodirxon (Xiva xoni) (1644-1663)ning «**Shajarai turk va mo'g'ul**» xamda «**Shajarai tarokima**» nomli ikkita yirik asarining yozilishi va ularning XVI-XVIII asrlardayoq Yevropaning bir necha tillariga tarjima qilinganligi biz uchun fahr va iftixordir!

Shoir va tarixchi olim Kamoliddin Binoiy «**Shayboniynoma**» (1505—1507) nomli kitobini yozib qoldirdi. Fazlulloh ibn Ruzbehon 1457 yili Fors viloyatining (Eron) Xo'nji qishlog'ida tug'ilgan. Uning «**Mexmonnomai Buxoro**» asari Shayboniyxonga bag'ishlangan.

1475 yilda tug'ilgan tarixchi Xondamir O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq tarixi va madaniyatiga oid o'ndan ziyod asarlar yozib qoldirgan. Uning ilmiy merosida «**Xulosat ul-axbor**» («Tarixlar xulosasi»), «**Xumoyunnoma**» va ayniqsa «**Xabib as-siyar**» («**Inson xabarlari va dardlarida do'stning tarjimai xoli**») asarlari mashhurdir.

XVI—XVIII asrlarda tarixchi olimlar - Zayniddin Vosifiy, Mirzo Muxammad Xaydar, Xasanbek Tumlu, Xofizi Tanish Buxoriy yashab ijod qilganlar. Buxoriyning «**Abdullanoma**», Abdulfozil Allomiyning «**Akbarnoma**» asarlari muhim ahamiyatga ega. Mir Muxammad Amin Buxoriyning «**Ubaydullanoma**» asari o'sha davr madaniyati tarixini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Uning «**Tarix-i Abulfayzxon**» nomli asari «**Ubaydullanoma**»ning davomi hisoblanadi. Bu asarlarda O'rta Osiyoda XVI—XVIII asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy tuzum to'g'risida boy ma'lumotlar berilgan.

XVII asr adabiy hayotida Boboraxim Mashrab, Mushfiqiy katta o'rin tutadi. Mashrab ijodi nafaqat O'rta Osiyoda, balki qo'shni Sharq mamlakatlarining she'riyatiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Movarounnaxrda XVI—XVII asrlarda maorif tizimi xam birmuncha rivojlandi. O'ziga to'q oilalar farzandlari maktablarda o'qishgan. Muxammad Solih bir o'rinda Qunduzning xar bir mahallasida deyarli maktab bor edi, degan edi.

Bu davrda xonaki muallimlar (ya'ni uyda ta'lim beruvchi) yordami bilan ta'lim berish ham keng rasm bo'lgan edi. Bolalar olti yoshdan maktabga borishgan. Keyin

o'quvchilar maktabdan madrasaga o'tishgan va asosan din asoslaridan ta'lim olishgan. Xisob-kitob, she'r o'qish san'ati, musiqa kabi maxsus saboqlar madrasadan tashqarida o'qitilgan.

XVI—XVII asrlarda musiqa madaniyati ham ancha rivoj topgan. Musiqa tarixi va nazariyasiga oid juda ko'p ilmiy asarlar yozilgan. Mashhur xonanda va sozandalar orasidan bizgacha **Mavlono Muxammadamin, Mug'anniy, Mavlono Kavkabiy, Xoja Muxammad Rizo Samarqandiy**larning nomlari bizgacha yetib kelgan.

Buxoro xonligida Turdi Farog'iy (1699 yilda vafot etgan), Saido Nasafiy (1687-1710), Sufi Olloyor (1616-1706), Boborahim Mashrab (1640-1711) XVII asr o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillari edi.

Saido Nasafiy «**Xavonnoma**» asarida zamonasidagi turli tabaqalarning xol-ahvolini hayvonlar timsoli orqali ko'rsatgan. Bo'ri va Sher misolida yer egalarining zolimligini namoyish etadi. Asarda oddiy mexnatkashlar chumoli timsolida tasvirlanib, ular birlashsa Sherni xam yengishi mumkin, degan g'oya ilgari suriladi. Turdi o'z she'rlarida xalqni zulmga, adolatsizlikka qarshi birdamlikka, birlashishga chaqiradi.

Mashrab va Sufi Olloyor aksariyat asarlarida tasavvufning to'rt qoidasiga - shariat, tariqat, ma'rifat va xaqiqatga amal qilinishini targ'ib qildilar.

XVII- XVIII asrlarda Buhoro, Xiva va Qo'qon honliklarida o'ziga hos me'morchilik maktabi shakllandi. **Bu sohada** bir qator ishlar qilindi, har xil binolar, turli savdo rastalari, ariq va kanallar, ko'priklar qurilgan. Buxorodagi Timi Kalon katta hashamatli rasta edi. Karvon yo'llari bo'ylab juda ko'plab sardobalar qurildi. Oldindan borlari esa ta'mirlandi. Ko'plab hammomlar barpo etildi. Zarafshon daryosiga quyilgan suv ayirg'ich-ko'priklar, «**Abdullaxon bandi**» - suv ombori bino qilindi. Ko'pgina shaharlarda katta binolar, machitlar, xonaqolar qurilgan. Bahouddin Naqshbandga bag'ishlab qurilgan katta gumbazli xonaqo, Fayziobod xonaqosi va boshqalar shunday binolardandir.

XVII asr binokorlarida ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi takomillashgan, nafis panjara ishlanish keng rasm bo'lgan. Buxorodagi koshin naqshli panjaralar bilan bezalgan Mir Arab madrasasi, Abdullaxon, Ko'kaldosh madrasasi, Bahouddin Naqshband maqbaralariga qo'yilgan marmarsimon ohaktoshlardan yasalgan panjaralar ajoyib me'morchilik namunalaridir.

Buxoro me'morchilik maktabiga hos uslublar Bolohovuz (1712), Xalifa Xudoydod (1777) masjidlari, Xalifa Niyozqul (Chor Minor) madrasasi (1807), amir chorbosh Sitorai Mohi Xosada (XIX asr oxiri) ko'zga yaqqol tashlanadi.

Xivada bino bezagida asosan uch xil rang (ko'k, oq, va qora) qo'llanilgan. Xiva me'morchiligiga xos uslublar Sherg'ozixon madrasasi (1718-25), Xiva jome masjidi (1788—99), Bog'bonli masjid (1809), Paxlavon Mahmud maqbarasi (1810-35), Olloqulixon saroyi (1830— 38), Olloqulixon timi va karvonsaroyi (1835), madrasasi (1834) va boshqalarda mujassam topgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, ganch o'ymakorligidan ushbu me'moriy yodgorliklarda keng foydalanilgan. Bunda ham o'ziga xos uslublar ko'zga tashlanadi. Masalan, Buxoro ustalarining bezaklari mayinligi, o'simliksimon naqshlarining boyligi bilan, Qo'qonning guldor bezaklari yaxlitligi, kompozitsiyaning tugalligi, Xivaning o'ynoqi

o'yma naqshlari o'ziga xos spiralsimonligi bilan farqlanadi. (O'qituvchi dars davomida bu masalaga batafsil to'xtaladi).

Samarqand registonida Amir Yalangto'shbiy mablag'lari bilan Ulug'bek madrasasiga xamohang Sherdor madrasasi (1613), maydonning uchinchi tomonida «Tillakori» madrasasi qurilgan. Buxoroda Ulug'bek madrasasi qarshisida solingan binolar, Samarqandga yaqin joyda Xo'ja Ahror qabri yonidagi madrasalar shu davrda qurilgan. Buxoroda 1712 yilda qurilgan Labixovuz machiti o'sha zamondagi eng yirik binolardandir.

XVI-XVII asrlar me'morchiligida bunyod etilgan binolar muhandislik-texnik va badiiy jihatdan yangi yechimlarga erishilganligidan shahodat beradi. Avvalo, bu binolarning qo'sh uslubda qurilishi, yirik me'moriy ansambllarning barpo etilishida ko'rinadi. Chunonchi, XVI asrda Buxoroda vujudga kelgan Poi Kalon ansambli (Minorai Kalon, Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi), Chor Bakr ansambli (Chor Bakr honoqohi va masjidi), Baxovuddin qishlog'idagi honaqox va daxmalar majmuoti, Toshkentdagi Hazrati Imom majmuoti (Kaffol Shoshiy, Suyunchxo'jaxon maqbaralari, Baroqxon madrasasi), Samarqanddagi Registon ansambli (Ulug'bek - 1420; Sherdor - 1636; Tillakori - 1660 madrasalari) shular jumlasidandir.

XVI asrda binolar chizma tarhlarga asosan quriladigan bo'ldi. Jamoat va diniy binolarning pastki qavatlariga suvga bardosh beradigan qir (ganch) keng ishlatila boshlandi.

Bu davrlarda jamoat binolari-savdo rastalari, tim, toqilar, karvonsaroy, xammom, rabot, sardoba, to'g'on, ariq, kanal, hovuz va ko'priklar solish keng quloch yoygan. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Abdullaxon II hukmronligi davrida 1001 rabot va sardobalar qurilgan.

Bu asr me'morchiligida nafis panjara ishlatish keng rasm bo'lgan. Bular orasida Buhorodagi koshin naqshli panjaralar bilan bezalgan Mir Arab madrasasi, Abdullaxon, Ko'kaldosh madrasasi, Bahouddin Naqshband maqbaralariga qo'yilgan marmar va marmarsimon ohaktoshlardan yasalgan panjaralar ajoyib me'morchilik namunalaridandir.

Binolarni bezashda mayda o'simlik naqshli parchinlar ishlatish va devorlarga gul chizish ancha keng rasm bo'ldi. Naqsh, gulga alohida qalin qizg'ish (kundal) bo'yoq berib, bo'rttirilardi. Naqshning bo'rtgan joylariga zarjal berilib, ko'k yoki yashil fonga mayda-mayda gul va boshqa xil bezaklarning surati solinardi. Buning ayrim namunalarini XVI asrda Buxoroda qurilgan Mirarab, Modarihon, Ko'kaldosh, Abdullaxon madrasalarida va Xo'ja Zaynuddin, Baland masjidlarida hamda Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasining ichki devorlarida qisman saqlanib qolgan naqsh parchinlarida kuzatish mumkin.

XVII asrda binolarning tashqi bezaklarida jozibadorlik susaydi, lekin binolarning ichki qismlari ilgarigidek serhasham bezatilgan. Bunday serhashamlik Buhoro bezak san'atining yutug'i - Abdulazizxon madrasasida ko'rinadi.

Vatanimiz ko'hna tarixining qaysi davriga nazar tashlamaylik, bunda dastavval buyuk ajdodlarimiz aql-zakovati, iste'dodi-iqtidori, qobiliyati, bilimdonligi bilan birga ularning qadimdan yuksak moddiy va ma'naviy madaniyatning betakror durdonalarini, duru javohirlarini bunyod etib, kelgusi avlodlar uchun bebaho, boy ma'naviy meros qoldirib kelganligini shohidi bo'lamiz.

O'tgan davrlar singari Turkistondagi XVI-XX asrlar boshlari davrida ham ma'naviy madaniyat o'ziga xos yuksalishni boshidan kechirdi. Ushbu davrda olimu fuzalolarimiz tomonidan yaratilgan yirik tarixiy-badiiy asarlar, amalga oshirilgan **tarjima ijodi**, ilm-fan rivoji madaniyatimiz tarixi xazinasidan o'rin olgan bebaho boylik sifatida hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Quyida bu ijodiy yo'nalishdagi ayrim mualliflar va ularning ijodlari haqidagi ma'lumotlarni qisqacha umumlashtirgan holda keltirishga harakat qilamiz.

Abulhayr Fazlulloh ibn Ro'zbehon (1457-1530). Shayboniylar xizmatida bo'lgan tarixchi olim. Uning shayboniylar tarixiga oid «Mehmonnomai Buxoro», «Suluk ul-Mulk» («Podshohlarga yo'l-yo'riq») asarlarini tarjima qilgan. Asar bizgacha yetib kelgan.

Faxriddin Ali Safiy (1463-1534). Hirotida tug'ilgan. Shoir, huquqshunos, tarixchi va tarjimon. Uning «Rashxot ayn ul-hayot», «Latoif ul-tavoif», «Mahmud va Ayozi», «Kashf ul-asror», «Lug'atnoma» kabi asarlari qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan. Xususan «Rashxot ... » asarida naqshbandiya tariqati shayxlarining hayoti va faoliyati, Xoja Ubaydulla Ahrorga bag'ishlangan qismida esa ustoz va shogird (Xoja Ahror va Safiy) muloqotlari yoritilgan. Umuman bu asar naqshbandiya tariqati tarixiga bag'ishlangan bo'lib, asar XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Movarounnahrning iqtisodiy, ijtimoiy hayotini o'rganishda ham qimmatli manba hisoblanadi.

Mas'ud ibn Usmon Ko'histoniy (XVI asr). Shayboniylar sulolasi tarixchilaridan. Tarjimon. Bizgacha uning «Tarixi Abulxayrxoniy» tarixiy asari yetib kelgan. Asar umumiy tarix yo'sinida yozilgan bo'lib, unda «Olamning yaratilishi»dan to XV asrning 60-yillarigacha bo'lgan davr voqealari, shuningdek, Abulxayrxonning o'zi va avlodlari, atrofidagi amaldorlari, sarkardalari haqidagi ma'lumotlar bayoni tavsiflangan.

Mas'ud ibn Usmon Ko'histoniy (XVI asr). Tarixchi olim. Tarjimon Shayboniylardan Suyunchxo'jaxonning, so'ng Samarqand hukmdori Abdulatifxonning munshiysi bo'lgan. Mas'ud ibn Usmon fors tilida «Tarixi Abulxayrxoniy» tarixiy asarini yozgan. Unda Abulxayrxon hukmronligi davridagi shayboniy va mang'it uluslarining ijtimoiy-siyosiy ahvoli, o'zbek ulusining tashkil topishi bayon etilgan. Bu asar Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchi turkiy qabilalarning ijtimoiy-siyosiy ahvolini o'rganishda muhim manbadir. Asarda 30 ga yaqin qabilalar nomlari keltirilgan.

Shayboniylardan Abdullaxon II hukmronligi davrida (1557 - 1598 y.). mamlakatda shaharsozlik, adabiyot bilan bir qatorda ilm-fan ham o'ziga xos taraqqiy etdi. «Abdullanoma» tarixiy asari bilan bir qatorda o'sha davrlarda muallif Amin Ahmad Roziyning «Haft iqlim», Mutribiyning dunyo xaritasi ilova qilingan «Tazkiroti shuaro» kabi ilmiy asarlar yaratildi.

Buxoroda mashhur Abdullaxon kutubxonasi tashkil etildi.

Yurtimizda xonliklar davrida Movarounnahrning XVI asr tarixiga bag'ishlab yaratilgan eng yirik tarixiy asar «Abdullanoma» - «Sharafnomai shohiy» dir.

Asar 1584-1590 yillar davomida Hofiz Tanish Buxoriy tomonidan fors tilida yozilgan. Asar Buxoro hukmdori Abdullaxon II ga bag'ishlanib, «Sharafnomai shohiy» va ayrim nusxalarda «Zarafnomai Abdullaxon» deb ham ataladi.

Asarda Movarounnahrda Abdullaxon II taxtga kelgungacha bo'lgan siyosiy voqealar hamda Shayboniyxon vafotidan so'ng bu hududdagi siyosiy vaziyat, Abdullaxon hukmronligi davri voqealari ishonchli, aniq dalillar, ma'lumotlar asosida yoritilgan. Bu asar Movarounnahr xalqlarining XVI asrdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda eng muhim manbalardan hisoblanadi. Asarning 2 jildidan iborat o'zbekcha nashri e'lon qilingan.

Abdulloh Nasrullohiy (XV asr II yarmi-XVI asr o'rtalari). Tarixchi olim. XVI asr boshlaridan Shayboniyxon saroyida xizmat qilgan. 1533 yilda o'zining «Zubdat ul-osor» nomli asarini yaratgan. Unda turkiy, mo'g'ul xalqlarining tarixi, Movarounnahr va Xurosonda shayboniylar hukmronligining dastlabki yillaridagi siyosiy hayot bayon etilgan.

Ko'hakiy Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy (XVI asr). Tarixchi, huquqshunos, tarjimon. U jug'rofiya, etnografiya, handasa, riyoziyot, falsafa, mantiq, fiqh, adabiyot sohalarining ham bilimdoni bo'lgan. 10 dan ziyod asarlar yozgan. Uning «Risolai fifanniy-at tavsir val kalom» (e'tiqodga oid ilmlar haqida risola) asari bizgacha yetib kelgan. Ko'hakiy, shuningdek, Muhammad ibn Andonning 2 jildli «Tarixi Turkiston» asarini forschadan o'zbekchaga o'g'irgan va unga yangi ma'lumotlarni qo'shib boshqa nom bilan nashr ettirgan. Ko'hakiyning «Sharhi obodul al-munozara» kitobiga yozgan sharhi va arab tilida yozilgan «Favoid ziyoiya» (munavvar foydalar) nomli sharhlangan asari O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Ko'chkunchixon (XVI asr I yarmi). Shayboniylar sulolasidan bo'lgan xon. Abulxayrxon va Robiya Sulton Begim (Ulug'bekning qizi) dan bo'lgan farzand. Ko'chkunchixon davrida ilm-ma'rifat rivojlangan. Bir qator asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari bajarilgan. Fors tilidan o'zbek tiliga Rashididdinning «Jome at-tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari tarjima qilingan, kutubxonalar kengaygan va ko'paygan. Buxoroda Abdulazizxon kutubxonasi ochilgan.

Abulbaqo ibn Bahouddin (XVI asr II yarmi-XVII asr I choragi). Tarixchi. Abdulazizxon saroyida xizmatda bo'lgan. U o'zining bobosiga bag'ishlab «Jome' ul-maqomoti Mahdumi A'zam» nomli tarixiy kitobini yozgan. Kitobda Movarounnahrning XVI asrning birinchi yarmidagi iqtisodiy va siyosiy ahvolga doir qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Zayniddin Vosifiy (1486-1566). Shayboniylar davrining mashhur adiblaridan biri. Hirotida tug'ilgan. Toshkentda vafot etgan. Vosifiyning qalamiga mansub «Badoyi ul-vaqoya» (Ajoyib voqealar) nomli tarixiy-badiiy asarda o'sha davrning mashhur adiblari hayoti haqida qiziqarli hikoyalar bayon etiladi. Vosifiy xattotlik va muallimlik ham qilgan. Jumladan, Toshkent viloyatida shahzoda Navro'z Ahmad huzurida saroy muallimi vazifasini ham ado etgan.

Mahmud ibn Vali (XVI-XVII asr). Balxda tug'ilgan. Shoir, tarixchi, tabib, adabiyotshunos, sayyoh. O'z davri bilimlarini yaxshi egallagan. Uning asarlari

orasida «Baxr ul-asror» (Sirlar ummoni) nomli har bir jildi 4 qismdan iborat 7 jildlik asari alohida ahamiyatga ega. Asar Balx hokimi Nodir Muhammad topshirig'iga muvofiq (1645-1651 yillarda) forsiy tilda yozilgan. Asar tarixga oid kitob bo'lsada, u qomusiy xarakterda bo'lib, Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Sarandib, Sharqiy Turkiston va boshqa o'lkalar tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Shuningdek, asarda o'sha davlatlar aholisi, urf-odati, e'tiqodi, kasb-kori, o'zaro munosabatlari, iqtisodi, ishlab chiqargan mahsulotlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi.

Husayn Saraxsiy (XVI-XVII asrlar). Jo'ybor xojalarining muridi, tarixchi va mutasavvif. Uning forscha «Manoqibi Sa'diya» («Xoja Muhammad Sa'dning munoqiblari») asari Jo'ybor xojalariga bag'ishlangan bo'lib, 7 bobdan iborat. Unda Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng Movarounnahrda ichki vaziyat, turli tarixiy voqealar jarayonlari bayon etilgan. Asar sharqshunos H.To'rayev tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Abulg'oziy Bahodirxon (XVII asr). Xiva xoni. Shayboniylarning 2-sulolasi Elbarsxonlardan. Tarixchi va tabib. Xon Abulg'oziy yirik tarixchi olim sifatida ham madaniyatimiz tarixidan muhim o'rin olgan. Uning «Shajarai turk» va «Shajari tarokima» nomli tarixiy va tib ilmiga oid «Manofi ul-inson» (Insonga foydali narsalar) asarlari nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyo tarixiga oid qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Muhammad Yusuf Munshiy (XVII asr). Balxlik tarixchi olim. Ashtarxoniylardan Subxonqulixon va Balx hokimi Muhammad Muqimxon saroyida munshiylik vazifasida ishlagan. U o'zining «Muqimxon tarixi» nomli tarixiy asarida Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etgan. Unda shayboniylar davrida Movarounnahrning umumiy ahvoli ham tasvirlanadi. Shu bois, «Muqimxon tarixi» asari qimmatli tarixiy manbadir.

Muhammad Amin ibn Muhammadzamon (XVII asr). Uning «Muhit ut-tavorix» (Tarixiy davrlar) asari bizgacha yetib kelgan.

Turdiy - (XVII asr). «Subxonqulixon to'g'risida hajviya» asari bizgacha yetib kelgan.

Said A'lam Roqimiy (XVII-XVIII asrlar). Andijonlik. Hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar kam. Uning «Tarixi tomm» asari ilmiy, adabiy-tarixiy, ma'rifiy, estetik ahamiyatga ega. Unda o'nlab huquqshunos olimlari haqida ma'lumotlar bilan birga 1633-1644 hamda 1645-1701 yillar davomida Eron va O'rta Osiyoda yuz bergan voqealar, hodisalar, o'sha davrda yashab o'tgan tarixiy shaxslar hayoti haqida ma'lumotlar bayoni ham berilgan. Shuningdek, asardagi yirik tarixiy shaxslar: Hamadoniy, Nishopuriy, Naqshband, Taftazoniy, Tayobodiy, Hasan Kubroviy, Zominiy, Hofiz, Sa'diy, Jomiy, Navoiy, Binoiy, Koshifiy, Kotibiy, Mushfiqiylarning shaxsi haqidagi ma'lumotlar ham muhim tarixiy manbadir.

Muhammad Yusuf Munshiy (XVII asr). Balxlik tarixchi olim. Ashtarxoniylardan Subxonqulixon va Balx hokimi Muhammad Muqimxon saroyida munshiylik vazifasida ishlagan. U o'zining «Muqimxon tarixi» nomli tarixiy asarida Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon

etgan. Unda shayboniylar davrida Movarounnahrning umumiy ahvoli ham tasvirlanadi. Shu bois, «Muqimxon tarixi» asari qimmatli tarixiy manbadir.

Mirmuhammad Amin Buxoriy (XVII asr). Buxorolik tarixchi olim. Uning «Ubaydullanoma» asari Ubaydullaxon hukmronligi davri haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manbadir.

Muhammad Amin ibn Muhammadzamon (XVII asr). Uning «Muhit ut-tavorix» (Tarixiy davrlar) asari bizgacha yetib kelgan.

Turdiy - (XVII asr). «Subxonqulixon to'g'risida hajviya» asari bizgacha yetib kelgan.

Said A'lam Roqimiy (XVII-XVIII asrlar). Andijonlik. Hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar kam. Uning «Tarixi tomm» asari ilmiy, adabiy-tarixiy, ma'rifiy, estetik ahamiyatga ega. Unda o'nlab huquqshunos olimlari haqida ma'lumotlar bilan birga 1633-1644 hamda 1645-1701 yillar davomida Eron va O'rta Osiyoda yuz bergan voqealar, hodisalar, o'sha davrda yashab o'tgan tarixiy shaxslar hayoti haqida ma'lumotlar bayoni ham berilgan. Shuningdek, asardagi yirik tarixiy shaxslar: Hamadoniy, Nishopuriy, Naqshband, Taftazoniy, Tayobodiy, Hasan Kubroviy, Zominiy, Hofiz, Sa'diy, Jomiy, Navoiy, Binoiy, Koshifiy, Kotibiy, Mushfiqiylarning shaxsi haqidagi ma'lumotlar ham muhim tarixiy manbadir.

Xo'jamqulibek Balxiy (XVII asr oxiri-XVIII asr I yarmi). Tarixchi olim va davlat arbobi. Otasi Imomquli Qushbegi Subhonqulixon saroyida xizmatda bo'lgan. Balxiy 1718-1824 yillarda fors tilida «Tarixi Qipchoqxon» asarini yozgan. Asarning oxirgi boblarida Shayboniylar va ashtarxoniylar, o'zbek ulusi xoni Abulxayrxondan to 1724 yilgacha Dashti Qipchoq, Movarounnahr, Xuroson, Shimoliy Afg'oniston, Sharqiy Turkiston, Eron, Hindistonda yuz bergan muhim siyosiy voqealar tasvirlangan. Unda temuriyzoda Abu Said bilan Abulxayrxon o'rtasidagi ittifoq, Buxorodagi qalmiqlar, qipchoqlar, qoraqalpoqlar, xitoy-qipchoqlari qo'zg'olonlari (1682, 1715-16, 1718-19 y.y.) haqida ham muhim ma'lumotlar berilgan. Asar qo'lyozmasi O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Sharafiddin A'lam (XVII-XVIII asr I choragi). Tarixchi. Andijon viloyatida tug'ilgan. Keyinchalik Samarqandda yashagan. Uning «Tarixi Said Roqim» tarixiy asarida Movarounnahr, Xuroson va Hindistonda Temur davlatidan to 1645 yilgacha, ya'ni ashtarxoniylardan Buxoro xoni Abdulazizxon taxtga o'tirgungacha bo'lgan davr tarixiy voqealari tasvirlanadi. Bu asar Mirza Salimbek tomonidan 1913 yilda Toshkentda nashr etilgan.

Xoja Mir Muhammad Salim (XVII asr oxiri - XVIII asr I yarmi). Tarixchi olim. Ashtarxoniy sultonlar oilasida tug'ilgan. Ubaydullaxon II vafotidan so'ng boburiylardan Nosiriddin Muhammadshoh xizmatiga kirgan. Uning topshirig'i bilan fors tilida «Silsilat as-salotin» (Podsholar silsilasi) tarixiy asarini yozgan. Bu asar Buxoro xonligidagi XVI-XVIII asr I choragi tarixiy jarayonlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, asarda ulus tizimi, soliqlar, O'rta Osiyo shaharlari, aholisi va urf-odati haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Asar qo'lyozmasi Angliyadagi Bodlian kutubxonasida saqlanmoqda.

Muhammad Amin Buxoriy (XVII asr-XVIII asr boshlari). Buxorolik tarixchi olim. Hayoti to'g'risidagi ma'lumotlar deyarli saqlanmagan. Taxminan 60 yoshlarida «Muhit at-tavorix» (Okeanlar tarixi) asarini yozgan. Asar 10 bobdan iborat bo'lib, uning keyingi boblari somoniylar va ashtarxoniylar davrini o'z ichiga olgan. Asarda olimlar, xattotlar va naqqoshlar haqida noyob ma'lumotlar berilgan. Xususan, Subxonqulixon (1681-1702) davrida yuz bergan siyosiy voqealar keng yoritilgan. Asar u bilan taxminan bir vaqtda yaratilgan Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy» va Mirmuhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma» asarlari kabi ashtarxoniylar davrini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

XVI—XVII asrlarda Samarqand va Buhoroda miniatyura va kitobat san'ati ravnaq topdi. Buxoro, ayniqsa, o'zining hattotlari bilan shuhrat qozongandi.

1587 yilda **Do'stmuhammad Buhoriy** «Hattotlik san'ati» deb nomlangan asar yozgan. U «Fathnoma», «Tarixi Abulxayrhan», «Shayboniynoma» hamda Navoiy asarlarini miniatyuralar bilan bezagan. **Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Hiraviy, Mahmud Shixobiy** va boshqalar zamonasining mashhur husniyat ustalari edilar.

Alisher Navoiy siymosini tasvirlagan **Behzodning shogirdi Mahmud Muzahhib** Buhoro miniatyura makgabining rivojlanishiga hissa qo'shdi. Buxoro va Samarqand miniatyura makgabining namoyandalari **Jaloliddin Yusuf, Keldi Muhammad, Muhammad Chag'riy Muassin, Muhammad Nodir Samarqandiy, Muhammad Murod Samarqandiy**lar ishlagan ajoyib miniatyuralar o'zining milliy ruhi, ya'ni ranglarning tiniq va yorqinligi xamda boyligi bilan ajralib turadi. Yuqoridagilar haqida batafsil to'xtalamiz.

Mirzo Boqiy (XVI asr). O'z davrining mashhur kotibi, hirotlik Mir Alining o'g'li bo'lib, xattotlik ilmini chuqur egallagan. O'sha davrlarda keng qo'llanilgan «nasta'liq» xati yozuv uslublarini oliy darajadagi san'ati bilan yozgan.

Qosim Arslon (XVI asr). Qosim Arslon Navoiyga zamondosh bo'lgan shoir Mashhadiyning farzandi bo'lib, ikki sohada samarali ijod qilgan. Kitobat sohasida o'z ishining mohir sohibi bo'lib, yozgan xati esa ham chiroyli, ham to'g'ri bo'lganligi uchun ko'pchilikka ma'qul bo'lgan. Shuningdek, u she'riyatda ham katta yutuqlarga erishgan. Umrining oxirgi yillarida Hindistonga borib, boburiylar saroyida yanada katta obro' topadi va ijod bilan jiddiy shug'ullanib «Malik ush-shuaro» unvoniga erishadi.

Mavlono Mahramiy (XVI asr). Asosiy kasbi kitobatchilikdan, xattotlikdan iborat bo'lib, she'riyat bilan ham shug'ullanib, ayniqsa marsiyago'ylikda mahoratli bo'lgan.

«Gulandomkim, labi yaproqdan ham nozikroq erur

Og'zi go'yo yoqut saqlanadigan qutichayu, tishlari gavhar erur».

Xoja Abdusalom - (XVI asr). Abdullaxon II ning inisi Abdulquddus sulton saroyida kitobdorlik va xusnixat egasi mansabida ishlagan, lekin darveshona hayot kechirishni xush ko'rgan. Turkiy va forsiyda ko'pgina she'rlar ham ijod qilgan. Namuna:

«Labingiz abadiylik baxsh etuvchi obi hayot ne darkor,

Usiz hayot chashmasini tashno ko'rarman, bu ne darkor,

Salomiy, to boshqa birov ko'chasi tuprog'i bo'lib ulgurmasdan,

Ko‘chasi boshida posbonlik usulini bo‘ynimga oldim».

Mirshayx Puroniy (XVI asr). Buxorolik. Ko‘p ilmlardan xabardor, ayniqsa xusnixatga mahorati yuqori bo‘lgan. U oltin suvi bilan bezash va boshqa xil naqshlar bilan kitoblarni bezatishda tengi yo‘q san‘at sohibi edi. Turli yozuv turlari, jumladan, «Rayhoniyy xat», «G‘ubor xati» kabilarda naqshlar bitgan. Ayni vaqtda Puroniy Chorsu masjidida mudarisslik qilgan va shoirlikda ham kamolotli bo‘lgan.

Mavlono Mir Ali kotib (XVI asr). Sayidlar avlodidan bo‘lib, xat mulkida kotiblar peshqadami bo‘lgan. «Nasta’liq xati» uslubida uning oldiga tushadigan odam bo‘lmagan. Ushbu yo‘nalishda davrining mashhuri bo‘lish bilan birga she’riyatdan va tarixnavislikdan ham yaxshi xabardor bo‘lgan.

Abdulla Musavvir Xurosoniy XVI asr II yarmida Buxoroda yashagan miniatyurachi rassom. Buxoro miniatyura maktabi vakili. Ko‘plab qo‘lyozma va kitoblarga naqsh va nafis suratlar ishlagan. Jumladan, Shayx Sa‘diyning «Bo‘ston», «Guliston» asarlariga, «Uchrashuv», «Sevishganlar» nomli asarlariga chizilgan naqsh va nafis suratlari shu kungacha yetib kelgan. O‘z davrining mashhur rassomlari Mahmud Muzahhib va Shayx Sa‘diy Mahmudlar qo‘lida tahsil olib, ular maktabining yetuk vakili va davomchisi bo‘lgan.

Darvesh Muhammad (XVI asr). Buxorolik. Xattot, xusnixat nazariyotchisi. Fors tilida «Favoyid ul-xututi» (Xatlar foydalari) asarini yaratgan. Bu risola Markaziy Osiyoda yaratilgan xusnixat san‘ati haqidagi eng muhim qo‘llanma sifatida O‘z FASHI fondida saqlanmoqda.

Mir ali Xiraviy (XVI asr). Xirotlilik xattot va shoir. Xattotlik san‘atini Zayniddin Mahmud va Sultonali Mashhadiydan o‘rgangan. Xirotda Sulton Husayn Mirzo va Buxoroda Abdulazizxon kutubxonalarida xizmat qilgan.

Mir ali nafis xati va tez yoza olishi bilan boshqa xattotlardan ajralib turgan. Movarounnahrda nasta’liq xatini tarqalishida xizmat qilib, ko‘plab shogirdlar tayyorlagan. 1520 yilda «Medod ul xutut» risolasini yozib, unda xattotlik qoidalarini bayon etgan. U ko‘chirgan 30 dan ortiq qo‘lyozmalar va 400 dan ortiq qit‘alar bizgacha yetib kelgan. U ko‘chirgan Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviyning «Xusrav va Shirin» dostonlari, Abduraxmon Jomiyning «Tuhfat ul-axror», Husayn Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Ansoriyning «Ilohiynoma» asarlari O‘z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Mir Husayn (XVI asr). Yetuk xattotlardan biri bo‘lib, «Javohiri raqam» faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan. U tomonidan nasta’liq xatida ko‘chirilgan va ziynatlangan Ansoriyning «Ilohiynoma», Hisrav Dehlaviyning «Xamsa», Ali Bin Husaynning «Rashoxoti ayn ul hayot» asarlari bugun O‘z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Mir Husayn Ko‘lankiy Buxoriy (XVI asr). Xirotlilik xattot va nasta’liq xatining ustasi. Mir Ali Xiraviyning eng mahoratli shogirdlaridan biri. Abdullaxon Soniyning kitobdori bo‘lgan. U ko‘chirgan qo‘lyozmalarning 20 dan ortig‘i bizgacha yetib kelgan. Sa‘diyning «Bo‘ston» va «Gulsiton» asarlari, Jomiyning «Yusuf va Zulayxo», «Tuhfat ul-axror», «Masnaviylar»i, Hofiz Sheroziyning «Devon»i shular jumlasidandir.

XVI—XVIII asrlarda **tasviriy san‘atga, musiqaga** ham alohida e‘tibor berildi. Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xiraviy va boshqalar mashhur xusnixat ustalari edilar.

Rassomlardan Maxmud Muzahhib, Jaloliddin Yusuf, Muhammad Murod Samarqandiylarning tasviriy san'at rivojiga qo'shgan xissalari salmoqlidir.

Muhammad Murod Samarqandiy (XVI asr). Musavvir. Samarqand miniatyura maktabining yirik vakili. O'ziga xos uslubi, yuksak badiiy saviyadagi asarlari bilan O'rta Osiyoda miniatyura san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan. U tomonidan Firdavsiyning «Shohnoma» (1556 yilda ko'chirilgan nusxaning bezagi 115 ta miniatyurasi O'z FA SHI fondida saqlanmoqda), Sa'diyning «Bo'ston» (Dublindagi Chester Bitti kutubxonasida) asarlariga ishlangan miniatyuralari bizgacha yetib kelgan.

Ustod Muhammadiy (XVI asr). Musavvir. Sulton Muhammadning o'g'li. Nafis san'atni otasidan o'rgangan. Kamoliddin Behzod an'alarini davom ettirib, o'ziga xos badiiy uslub yaratgan. U «Shahzoda tasviri» (Bostondagi Golobo majmuasida, AQSH), «Sharafnoma» (Asar qo'lyozmasidagi «Shahzoda» rasmi), Nizomiyning «Xamsa»siga ishlangan miniatyuralar, «Darvesh va dehqonlar» (Luvrda) asari va bir qator boshqa asarlarni ham yaratgan.

O'rganilayotgan davrda she'riyat yaxshi rivojlandi. She'r – arabchada shuur, sezgi deyilib, u insondagi fikrning qalb tuyg'usi-xislari bilan uyg'unlashgan ifodasi sifatida vujudga keladi va hayajonli nutq bilan ifoda etiladi. U ma'lum bir ichki ohangga ega bo'lgan badiiy asardir. «She'r» so'zi o'rnida adabiyotda ba'zan «Nazm» so'zi ham ishlatiladi. She'r badiiy adabiyotning qadimgi turi bo'lib, insoniyat eng qadimgi asarlarni she'riy uslubda yaratgan. She'riy ijodda shunday holat ham borki, (zamonaviy she'riyatda), bu ijodni erkinroq tushunish, avvalgi shakliy qoliplarni o'zgartirgan holda yangi poetik kashfiyotlar qilishga intilish kuchayib, qofiya, tinish belgilari va grammatik qoidalar iskanjasida qolishni istamay, qofiyasiz, grammatik qoidalar va tinish belgilarga rioya etilmay yozilgan she'rlar ham paydo bo'lmoqda.

She'riyatda fikrlar tartibga solingan, qofiyali, bo'g'inlari soni ham bir xil, grammatik qoidalarga rioya qilish, uning ichki texnikalari buzilmagan holda, so'z va fikrlar bir-birini davomchisi va to'ldiruvchisi bo'lishi holatlariga albatta rioya qilinsa, unda haqiqiy shoirona she'riyat vujudga keladi. Bu esa ilohiy ilhom, iqtidor, mahorat talab qiladi va shundagina bu she'r san'at darajasiga ko'tariladi.

Hududimizdagi ilk, dastlabki she'riy ijod namunalarining yaratilishi uzoq davrlarga, ya'ni salkam 3 ming yillik tariximiz boshlanishiga borib taqaladi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyoda, xususan hozirgi O'zbekiston hududida bronza davrining oxirlari va ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, shuningdek, madaniy-mafkuraviy o'zgarishlar Amudaryoning quyi oqimi hududlarida vujudga kelgan «Zardushtiylik» dinining muqaddas kitobi «Avesto»da o'z aksini topgan. Unda o'zbek, tojik, turkman, fors, afg'on, ozarbayjon va boshqa ko'plab xalqlarning ibtidoiy va qadimiy ilohiy-diniy tasavvurlari, turli marosimlari, rivoyat va afsonalari, o'ziga xos falsafiy-axloqiy qarashlari o'z aksini topgan. Bu esa hozirgi she'riyatimizga ham xuddi shu «Avesto» kitobida ilk marta asos solinganligini ko'rsatadi.

«Avesto»da Zardusht tomonidan yaratilgan turli marosimiy qo'shiqlar, madhiyalar matnlari ilk marta she'riy meyorlarda, to'rtliklarda aks ettirilgan, ayni paytda qo'shiq sifatida maxsus qiroat shakllariga bo'ysundirilib, moslashtirilgan.

Diniy qiroatdagi ohanglarga ham o'sha davrlarda asos solingan. Masalan, Qur'onning 7 xil qiroat usuli mavjud bo'lgan.

Shunisi yana diqqatga sazovorki, o'z qavmlari orasida zardushtiylik dinini targ'ib qilgan Zardusht (Zaratushtra) o'z targ'ibotini muhim asosi sifatida gatlar (gohlar) deb atalgan, aslida qo'shiq qilib aytishga mo'ljallangan she'riy meyorlar yaratganki, «Avesto»ning 72 bobdan iborat «Yasna» bo'limidagi 17 ta qism ana shu gat yoki gohlardan, ya'ni she'rlardan iboratdir. Ushbu she'rlar keyingi asrlarda she'riyat ijodiga qiziqqan ajdodlarimiz ijodi faoliyatida eng muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Biz XVI-XX asrlar boshlari davri madaniyati tarixining muhim ijodiy qismi bo'lgan she'riyat rivoji tarixini o'rganar ekanmiz, izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, barcha o'tgan davrlardagidek, she'riy ijod bilan yoshi, mavqei, mansabi, kasbi, sohasi, ijtimoiy kelib chiqishi qanday bo'lishidan qat'i nazar, xalqning barcha qatlami vakillari shug'ullanganligini guvohi bo'lamiz. Shuningdek, kuzatishlar o'sha davrlarda ham oddiy xalq bilan bir qatorda she'riy ijod bilan, ya'ni bu nozik va nafis san'at turi bilan hukmdorlar, amaldorlar din peshvolari, shayxlar, mullalar, xo'jalar, saidlar, mirlar, hojilar, darveshlar ham bevosita shug'ullanganliklaridan, ularning ko'plab she'riy to'plam (devon)lari xattotlar tomonidan ko'chirilganligidan dalolat bermoqda.

Aynan shularni nazarda tutib, ushbu kitobning she'riyatga bag'ishlangan bo'limida she'riyat bilan shug'ullangan oddiy xalq vakillari bilan bir qatorda yuqori o'sha davr ziyolilari she'riy ijodlari haqidagi ma'lumotlarni ham bayonini berishga harakat qilindi. Chunki bu ijod ham o'sha davr madaniy hayotining ajralmas tarkibiy qismidir.

O'zni kelganda yana shuni ta'kidlash lozimki, biz o'rganayotgan davrning barcha bosqichlarida ijodda, xususan, she'riy ijodda yurtimizning barcha xududlariga nisbatan Qo'qon honligidagi adabiy muhit o'ziga xos rivojlanish holatida bo'lganligi tarixdan ma'lum. Shu tufayli shahar va shahar atrofi barcha hududlarida she'riy ijod ahli soni boshqa joylardagilarga nisbatan anchagina ko'p edi. Hatto, uzoq xududlardan ham Qo'qon va uning atroflariga kelib yashab, ijod etish ko'pgina ijodkorlarga xos bo'lib qolganligi ham kuzatilgan.

Shu bois, yuqoridagilarning barchasini inobatga olgan holda ushbu ishimizda she'riyat ijodi va uning namoyandalari haqidagi ma'lumotlarga bir oz kengroq o'rin berishni lozim topdik.

Ushbu qimmatli ma'lumotlarni jamlash va uni bayon etishda XVI asr mutafakkir olimi, shoiri, tarixchisi Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob», Po'latjon domulla Qayyumovning III jildlik «Tazkirai Qayyumiy» to'plamlari, Samandar Vohidovning «Buxoriylar bo'stoni» tarjima asari ma'lumotlaridan va boshqa adabiyotlardan keng foydalanildi.

Xasanxoja Nisoriy - XVI asrda yashab, samarali ijod qilgan buxorolik shoir, yozuvchi, tarixchi hamda hukmdorlar e'tiboriga erishgan yirik tarixiy shaxs. Shayboniy xonlaridan Iskandar sulton va Abdullaxon II davrining «Malik ush-shuaro»si unvoniga ham sazovor bo'lgan. She'riyatda Mutribiy, Fitratiy, Davoiy, Hajriy, SHo'xiy, Shohid kabi o'nlab mashhur shoirlarning ustози hisoblangan.

Nisoriy Bahoviddin Naqshband maqbarasi yoniga dafn qilingan. U oʻzini mashhur «Muzakkiri Ahbob» (Doʻstlar yodnomasi) nomli asarida XVI asrda Movarounnahr, Afgʻoniston, Eron, Turkiya, Sharqiy Turkiston va Hindistonda yashab, ijod qilgan 288 ta shoir ijodi haqidagi maʼlumotlarni toʻplagan. Asar bizning kungacha yetib kelgan va 1993 yilda oʻzbek tilida nashr etilgan. Mushiqiy (xajv, gʻazal va qasida), Mutribiy (Tazkirat ush-shuaro) kabilar ijod qildilar.

Doʻst Muhammad Sulton (XVI asr). Toshkent hokimi Navroʻz Ahmadxonning oʻgʻli boʻlib, koʻproq olimu fozillar suhbatida boʻlishga intilgan. Sheʼriyatda tengdoshlari orasida peshqadami boʻlgan.

Ikki misra forsiy sheʼridan tarjima:

«Ul mushkin xollining xoli tarovatini koʻrgan chin ohusi
uyalغانidan egniga teri yopindiю, sahroga qochdi».

Mirzo Ibrohim (vafoti - 1560 y.) Badahshon podshohi Sulaymonning oʻgʻli. Olim va fozillarning xomiysi boʻlgan. Sahovatda ham dong taratgan. «Vafoiy» tahallusi bilan fors va turkiy tillarda sheʼrlar yozgan. Ikki misra namuna:

«Hajr dardu mehnatini kimga aytay yorsiz,
Chorai korimni kimdan izlayin dildorsiz».

Baqoiy (XVI asr). Buxorolik boʻlib, Buxoro amiri Abdulazizxon saroyi shoirlaridan. Bu vaqtda amir saroyida Baqoiy bilan birga quyidagi yetuk shoirlar: Hofizi Soniy, Mavlono Vosifiy, Mavlono Ovbahiy, Mavlono Kavkabiy, Surudiy, Sayyido, Afsariy, Majlisiy II, «Shayboniynoma» tarixiy asar muallifi Muhammad Solihning oʻgʻli Ulugʻbeklar ham ijod qilishgan. Baqoiyning devoni saqlanib qolgan. Sheʼriyatidan namuna:

«Yuz shukrki, har begʻam ila hamdam emasman
Ishqing gʻamidin shodmenu, begʻam emasman
Majnunga mening telbaligim bor Baqoiy
Ortiqroq agar boʻlmasam, andin kam emasman».

Majlisiy – XVI asrning ijodkor shoiri boʻlib, Buxoro atrofida oʻzbeklardan. Uning Ubaydullaxon saroyida ijod qilgan obroʻli shoirlardan ekanligi Hasanxoʻja Nisoriyning «Muzakkiri Ahbob» asarida ham qayd etib oʻtiladi. Uning gʻazal va qasidalaridan bizgacha faqat «Qissai Sayful-muluk» asarigina yetib kelgan.

Kishiga ishq agar hamroh boʻlsa,
Gadodur ul agarchi shoh boʻlsa,
Muhabbat bahri oshiqdar yeridir,
Anga kirgan daxi urning eridur.

Shayboniy. 1454 yilda Turkistonda tugʻilgan, davlat arbobi, shoh va shoir. U xam eski oʻzbek tilida oʻzidan soʻng bir qator asarlar va sheʼrlar yozib qoldirgan. 1490 yildan temuriylar bilan davlat talashib, XVI asr boshida Movarounnahrda shayboniylar hukmronligiga asos solgan. Ismi Shohbaxt, taxallusi Shayboniy. 1510 yilda, Eron shohi Ismoil Safaviy bilan boʻlgan jangda oʻldirilgan. U tarixda Muhammad Shayboniynon nomi bilan qolgan. Muhammad Shayboniynon davlat arbobi boʻlishi bilan bir qatorda ijod sohibi, sanʼat homiysi ham boʻlib, uning saroyida olimlar, fozillar, shoirlar toʻplanib turganlar. Tarixiy manbalarda Shay-

boniyxon devonidan tanqari «Baxr ul xudo» degan qasida, Najmiddin Kubroga bagʻishlangan tarix, fikhga oid risola, turkiy til qonun-qoidolari haqida kitob yozgani toʻgʻrisida maʼlumot keltirilgan. Shayboniylardan Ubaydullaxon «Ubaydiy», Abdullaxon II «Xon» taxallusi bilan sheʼrlar yozganlar.

Uning ijodidan namunalar:

Qurding bari sultonlar bu Iydi qiyomatni

Men nechaki tortarman, ey shayx, riyozatni

Haq berdi saraftroziy Shayboniyga ham tunu kun

Bosh uzra qoʻyubdur ul bu toji ibodatni.

Ubaydiy. Muhammad Shayboniyxonning jiyani. Nomi Ubaydullaxon. U 1530 yilda Koʻchkinchixon vafot etgach, rasmiy xon etib saylangan. Tasavvufga berilgan soʻfiy va shoir ham boʻlgan. Tahallusi Qul Ubaydiy edi. 1539 yilda Buxoroda vafot etgan.

Ijodidan namunalar:

Sar sar ayting, doʻstlar, dardimni dildor oldida,

Aytib-aytib yigʻlangiz zinhor-zinhor oldida.

Ey Ubaydiy, bilgan ermish dardli holingni yor,

Hojat ermas qilgʻasen, dardingni izhor oldida.

Aziziy (1515-1551). Ubaydullaxonning oʻgʻli. Otasi vafotidan soʻng xonlik taxtiga oʻtirgan.

Xush erdi manga boʻlsa erdi yor musohib,

YO boʻlmasa erdi anga agʻyor musohib.

Bu telba koʻngil birla, Aziziy ne qilursen,

Gar boʻlmasa ul shoʻxi dilozor musohib.

Mavlono Sokiniy (XVI asr-Buxoro). Oʻz davrining koʻzga koʻringan shoiri boʻlgan. Ismi Qosim, tahallusi Gʻamza boʻlib, kitobat ilmi bilan shugʻullanish bilan birga sheʼriyatda ham samarali ijod qilgan. Forsiyda yozilgan gʻazalining soʻnggi ikki misrasining mazmuni:

«Sokiniyning peshonasi yorning oʻtish joyida qoldi

u bechorani ishq shunday yoʻlga termultirib qoʻydi»

Mavlono Gʻoyibiy (XVI asr - Buxoro). Buxoroning taniqli shoirlaridan biri. Sheʼridan ikki misraning mazmuni:

«Ul nozanin mingan tuya qaysi saxro-dashtda yurgan boʻlsa,

uning oyoq izi yer yuzining oynasi boʻlajak».

Devona Husomiy (XVI asr - Xiva). Bu shoir begʻam va loqaydlikda ham mashhur boʻlishiga qaramay, sheʼriyatda oʻz davri shoirlari orasida hech kimdan kam boʻlmagan. Hatto hukmdorlar ham uning sheʼrlari uchun hurmat qilishgan. Ikki misra sheʼrining mazmuni:

«Husomiyning qonli koʻzi choʻgʻ toʻla manqaldir,

atrofidagi kipriklari jigardan kabob oʻtkazilgan sixdir».

Mavlono Kasiriy (XVI asr - Buxoro). Bu shoirning asosiy kasbi najjorlik boʻlib, oʻzida insoniylikning eng yaxshi qirralarini mujassamlashtirgan edi.

She'riyatda ham peshqadamlardan bo'lgan. Forsiy she'ridan so'nggi ikki misraning mazmuni:

«Ey sabo, yorning oyog'i ostidagi tuprog'din menga bir chang
keltir, to ko'zimga davo-surma o'rnida suray».

Xusayn Alouddin (XVI asr). Bu shoirning asl kasbi savdogarlik bo'lib, Buxoroning e'tiborli odamlaridandir. Ish yuzasidan sultonlar bilan ham muomalada bo'lib turgan. Uning she'riyatidan Shayboniy xonlaridan Ubaydullaxon ba'zan bahramand bo'lib turgan.

Lisoniy Marviy (XVI asr). Marvlik. She'rlari bilan xalq orasida shuhrat qozongan. Forsiyda qilgan ijodining ikki misrasining mazmuni:

«Lisoniy yor sitami qilichidan o'ldi,
hech kim u nima gunoh qildi, demadi»

Nodiriy Samarqandiy (XVI asr). Samarqandlik bu ijodkor o'z davrining nodir shoirlaridan bo'lib, nafaqat she'riyat muxlislari, balki shoirlarning o'rtasida ham mavqei baland bo'lgan. To'rt qator forsiy baytining mazmuni:

«Yorning qaddi namuncha bo'y tortib turibdi,
Banda bo'lgay qaddu ko'rinishiga

Xarobot tomon yo'l sol Nodiriy
May boshida garov tik boshu sallangni»

Mavlono Nasibiy Andijoniy (XVI asr). Yaxshi fazilatlar sohibi, yoqimli she'rlar ijodkori Nasibiy Andijonda yashab ijod etgan. Ikki misra she'ridan namuna (mazmuni):

«O'ram-o'ram sochingni bir to'p qilib tarash lozim,
G'ayratga kelib har tarafdin bir telba zanjir tashlagusi».

Hofiz Kamol Turbatiy (XVI asr). Turbatlik bu ijodkor tib ilmida mohir bo'lib, otasining kasbini davom ettirgan. Ayni vaqtda u she'riyatda ham zamonasining peshqadamlaridan bo'lib, o'zbek adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan shoirdir.

Mirzo Hindu (XVI asr). Ubaydullaxonning yaqin kishilaridan bo'lib, she'riyatda o'z o'rniga ega bo'lgan. Ikki misra she'ri mazmuni:

«Maydan mening keksaligimga ko'p quvvat yetadi,
Gulgun may ko'zasi qarilar qo'lidagi xassadir».

Mirzo Kuyiy (XVI asr). Ubaydullaxon tug'chisining o'g'li bo'lib, ma'noli she'rlar sohibi bo'lgan. Ikki misra she'rining mazmuni:

«Gul yuz, gul manglay qayerga qadam qo'ysa,
O'sha gul tuproqdan jannat bog'i hidi esib keladi».

Mavlono Muhammad Jomiy (XVI asr). Abdurahmon Jomiyning inisi bo'lib, xushta'b she'rlar ijodkori bo'lgan.

She'ridan ikki qatorining mazmuni:

«Ketdingu, ayriliq dardi menga yodgor qoldi,
Yo'qligingdan yuz hasrat bu umidga yetmagan dilimda qoldi».

Mirzo Ulug'bek (XVI asr). Shayboniyxonning yaqinlaridan bo'lmish amir Muhammad Solihning o'g'li bo'lib, yaxshi ta'bli shoirlardan bo'lgan. Ikki misra she'ridan namuna:

«Ey xush ul kunlarki ko‘nglim vaslidin xushhol edi,
Axtarim farxundavu, baxtim xumonon fol edi».

Mavlonoy Sangiy (XVI asr). Farg‘onaning Sang qishlog‘idan bo‘lib, mazmunli she‘lar sohibi edi. Ikki misra she‘rining mazmuni:

«Bechora Sangiyning o‘z o‘rnida qadri yo‘q,
La‘ning qadri bo‘lurmu Sangdan (tosh) tashqari chiqmaguncha».

Mavlono Vaqifiy (XVI asr). Marv viloyatidan bo‘lib, she‘riyatdan o‘z davrining taniqlilaridan edi. Ikki misra she‘ri mazmuni:

«Ul oy parvona yanglig‘ kuyganimni bilmadi hargiz,
Nazr sham‘i bila ko‘nglimni ravshan qilmadi hargiz».

Mirak Said G‘iyos (XVI asr). Hirotlik taniqli saidlardan bo‘lgan.

Quruvchi, loyihachi hunarlarini mukammal egallagan. Buxoroda Ubaydullaxon uchun maxsus bog‘ barpo qilgan. Ayni vaqtda she‘riyatga ixlosi baland bo‘lgan. She‘ridan ikki misra namuna:

«Qizig‘i shuki, biron kun to‘xtash navbati yo‘q,
Ertangi kun navbati dag‘dag‘asidan qaltirayman».

Mavlono Afsariy (XVI asr). Karmana viloyatidan bo‘lib, uzoq vaqt Ubaydullaxon xizmatida bo‘lgan. She‘riyatda samarali ijod qilgan. Ikki misra forsiy she‘ridan namuna:

«Tong shamolidan sharob jomi tebranmaydi,
May jomini iztirobga soluvchi soqiyning yuzi aksidir».

Mavlono Abulqosim Hakim (XVI asr). Amir Alisherning tabibi bo‘lgan. Darvesh Alining jiyani. Abulqosim tabobat ilmini mukammal egallab, nom qozongan edi. She‘riyatda ham salohiyatga ega edi. Ikki misra she‘ri mazmuni:

«Yor yuzi hajrida telbaman bu tun,
Men zor nolayu faryod etarman bu tun».

Xoja Muhammad Qannod (XVI asr I yarmi). Samarqandlik. Xoja Ahrorning nazariga tushgan. Tib ilmida mohirligi bilan nom chiqargan. She‘riyatda ham yaxshi ijod qilgan. Ikki qator she‘ri mazmuni:

«Oshiqning umri bo‘yi dili shod bo‘lmaydir,
Nolayu, alamu, faryoddan o‘zga ishi bo‘lmaydir».

Asomiddin Ibrohim (XVI asr). Buxorolik yetuk ilm sohibi. Ubaydullaxon uning ijodiga juda qiziqqan. Asomiddin muntazam dars o‘qitish bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. She‘riyatidan ikki misraning mazmuni:

«Yo‘qotgan narsang alomatini bilib olginkim,
Qo‘lida na ko‘zasi boru, na yelkasida xum».

Kamoliddin Abulxayr (XVI asr). Turli ilmlarni egallagan buxorolik olim. Hukmdorlarning ham e‘tiborini qozongan. Yaxshi husnixat egasi bo‘lish bilan birga she‘riyatda ham peshqadamlardan bo‘lgan. Ikki misra she‘ri mazmuni:

«Gulshanga borib ko‘chang uzoqligidan yig‘layman,
Gulga qaraymanu, yuzingni ko‘rmaganligimdan yig‘layman».

Amir Muzaffar Turkman (XVI asr). Bir qancha muddat Ubaydullaxon huzurida xizmat qilgan, uning hurmatini qozongan. Yaxshigina she'rlar ijodkori bo'lgan. Ikki misra she'ridan namuna:

«Ul pari hisolning qaddi oq kiyimda,
Adl daraxtli bo'stondagi oppoq gullagan shoxga o'xshaydi».

Amir Humoyun Samarqandiy (XVI asr). Samarqandning mashhur shoirlaridan. Tanholikda yashashni xush ko'rgan. She'riyatga ixlosi baland bo'lgan. Ikki misra she'rining mazmuni:

«Yor ko'chasiga bordim, uning yuzini ko'ray dedim,
Ammo o'zga bilan turganin ko'rib, ko'chasidan o'tib ketdim».

Hakim Shahrisabziy (XVI asr). Shahrisabzning mashhur tabiblaridan bo'lib, turli ilmlarga ham qiziqqan. She'riyatda ham qobiliyati yuqori bo'lgan. Ikki misra she'rining mazmuni:

«Yor oldida yig'lab-qistamoq menga qoidadir,
Borgum u yoniga bugun amal qilib qoidaga».

Mullo Baloyi (XVI asr). Samarqandlik mashhur shoirlardan biri bo'lib, ko'p vaqtini shoirlar suhbatlari va mushoirasida o'tkazgan. Ikki misra she'ri mazmuni:

«Kim eshigingga kelsa va barcha keluvchilar soil bo'lsa,
Ammo, mabodo ustiga-ustak senga moyil bo'lishsa, o'lishim aniq».

Mirzajon Muhammad Soniy Nayman (XVI asr). Buxorolik. Nayman amirzodalaridan bo'lib, farosati, zukkoligi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. She'riyatga mayli kuchli bo'lgan. She'ridan tarjima:

«Qaro ko'zlaring birlashib bunchalar noz etishmasa,
Goh fitna eshigin berkitib, goh namuncha ochishmasa».

Muhammad Soniy o'rta yoshga yetmay vafot etgan. Ikki misra she'rining mazmuni:

«Osmon qaysi adl qomat sarvga suv beribdi,
Qurib qolmasin va ildizidan qo'porilmasin deb».

Mavlono Ziynatiy (XVI asr). Buxorolik. Naqqoshlik san'atini yaxshi egallash bilan bir qatorda she'riyatga ham ixlosi baland bo'lgan. She'ridan namuna (mazmuni):

«Bir burchakda o'tirib, iz qoldiruvchilardan bo'l,
Shundan boshqa sendan hech bir nishon qolmayajak».

Mavlono Komiy (XVI asr). Asosiy kasbi to'quvchilik bo'lib, atrofdagilar bilan dilkash suhbatdosh bo'lgan. To'quvchilik ishidan bo'shagan hamono she'riyat bilan shug'ullangan. Ikki misra she'rining mazmuni:

«Ey jon rohati, shirin labing turganda axir,
Shakar, qand ne bo'libdi, nega endi ularni eslay?»

Mavlono Xusayn Turkistoniy (XVI asr). Turkistonlik. Asomiddin Ibrohimning shogirdi. Nutq san'atini va ko'plab bilimlarni egallagan, zukko shaxs. Ulug'bek

madrasasida dars bergan. Aruz vaznida she'rlar yozgan. Ayni vaqtda musiqadagi mahorati ham kuchli bo'lgan. Ikki misra forsiy she'ridan namuna (mazmuni):

«Meni bu baxti qaro falak,
Ul oy hajrida baxti qaro aylamush».

Mavlono Abdusamad (XVI asr). Turbat viloyatidan bo'lib, uzoq yillar Toshkentda ilm o'rgatish bilan mashg'ul bo'lgan. Haj safaridan so'ng ham Toshkentda, Qashqarda va u yerdan keyin Buxoroga o'tgan. Ilmi nujum (astronomiya fani) dan ham xabardor bo'lgan. Hofiz Devon Madrasasida ham dars bergan. She'riyatga ham mehr qo'ygan. Ikki misra forsiy she'rining mazmuni:

«Sen gul yuzlikning boshi uzra sunbul soyasi tushsa,
Shul sabab dilimdan yolqinli oh chiqib, otashi olamga tutashgusi».

Mavlono Surudiy (XVI asr). Buxorolik. Ubaydullaxonning tarix yozuvchisi va xonlik ishiga doir ma'lumotlarni yozib boruvchisi bo'lib xizmat qilgan. Imoratlar peshtoqlariga ham yozuvlar bitgan. She'rlarini forsiy va turkiyda yozgan. She'ridan namuna:

«Kuz faslida garchi guldin nomu nishon bo'lmasa-da,
Xazon bo'lgan yaproqlarning chiroyi ham o'zgacha».

Mir Muhammad Munisiy (XVI asr). Ubaydullaxon davrining yetuk, ziyoli ijodkorlaridan bo'lib, she'riyat ahli o'rtasida o'ziga xos obro' va e'tiborga ega bo'lgan. To'rt qator she'ri mazmuni:

«Dinparvar Abulg'azi Ubaydullo Bahodirxonga
Shukrki, xonlikning yuqori masnadi maqom bo'ldi.
Payg'ambar dini himoyachisi bo'lgani uchun tarixi,
«Mo'iniddin Ubaydullo bin Mahmud Shayboniy» bo'ldi».

Mavlono Jamoliddin Ismatullo (XVI asr). Buxorolik. U el orasida katta obro' topgan mavlono Mahmud Buxoriyning farzandi bo'lib, o'z davri olimlarining peshqadami darajasiga yetgan. Samarqandda bir necha vaqt talabalarga ilm bergan. She'riyatda ham ijobiy natijalarga erishgan. To'rt qator she'ri mazmuni:

«Gul yuzingdan uzoqda qolib, har doim ko'zimdan qon oqizaman,
Sarg'aygan yuzim uzra lolarang ko'zyoshim oqayotir.
Shokiriy qonini xanjar-la oqiz, ey oy, bir umrki,
Dilimdagi bor qonim ila mehringga parvarishim ko'rasan».

Mavlono Abduhakim (XVI asr). O'z davrining mashhur tabibi mavlono Sulton Mahmudning o'g'li bo'lib, otasidan tabobat ilmini mukammal o'rgangan va boshqa ilmlardan ham boxabar bo'lgan. She'riyatga ham iltifoti yuqori bo'lgan. Ijodidan ikki misraning mazmuni:

«Siynadan agar yor nayi o'qi o'tib qolsa,
Dil u o'tgach hajrida zor nolalar qilgusi».

Mirzo Mashhadiy (XVI asr). Buxoro hokimi Abdulali Tarxon urug'idan. Termiz sayyidlariga ham qarindoshligi bo'lgan. Mansab va boylikka ega bo'lishiga qaramay, faqirlikda yashashni afzal bilgan. She'riyatda ham ijod qilgan. Ruboiyning mazmuni:

«Lo‘libachcha meni ishva bilan o‘ldirdi,
Ishvayu-noz bilan jonimni g‘orat ayladi.
Doirasiga yuragim pardasidan qoplama yasab,
Xalqalari o‘rniga giryon ko‘zim qorachig‘ini qo‘ydi».

Mir Tabib (XVI asr). Mashxur tabib Hakim Shahrizabziyning shogirdi. O‘zi ham mashhur tabib bo‘lib yetishgan. To‘rt qator she‘ri mazmuni:

«Ey falakdagi oy yuzlik, ey chiroyli sanamdek sabza lab,
Labing dilni obqochar, qadding esa jon bog‘ining sarvi
Bittasi lolayu nasrindek, ikkinchisi sabzau rayhon kabi,
Uchinchisi g‘unchadek rangorang, to‘rtinchisi bo‘stonda fitna qo‘zg‘otar».

Mavlono Hoziriy (XVI asr). O‘z davrining yetuk insoni bo‘lgan mavlono G‘oyibiyning o‘g‘li bo‘lib, har tomonlama salohiyatli edi. She‘riyatda ham o‘tkir bo‘lgan. She‘riyatidan to‘rt misraning mazmuni:

«Har bir qarashingda dilda bir oh o‘zgacha,
Bu oh bo‘lg‘usi boisi bir nigoh o‘zgacha,
Hoziriy men ersam ishq yurtining Shohsuvori
Uning g‘amida bordir yonimda sipoh o‘zgacha».

Mirzo Najotiy (XVI asr). Toshkentning taniqli kishilaridan bo‘lib, bilim olish uchun Buxoroga kelgan. Ayni vaqtda she‘riyat bilan ham shug‘ullanib, yaxshigina ijod qilgan. Ikki qator she‘rining mazmuni:

«Oyatga vaqf muhrini bosadi mushaq yuzi,
G‘uncha dovoti ichra qizil rangi ko‘p gulning».

(Vaqf – bag‘ishlash, nazr etish;
mushaf – Qur‘oni karim)

Mavlono Donishiy (XVI asr). Marvlik bo‘lib, hayotda yolg‘iz yashashni afzal bilgan. Barcha jonliga mehr-shafqat bilan munosabatda bo‘lishi kabi fazilat uning xususiyatlarini asosi bo‘lgan. She‘riyat uning eng yaxshi ko‘rgan mashg‘uloti bo‘lgan. To‘rt qator she‘ri mazmuni:

«Lola gulu, nasrin gulu, rayhon gul
Har qayon boqsang qiyo chandon gul.
G‘uncha yoqasidan gul qo‘l solmish bil,
Yor yoqasidan to etagi tomon – tamom gul».

Qudsiy Farg‘onagiy (XVI asr). Yuqori darajada orasta va kamsuqum kishi bo‘lgan. She‘riyatga ishqiy baland bo‘lib, she‘rlari ham ma’noli va yoqimli bo‘lgan. She‘ridan to‘rt qatorining mazmuni:

«Ey, kulganda labidan shakar sochishga mayldor yor,
Ul ikki labingdan shirinroq pinhoniyl kulging bor.
Qudsiy shakar lablardan shakar talabsan,
Chun suxandonlikda shakar chaynar to‘tisan».

Mavlono Furug‘iy (XVI asr). Bu ijodkor samarqandlik bo‘lib, she‘rlari ma’noli bo‘lishi bilan birga uning she‘r o‘qishda ham o‘ziga xos iqtidori bo‘lgan. Ikki misra she‘rining mazmuni:

«Oyu nurafshon oftob yuzu yoydek baqbaqa osibdi,
Bo'yin bog'idan xayit tunining hiloli ko'rinibdi».

Mavlono Abdusamad (XVI asr). Badaxshonlik. She'riyat uning sevgan mashg'uloti bo'lib, quyida uning she'riyatidan ikki misraning mazmuni:

«Dilbarlik taxtida ma'shuqa yuz xil noz ila,
Oshiq bechora g'am kuyida sarg'ayar niyoz ila».

Mavlono Ravnaqiy (XVI asr). Badaxshonlik. Ma'noli she'riyat sohibi bo'lgan. 2 misra she'rining mazmuni:

«Badaxshondanmanu yuz xil balo boshimga yetmish,
Ki ul la'l ham qon oquvchi ko'zimdan tushmish».

Tohir qozi (XVI asr). Movarounnahrlik. Manbalarda u she'riyatda yosh bo'lsa ham o'z o'rniga ega bo'lib borayotgan shoirlardan deb ta'riflangan. Ikki misra she'ridan namuna (mazmuni):

«Ag'yor qatlima qasd etdi, lek u bevafo istamadi,
Xalq shuni ijro etmoq istadi, ammo xudo istamadi».

Mavlono Pirmuhammad (XVI asr). Movarounnahrlik. Asosiy kasbi toliblarni o'qitish bo'lib, she'riyatga ham ixlosi yuqori edi. Mashhur shoir Mirzo Niyozga bag'ishlangan matla'sining mazmuni:

«Kim majoziy ishq sababli dilini yelga bergan esa,
U jonini kaftiga qo'yib Mirzoga niyoz uchun berdi».

Mavlono Shukriy (XVI asr). Movarounnahrlik. U she'riyatga yangi kirib kelgan, lekin yoqimli she'rlar yozayotgan yoshlardan, deb ta'riflaydi Xasanxoja Nisoriy. Uning matla'si mazmuni:

«Ko'changdan yiroq tushish tokaygacha,
Bo'lg'usimi nasib, bir kun sen tomon yo'l topmoq».

Mavlono Nodiriy (XVI asr). Movaraunnahrlik. Ushbu shoirni ham yoshlar orasidagi qobiliyatli shoirlardan deb ta'riflagan, Hasanxoja Nisoriy. Ushbu matla' uning qalamiga mansub. Mazmuni:

«Devonaga o'xshab uning ko'chasidan o'ta ko'rma,
Yor agar bevafo bo'lsa, uning yuziga nazar sola ko'rma».

Avaz G'ozii sulton (XVI asr). Xorazm sultonlaridan bo'lib, nozik did sohibi bo'lgan va ko'pincha olimu fuzalolar suhbatini xush ko'rgan. She'riyatni yoqtirishi bilan ayni vaqtda o'zi ham she'rlar bitgan. Ushbu matla' unikidir:

«To telbaligim arsai olamni tutubdur,
Majnunni, meni ko'rgali, davron unutubdur».

Navbatda esa buxorolik taniqli shoir Samandar Vohidov tomonidan fors-tojik tilidan tarjima qilinib, nashr qilingan «Buxoriylar bo'stoni» kitobida keltirilgan shoirlar faoliyati va ijodidan ayrimlari haqidagi ma'lumotlarni keltiramiz. Bu ijodkorlarning yashab, ijod etgan vaqtlari ham xonliklar davri va hududlariga to'g'ri keladi:

Abdurahmon Mushfiqiy (XVI asr II yarmi). Buxoroda tug'ilib, ilm egallagan. Umrining oxirlarida Abdullaxon saroyida xizmat qilgan. Yaxshi shoir sifatida e'tibor

qozongan. 1557 yilda ilk «Devoni mutoyibot» she'riy to'plamini e'lon qilgan. 1571 yilda «Gulzori eram» dostonini yozgan. Shuningdek, uning ijodiga mansub «Devoni g'azaliyot», «Devoni qasoid» to'plamlari, «Soqiynoma», «Jahonnoma» asarlari bizgacha yetib kelgan.

Naxliy Buxoriy XVII asr II yarmida mashhur bo'lgan lirik shoir. To'liq ismi ma'lum emas. Imomqulixon saroyida xizmatda bo'lgan. Uning ijodiga mansub she'rlar to'plami 5613 baytdan iborat bo'lib, ularni qasidalar, g'azallar, qit'alar, masnaviylar tashkil etadi.

Muhammad Isoq Shavkat Buxoriy. Buxoroda tug'ilgan. XVII asr tojik adabiyotining namoyandaligidan biri. Asosiy kasbi sarroflik bo'lib, she'riyat bilan ham shug'ullangan. O'z she'rlarini devon qilib to'plagan va u bugungi kungacha yetib kelgan.

Saqqo Buxoriy. Buxoroda tug'ilgan. Baxrom Darvesh Saqqo XVI asrning taniqli shoirlaridan. Butun umri faqirlik va darveshlikda o'tib, saqqolik (meshkoblik) kasbi bilan shug'ullangan. She'rlari bilan e'tibor qozongan. Undan ikkita to'liq bo'lmagan devon meros qolgan.

Shayx Xudoydod - O'rta Osiyolik mashhur tasavvuf olimlaridan biri (vafoti 1532 yil). O'ta sahovatli bo'lib, doimo kambag'allarga nazr-niyoz ulashib turgan. She'riyat bilan ham shug'ullangan. Forsiyda yozilgan she'ridan ikki misrasining tarjimasi:

«Tong mahal chin dilidan oh chekkan banda
O'sha oh tufayli o'z xudosi tomon katta yo'l ochadi».

Qosim Shayx Azizon (vafoti 1578 yil). Movarounnahr xalqi va Shayboniy sultonlari uchun katta e'tiborga, hurmatga ega bo'lgan tasavvuf olimi. Ushbu yo'nalishda ko'plab shogirdlar yetishtirgan. Yetuk shoir ham bo'lgan.

Mavlono Shamsi Xalaf Diniy ishlarni yaxshi bilgan olim. Ayni vaqtda dunyoviy ishlarga ham qiziqishi katta bo'lgan. Shayboniy xonlaridan Rustamxon uning katta muxlisi va muridi bo'lgan. Forsiy she'rining ikki misrasi tarjimasi:

«Shamsi Xalaf hech kim bilan do'st emas,
Bu gadoga "Ollohu do'st" kifoyadir».

Abdulazizxon bin Abulg'azi Ubaydullo (XVI asr). Shayboniy Ubaydullaxonning katta o'g'li bo'lib, otasi vafotidan so'ng Buxoroda xonlik qilgan (1540-1550). Darveshlarning muxlisi bo'lib, ularga e'tiqod qo'ygan. Ustoz Shayx Jalolning muridi ham bo'lgan. Xadis ilmi bilan ham shug'ullangan. She'riyatidan ikki misra:

«Ey ra'no qomati husn gulistonining sarvi,
Yurakka oro beruvchi yuzing husnning lolayu bo'stoni».

Shayx Jalol (vafoti 1549 yil). O'z davrining yirik xadisshunos olimi, allomasi, o'nlab shogirdlarning ustози bo'lgan. She'riyatda ham barchaga ma'qul bo'lgan. Forsiy she'ridan to'rt qatorining mazmuni:

«Ishq jomidan sarmast bo'lganlar
Yor yuzin ko'rmay turib qo'l-oyoqdan qolganlar.
Boshlari bilan talab yo'lida qadam qo'yidilar,

Ahli dil yo'lida tuproqdek yo'lga to'shaldilar».

Shayx Xusayn Xorazmiy (vafoti 1551 y.). O'rta Osiyolik yirik tasavvuf olimi bo'lib, uning ajdodlarining ko'pchiligi shayx darajasiga yetganlar. She'riyatidan ikki misra namuna:

«Shirin so'zlik, ko'nglingni behuda ranjitma,
Ajabmas, shu on ko'changga Ko'hkan kelsa».

Shayx Hoji Muhammad Xamushoniy (XVI asr - Xorazm). Tasavvuf ahli, xususan darveshlar orasida obro'si yuqori bo'lgan. Ko'plab shayxlar ham uning muridi bo'lishgan. She'riyatda ham samarali ijod qilgan. She'ridan ikki misrasining mazmuni:

«Hoji, do'st xaramin tavof qilgan eding, shuning sharafidan
do'st eshigining gadolari qatoriga erishding».

Xoja Muhammad Ali Tahuriy (XVI asr - Toshkent). Mashhur Shayx Hovand Tahurning avlodi, hoja Ahror valiyning qarindoshi. Tasavvuf yo'nalishidagi olimlar qatoridan joy olishi bilan birga, unda ilohiy fikrlarni she'rga solish bilan ham ifoda etish qobiliyati kuchli bo'lgan. Ikki misra she'rining mazmuni:

«Malakut dengizlari qa'rining baliqlarimiz, zanjirlarni
shaqirlatib, to'rga tashlanib, qirg'oqqa chiqqanmiz».

Mavlono Faxriddin Ali Voiz (XV asr II va XVI asr I yarmi). Mashhur Xiroflik va'zxon, olim, shoir, bir nechta ahloqiy asarlar muallifi Mavlono Xusayn Voizning o'g'li. Faxriddin Ali ma'lum muddat Hazrat xoja Axror xizmatida ham bo'lgan. U «Rashahot» (asal tomchisi ma'nosida) nomli asarining muallifi. She'ridan to'rt misra namuna:

«Yor yuzi nur oynasidir bu tun,
Ey oy, devor orqasida tur bu tun,
Bir ozgina raqiblardan qutuldim bu tun,
Eyo tong, birpas o'zingni to'xtatib tur bu tun».

Xoja Ayyub (XVI asr). Shahrisabzning ulug' va e'tiborli kishilaridan. Ayni vaqtda vaqti xushlik va hazil-mutoyibaga ham moyilligi kuchli bo'lgan. G'azallari ham ko'pchilikka ma'qul bo'lgan. To'rt misra she'ridan namuna (mazmuni):

«Tongda chaman sahni gulu shaqoiqla to'lg'usi,
Oshiq bulbul undan maqsadin xosil etg'uvsi.
Maqsad yo'lida inon-ixtiyor izlab yugurgan esam,
Bu gal ham el bo'lmas raqiblar yo'ldoshim bo'lg'usi».

Mavlonzoda Abdulg'affor (XVI asr). Toshkent viloyatining ulug'laridan bo'lib, bir necha vaqtlar qozilik mansabida ham ishlagan. Ilmli, ijobiy fazilatli kishi bo'lgan, yoqimli she'rlar ijod qilgan. Yaxshi fazilatlar sohibi bo'lishiga qaramay keyinchalik raqiblar uni qozilik mansabidan tushirganlar.

To'rt qator she'rining mazmuni:

«Baxtu davlat ishbilarmonlikka qarab emas ekan,
U ham bir duch kelganiga kasb qilg'uvchi taqdir ekan.
Kimyogar oltin xosil qilaman deb azob-g'ussada o'lib ketadi,

Xarobada esa ablah ganj topadi».

Mavlono Muhammad Ali (XVI asr). Fargʻonalik. Shayx Xojagiy Kosoniyning xizmatida boʻlib, ilm-maʼrifat olgan, xalqni olloh yoʻlida daʼvat qilib, darveshlik qilgan. Ayni vaqtda sheʼriyatga ham ixlosi kuchli boʻlib, sheʼrlari xalq orasida mashhur boʻlgan. Ikki misra sheʼrining mazmuni:

«Ey, hayot suvidan ham tiniqroq yor,
Nega bizga nasib etmasdan oʻtib ketasan?»

Mavlono Xamididdin Shoshiy (XVI asr). Toshkentlik. Kamolotli darveshlardan boʻlib, odamlar uning shirin, yoqimli suhbatiga intilgan ekanlar. Sheʼrlari kishi hissiyotida tugʻyon qoʻzgʻatuvchi darajada boʻlgan. Forsiy sheʼridan namuna (mazmuni):

«Agar nay tovushi haddan tashqari taʼsir etsa,
Lekin may alomatlarining oʻzgacha holati bor.
Bu gulshan ichra qaysi gulga nazar tashlamayin,
Ular bagʻrida lolaga oʻxshab ishq gʻaminging qora dogʻini koʻraman».

Qozi Said (XVI asr). Shahrisabzda bir necha muddat qozilik qilgan. Bilimli va yaxshi fazilatli bilan nom chiqargan. Sheʼriyatda qobiliyati kuchli boʻlgan. Zamonasi hukmdori uni oʻz vazifasidan chetlashtirgan boʻlsada u oʻz diyorida yashab qolgan, boshqa yoqlarga bosh olib ketmagan. Shu holatni nazarda tutib yozgan sheʼridan ikki misraning maʼnosi:

«Haram atrofiga yoʻl bermasa ham ul inson,
Uning mamlakat yashovchisiman, shu bas bizga».

Mavlono Fozil Andijoniy (XVI asr). Diniy va dunyoviy bilimlarni yaxshi egallagan moʻtabar kishilardan boʻlib, uni oʻsha davr sultonlari ham hurmat qilgan. Shoirlikda ham yetuk boʻlib, samarali ijod qilgan. Notiqlik va soʻzamollikda chechan boʻlgan. Ikki misra forsiy sheʼridan tarjima:

«Dil maqsadlarini beruvchi Kaʼbadir, gʻofil boʻlma undan,
Dil atrofida aylan, tavof et, undan maqsading hosil boʻladi».

Qozi Burhoniddin (XVI asr). Karmanada tugʻilgan. Bir necha muddat shu joyda qozilik mansabida turgan. Adolat va insof bilan ish yuritgan. Sheʼriyat bilan ham shugʻullangan. Ayrim sheʼrlarida kinoya tarzlari ham uchraydi. Ikki misra namuna:

«Muqtadomen deb chiqarding xalq ichinda yaxshi ot,
Sen degandek boʻlmasa xoliq qoshida na uyot».

Darvesh Hoshimiy Samarqandiy (XVI asr). Samarqandlik eʼtiqodi kuchli darveshlardan. Kasbi xammomgarchilik boʻlgan. Sheʼrlari, ayniqsa muxammaslari koʻpchilikka maʼqul kelgan. U Shayx Xojaiy Kosoniyning muxlisi va muridi edi. Unga atab yozgan sheʼridan ikki misraning mazmuni:

«Xalq sening mehrin davosi uchun til ochdilar,
Men tili bilan dili bir odamning quliman».

Darvesh Jamol Qalandar (XVI asr). Movarounnahrlik. Jamol Qalandar butun umrini yolg'izlik va tanholikda o'tkazgan. She'riyat bilan ham shug'ullangan. Yolg'izlikka ishora qilib yozgan ushbu ikki misraning mazmuni:

«Qalandar sandalining toshi yolg'izlik kemasiga, sargardonlik dengizida salgina tasalli bo'lsin uchun bir langardir».

Mavlono Fardiy (XVI asr). Turbatlik. Diniy ilmlarni ham yaxshi egallagan. Hazrat Mulla Jomiyning matla'siga tatabu'sining mazmuni:

«Pichoqning sanchiqlaridan siynamda tilimlar bor,
Yara ustida doim o'sha tilimdan gulzorlar ochilmish».

Kamoliddin Ziyoiy (XVI asr). Buxorolik ijodkor, she'riyatda o'ziga xos ma'noli g'azallar sohibi bo'lgan. Ko'p vaqtini Olloh yo'liga bahshida etib, darveshlar jamoasi bilan o'tkazishga harakat qilgan. Ikki misra baytining mazmuni:

«Yashirin g'amimni oshkor etdi chaqimchi,
Shu sabab qaniydi tilimni kessamu, sirimni butunlay yashirsam».

Mavlono Qudsiy Termiziy (XVI asr). Termizlik bo'lib, Olloh yo'liga kirgan va hayotini yolg'izlikda o'tkazgan. Ayni vaqtda she'riyatga ixlosi baland bo'lgan. She'ridan ikki misra tarjima:

«Haqdan sening visolingni tilayman.
Uzlatga chekingan Misru, Shomu, iroqliklar hurmati uchun ham».

Mavlono Tolibiy (XVI asr). Toliblar orasida nom qozongan, so'ngra darveshlikni ixtiyor qilgan. She'riyatdan ham xabardor bo'lgan. She'ridan namuna:

«Ul parda ortida yor yuzidan pardani ochdim,
Parda ichida ne bor bo'lsa tomosho qildim».

Qozi Rizoiy (XVI asr). Xorazmlik bo'lib, Hirotida tahsil olgan. Bir qancha muddat Xorazmda qozilik qilgan. uning ijodidan ikki misra:

«Navro'z kuni mayni ichib rosa bexudud mast bo'libman,
Men mayparast uchun kechayu-kunduz bab-baravardir».

Xoja Jamoliddin Hoshimiy (XVI asr). Buxoroning ulug' va mo'tabar kishilaridan. Buxoro viloyatining shayxulislomi bo'lgan. Notiqlik san'atidan xabardor va mazmunli she'rlar sohibi bo'lgan. Ubaydullaxonga vazir ham bo'lgan. U Buxoro adabiy muhitining tashkilotchisi ham edi. She'rining so'nggi ikki misrasi tarjimasi:

«Qabrim tavof etma, behushlik keltirur,
Lavh toshim o'qima, faromushlik keltirur».

Xush Muhammad Azizon (XVI asr). G'ijduvonlik bo'lib, diniy mashoyixlardan. Turkiylarning ko'pchiligi unga murid edi. She'riyatidan ikki misraning mazmuni:

«Ikki qoshing qachongacha o'zaro janjallashib, talashadi,
Xolga buyur, o'rta tushib hakamlilik qilsin».

Shayx Obid (XVI asr). Buxorolik. Turk mashoyixi. Xalqni xudojo'ylikka targ'ib qilgan. She'riyatidan namuna:

«Bilmasmisan axir, bu dahr aro ajab mukofot: -
“Kimga nima ichirding, endi o‘zing ham shundan tot!”».

Hofizi Kalon (XVI asr I yarmi). Samarqandlik mo‘tabar, zukko hofizlardan va yaxshi qiroatli qorilardan. Yuqori darajali ilm sohibi bo‘lgan. Bir qancha muddat imom xatiblik ham qilgan. She‘riyatga ixlosi, shoirlar orasida obro‘si baland bo‘lgan. She‘rining so‘nggi ikki misrasi tarjimasi:

«Aytgil o‘z yoringga, ey Qoriy, nolayu-zor bilan,
Kel, kelgil, sensiz bitmadi hech korim bu oqshom».

Mavlono Sulton Ali Ubahiy (XVI asr). Mashhur diniy fozillardan. Buxoroning hurmatli kishilarining e‘tiborini qozongan. 109 yil umr ko‘rgan. She‘riyatidan namuna:

«Yuzing oyi ustida qoshingga yolg‘iz hilol emas,
Qoshingdagi har bir tuk o‘zi hiloldur».

Shayx Mufazzal Mehna (XVI asr). Qashqadaryoda tug‘ilgan. Xushchaqchaq, chehrasi ochiq kishi bo‘lgan. Shayxlik darajasiga yetgan. She‘riyatda ham yaxshi ijod qilgan. She‘ridan ikki misraning mazmuni:

«Yana ul labi maygun va ko‘zi mastning orzusi,
Kechki qadahni berdi va sahar xumorini buzdi».

Mirak Husayn Buxoriy (XVI asr). Buxoroning mashhur kishilaridan. She‘riyatda o‘z qobiliyatini namoyon eta olgan. Bir qancha muddat Buxoroda mutavalli bo‘lib ham xizmat qilgan. Salkam 90 yil umr ko‘rgan. Mashhur shoir Hiloliy qatliga bag‘ishlab yozgan she‘ridan to‘rt misra:

«Zuhru taassubdan yiroq mulla Hiloliyni ko‘rki,
Isyon nomasi doimo qo‘lida edi.
Xirot shahrida Sayfullo qo‘lida o‘ldirildi,
Shu sababli yili tarixi “Sayfullo o‘ldirdi” bo‘ldi» (1529).

Xoja Mirak Shayx (XVI asr). Buxorolik. Ilmu-san‘atni mukammal egallagan, ko‘rkam va dilkash kishi bo‘lgan. To‘qqiz yil davomida Shayxul-islomlik mansabida turgan. She‘riyat sohasiga ham ishtiyoqi kuchli bo‘lib, ko‘pchilikka ma‘qul she‘rlar bitgan. She‘ridan ikki misraning mazmuni:

«Ko‘zingday qaro bo‘ldi kunimiz, sen esa bexabarsan,
To o‘z ko‘zing bilan ko‘rmaguncha bunga xech ishonmaysan».

Fatxullo xoja qozi (XVI asr). G‘ijduvonlik. Nihoyatda taqvodor kishi bo‘lib, bir necha yillar qozilik mansabida ishlagan. Kamtarlik bilan umr kechirgan. Keyinchalik qozilikdan voz kechib, darveshlik yo‘lini tutgan. Ikki misra she‘ridan namuna:

«Lolarang ko‘z yoshimdan etagim bog‘ aro gulga to‘ldi,
Meni gul yonida ko‘rib bulbul yuragi betoqatlik ila to‘ldi».

Shayx Abdulatif (XVI asr). Buxorolik. Shayx Hoji Muhammad Xamushoniyning yaqin muxlisi va muridi. Forsiy va turkiy tillarda yaxshigina g‘azallar bitgan. She‘ridan ikki misra namuna:

«Lolalar chiqti qizil toj ila shohlar kabi,
Chekti savsan tig‘lar sunniy sipohlar kabi».

Ma’sumxoja - (XVI asr). Keshlik. Buxoroda yashagan. Qur’onni yod olib, qiroati kuchli hofizi qur’on bo‘lgan. Sahovat sohasida ham mashhur bo‘lgan. Ikki misra forsiy she’ri tarjimai:

«Bahor buluti ko‘klam faslida gavhar sochgan mahal,
Gavhar sochuvchi nazmim qalamini yod eting».

Xoja Muhammad Vazir (XVI asr). Xurosonlik, Marvda yashagan. Vazirlik lavozimida ishlagan. Oxiri yolg‘izlikni ixtiyor qilib, she’riyat bilan shug‘ullangan.

«Loladek bag‘rimni chok etajakman,
Shu yo‘l ila eski g‘amim bog‘in ko‘rsatajakman».

Xoja Nizomiddin Yahyo Xoshimiy (XVI asr). Bir necha muddat Buxoroda shayxulislom mansabida o‘tirgan. Qizig‘i shundaki, bu mansab bir necha marta boshqa kishilar qo‘liga o‘tib, yana uning o‘ziga qaytib kelavergan. She’riyat bilan shug‘ullanish uning xush damlari hisoblangan. She’ridan ikki misraning mazmuni:

«Ishq xajri yerga tuban nogahon ko‘tarib tashlasa,
Kim uni yerdan ko‘tarib u tomonga yotqizib qo‘yarkin?»

Xoja Abdulaziz qozi (XVI asr). Buxoroda qozilik mansabida ishlagan. Ko‘plab yaxshi fazilatlar sohibi, ko‘p sohalardan xabardor, zukko, hushyor odam bo‘lgan. Yoqimli she’rlar ijod qilgan. Namuna:

«G‘urbatda na oromim bor, Vatanda na qarorim,
Bu beqarorlik mandadir, to jonim tandadir».

Mavlono Kepak (XVI asr). Turkistonlik. Din yo‘lini mahkam ushlagan. Xadis ilmi bilan ham shug‘ullangan. Talabalarga saboq ham bergan. She’riyatda ham o‘z yo‘nalishini topgan. Ikki misra she’ri mazmuni:

«Ul adl qomatliq, bu sitamdidaga,
Bulturgi zulm solig‘ini solmoqda»

Mavlono Do‘st Muhammad (XVI asr). Buxorolik olim va din ilmi sohibi. Mir Arab madrasasida dars berish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Goho nazmga ham murojaat qilib turgan. She’ridan namuna:

«Labing ustidagi yashil chiziq bilina boshlagan hamon,
Mening bahorim tugab, kuz fasliga aylandi».

Hofiz Ibrohim (XVI asr). Karmanalik. Ubaydullaxon davrida yashab, ijod etgan. Ko‘proq darveshlar muloqotida, xalq e’tiborida bo‘lgan. She’ridan namuna:

«Hajring g‘ami o‘ti meni ud daraxtidek tutatdi,
O‘zi asli ishqing otashidan maqsadim ham shu edi».

Shayx Sharifiy (XVI asr II yarmi). Mashhur Xusayn Xorazmiyning farzandi bo‘lib, diniy va dunyoviy bilimlari hamda o‘zining xush hulqu odobi bilan el orasida shayx darajasigacha yetishgan. Ayni vaqtda, xuddi otasidek she’riyatda ham mazmunli g‘azallar sohibi bo‘lgan. Forsiyda bitilgan she’rining to‘rt qatori mazmuni:

«Mushkin qalaming mening ismim yozibdi

Go‘yo Uvay tarovati Qaran tarafdin kelibdi
So‘z mulkida “Kalom podshohi” man, sanchi, Xusravshohsan
Va yuz Xoja Xasan senga banda bo‘libdi».

Shayx Zakariyo Yassaviy (XVI asr). Xasanxoja Nisoriyning ta’kidlashicha, u hazrat sulton Ahmad Yassaviyning avlodidan bo‘lib, o‘zining maqtovgga loyiq xislatlari bilan nafaqat atrofdagilarning, balki sultonlarning ham e’tiborida bo‘lgan. Shuningdek, nafis she’riyat bilan ham shug‘ullangan. Ikki misra she’ri mazmuni:

«Zebo yuzingga, ey yor, nazar solgach,
Boshqa barcha xo‘blardan nazarimni uzdim».

Mavlono Hofiz Mirak (XVI asr). Otasi Abdurahmon Jomiy bilan yaqin suhbatdosh bo‘lgan. Hofiz Mirak qur’oni Karimni yoddan bilgan va unga tasniflar ham yozgan. Zamonaviy ilmlardan ham yaxshi xabardor bo‘lgan. She’rlar yozib, o‘z devonini ham yaratgan. She’ridan ikki misraning mazmuni:

«Shaharda sen kabi shoh kim bo‘libdi va kim bo‘la olg‘usi
Husnda sendek oy jamol kim bo‘libdi va kim bo‘la olg‘usi».

Mavlono Solih Mufti (XVI asr). Samraqandlik yirik din peshvosi. Diniy ilmlarni o‘qitish bilan shug‘ullangan. Karmana viloyatida yashagan. El orasida obro‘-e’tibori ham yuqori bo‘lgan. Yozgan she’rlaridan ikki misraning mazmuni:

«O‘zingga hech tomondan g‘amga yo‘l berma
ulug‘ duolar ila, o‘zingga dam solishni kanda qilma».

Shujoiddin Do‘stmuhammad Xoji (XVI asr). Shaybon sulolasi amirlaridan biri Jon Vafoiy Do‘rmonning o‘g‘li. Shujoiddin barcha sultonlarning hurmatini qozongan. Xaj ziyoratidan qaytib yana amirlik mansabiga o‘tiradi. Jozibali she’rlar sohibi. Ikki misra she’rining mazmuni:

«Ey dil, mehnat ahli yukini tort demayman,
Lek yuk ko‘tarsang, muhabbat ahli yukin yengillat».

Said Hodi Naqshbandiy (XVI asr). Buxoro viloyatidan. Xojazoda Maxmud Naqshbandiyning o‘g‘li bo‘lib, nasabi Bahoviddin Naqshbandiyga borib taqaladi. Ko‘p yaxshi fazilatlar sohibi, ayniqsa sahovati bilan ko‘pchilik mehrini qozongan. Bu xususiyatni o‘zi yozgan she’ridan ham ko‘rish mumkin. Ikki misra she’rining mazmuni:

«Asl hunar sahiylikdir, boshqasining bari qo‘lning kiri,
agar har barmog‘ingda yuz hunar bo‘lsada, sahovat bo‘lmasa, befoyda».

Said Ibrohim (XVI asr). Buxorolik. Bahoviddin Naqshbandiy avlodlaridan bo‘lib, o‘zining xush xulqi, ezgu fazilatlar va yuqori diniy e’tiqodi bilan atrofdagilarning obr-e’tiborini qozongan. Sadrlik mansabida ishlagan. Bo‘sh vaqtini she’riyat bilan shug‘ullanishda o‘tkazgan. G‘azalidan ikki misraning mazmuni:

«Kipriging xazin yuragimdan joy olgani sababli,
Bu kun g‘amidan ozod bo‘lib, ertaning g‘ami tushdi».

Mavlono Muhammad Amin Mufti (XVI asr). Yoshligidan shariat ilmlarini egallab borgan. «Xidoya» hamda «Viqoya» ta’limini to‘liq o‘zlashtirib olganligi

natijasida fatvochilik mansabiga erishgan. Boshqa ilmlardan ham yaxshi xabardor bo'lgan. Farzandi tug'ilishiga bag'ishlab yozilgan to'rt misraning mazmuni:

«Xudo fazli va mehribonligidan keldi –
Kan'on oyi Yusuf alayhissalomga o'xshash xushro'y,
Tug'ilish kuni, oyi va yili tarix bo'ldi,
“Juma Tongi, jumadussoniy oyining ikkinchisi”».

Mavlono Yaqiniy (XVI asr). Umrining ko'p qismini Movarounnahrda, faqirlikda darveshlar libosida o'tkazib, tez-tez ularning davrasida bo'lib turgan. She'rlariga “Yaqiniy” taxallusini qo'llagan. Uning bir ruboiysi mazmuni:

«Sabo yelidan sening hidingni topqusi dil,
Gulda sening yuzing asarini topqusi dil.
Unga tenglashmoqqa na mushku anbar haddi siqqan,
Uni faqat seni ko'chang tuprog'idan topqusi dil».

Mavlono Savtiy (XVI asr). Ubaydullaxon xukmronligi davrida bir qancha muddat ark masjidida muazzin bo'lib ishlagan. She'riyatga oshno bo'lib, o'z davridagi ko'pgina shoirlar she'rlariga tatabbu'lar qilgan.

Amir Boqiy Kosoniy (XVI asr). Hozirgi Qashqadaryo viloyatidagi Koson hududida yashab ijod qilgan. Sayidlar avlodidan. Ushbu bayt mazmuni quyidagicha:

«Qalamim ne'mati - bu barcha tar gullardir,
Yo'qsa, quruq qamish gullaganini kim ko'ribdi».

Muhammad Sharif Sadr (XVI asr). Andijonlik bo'lib, sadrlik vazifasida ishlagan va ajoyib fazilatlari bilan hukmdorlar hurmatiga sazovor bo'lgan. Uning matla'si mazmuni:

«Hajring xanjaridan qon ustida o'tirib qoldim,
Ag'yor ila oshnoliging meni oyoqdan oldi».

Xoja Ziyoiddin Yusuf (XVI asr). Abdurahmon Jomiyning suyuqli o'g'li. Yaxshi fazilatli, ahloqli bo'lishi bilan birga, she'riyatga ham ixlosi baland bo'lgan. Ikki misra bayt mazmuni:

«Eshikdan raqib kelyapti, devor osha esa yorning malomat toshi
yog'ilmoqda,
Qarang, dardli oshiqlar boshiga balo, ham eshikdan, ham teshikdan
yog'ilmoqda».

Xoja (XVI asr). Oltin o'rda va Buxoroda yuqori diniy lavozimlarda ishlagan, Shayxul islom mansabida bo'lgan. Nomi Podshoh xo'ja bo'lib, Xoja taxallusi bilan yetuk she'rlar yozgan. Zahiriddin Muhammad Bobur bilan yaqin aloqada bo'lib, she'rlaridan Qobul orqali Dehliga yuborib turgani haqida ma'lumotlar bor. Hikoyalari va she'rlari to'plami mavjud. Ikki misra she'ridan namuna:

«Manda yo'qdir podshohlik orzusi daxr aro
Ondin o'tib xalq ila mashg'ulman har subhu shom».

Shoir Saido Nasafiy (1687-1710) ko'pgina lirik she'rlar yozgan.

XVII asrda yashab ijod etgan shoir Turdi (1699 yilda vafot etgan) xalq qo'zg'olonlarida qatnashgan. Shu bois uning she'rlarida hukmron tabaqalar,

xonlarning xalqqa qilgan jabr-zulmi aks etadi. Mirzo Abdulqodir Bedilning (1644-1720) asarlari xalq ichida mashhur bo'lgan. U O'rta Osiyoda adabiy va falsafiy fikrning rivojiga katta hissa qo'shgan.

Musiqqa san'atida xam sezilarli siljishlar ro'y berdi. Ko'p adiblar, fan arboblari musiqadan yaxshi xabardor kishilar edi. Musiqa tarixi va nazariyasiga oid qator ilmiy asarlar yozildi.

Mashhup honanda va sozandalar orasidan Mug'anniy, Mavlono Kavkabiylar, Buhoriy, Hoja Muhammad Rizo Samarqandiylarning nomlari bizgacha stib kelgan.

Najmiddin Kavkabiylar Buxoriy (1490-1535)ning «**Musiqa risolasi**»da «Musiqa ilohiy sirlarga ega, shu bois u, faqat tanlangan insonlargagina tushunarlidir», deb ta'kidlanadi.

Umuman, XVI asr ohiri — XVIII asr mobaynida O'rta Osiyoda uch honlikning yuzaga kelishi musiqqa san'atida, aniqrog'i, ijrochilik va ijodchilikda mahalliy xususiyatlar ustuvorlashishiga olib keladi. Natijada Buhoro, Xorazm, Farg'ona - Toshkent maqomlari shakllanadi.

O'tmish allomalarimiz, ijodkorlarimiz musiqqa san'atining jamiyatdagi, inson hayotidagi o'rni haqida ko'plab ijobiy fikrlarni yozib qoldirganlar. Musiqa insonning turli kayfiyatlarini, jumladan, ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqa holatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy-tasviriy imkoniyatlari qadimgi yunon olimlari, Sharq mutafakkirlari, tasavvuf arboblari va boshqalar tomonidan yuqori baholangan, sharhlangan va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqada asosiy vosita kuy, ohang, navo hisoblanadi. Musiqa va unga bastalangan g'azal qo'shiq deyiladi. Musiqa qadim-qadimdan, har qanday sharoitda ham insonlar hayotining, kundalik turmush tarzining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Barcha davrlarda ham uning ilohiy iste'dod va qobiliyat sohiblari yetishib chiqqanlar. Chunki musiqqa insonni hayotga, yashashga, mehnatga, ezgu orzu-niyatlarga, umuman barcha yaxshiliklarga yetaklaydi. Yurtimizda barcha o'tgan tarixiy davrlarda musiqqa-qo'shiqchilik ajdodlarimiz madaniy hayotining muhim qirrasini bo'lgan. Aynan bu davrda ham ushbu ijod yo'nalishining mashhur namoyandalari bilan bir qatorda, uning nazariy tomonlarini, ildizlarini, tahlilini bayon etgan bir qator nazariyotchilari ham yetishib chiqib, samarali ijod qilganlar va madaniyatimiz xazinasiga bebaho hissa qo'shganlar. Tarix - o'tmish ko'zgusi deydi. Aynan shu maqsadda quyida ushbu soha ijodkorlari nomlari, faoliyatlari haqidagi ayrim ma'lumotlarni umumlashtirishga va o'quvchilar e'tiboriga havola etishga harakat qildik.

Ali Jo'n Noyi (XV-XVI asrlar). Marvlik sozanda-bastakor, mashhur nay ustasi. Jo'n - uning tahallusi bo'lib, quduq kavlovchi ma'nosini beradi. Marv hukmdori Qozoqxon saroyida yashab ijod etgan. Musiqa ilmini shu yerda ustozlardan va o'zi ham maxsus shug'ullanib o'rgangan. O'zbek musiqasi tarixida o'zining qator peshrov va naqshlari bilan mashhur bo'lgan.

Amir Ali Akbar Samarqandiy (XVI asr). O'zbek sozanda-bastakori. «Ilmi Odob», «Ilmi Axloq» asarlarining muallifi. San'at sohasida juda ko'p savj va naqshlar bastalagan. Ustoz murabbiy sifatida o'z davrining taniqli, mashhur sozandalaridan Mahdumzodai Xorazmiy, Darvesh Bo'zgala, Miri Xokiy, Mavlono

Pirmuhammad Kulol, Ustod To‘lak Naiy, Ustod Abdusattor Qonuniy, Ustod Arabiy Navoiy, Mahdumzodai «kotib» kabilarni tarbiyalab yetishtirgan.

Darvish Shayxim Qalandariy (XVI asr-Xirot-Balx). Sozanda, xonanda, bastakor. Darveshali Changiy uning san’atini ta’riflab, «Navo dashtining xushxon bulbuli»¹ deb atagan. Uning musiqaga oid yaratgan asari bizgacha yetib kelmagan. Lekin, ustoz san’atkorlar Abdulloh Naiy, Hofiz Qonuniy, Ustod Ilyos Naiy, Ustod Poyondai Qobuziy, Ustod Muhammad Surnaiy, Usto O‘zbek G‘ijjakiylar uning asariga yuksak baho berganliklari haqidagi ma’lumotlar mavjud.

Darvish Bo‘zgala (XVI asr-Samarqand). Sozanda, xonanda, xalq bastakori. Darvishali Changiyning «Tuxfai us-surur» risolasida Darvish Bo‘zgalaning ko‘plab kuylar bastalagani hamda yuksak mahorat egasi bo‘lganligi ta’kidlangan.

Darvish Maqsud Andijoniy (XV asr oxiri-XVI asr boshlari. Buxoro). Sozanda, bastakor. Xirotlik mashhur san’atkor, Axiyi Xiraviyning shogirdi. Musiqiy iste’dodi Xirotida kamolga yetgan. Muhammad Shayboniyxon Xirotni egallagach, Hofiz Ushshoqiy, Xoja Boboyi Changiy, Xoja Xamzai Toshkandiy, Hofiz Miroqiy Buxoriy va Hofiz Boqiy Rudiy kabi mashhur san’atkorlar bilan birga Darvish Maqsudni ham Buxoroga olib ketgan. Darvishali Changiyning musiqa risolasida keltirilishicha, Darvish Maqsud Jomiyning ko‘pgina g‘azallariga savj va naqshlar bastalagan.

Zaynulobiddin Husayniy (XV asr II yarmi-XVI asr boshlari. Xirot). Musiqa nazariyotchisi, bastakor, sozanda va shoir. «Ixlosiya» madrasasida riyoziyot, falsafa, musiqa nazariyasi va badi’ ilmidan tahsil olgan. «Qonun» (Zamonaviy adabiyotda «Qonuni ilmi va amali musiqiy» - «Musiqa ilmi va amaliy qonunlari») asarini yozgan. Asar Navoiyga bag‘ishlangan qasida va 24 bobdan iborat. Risolaning yagona nushasi O‘zR FA SHI da saqlanadi. Asarda muallif o‘zi yashagan davr musiqa san’atining nazariy va amaliy masalalarini yoritadi. Unda 12 maqom, ovoza va sho‘ba tushunchalariga qator aniqliklar kiritilgan. Risola oxirida cholg‘u sozlariga ham ta’rif berilgan. Asar musiqa nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha qimmatli manbadir.

Omonnisoxonim Nafisiy (1534-1567. Sharqiy Turkiston). Uyg‘ur maqomshunosi, shoira, xattot. Yoshligidan sato va tanbur chalishni o‘rgangan. Yorkend xoni Abdurashidxonning rafiqasi. Bu esa uning musiqashunos olimi, shoira, usta xattot bo‘lishiga va xonlik madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shishiga imkon bergan. Nafisiy xotin-qizlarga nasihat mazmunidagi «Axloqi jamila», san’at va xattotlikka oid «Shuruh ul- qulub» («Qalblar sharhi») nomli asarlar yozib qoldirgan. Shuningdek, 12 maqomni tiklash ishiga hissa qo‘shgan.

Mavlono Boqi Jarroh - XVI asrda Shayboniy hukmdorlardan Samarqand xoni Saidxon davrida Samarqandda yashab ijod etgan mashhur san’atkor, yoqimli ovoz sohibidir. Tabib, sozanda, bastakor. Boqi Jarroh boshqa tengqur va davrdosh qo‘shiqchi va hofizlardan ovozining dardliligi va shiraliligi bilan ajralib turgan. U mashhur musiqa nazariyotchisi Najmiddin Kavkabiy - Buxoriyning qobiliyatli

¹ Дарвиш Али Чанги. Среднеазиатский трактат о музыке. Перевод с персидского проф. А.А.Семёнова. Ташкент. 1946.

shogirdi bo'lgan. O'zi ham bir qancha musiqa asarlarini (Rost va Navo maqomlari hamda Segoh sho'basini asosida peshrav, naqsh va amallar) yaratgan. Hukmdor Saidxon bu san'atkorga alohida mehr va hurmat bilan munosabatda bo'lib, unga ijod bilan shug'ullanishi uchun homiylik qilgan. Bo'q ayni vaqtda tajribali jarroh ham bo'lgan. Umrining oxirlarida Xisor hokimi Temurxon saroyida ijod qilgan.

Xoja Mahmud ibn Ishoq Shahobiy (XVI asr). Shayboniylardan bo'lgan Ubaydullaxon saroyida xizmat qilgan yetuk musiqachi. U dutor chalishda tengi yo'q qobiliyatga ega bo'lgan. Shahobiy mashhur musiqa va xattotlik ustosi Mir Ali Kotibning shogirdi bo'lib, xattotlik san'atini ham yaxshi egallagan. Shu bois uchun musiqachilik bilan bir vaqtda xattotlik bilan ham shug'ullangan.

Mavlono Husayn Oxun (XVI asr). Abdullaxon davrida yashab ijod etgan yetuk olim, mashhur musiqachi. Turkistonda tug'ilib, Buxoroda ijodiy faoliyatini yuritgan. Uni serqirra bilimlar sohibi bo'lganligidan davrdoshlari o'z davrining Aflotuni va Buqrot hakimi deb sanashgan. San'atda, xususan musiqada o'z davrdoshlarining eng peshqadami bo'lgan. Hakimlikda ham, musiqachilik sohasida ham ko'plab yetuk shogirdlar tarbiyalagan. Ulardan Mavlono Mahmud Gilyaniy, Poyondiy Muhammad Miyonqal'iy, Ali Do'st kabi musiqa ustalari o'z davrining mashhurlari bo'lganlar.

U shuningdek, yirik shoir ham edi. Ko'pgina savt, amal, taronalarga o'zi g'azal yozib kuyga solgan.

Mavlono Qosimiy Kohiy (XVI asr–Samarqand). Bu kishining davrdoshlari unga olimlarning «yetugi», «davrning nodiri» deb yuqori baho berganlar. Kohiy nihoyatda yoqimli, shirali ovoz sohibi bo'lganligi uchun tez orada mashhur bo'lib ketgan. U keyinchalik Qobul shahriga boradi va u yerning tabiati, xush xavosi yoqib qolib Komron Mirzo saroyida xizmatda bo'ladi. U Xindistonda Xumoyun saroyida ham bo'lgan.

Yusuf Mavdud - Dutoriy - Hirotiy (XVI asr). Hirotida tavallud topgan betakror san'at sohibi. Ayniqsa dutor chalishda tengi yo'q mohir bo'lgan. Umrining so'nggi yillarini Hindistonda Xumoyun huzurida o'tkazgan.

Mahzumzodaiy Xorazmiy (XVI asr). Mashhur shayx Sayid Husayniy Xorazmiyning o'g'li. Musiqa sohasida dong taratgan bastakor bo'lgan. Ko'plab savtlar, naqshlar va boshqa musiqiy asarlar muallifi. Mahzumzoda bastalagan musiqa asarlari XVI-XVII asrlarda Buxoroda juda ommalashgan. Mashhur musiqachi Hofiz Changiy ham Mahzumzoda bilan yaqindan tanishish maqsadida Samarqandga kelgan. Hofiz Changiy Mahzumzodadan ko'plab musiqa bilimlarini o'rganadi va ular asosida o'lmas musiqiy asarlar yaratadi.

Najmiddin Kavkabi (XV asr II yarmi - 1529). Asli Xirotnik yirik olim, sozanda, musiqa nazariyotchisi. Kavkabi Ubaydullaxon saroyida xizmat qilgan. Xon Kavkabiyni nihoyatda qadrlagan. U bir qancha musiqiy risolalar muallifi. Ulardan bizgacha saqlanib kelganlari orasidan nasrda va nazmda yozilgan «Musiqa risolasi» va «O'n ikki maqom haqida» asarlari alohida ahamiyatga ega. Bu asarlar madaniyatimiz tarixi xazinasini boyitib kelmoqda.

Dostonchilik va baxshichilik xalq ogʻzaki poetik ijodidagi qadimgi epik anʼana boʻlib, unda dastlab qoʻshiq shaklidagi, musiqa sozlarisiz kuylanadigan asarlar yaratilgan. X-XI asrlardan eʼtiboran doʻmbira sozi joʻrligida aytila boshlangan. Dostonchilikning bunday ilk namunalari Kaspiy va Orol boʻylaridagi qadimgi koʻchmanchi turkiy qabilalar orasida vujudga kelgan.

Ularda sekin-asta ustoz-shogirdlik anʼanalari ham paydo boʻla boshlagan. Bu holat XV-XVI asrlarga kelib bir nechta dostonchilik maktablarining vujudga kelishiga ham olib kelgan.

Yurtimizda xususan XVI asrlardan keyingi davrlarga kelib dostonchilik-baxshichilik sanʼati sohasida oʻziga xos yuksalish roʻy bera boshlagan. Manbalarga koʻra, bu davrda baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari boʻlib, ularni kuylovchi Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Boʻron shoir, Jumanbulbul, Jossoq, Xonimjon Xalfa, Buvi shoir, Suyav baxshi, Amin baxshi, Yoʻldosh bulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Yoʻldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi kabi yuzlab vakillari xalq yigʻinlarida, turli sayil-tantanalarda va boshqa tadbirlarda elga xizmat qilib yurganlar.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida esa Ergash Jumanbulbul oʻgʻli, Fozil Yoʻldosh oʻgʻli, Poʻlkan, Islom shoir, Saidmurod Panoh oʻgʻli, Berdi baxshi, Abdulla Nurali oʻgʻli, Umir baxshi, Bola baxshi, Ahmad baxshi kabi yetuk, mashhur baxshilar oʻzlariga zamondosh boshqa baxshilar bilan hamkorlikda ushbu epik anʼanani davom ettirganlar.

Dostonchilikning Bulungʻur, Narpay, Qoʻrgʻon, Xorazm, Shahrisabz, Sherobodagi yirik maktablaridan tashqari Qamay, Pskent, Koʻlbuqon, oʻzbek-laqay maktablari uslublari ham mavjud. Masalan, Qashqadaryoning Qamay qishlogʻi dostonchilik maktabining Abdukarim Juyruq (XIX asr), Mulla Xolnazar oʻgʻli (XIX asr oxiri - XX asr boshi), Bozor Sherqul oʻgʻli (1877-1953), Xazratqul baxshi (XIX asr II yarmi - XX asr boshlari) kabi qator yetuk baxshilari boʻlgan.

Dostonchilik-baxshichilik ijodining yetuk, mashhur vakillari bugungacha ham elimizga xizmat qilib kelmoqda.

Quyida XVI-XX asr boshlarida yashab, ijod etgan dostonchi-baxshilarning ayrim yirik vakillari haqida maʼlumotlar bermoqdamiz.

«Yusuf va Ahmad» - XVI -XVII asrlarda Xorazmda yaratilgan oʻzbek xalqining mashhur dostoni. Doston dastlab ogʻzaki anʼana asosida yaratilgan, keyinchalik XVIII asrda turkman shoiri Qurbonali Maʼrufiy tomonidan uning yozma varianti yuzaga kelgan. Asarda qahramonlik, sevgi-sadoqat, yor-diyor mehri, tinchlik uchun kurash gʻoyalari kuylangan. Doston turkman, qozoq, uygʻur, oʻzbek, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. Uning yana bir muhim jihati shundaki, dostonning Xorazm varianti nemischa tarjimasini bilan birgalikda Venger olimi H.Vamberi tomonidan dastlab undan olingan parchalar holida 1867 yilda Leypsig shahrida, soʻng toʻla ravishda 1911 yilda Budapeshtda chop etilgan. Sharqshunoslik instituti fondida dostonning qoʻlyozma nusxalari, Til va adabiyot instituti folklor arxivida esa xalq baxshilaridan yozib olingan variantlar mavjud.

Jiyyen Jirov (1730-1784). Qoraqalpoq xalq baxshisi. Sirdaryoning oʻng irmogʻi - Jangadaryo boʻyida tugʻilgan. Baliqchilik bilan shugʻullangan. Oʻzi sheʼr yozib, kuy bastalab ijro etgan. Aksariyat ijodida ijtimoiy haqsizlik, amaldorlar kirdikorlari


haqida kuylagan. Xalq dostonlarini nihoyatda mohirlik bilan kuylab, xalqqa xizmat qilgan. Qiyas Jirov, Qurbonboy baxshi, O'tepniyaz Jirov kabi taniqli baxshilar uning shogirdlari bo'lganlar.

Jumanbulbul Mulla Xolmurod (1818-1886). Samarqand viloyati, Nurota tumani, Qo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. O'zbek dostonchisi. Ergash Jumanbulbulning otasi. Uning ota-bobolari, momosi Tilla kampir, akalari Jassoq va Yorlaqab baxshilar o'z davrining yirik dostonchilaridan bo'lgan. Xalq dostonlarini mahorat bilan kuylagani uchun «bulbul» nomini olgan. Dostonchining ayrim hajviy termalari ham og'izdan-og'izga o'tib, bizgacha yetib kelgan.

1. Zahriddin Muhammad Boburning davlat arbobi va olim sifatida O'zbekistan va jahon tarixida tutgan o'rniga tavsif bering.
2. Shayboniyhonning ma'rifatparvar hukmdor bo'lganligiga misollar keltiring.
3. O'zbek xonliklari ijtimoiy-iqgisodiy va madaniy xayotini o'rganshda Buhoro, Xiva va Qo'qon tarixnavislik maktabi namoyandalari kanday o'rin tutadi?
4. XVI — XIX asrlar o'zbek adabiyotining rivojiga muhim xissa qo'shgan adiblar ijodiga ta'rif bering.
5. Bu davrdagi ta'lim tizimi xasida nimalarni bilasiz?
6. Ko'rilayotgan davrda kitobat va musiqa san'atidagi ro'y bergan siljishlar nimalarda ifodalanadi.
7. XVI - XIX asrning birinchi yarmida me'morchilikda qanday yangi yechimlarga erishildi?
8. Bu davrdagi madaniy xayot qanday xususiyatlari bilan izohlanadi?

Mavzuni o'qitishda “Qarorlar shajarasi” metodifoydalanish dars samaradorligini oshiradi.

“Qarorlar shajarasi” metodi



“Qarorlar shajarasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

1.O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruh tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlar tayyorlaydi.

2.O'quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng muqobil qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3.Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarining har bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning muqobillik hamda nomuqobillik darajalari muhokama qilinadi.

4. Munozara uchun vaqt nihoyasiga yetkach, har bir guruh a'zolari qarori borasida axborot beriladi. O'qituvchi rahbarligida barcha o'quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar. Dars yakunida baholanadilar.

Biz metodik qo'llanmamizning ushbu mavzusini o'qitishda "Qarorlar shajarasi" metodidan foydalanishni tavsiya etdik. An'anaviy dars o'tish ham o'ziga xos afzalliklarga ega, albatta. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish, o'qituvchining o'z ustida tinmay izlanishga, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiradi. Agar dars jarayoniga "Qarorlar shajarasi" metodini joriy qilish to'g'ri tashkil qilinsa, talaballarda **quyidagi mahorat va ko'nikmalar shakllanadi:**

- Mavzuga oid manbalar bilan ishlash mahoratini, ular asosida XVI asr oxiri - XVIII asrning birinchi yarmi madaniyati tarixiga oid ma'lumotlarni umumlashtirish va taqqoslash;
- O'rganilgan mavzuni eng zarur nuqtalarini yozib borish (konspekt);
- O'z milliy tarixiy merosi va an'alariga e'zoz va undan faxrlanish hissini uyg'otish.

9-mavzuning seminar mashg'ulotiga qo'shimcha manba: **ME'MORCHILIK MADANIYATI. (madrasalar, maqbaralar, masjidlari, majmualar, yirik savdo rastalari, xonaqohlar, qal'alar va boshqa inshootlar)**

Me'morchilik – qadimdan yurtimizda ajdodlarimiz tomonidan yaratib kelingan moddiy madaniyatning eng muhim ijodiy mahsullaridandir.

Me'morchilik o'tmishda ham va hozirda ham xalq amaliy ijodiyotida turli bino va inshootlarning qurilishi san'atini ifodalovchi, katta mahorat hamda mehnat talab qiluvchi ijod turi bo'lib, xalqning bu sohadagi o'ziga xos tarixini, madaniyatini, ijtimoiy-siyosiy qudratini, diniy va dunyoviy qarashlarini, maishiy hayotini ma'lum shakllarda mujassam etadi.

Me'morchilik shaharsozlikning asosi hisoblanadi. Chunki me'morchilik asarlari qatoriga turli-tuman katta-kichik binolar, uy-joylar, me'moriy majmualar, maydonlar, turli monumental qurilishlar, usti ochiq va yopiq turli soha, yo'nalish, kasblarga mo'ljallangan inshootlar kiradi.

Ayni vaqtda me'morchilik ijodi va mehnati o'zida turli xil san'at namunalarini ham mujassam etadi. Qadimgi dunyo tarixida mashhur bo'lgan «Yetti mo'jiza»ning barchasi ham inson dahosi bilan yaratilgan me'moriy san'at asarlari bo'lgani bejiz emas.

Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston me'morchiligi ham juda qadimiyligi, turli-tuman me'moriy yodgorliklari, yuksak nafosat mujassami bo'lgan mahobatli osori-atiqalari bilan doimo barchani diqqat-e'tiborini tortib kelgan.

Yurtimizda o'tgan bir necha yuz yilliklar davomida, jumladan, XVI asr boshlaridan boshlangan o'zbek xonliklari hukmronligi davrlarida ham me'morchilik madaniyati rivojida o'ziga xos yuksalish jarayonlari ro'y berib bordi.

To'g'ri, ushbu asrlarda har uchchala xonliklar o'rtasida tez-tez bo'lib turadigan urushlar, ziddiyatlar, shuningdek, har bir xonlikning o'zidagi turli maqsaddagi ichki

kurashlar madaniyatning barcha sohalari qatori me'morchilik sohasi rivojiga ham salbiy ta'sir etmay qolmagan. Lekin, shunga qaramay, xalq me'morchiligida O'rta Osiyo me'morchiligining ajoyib an'analari to'xtab qolmadi. Bu ulkan hududda yashovchi o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq xalqlarining yashash va turmush tarzi bu me'morchilikning o'ziga xos milliy tomonlarini belgilashda va davom ettirishda muhim rol o'ynadi.

O'zbekiston me'morchiligining asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan an'ana va qonun-qoidalari xonliklar hukmronligi davrida ham o'ziga xos yo'nalishda davom etdi, yuzlab turli me'morchilik madaniyati asarlari bunyod etildi. Biz quyida ushbu me'morchilik rivoji haqida jamlangan ma'lumotlarni berishni ham joiz deb hisobladik.

Abdullaxon bandi. XVI asrning 80-yillarida Buxoro xukmdori Abdullaxon II qurdirgan qadimgi yirik suv ombori. Bu inshoot qoldiqlari Nurota tumani markazidan 65 km. sharqdagi eski Oqchob qishlog'i yaqinidagi Beklarsoy darasida hozirgacha saqlanib qolgan.

Abdullaxon madrasasi (XVI asr). Buxorodagi Qo'sh madrasa ansamblining shimoliy qismida joylashgan me'moriy yodgorlik. Me'mori noma'lum. O'sha davr me'morchiligining yetuk namunasi bo'lgan bu madrasa Buxoro me'morchiligining XVI asrda erishgan barcha ijodiy yutuqlarini namoyish etadi.

Baland masjid (XVI asr). Masjid Buxoroda xarsang toshli shohsupa ustiga qurilgan. O'yma va bo'yama naqshlar hamda koshin va parchin qoplab bezatilgan.

Bandi kushod masjidi (XVI asr). Masjid Qashqadaryoda paxsadan qurilgan, xonaqohi ikki ustunli, bezaksiz. Somon suvoq qilingan. Hozirgacha saqlangan.

Baroqxon madrasasi (XVI asr oxiri-XVII asr boshlari). Toshkentdagi Hazrati imom majmuasidagi bino. Toshkent hokimi Navro'z Ahmad (Baroqxon) tomonidan qurdirilgan.

Bibi Buvayda maqbarasi (XV-XVI asrlar). Farg'ona viloyati, Buvayda tumanida qurdirilgan me'moriy yodgorlik bo'lib, ziyoratxona va ikki go'rxonadan iborat. Maqbara bezaksiz bo'lib, ichkari qismi ganch bilan suvalgan.

Govkushon majmuasi (XVI asr). Buxorodagi me'moriy yodgorlik. Jo'ybor xojalari qurdirgan madrasa, masjid, minora, hovuz va saroydan iborat majmua. Govkushon - qassoblar bozori ma'nosida.

Iskandar ko'pri (1557-1598). Surxondaryo viloyatining qadimiy savdo yo'lida Bandixonsoy ustida qurilgan. Umumiy uzunligi 70 metrdan ortiq. Balandligi soy tubidan 12 metrdan ortiq.

Kasbi Namozgohi (XVI asr). Qashqadaryoda. O'zaro bir-biri bilan bog'langan ravoqli beshta xonalar gumbazli bo'lib, markaziy xona katta, besh qirrali mehrobi esa tashqariga turtib chiqqan.

Kokildor xonaqohi (XVI asr). Termizda. Baland va chuqur ravoqli peshtoq markaziy xonaga kirishda qurilgan. Markaziy xona yon tomonlarida bir necha bir xil xonalar. Xona sahnida bir necha qabrlar saqlanib qolgan.

Ko'kgumbaz masjidi (XVI asr 90-yillari). Qarshida. Namozgoh uslubida qurilgan gumbazli bino. Xonaqoh qo'shgumbaz bilan yopilgan. Bezagida yashil, feruza, oq rangli koshin va sirlangan g'isht qo'llanilgan.

Ko'kaldosh madrasasi (XVI asr II yarmi). Buxoroda. Abdullaxon II ning yaqin amaldorlaridan biri Qulbobo Ko'kaldosh tashabbusi bilan bunyod etilgan. 160 ta hujra va darsxona hamda masjiddan iborat. Ochiq ayvonchali boloxonalari ham bor.

Ko'kaldosh madrasasi (1551-1575). Toshkentda. Toshkent hokimi Ko'kaldosh qurdirgan. Peshtoqlar parchin va girih bilan naqshlangan. Darsxona va masjid mavjud. Binodan XVIII asrda karvonsaroy sifatida ham foydalanilgan.

Langar ota majmuasi (XV-XVI asrlar). Qashqadaryoda. Masjid va maqbaradan iborat. Xonaqohlar girih va naqshlar bilan bezatilgan. Maqbara peshtoq va gumbazli.

Masjidi Kalon (XV-XVI asrlar). Buxoroda. Eski masjid qoldiqlari (XI-XII asrlar) o'rnida qurilgan. 288 gumbazli g'ishtin ustunlarga tayangan. Masjidning yetti eshigi bor. Asosiy bino baland qilib qurilgan.

Modarixon madrasasi (XVI asr II yarmi). Abdullaxon madrasasi bilan qarama-qarshi qilib qo'sh madrasa tarzida qurilgan. Hovli atrofida ayvon, hujralar va burchaklarida darsxonalar joylashtirilgan.

Abdullaxon timi - 1577 yilda Abdullaxon II tomonidan qurdirilgan. Buxorodagi eng katta usti berk savdo rastasi. O'tmishda bu yerda shoyi, jun, gazlama bilan savdo-sotiq qilingan. Savdo rastasi murakkab, ayni vaqtda xushbichim qurilgan. Bir necha bor ta'mirlangan, savdo do'konlari joylashgan.

Abdulazizxon maqbarasi - Buxorodagi yirik me'morlik yodgorliklaridan biri bo'lib, 1652 yilda mashhur me'mor Mimhoqon ibn Xo'ja Muhammad Amin tomonidan qurdirilgan. Ulug'bek madrasasining qarshisida joylashgan. Madrasa bezaklari yuksak san'at va mahorat bilan ishlangan. Madrasa XVII asr Buxoro mahobatli me'morchiligining yetuk namunasi.

Arab Muhammadxon madrasasi (1616 - 1838). Xivada. Arab Muhammadxon madrasani bir qavatli, oddiy sinchli qilib qurdirgan. Olloqulixon davrida madrasa binosi qayta va yana bir qancha qo'shimchalar bilan qurilgan va takomillashtirilgan.

Hiva xoni Anushaxon (Asl ismi Abulmuzaffar Muhammad, Abulg'oziy Bahodirxonning o'g'li) hukmronligi davrida (XVII asr) me'moriy binolardan Kot va Shohobod qal'alari qurilgan. Qoraqalpog'istondagi Sulton Vays bobo va Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbaralari, Oq masjid ta'mirlangan. «Shajarai Turk» asari oxiriga yetkazilgan.

Anushaxon hammomi - 1657 yilda Xivada bunyod etilgan me'moriy yodgorlik. Ichan qal'adagi Oq masjid yonida Abulg'oziy Bahodirxon tomonidan o'g'li

Anushaxonning Karmanadagi g'alabasi sharafiga qurilgan. Ichki tomoni suvalgan bo'lib, hech qanday bezak yo'q. 1984 yilda ta'mirlanib, ishga tushirilgan.

Bo'ston Buva Maqbarasi (XVI asr oxiri - XVII asr boshlari). Farg'onada. Afsonaviy sarkarda Shoh Jalilning akasi Bo'ston buva dafn etilgan deb taxmin etiladi. Bezaksiz, biroq me'moriy ta'sirchanligi yuqori. Bezaksiz.

Devonbegi madrasasi (1622-1623). Buxoroda. Nodir devonbegi madrasasi. Buxoro hukmdori Imomqulixonning vaziri bo'lgan. Madrasa dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan. So'ng esa madrasaga mo'ljallab bitkazilgan.

Devonbegi xonaqohi (1619-1620). Buxoroda. Nodir devonbegi xonaqohi peshtoqi koshin va parchin bilan bezatilgan. Ayvon, xonaqoh va ikki qavatli hujralardan iborat.

Yodgor Valloma maqbarasi (XV - XVII asrlar). Qashqadaryoda. Madrasa mahalliy bek nomi bilan atalgan. Masjid gumbaz bilan qoplangan. Darsxona va kitobxonalar ham bo'lib, barchasi bezakli.

Ibrohim ota maqbarasi (XVII asr). Toshkentda. Maqbara bir xonali, peshtoqi gumbazli. Tagiga g'isht yotqizilgan va bezaksiz. Uning g'arbida yer sathidan 1,5 metr chuqurlikda chillaxona bor.

Labihovuz ansambli (XVII asr). Buxoroda. Dastlab bozor maydoni bo'lgan. O'rtada katta hovuz qazilib, atrofiga xarsang toshlardan zinapoyalar ishlangan. Marmardan tarnovlar qilingan. G'arb tomonida Devonbegi xonaqohi, sharqida Devonbegi madrasasi, shimolida Ko'kaldosh va Ernazar elchi madrasalari qad ko'targan.

Mahdumi A'zam majmuasi (XVI-XIX asrlar). Samarqandda. 1542 yilda vafot etgan «buyuk hokim» Mahdumi A'zam qabri atrofida barpo etilgan. Majmua masjid, darvozaxona, chillaxona, hujralar, Mahdumi A'zam hazirasi, g'ishtin minora, hovuzdan tashkil topgan.

Muzrobshoh Xorazmiy maqbarasi (XVI-XVIII asrlar). Xorazm viloyatida. Maqbara rivoyatga ko'ra VIII asrda yashagan Xorazm hokimi va din arbobi Muzrobshohga atab qurilgan. Bino bir xonali, peshtoqli, bezaksiz.

Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoroning Jo'ybor mavzesida Abu Bakr Sa'd mozori atrofiga madrasa, masjid, xonaqoh va chorbog' qurigan. Chor Bakr nomi bilan mashhur bo'lgan bu majmua yurtimizdagi nodir inshootlardan biridir. Shuningdek, Abdullaxon II davrida Buxoroda madrasa, hammom, Govkushon, Fatxulla qushbegi, Mirakan, Xoja Muhammad Porso, Yangi Chorsu, Tim va Zarafshon daryosi ustiga ko'priklar ham qurilgan. Bunday inshootlar va karvonsaroilar Samarqand, Toshkent, Balx va boshqa shaharlarda ham qurdirilgan.

10-Mavzu: O'zbek xonliklari davrida madaniyat (XVII asr - XIX asrning birinchi yarmi)

Reja:

1.XVII asr - XIX asrning birinchi yarmi Qo'qon xonligi madaniyati.

- 2.XVII asr - XIX asrning birinchi yarmi Hiva xonligi madaniyati.
3. XVII asr - XIX asrning birinchi yarmi Buxoro amirligi madaniyati.
- 4.Kitobat, xattotlik, musavvirlik va tasviriy san'at ijodi.
- 5.SH ye ' r i y a t.
- 6.Musiqa-qo'shiqchilik ijodi, musiqa nazariyasi namoyandalari.
- 7.Teatr, kino, qo'g'irchoqbozlik, qiziqchilik-masxarabozlik, askiya, sirk-dorbozlik san'ati ijodi

Adabiyotlar:

- 1.Oydinov Norsaid. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. Toshkent: «O'qituvchi», 1997.
- 2.Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. Toshkent: «O'qituvchi», 1995.
- 3.Farg'ona vodiysida XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi madaniy hayot. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar jurnali. Toshkent, 1984. 1-soni.

XVIII asr boshlarida Qo'qon xonligi vujudga keladi. Bu davrda Turkiston xalqlari madaniyati asosan shu uch xududda rivojlandi. XIX asrning birinchi yarmiga kelib, xonliklarda ma'lum madaniy siljishlar ro'y berdi, madaniyatimiz tarixiga muhim hissa qo'shgan adib, san'atkor, olimlar yetishib chiqdi.

Qo'qon xonligining XVIII—XIX asrning birinchi yarmida kechgan madaniy xayotida tarixnavislik sezilarli ravishda o'sib borganini ko'ramiz.

Qo'qon xonligi tarixi Mulla Olim Maxdumxoji («Tarixi Turkiston»), Muxammad Xakimxonto'ra («Muntaxab at-tavorix»), Fazliy Namangoniy («Shoxnoma»), Mushrif Isfarangiy («Shoxnomai Umarxon»), Avazmuxammad («Tarixi jaxonnomayi»), Niyoz Muxammad Xukandiy («Tarixi Shoxruxiy», «Tarixi sayyidi Xudoyorxon»), Muxammad Solixo'ja Qoraxo'ja o'g'li («Tarixi jadidi Toshkand») asarlarida keng yoritilgan.

XIX asr adabiy xayotining ko'zga ko'ringan namoyandalari: Mujrim Obid, Shavqiy, Hiromiy, Hoziq, Ahmad Donish singari shoir va adiblar o'z davri adabiy jarayoniga salmoqli hissa qo'shdilar.

XVI-XIX asrlar Buxoro xonligi (amirlik) ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy xayotini o'rganishda tarixnavislar: Fazlullox ibn Ruzbexonning «Mehmonnomai Buxoro», Xofiz Tanish Buxoriyning «Sharafnomai shoxiy» (ko'proq «Abdullanoma» nomi bilan mashhur), Zaynuddin Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye'», Muxammad Vafo Karmanagiyning «Tuxfat ul-xoniy», Mirza Muxammad Xaydarning «Tarixi Rashidiy», Muxammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy», Muxammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Abdurahmon Tolening «Tarixi Abulfayzxon», Muxammadsharifning «Tarixi Amir Xaydar», YAqub Buxoriyning «Gulshan ul-muluk», Mir- olim Buxoriyning «Fatxnomayi sultoniy», Mirza Abdul Abduazim Somiyning «Mang'it sulolalari tarixi» singari asarlari muhim o'rin tutadi.

Xiva honligida bu davrda ananaviy lirika bilan tazkiranavislik rivoj topdi.

Abulg'oz Bahodirxonning «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» asarlari an'anaviy Sharq, nashrining go'zal namunalari bo'ldi.

XVII—XIX asrlarda Xorazmda XV asrda erishilgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma'rifiy-tarbiyaviy fikrlarni davom ettirib, ijtimoiy hayotiy masalalarni chuqur badiiy bayon etishga urinish va targ'ib etishga intilish ko'zga tashlanadi. Chunonchi, bu davrlarda yashagan Muhammad Xoksor, Muhammadniyoz Nishotiy, Vafoiy, Roqim, Paxlavonquli Ravnaq, Nurmuhammad Andalib, Berdaq, Munis, Ogahiy kabi adib va mutafakkirlarning asrlarida ilgari surilgan yoshlarni ma'rifatli qilish, ularda ilm-fanga muxabbat uyg'otish, ma'naviy-axloqiy kamolotga erishishga da'vat, ustoz-shogird munosabatlariga oid fikrlar Xorazmda ma'rifiy-tarbiyaviy qarashlarning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Ogahiyning katta tarixiy xizmatlari tufayli Sharq daholari bo'lmish Nizomiy, Sheroziy, Jomiy, Xiloliy singari adiblarning shox asarlari fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi. Hiva xoni Muhammad Raximhon II Feruz Ogahiyning iste'dodli shogardlaridan bo'lgan.

Quqon honi Umarhon davrida (1810-1822 yillar) shakllangan va rivojlangan Quqon adabiy muhiti honlikning madaniy hayotida katta o'rin tutdi. Umarhonning o'zi «Amiriy», o'g'li Muhammad Alixon «Xon», rafiqasi Mohlaroyim esa «Nodirabegim» taxalluslari bilan tanilgan shoirlar edi.

Fazliy Namanganiy tuzgan «Majmuai shoiron» tazkirasida Qo'qonda yashab ijod etgan 63 shoir haqida ma'lumot beriladi.

Qo'qonda hajviyotning rivojida Gulhaniyning «Zarbulmasal», Mahmurning xajviy she'rlarining alohida o'rni bor.

Bu davr adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshod Otin kabi shoiralarning adabiyot maydoniga chiqishidir. Ular faqat g'azalchilik bilan cheklanmasdan, risola va dostonlar ham yozganlar.

Xar uch xonlikda badiiy ijodning «**xalq kitoblari**» turi rivoj topganini ta'kidlash joiz.

Go'ro'g'li turkumidagi o'nlab jangnomalar, tarixiy mazmundagi, qahramonlik dostonlari «**Tohir va Zuhra**», «**Oshiq Fapib va Shohsanam**», «**Sayyod va Xamro**», «**Yusufbek va Ahmadbek**», «**Alibek va Bolibek**», «**Xurshid va Malikai Dilorom**» dostonlarining xalq kitobi variantlari maydonga keldi.

Ko'rilayotgan davrdagi ta'lim tizimi xususida xam to'xtalib o'tish muhim. Bolalar maktabga olti yoshdan borib, unda asosan o'ziga to'q oilalar farzandlari ta'lim olgan. Keyin o'quvchilar maktabdan madrasaga o'tishgan. Hisob-kitob, she'r o'qish san'ati, musiqa, husnixat kabi mahsus saboqlar madrasadan tashqari o'qitilgan.

Madrasalar uch-boshlang'ach, o'rta va yuqori bosqichli bo'lib, ularda arab, fors, o'zbek tili mukammal o'rganilgan. Unda diniy bilimlar bilap birga, to'rt amal (arifmetika), xandasa (geometriya), falsafa, mangiq, adabiyot, geografiya, kisman tarix va tabobat o'qitilgan.

Bular ichida, ayniqsa, 1841 yilda Ollokulihon kurdirgan keyingi davr Xiva me'morchiligining ajoyib namunasi bo'lgan Toshxovli daqqatni jalb qiladi. Bu binoning devorlari yashil oq, tUSDagi naqshnikor toshlar bilan chiroyli qilib qoplangan qoramtir ko'k rang ustiga oq, bo'yok, bilan solingan ajoyib gullar naqshi, yog'och ustunlar va eshiklarga chekilgan jimjimador nozik naqshlar usha vaqtdagi Xorazm me'morchiligi uchun harakterli uslubda ishlangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XVI — XIX asrlarda o'lkamizdagi madaniy xayot o'ziga xosdir. Bir tomondan, adabiyot, tarix, me'morchilik, san'at sohalarida katta

yutuklar ko'lg'a kiritilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, birlikning yo'qotilishi, o'zaro nizolarning avj olishi, tabiiy va texnika fanlariga e'tiborning susayishi O'rta Osiyoni nafaqat jahon taraqqiyotidan orqada qolishiga, balki boshqa xalqlarning ko'l ostiga tushib qolishiga sabab bo'ldi.

Bu davrda xonliklarda musavvirlik va xittotlik madaniyati keng quloch yoydi. O'qituvchi shu o'rinda mavzuning mazmun mohiyatini ochish uchun misollar keltiradi.

Muhammad Darvish Samarqandiy (XVI asr oxiri - XVII asr boshi). Musavvir va xattot. Asarlarida O'rta Osiyo miniatyura maktabiga xos xususiyatlar o'z ifodasini topgan. Uning «Dostonu zebu zavar» qo'lyozmasiga ishlangan 4 rasmi (Britaniya muzeyida), Sa'diyning «Bo'ston» asari qo'lyozmasiga ishlangan miniatyuralari (Dublindagi Chester Bitti kutubxonasida) va yozgan qit'asi (Tehrandagi Saltanat kutubxonasida) saqlanib, bizgacha yetib kelgan.

Muhammad Nodir Samarqandiy (XVI asr oxiri - XVII asr). Musavvir, yirik portretchi. Asli samarqandlik, keyinchalik Hindistonga borib, Jahongir va Shoh Jahon saroyida xizmatda bo'lgan. Uning ijodida O'rta Osiyo va Hindiston miniatyura maktablari an'analari uyg'unlashgan. Muhammad Nodir «Savdogarlar Yusufni quduqdan tortib olmoqdalar» ko'p shaklli kompozitsiyalar, Jahongir, Shoh Jahon, shahzoda Doniyol (Britaniya muzeyida) va Xusrav (Luvrda), davlat arboblari Halilulloxon, Izzatxon, Asafxon o'g'li Mirzo, Sher Muhammad (Britaniya muzeyida) portretlarini yaratgan.

Muhammad Sharif (XVI asr oxiri - XVII asr boshlari). Musavvir. O'rta Osiyo miniatyura maktabi asoschisi. Muhammad Murod Samarqandiy bilan Sa'diyning «Bo'ston» asari qo'lyozmasini (Dublindagi kutubxonada) bezashda qatnashib, 4 ta rasm ishlagan. Shuningdek, hamkorlikda «Yigit rasmi» (Luvrda) va «Go'zal qiz» (shaxsiy majmuada) kabi alohida asarlarini ham yaratgan.

Muhammad Muqim (XVII asr). Musavvir. Ashtarxoniy xonlardan Abdulazizxon (1645-1680) va Subxonqulixon (1689-1702) kutubxonasida ijod qilgan. Muhammad Muqim insonlar tasviriga alohida e'tibor bergan, asarlari tasvirlarning nafis ishlanishi, qiyofalar ifodaliligi, kompozitsiyalar mutanosibliigi hamda shakllar yirikligi bilan ajralib turgan.

O'z davrining yirik ijodkorlari Hoja Gado, Avaz Muhammad, Mulla Behzod kabi musavvirlar va Mirzo Barqiy, Mulla Mir Munshiy, ibn Arabshoh kabi xattotlar bilan birga ishlab, Nizomiyning «Xamsa», Firdavsiyning «Shohnoma» asarlarini badiiy jihatdan bezagan. Shuningdek, Firdavsiyning «Shohnoma», «Narimonnoma», «Bayonnoma», «Faramuznoma» qo'lyozmalari majmuasiga rasmlar ishlashda ishtirok etgan.

Bu davrda xonliklarda she'riyat juda yaxshi rivojlandi.

Abulg'oziy Ubaydulla Bahodirxon (XVII asr). Muhammad Shayboniyxonlar sulolasidan. 1643 yilda Xiva taxtiga o'tirgan. Davlatga rahbarlik qilish bilan ayni vaqtda ilm, ijod bilan ham shug'ullangan. Hadis ilmida muhaddislar ustoz bo'lmish xoja Mavlono Isfahoniyning, islom huquqi ilmida esa mavlono Mahmud Azizonning shogirdi bo'lgan. Qiroatda esa mavlono Yormuhammad qoriyga shogird tushgan. Forsiy va turkiyda she'rlar ijod qilgan.

Bir-bir ayting do'stlar dardimni dildor oldida,

Aytib-aytib yig'langiz zinhor-zinhor oldida.
Ey, Ubaydiy, bilgan ermish dor ila holingni yor
Hojat ermas qilg'asen dardingni izhor oldida.

Abulmuzaffar Abdulatif Bahodirxon (XVII asr). Shayboniy xonlaridan bo'lib, adolat sohibi, ilm-fan va ijod homiysi edi. Tarix va ilmi nujumdan yaxshi xabardor bo'lgan. Shoirilar, fozillar bilan ko'p suhbat tuzgan. She'riyatidan namuna:

Moviy yorlig'ini solibtur dilbarim qosh ustina
Noz birlan harna qilsa ul pari bosh ustina

Sayqaliy (XVII asr). Nomi Muhammad bo'lgan bu ijodkor Xisor o'zbeklaridan bo'lib, yashab o'tgan davri haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Har holda XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida o'tgan degan taxmin bor. «Ravzat ul-shuhado» nomli she'riy kitobi va «Bahrom va Gulandom» nomli dostoni bizgacha yetib kelgan. Namuna:

Sayri gulshan etgali, ey gul xirom etsang netar,
Sunbulu sadbargu nargisni g'ulom etsang?

Jumlani shod aylading, ey nozaninlar sarvari
Sayqaliy bechoraning ham shodkom etsang netar

Olloyor (XVII- XVIII asr). Nomi ham, tahallusi ham Olloyor bo'lib, Kattaqo'rg'on o'zbeklaridandir. Abulfayzxon davrida ijod qilgan, uning amirlaridan bo'lgan. So'ng bu lavozimdan ketib, tasavvufga berilgan. Vafoti 1723-1724 yillar. Bizgacha uning «Saodat ul-ojizin» nomli ahloqqa oid kitobi yetib kelgan va o'zbek tilida nashr qilingan. «Murod ul-orifiyn» nomli devoni bor.

Tildi ko'ksim, ezdi bag'rim dog'i xijronim mening
Bu olamda buncha g'amda chiqmag'an jonim mening

Aytur Olloyor yig'lab zor har laylu nahor
Tiyri ishqiy yor to'ksa koshki qonim mening.

Mashrabi Soniy (XVII-XVIII asr). Qarshi shahrida tug'ilgan. Asl ismi Ro'ziboy. G'azallariga «Mashrab», goho «Mabdai Nur» tahallusini qo'ygan. Axloq-odobga doir «Mabdai nur» kitobi bizgacha yetib kelgan. XVIII asr oxirlarida yashab ijod etgan deb taxmin qilinadi.

Gavhari kimyo talab bo'lsang meni oldimga kel
Mavji bir daryo talab bo'lsang meni oldimga kel

Zoxiri ismim Ro'ziboy, Mavlaviy o'g'lim degan
Mashrabi Soniy talab bo'lsang mening oldimga kel.

Utojiy (XVIII asr boshlari). Bu shoirning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumot bizgacha yetib kelmagan. Muqimiydan avvalroq, XVIII asr boshlarida yashagan deb taxmin qilinadi. Bizgacha yetib kelgan quyidagi she'ridan namuna:

Yuragimni tig'i xajring tilib etdi pora-pora,
Kima aytayin bu dardim na davo qilay na chora.
Bu faqir, haqir Utojiy qul erur nadur iloji,
Sanga ko'pdir ehtiyoji, karam et bu sharmsora.

Huvaydo (XVIII asr). Marg‘ilonning Chimyon hududidan. 1780 yilda O‘shda vafot etgan. Ismi Xo‘jamnazar. Huvaydoning devoni o‘zbek tilida nashr etilib, kitobxonlarga yetib borgan. G‘azallari kuyga solinib, aytib kelinadi.

Qayu ishga qadam qo‘ysam, manga andin ziyon bo‘ldi,
Mani betole‘im do‘stlar, muncha ko‘p imtihon bo‘ldi.

Huvaydo ayladi zolim falakning zulmidan ming dod,
Menga qolganda ul zolimi charx kaj ravon bo‘ldi.

Noseh (XVIII asr). Farg‘ona viloyatining Chimyon hududi shoirlaridan. Huvaydo bilan zamondosh bo‘lib, XVIII asr oxirlarigacha yashagan. Huvaydo vafotiga marsiya yozgan.

Fig‘onkim, yetmading qadriga chandon,
Chiqib Chimyonimizdan ketdi hodiy.

Demas o‘z ta‘bidin Noseh bu so‘zni,
Tilig‘o qilmag‘uncha fozli hodi.

Zaliliy. Chorjo‘y shahri atrofi turkmanlaridan. Manbalarga ko‘ra XVIII asr oxiri XIX asr yarimlarigacha yashab ijod etgan. Maxtumlulning jiyani degan taxmin bor. 1844 yilda vafot etgan.

Agarchi bulbulam har tarafda bog‘im bor,
G‘amingda nola sifat yurakda dog‘im bor.

Zaliliy hech xazina nazarga kelmaydur,
Javohiri yo‘qotibmen ki, oni so‘rog‘um bor.

Shams I. O‘zgand shahridan bo‘lib, nomi Shamsiddindir. Qaysi vaqtda yashab o‘tganligi haqida ma‘lumot yo‘q. XIX asrda yashagan deb taxmin qilinadi. Chunki, Qayyumiy domulla o‘z tazkirasida shoir haqidagi ma‘lumotni o‘sha davr shoirlari qatorida berganlar.

Olo ey Shams O‘zganda qamug‘ yoronlaring yonda,
Gunohidin bag‘ishlandi, mani osiy na qilg‘aymen.

Shams II – Buxorolik bo‘lib, uning ham ismi Shamsiddindir. XIX asrda yashab o‘tgan degan taxmin bor.

Balo dashti aro Majnun meningdek ko‘rmamish davron,
Quyundek har zamon bir ko‘rmagan vodiya sargardon.

Kel, ey Shamsi Buxoriy, qilmag‘il dunyoda hasrat ko‘p,
Necha bo‘lsa su‘ubat ko‘p mayl vahdat qilur oson.

Mansur (XVIII asr). Pskent hududidan bo‘lib, ismi Mansurxo‘ja.

Shayxlardan bo‘lgan. «Tuhfat ul-ahbob» nomli tazkirada Shayx Mansur Piskandiy nomi ko‘rsatilgan bo‘lib, she‘rlari xonaqohlarda o‘qib yurilgan deb ko‘rsatilgan. U 1775 yilda vafot etgan.

Mahviy (XIX asr). Qo‘qonlik ulamolardan bo‘lib, ko‘p vaqt qozilik lavozimida ham ishlagan. Umarxon davrida yashab ijod etgan.

Qarigan chog‘da azm etdim yetay deb Ka‘batullohga,
Yetolmay yig‘ladim hardam Madina joyi a‘loga.

Bu noqislik bilan Mahviy yetarmukin o‘shal joyga,
Mumsar etgin iloho, meni ul joyi a‘log‘a.

G‘oziy (XVIII-XIX asr). Qo‘qon atrofidagi Yaypan qishlog‘idan bo‘lib, ma‘lum bir muddat qozilik qilgan, degan ma‘lumot ham bor. Yaxshi shoir, olim va donolardan bo‘lib, ismi Muhammaddir. G‘oziyning Navoiyga o‘xshatib yozgan she‘ridan namuna:

Ey quyosh, subhi uzoring birla mag‘rur o‘lmag‘il,
Bir nafasda shom o‘lur, albatta, masrur o‘lmag‘il.
G‘oziyo no‘sh ayla mehnat jomidin zahrobi g‘am,
Benavoi sharbati chiniyyu fag‘fur o‘lmag‘il.

Munis (1778-1829). Xorazmlik shoir, ismi Shermuhammad. Yetuk shoir, tarixchi olim Munis Xiva xoni Eltuzarxon saroyida bosh kotiblik vazifasida ishlagan. Xon topshirig‘i bilan Xorazm tarixini yozib, uni «Firdavs ul-iqbol» deb nomlagan. Keyin xon Muhammad Raximxon topshirig‘i bilan tarixchi Mirxondning «Ravzat us-safo» asarini tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilib, I jildini tugatgan. II jildini tugata olmay vafot etgan. She‘rlari devon qilib bosilgan.

Nizomiy Ho‘qandiy (XVIII-XIX asr). Qo‘qon shahridan bo‘lib, o‘z davrining ilmi, obro‘li kishilaridan bo‘lgan. U yetuk shoir bo‘lib, axloq-odobga oid «Majmuat ul-maqsad» asari hamda to‘liq bir she‘riyat devoni meros tariqasida qolgan. She‘ridan namuna:

«Tursam bu sahar olamo xush is sochilibdur,
Bildimki, chamanda guli ra‘no ochilibdur.
Bunday kechada ming yo‘li bo‘lsa yana qonmas,
Dilxasta Nizomiyga ajoyib tuyulibdur».

Qiyosiy (XVIII-XIX asr). Farg‘onalik shoirlardan. Qiyosiyning hayot yo‘li haqida kam ma‘lumotga egamiz. G‘azalidan ikki misra:

«Ey suman yuz, qomati to‘bi masal yor aylanay,
Ko‘zlaring xummoridan men hasta bemor aylanay».

Ma‘dan (XVIII asr oxiri - XIX asr boshlari). Farg‘onalik shoir, ismi Odina Muhammaddur. Kasbi bog‘bonlik bo‘lgan. O‘z g‘azallarini o‘zi kuylab xonish qilib yurgan. She‘ridan namuna:

«Gul yuzing ko‘rsatma, to ko‘ngil tamannolanmasun,
Har nechuk ko‘z partavi husningga shaydolanmasun».

Ravnaq – XVIII asrda Qo‘qonda va Xo‘jandda yashab, turkiy hamda forsiy tillarda she‘rlar ijod etgan. Ma‘lum muddat Xo‘jandda qozilik mansabida ham ishlagan. Ikki misra she‘ridan namuna:

«Ey podshohi husn, sanga jonu dil fido
In‘omi benazir beribdur xudo sanga».

Fazliy (XIX asr). Namanganlik yirik ijodkor. O‘z davrida yashab ijod etgan 100 ga yaqin shoir va shoiralarning qisqacha bayoni berilgan «Majmuat ush-shuaro» asarini yaratgan va unda o‘zbek hamda tojik tilida bitilgan she’rlari ham berilgan. Fazliyning ismi Mulla Abdukarim.

Gulxaniy (XIX asrning I yarmi). Ismi Muhammad Sharif. U yaratgan «Zarbulmasal» kitobi o‘lmas bir asar bo‘lib qolgan. Asarda o‘z davrining illatlarini qushlar tilidan mahorat bilan bayon etgan. She’ridan ikki misra:

«Agar so‘z jona paydo qilmasa so‘z,
Ani so‘z demagil, ey majlis afro‘z».

Kaltatoyi (XIX asrning I yarmi). Andijonning hozirgi Izboskan tumanidagi Kaltatoy qishlog‘idan. Ismi Zokirxo‘ja. Ilmli shoir bo‘lgan. O‘z ijodi bilan xonning ham e’tiboriga tushgan. She’ridan namuna:

«Manam bir go‘shai ishqingda yotgan ro‘dapoingman
Eshikdan ursangu quvsangda ketmas bir gadoingman».

Mahzuna – XIX asrning I yarmida Qo‘qon adabiy muhitida yetishgan yirik shoiralardan. Shoira hayoti va faoliyatiga doir ma’lumotlar nihoyatda kam. Ikki misra she’ridan namuna:

«Do‘stlar bir husni be ham toya oshiq bo‘lmisham,
Hur paykar bir malak siymoya oshiq bo‘lmisham».

Xon (XIX asr I yarmi). Qo‘qon xoni va shoir Umarxonning katta o‘g‘li. Onasi Komila xonim Nodiradir. Asl ismi Muhammad Ali bo‘lib, 1822-1842 yillarda xonlik qilgan. She’riyatidan ikki misra namuna:

«Yuzu qaddingga ermas bu chamanning sarv ra’nosi,
Suv hayvon chashmasiga bo‘lsa bil Isoning anfosi».

Dilovar (XIX asr). Qo‘qonlik yirik shoirlardan. She’ridan ikki misra:

«Kel, ey jallod, tanovul etako‘r qonimdin
Ishq to‘ydirmish edi shirin, aziz jonimdin».

Jaloliy (XIX asr). Qo‘qonlik shoir. Buxoroda ilm olgan. Ismi Jaloliddin xo‘ja. Buxorodan qaytgach, ma’lum muddat imomlik mansabida ham bo‘lgan. She’riyatidan ikki misrasi:

«Ko‘rdim bu dahr ichra ulus podsholig‘in,
Oldim o‘zimga ahli muhabbat gadolig‘in».

Azimi (XIX asr). Qo‘qonlik shoir, ismi Azimxo‘jadir. Azimiy Buxoroda tahsil olib qaytgach, 40 yil imomlik qilgan. She’ridan namuna:

«Kun o‘lsa eldin o‘zimni kanora aylarman,
Tun o‘lsa zamzamini oshiqona aylarman».

Majzub (XIX asr). Namanganda yashagan. Tug‘ilgan joyi esa Qo‘qonning Sarmozor dahasidan. Buxoroda ilm olgan. Ismi Abdulaziz. She’riy devoni mavjud bo‘lib, unda 181 betdan iborat alohida soqiynomasi ham bor. She’ridan namuna:

«Qilsam bayon holim kirmas qulog‘i yora,
O‘ldurdi, ham kuydirdi jononaning bu dog‘i».

Dunyoyi dung'a berma hargiz ko'ngulni Majzub,
Ishq ahlig'a kerakmas dunyoni ayshi chog'i».

Biymiy (XIX asr). Qo'qonlik. Asl ismi Mulla Abdurazzoq. O'z davrining ko'zga ko'ringan shoirlaridan. Faqirlikda kun kechirgan. She'ridan to'rt qator namuna:

«Ovorai hijronlar sahroi malomatda,
Mushtoqi visoli ul jonona ekan mandek.
Uzroni g'ami birlan Vomiqni dilu ko'ngli,
Ishq ofatila Biymiy devona ekan mandek».

Akmal II (XIX asr). Hozirgi Toshkent viloyatining Pskent tumani hududidan. Diniy ilmni ham yaxshi egallab, imomlik vazifasida ham ishlagan. She'riyatda salohiyati kuchli bo'lib, turkiy, forsiy va arab tillarida she'rlar yozgan. She'ridan namuna:

«Och takallum birla lab to'ti tamannolanmasun,
Zulfi tarqattiyu mushk bozor ichra savdolanmasun.
Noz tig'in chekma hardam xalq qonin to'kmakka,
Qo'rqaram Akmal mabodo xajr barnolanmasun».

Mushrif (XIX asr). Qo'qon shahridan. Asl ismi Mirzo Qalandardir. Isfara kasabasida qozilik qilgan. She'riyatda kuchli mahorat sohibi bo'lgan. Shoir Abdukarim Fazliy bilan birga «Majmuot ush-shuaro» nomli tazkira chiqarganlar. She'riyatidan namuna:

«Manga, ey bodi sabo zulfi sulmansodin gapur,
Jon labimga yetdi ul la'li shakarxodin gapur.
Bir kun ul maxvashni ko'rsang bo'lma xomush, ey ko'ngul,
Mushrifi devonai majnunu shaydodin gapur».

Muznib (XIX asrning I yarmi). Qo'qonda yashab, ijod qilgan shoirlardan. Shoir Fazliy o'zining «Majmuot ush-shuaro» asarida shoir Muznibni tilga olib, uni ijobiy ta'riflagan. She'ridan ikki misra namuna:

«Bo'ldi jabrim kisvati ishqing olinda yoralar
Xanjari abro' bilan bag'rimni qildi poralar».

Mushtaq - XIX asrning I yarmida Shahrisabzda tug'ilgan va Qo'qonda yashab, ijod qilgan shoir. U ilmi bo'lib, To'raqo'rg'onda qozilik qilgan. She'ridan namuna:

«Kuydiyu kul bo'ldi g'urbat gulxanida qosido
Chin so'zim hoqonakim, Mushtoqi rasvodin gapur».

Ado (XVIII asr oxiri-XIX asr I yarmi). Samarqandlik shoir, Xoja Ahror avlodidan. Qo'qon shahrida ham yashagan. Amir tomonidan unga «Malik ush shuaro» unvoni berilgan. Samarqandga Shayxulislom etib ham tayinlangan. Asl ismi Sultonxojai Ahroriy bo'lgan. She'ridan ikki misra:

«Komatingdek yo'qturur ashjor gulistondin biri,
Mandek ermas bulbuli qumriyu nolondan biri».

Mahzun (XIX asr I yarmi). Qo'qonda yashab, ijod etgan. Uychida tug'ilgan va shu yerda qozilik ham qilgan. Ilmi shoir bo'lgan. Ikki misra she'ri:

«Qiyoy boqgʻaymu deb Mahzun koʻp intizor oʻldi
Bihamdillohki mujgon novakidan bahramand etdi».

Munshiy (XIX asr I yarmi). Shoirning nomi Mulla Qodir quli boʻlib, Qoʻqon shahrida tugʻilgan. Xon idorasi kotibiyatida ishlagan. Sheʼridan namuna:

«Shikva qilsam ayb emas bu charxi kajraftordin,
Tiyra boʻlmish tabʼi pokam ushbu badkirdordin».

Fayziy (XIX asr I yarmi). Margʻilon shahrida tugʻilib, Qoʻqonda yashab, ijod qilgan shoirlardan. Ismi Mulla Mirza Niyozdir. Sheʼridan ikki misra:

«Necha kun sarv qadding gardunga bosh chekdi,
Koʻngil ohini Fayziy siyna chokidin baland etdi».

Xotif (XVIII asr II yarmi-XIX asr I yarmi). Qoʻqon atrofi qishloqlaridan boʻlib, Qoʻqon shahrida tahsil olgan. Oʻzbek qishloqlaridan birida imom boʻlgan. Ismi Abdunabi boʻlib, yaxshi fazilatlarini koʻp boʻlgan. Nihoyat saroy shoirlari qatoridan ham joy olgan. Sheʼridan namuna:

«Ey soching sargashtasi Chin mulkida mushki Xito,
Nargizingdandur Xoʻtan dashtida ohu benavo».

Komil I (XIX asr I yarmi). Buxoroda tugʻilgan va shu yerda tahsil olgan. Qoʻqon shahrida yashagan. Qogʻoz ishlab chiqarish bilan shugʻullangan va sheʼriyatda ham oʻz oʻrniga ega boʻlgan. Ismi usta Muhammad Komil. Sheʼridan ikki misra namuna:

«Toʻkkali qonimni ul qotil ijob ustindadur,
Necha mendek benavolar iztirob ustindadur».

Vafoiy (XIX asr). Fargʻona hududida tugʻilgan. Mirlar naslidan. Ismi, vafoti haqida maʼlumot yoʻq. Ikki misra sheʼridan namuna.

«Soldi boshima savdo kokili parishonlar,
Jaʼdi nafʼai zulfi anbar afshonlar».

Foniy (XIX asr II yarmi). Asli balxlik boʻlib, Buxoroda tahsil olgan, soʻng Fargʻonaga kelgan. Qoʻqonda tabobat ishlari bilan shugʻullangan. Olimu dono kishi boʻlgan. Sheʼridan namuna:

«Alifmu qadmu yo gulshandagi sarvi ravondur bu
Va yo koʻnglumda maʼvo aylagan jism ila jondur bu».

Ramziy (XIX asr boshlari). Fargʻonalik boʻlib, Qoʻqonda yashab, ijod etgan shoirlardan. Ismi Mullajon Xoʻja. Ramziy sheʼridan namuna:

«Subh chogʻi gul yuzida boda osorin koʻring,
Boʻyla obu rang birla husni gulzorin koʻring».

Kasrat (XIX asr boshlari). Qoʻqonlik yetuk shoir. Umarxon bilan yaxshi munosabatda boʻlgan. Saroyda shaxsiy xos kotibi vazifasida ishlagan. Xushshabat, latifagoʻy, sheʼriyatda hozirjavob kishi boʻlgan. Sheʼridan ikki misra:

«Kuydim ishqing tobidin, ey sarvi nozu xush ado,
Otashi hijronida kuyganni kuydirma yano».

Amiriy (XIX asr). Asl ismi Umarxondir. 1810 yilda akasi Olimxon vafotidan so'ng Qo'qon xonligi taxtiga o'tiradi. Xonlik mansabidan tashqari she'riyatga ixlosi baland bo'lgan. Saroyda ilm-fan, adabiyot ahliga homiylik qilgan. Uning devoni bizgacha yetib kelgan.

To'rt qator she'ridan namuna:

«Qizartib chehra maydin oshiqi zoringni kuydirma,
Yuzingga bodadin o't solma gulzoringni kuydirma.
Amir oshiqlara ya'su muhabbat ham vafodindur
Boqib har dilrabog'a rashkdin oringni kuydirma».

Mujrim (XVIII asr oxiri-XIX asr). Buxorolik. Ismi Mulla Obid. Nihoyatda faqirlikda kun kechirgan. U o'z davrining atoqli shoirlaridan edi. She'ridan to'rt misra:

«Zamona har kima bir tarzi ro'zgor qilur,
Birovni vosili davlat, birovni xor qilur,
Chu oshno hammaga beg'araz erur Mujrim,
Aning uchun hamono holis e'tibor qilur».

Kiromiy (XIX asr). Xorazmlik bo'lib, mashhur shoir Munis Xorazmiyning ustozi. Navoiy, Fuzuliy, Lutfiylar uslubiga ergashuvchi shoir bo'lgan. She'ridan ikki misra namuna:

«Kiromiy bandasiga rahmati dovar qarib o'lg'ay,
Shifoat hoh mahshar arsasida ul xabib o'lg'ay».

Nishotiy (XVIII asr). Xorazm shoirlaridan. Qozi Muhammadniyoz Nishotiy o'z davrining kuchli, qobiliyatli ijodkorlaridan bo'lgan. Bizgacha «Husnu dil» dostoni, g'azallari, muhammas va musaddaslari yetib kelgan. She'riyatda Navoiy, Lutfiy, Atoiy an'analariga ergashib ijod qilgan. G'azalidan namuna:

«Nozaninim, qaddu ruxsoringga qurbon o'layin,
So'zlagil noz ila, guftoringga qurbon o'layin.
Ey Nishotiy, ayog'i tufrog'idin uyruloubon,
Men daxi sen kabi dildoringga qurbon o'layin».

Hijrat (XIX asr I yarmi). Toshkent shahrida tug'ilgan va Qo'qon shahrida yashab, ijod qilgan shoirlardan. To'rt qator she'ridan namuna:

«Xasratingda ey qotil, to'kdi ko'zlarim qonlar
O'qlarinmidur bilmam tegrasinda mujgonlar
Nisbat etma ey Hijrat shoh so'ziga she'ringni
Nuqtasini qadriga yetmadi suhandonlar».

Shavqiy I (XVIII-XIX asrlar). Kattaqo'rg'on shahrida yashab, ijod etgan. Ismi Muhammad Sharif. Buxoroda tahsil olgan. Faqirona hayot kechirgan, ilimli, ziyoli adabiyotchi shoir bo'lgan. Turkiy, arabiy va forsiyda she'rlar yozgan. To'rt qator she'ridan namuna:

«Chiqdi bog'din bir gul men sari shitob aylab,
Burqa'in ilib yuzdin bag'rimi kabob aylab.
Tarki xonumon etdim, go'shada makon etdim,
Vasfini bayon etdim, Shavqida kitob aylab».

Nisbatiy (XIX asr). Margʻilonlik shoir. Muqimiy va Furqat bilan zamondosh boʻlgan. Koʻplab bayozlarga sheʼrlari kiritilgan. Ikki misra sheʼridan namuna:

«Ishq nazmida boʻlur tavsifi jonon oʻzgacha
Sheʼr xoʻb rangin gʻazal ham shoʻh devon oʻzgacha».

Mayus (XIX asr boshlari). Asli Xoʻjandlik boʻlib, Qoʻqonda xon saroyida ijod qilgan. Ismi domullo Toʻraxondir. Sheʼriyatidan toʻrt misra:

«Soʻrmadi holimni yorab oshnolarimdan biri,
Bir nazar ham solmadi ul bevafolardan biri.
Qilmagʻil Mayusliq birla figʻonu nolakim,
Koʻngliga taʼsir qilmas bu navolardan biri».

Maknun (XIX asr I yarmi). Qoʻqonda yashab, ijod qilgan shoir. Umarxon saroyidagi eʼtiborli ayonlardan boʻlgan. Ismi Ernazardir. Koʻp vaqtlar qozilik ham qilgan. Sheʼriyatidan namuna:

«Gʻamza yoyini qurdi, turmang, ey musulmonlar,
Berdi gʻorata dinin sizdek ahli imonlar.
Oftobi hovardek sheʼr to ayon boʻldi,
Soʻz eliga ey Maknun boʻldi mushkil osonlar».

Manzur (XIX asr). Andijonda tugʻilib, Qoʻqonda ijod qilgan shoir. Ismi ham Manzur boʻlib, saroy xodimlaridan edi. Sheʼriyatga ixlosi yuqori boʻlgan. Sheʼriyatidan toʻrt qator:

«Oʻrtagan mani hardam orazi durahshonlar,
Baxtimni qaro qilgʻan kokili parishonlar.
Yaxshilar jamoliga koʻzgudek nazar soldim,
Manga boʻlmadi Manzur sendin oʻzga jononlar».

Afsus (XIX asr). Shoir Jizzax shahrida tugʻilgan va Qoʻqonda yashab ijod qilgan. Nomi Toʻraxon Mahdum. Xonning ayonlaridan boʻlgan. Afsus tahallusi bilan sheʼrlar ijod qilgan. Namuna:

«Toza qildim ahd ul yor birla paymon ustina,
Noz ila aydiki, yolgʻon dema yolgʻon ustina.
Oʻz diyoridin adashgan bir gʻarib Afsusdur,
Chugʻz bevayrona yangligʻ Toʻra Qoʻrgʻon ustina».

Dabir (XIX asr). Asli Oʻra tepa atrofi oʻzbeklaridan boʻlib, ismi Mirzo Sharifjon. Amirning xos kotibi vazifasida ham ishlagan. Saroyda yashagan. Husnixat egasi boʻlgan. Sheʼridan toʻrt qator namuna:

«Mavsumi bahor oʻldi toza ru gulistonlar
Sabza xurramu xandon sahni bogʻu boʻstonlar
Ayladim Dabir insho bir gʻazal bu maʼnoda
Shoh soʻziga tobeʼdur zumrai suhandonlar».

Darhaqiqat, Poʻlatjon domullo Qayyumiyning «Tazkirai Qayyumiy» asariga sinchiklab eʼtibor berilsa, yurtimizda xonliklar davri madaniyati, xususan adabiyot, sheʼriyat sohasi rivoji oʻziga xos ijobiy yoʻnalishga chiqqanligini guvohi boʻlamiz.

Ushbu kitobdagi ijodkorlarning ayrimlarinigina nomlarini va ijodlaridan qisqacha namuna keltirdik, xolos. Qolganlarini esa quyidagi ro'yxatda nomlarinigina eslab o'tishga qaror qildik. Bular:

Shavqiy II, Fayoz, Fanoiy, Rindiy, Xislat I, Oshiq I, Behjat, Nusrat, Mir Umid, Hoziq, Mahmur I, CHo'bin, Muhib, Ulfat, Irfon, Ahror, Qoriy, Zoriy, Yoriy, Rojiy II, Miriy, Muntazir, Toib II, Kamina, Noqis, Almaiy, Nodim, Tajalliy, Sadoiy, Mahdiy, Devona I, Devona II, Xazin, Zokir, Xijlat II, Nasimiy I, G'urbatiy, Rog'ib, Toliy, Pir, Yusuf II, Xisrav II, Mahzun III, Visoliy, Soleh, Mirzo II, Dilafkor, Muhsiniy, Hilvatiy, Avaz, Kamiy, Homush, Shahzoda, Zarra, Uznab, Shavkat, Hayratiy, Dilkash, Faloniy, Nozil, Riyoziy, Rojiy, Obid, Qoriy II, Omoniy, Begiy, Mavlaviy Oxund, Ibrat, Vasfiy, Havoii, Roiq, Iffat, Sabriy, Xoib, Hoji, Maqsud, Fikriy, Shoiq, Hilmiy, Nosir, Vajhiy, Najmiy, Qurbiy, Safiy, Hoji II, Fanoiy, Asiriy, Nodir III, Sidqiy, Vasliy, Mahjur II, Zore', Salohiy II, Xislat II, Ahqar, Tolib, Ramziy, Murasaa', Xotiy, Qayyum, Salimiy, Boqiy, Ojiz, Havoii II, Roiq II, Ibrat II, Fayziy II, Akmal I, Nodir, Noli I, Sharifiy, Mahfiy, Nozik, Niyoziy I, Vazir, Izlat, Zohid, Xoja II, Fayyoz, Oshiq II, Vosif, Nasriddin I, Miskin, Nayiriy, Rashidiy, Zarif, Rojiy VII, So'fizoda, Davron, Zavqiy, Sirojiy, Sohib, G'urbat, Majruh, Maxmur II, Berdiyor, Ramziy II, Fitrat, Yusuf, G'izoliy, Arshiy, G'aribiy, Azko, Shuhrat, Devona, Qurbon, Munis II, Vahhoj, Vola II, Partaviy I, Olim, Pirim Qori, Taslim, Mirzo I, Pisandiy, Faqiriy, Mu'tasim, Xodimiy, Kuhiy, Valiy, Hokiyy, Muhayyir, Kotib, Mahzun II, Muhiy, Azizlarxon, Haziniy, Soqiy, Nasimiy II, Zululiy, Muazzam, Nozima, Xoniy, Ushshoq, Asiriy, Komiy, Kotib II, Zamiriy, Hijron, Mustag'far, Partaviy II, Shaydo, Manziliy, Subhiy, Jazbiy, Hayratiy II, Oraziy, Niyoz, Faqiriy I, Mutrib, Bayoniy, Chokar, Hijrat II, Bobo Rojiy, Tavallo, Hayoliy, Ahtariy, G'ofil, Layli, Lutfiy II, Mashqiy, Muxlis, Umariy, Muslimiy, Nihoniy, Sobir, Faqiriy III, Ravnaqiy, Sulaymon, G'aribiy II, Ravshan, Joniy, Doiy, Andalib, Yusuf Saryomiy va boshqalar.

Buxorolik taniqli shoir Samandar Vohidov tomonidan fors-tojik tilidan tarjima qilinib, nashr qilingan «Buxoriylar bo'stoni» kitobida keltirilgan shoirlar faoliyati va ijodidan ayrimlari haqidagi ma'lumotlarni keltiramiz.

Imlo Buxoriy. To'liq ismi Oxund Mullo Muhammad Imlo Buxoriy. XVIII asr I yarimlarida ijod qilib o'tgan o'z davrining taniqli shoirlaridan biri. Hayoti haqida ma'lumotlar kam. Imlo Buxoriydan g'azal va ruboiylardan iborat yagona devon meros bo'lib qolgan.

Mulham Buxoriy. Mullo Abdullo Mulham Buxoriy XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida yashab ijod etgan shoirlardan. Asosiy kasbi kosibchilik va chodir tikish bo'lib, she'riyatda ham samarali ijod qilgan. Bizgacha uning adabiy merosidan she'rlar «Devon»i va «Layli va Majnun» asari yetib kelgan.

Kirom Buxoriy. Abdulatif Kirom Buxoriy XVIII asr Buxoro shoirlarining peshqadamlaridan bo'lgan. She'riyatda ustoz darajasiga yetgan. Shoir umrining keyingi yillari haqida ma'lumotlar juda kam. Undan bizninig kungacha mukammal g'azal devoni yetib kelgan.

Voras – Ashtarxoniylar xukmronligi davri, ya'ni, taxminan XVII asr II yarmi va XVIII asr boshlarida yashab o'tgan. Ismi Muhammad bo'lib, Voras tahallusi bilan

5 ming baytdan ziyodroq turli janrlardagi she'rlari bugungacha yetib kelgan. Uning «Shohnomai Mansur» asari ham mashhur bo'lgan. Ijodidan namuna:

«Nigohi nargizing, ey sarv, qilar behush,
Qaro surmang etib bandi, qilar xomush.
Necha ming sarv bo'lur devona husningdan,
Bo'ying qo'msab, kezib yurgum ochib og'ush».

Mirzo Sodiq Munshiy XVIII asr II yarmi-XIX asr boshlarida yashab, ijod etgan. Taxallusi Sodiq. Shoir mang'it amirlaridan Doniyol, Shohmurod, Xaydar saroylarida xizmatda bo'lgan. Sodiqdan ko'plab qasida, g'azal, muhammas, ruboiy, fardlar bizgacha yetib kelgan. G'azalidan ikki misra namuna:

«Chehrasi gul, sham'i har maxfilligingni istamam,
Har taraf gul shoxiday moyilligingni istamam».

Mirzo Ato. U taxminan XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida yashab ijod etgan. Shoirning to'liq ismi va hayotiga oid aniq sanalar ma'lum emas. 500 ga yaqin g'azalni o'z ichiga olgan devon yozgan. Ikki misra g'azalidan namuna:

«Agar ul sho'x olar ersa qo'liga dili shaydoni,
Qilar banda bari gul yuzli zeboi Buxoroni».

So'fiy – XIX asr shoirlaridan bo'lib, ismi So'fixo'ja, Samarqand va Buxoroda qozi kalon mansabida ishlagan. Keyinchalik Buxorodagi Ko'kaldosh va Gavkushon madrasalarida dars bergan. Shoirning devoni g'azal, muhammas, mustahzod va ruboiylardan tashkil topgan. Ikki misra g'azalidan namuna:

«Ey yori xush xirom, bandi jafo qilding mani,
Kulfatingda rangi ro'yimni xino qilding mani».

Fitrat Vardonzehiy – XIX asr II yarmida ijod qilgan taniqli shoir Mullo Qurbon Fitrat Vardonzehiy umrining oxirlarida xonlik tumanlaridan birida qozilik mansabida ishlagan. Uning devoni g'azal, muhammas, ruboiylardan tuzilgan. She'ridan ikki misra namuna:

«Dil ketar yoding bilan, o'zidan barham yegay,
Jon yutar dardingda g'ussa va hajrda g'am yegay».

Samandar Vohidovning ushbu tarjima kitobida, shuningdek, XIX asrda va XX asr boshlarida, ya'ni yurtimizda xonliklar hukmronligining so'nggi davrlarda yashab, samarali ijod qilgan Vozeh (Qori Rahmatillo), Savdo (Mirzo Abduqodirxo'ja), Ahmad Donish, Shohin (Shamsiddin Muhammad), Mullo Abdumajid Muztarib, Abdulloboqiyxo'ja Nozim Beboq, Muhammad Siddiq Hayratiy, Mirzo Somiy Bo'stoniy, Mirzo Hayit Sahbo, Abdurahmon Tamkin va mashhur Sadriddin Ayniylar ijodlaridan ham namunalar keltirilgan. Bu ijodkorlar o'zlarining yaratgan adabiy asarlari va she'ru g'azallari bilan madaniyatimiz tarixi xazinasiga salmoqli ulush qo'shganlar. Bular ham yurtimizda XVI-XX asr boshlari xonliklar davri madaniy hayotida o'ziga xos yuksalish bo'lganligining yana bir yorqin dalilidir.

Xonliklarda sozandalik va musiqa san'ati ham yaxshi rivojlangan. Shu o'rinda madaniyatning bu sohasiga o'qituvchi alohida to'xtalsa va misollar keltirsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Noiniy Boqiyayi (XVI asr II yarmi - XVII asr). Oʻrta osiyolik sozanda, shoir va musiqashunos. Oʻrta Osiyo va Shimoliy Xindistonda yashagan. Musiqa nazariyotchisi Najmiddin Kavkabiyning izdoshi. U yaratgan «Zamzamayi vahdat» (Mushtarak navolar) nomli musiqiy risolasi Oʻz R FA SHI da saqlanmoqda. Unda Sharq musulmon madaniyatida rivoj topgan oʻn ikki maqom tizimi va hind mumtoz musiqasi haqida qimmatli maʼlumotlar bayon etilgan. Risolada muallifning Oʻrta Osiyo va Shimoliy Hindiston mintaqalari musiqiy anʼanalarining oʻzaro yaqinligi masalalariga alohida eʼtibor berilgan.

Darvishali Changiy (XVI asr Xirotda - XVII asr Buxoro). Musiqashunos, bastakor, sozanda, hofiz, shoir va olim. Xojaiy Jaʼfar Qonuniy, Ali Doʻst Naiy, Amir Masti Qobuziy, Hasan Kavkabi kabi oʻz davrining mashhur va mohir sanʼatkorlaridan taʼlim olgan. Uning Husayn Oxun nomli oʻz davrining mashhur ijodkori ustoz boʻlgan. Changiy koʻpgina maʼlumotlarni ustozidan olgan. Oʻsha vaqtlarda Movarounnahr va Xurosonning madaniy markazlari boʻlmish Buxoro, Toshkent, Andijon, Samarqand kabi shaharlarida boʻlgan va elga xizmat qilgan. Changiy tahallusi bilan gʻazallar bitgan. «Tuxfat us-surur» yoki «Risolayi musiqiy» kabi qoʻlyozma asari bizgacha yetib kelgan. Ushbu asar XVI-XVII asrlarda musiqa madaniyatining rivojidan, uning namoyandalaridan xabar beruvchi yagona qimmatli manba hisoblanadi. Darhaqiqat, Changiy koʻproq oʻz zamonasining ijodkorlari, ayniqsa musiqashunos olimlari davrasida koʻproq hayot kechirgan va ular haqida hamda oʻzidan avval yashab, ijod etgan musiqa vakillari haqida bebaho maʼlumotlar qoldirgan. Bu maʼlumotlar XVI-XVII asrlar davri madaniyati, sanʼatining oʻziga xos yuksalish darajasini aniq dalil va manbalari boʻlib xizmat qiladi.

Ali Doʻst Naiy (XVI asr oxiri - XVII asr boshlari). Musiqashunos, sozanda-bastakor. XVI asrning yirik musiqashunosi Mahdumzoda Xorazmiyning shogirdi. Koʻpgina amallar va mustahil (yangi oy) nomli cholgʻu asarlarining muallifi. Hisorda, Balxda, soʻngra Termizdagi sanʼatkorlar homiysi Mirarab huzurida ijod qilgan.

Niyozjon xoʻja (XVIII asr II yarmi - XIX asr boshlari). Xorazmlik maqomchi xonanda, sozanda va bastakor. XIX asr boshlarida Buxoroga borib ustozlardan Shashmaqomning ashula va cholgʻu yoʻllarini oʻrgangan va ularni Xorazmda keng tarqalishida muhim rol oʻynagan. Uning oʻzi bir qancha kuylar bastalagan. Uning ijodiy ishini yetuk shogirdlari Maqsumjon Qozi, Usta Muhamadjon Sanduqiy, Komil Xorazmiy, Ahmadjon Tabibiy va boshqalar davom ettirganlar.

Muhokama qilinayotgan davrda teatr, kino, qoʻgʻirchoqbozlik, qiziqchilik-masxarabozlik, askiya, sirk-dorbozlik sanʼati juda yaxshi rivojlangan deyishimiz mumkin.

Teatr - (yunoncha - tomoshagoh) – sanʼatning bir turi. Uning oʻziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi ijrosi jarayonida aks ettiriladigan sahnaviy voqeadir. Teatr sanʼatida ham xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi, muammo va shodliklari aks etib, unda jamiyat taraqqiyoti, maʼnaviyati, madaniyati bilan bogʻliq holda oʻzgarishlar, takomillashuvlar kechib boradi. Teatr sanʼati tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Yurtimizda uning ilk kurtaklari ibtidoiy jamoa davrlaridayoq shakllangan. XVI-XVII asrlarda Gʻiyos masxara, Xoja Dehdor,

Abdulla devona, Abdulvose' munshi, Said Badr kabi teatr san'atining yetuk namoyandalari yetishib chiqib elga xizmat qilganlar.

Teatrning kulgili turlari – qiziqchilik, masaxarabozlik, qo'g'irchoq o'yinlar ham asta-sekin badiiy tomosha tizimi sifatida tashkil topgan va san'at turiga aylangan. XX asr boshlarida ilk o'zbek kinosi san'atiga ham asos solingan. XVIII-XIX asrlarga kelib teatrning asosiy turlari saqlanib, repertuar va ijro uslubida o'ziga xos xususiyatlar, takomillashuvlar, ijodiy yondashuvlar rivojlanib borgan.

Ayniqsa, bu davrlarda boshqa hech bir millat ijodida uchramaydigan o'zbek askiya san'ati ham rivojlanib borgan. Askiya - (arabcha zakiy - o'tkir zehnli, hozirjavob) o'zbek xalq og'zaki ijodi turidir. U ikki yoki undan ziyod kishi o'rtasida sayil, to'y, bayramlarda, sahnalarda ijro etiladigan ma'lum mavzu bo'yicha badiiy so'z tortishuvidir. Bu san'at turi asosan XV asrlarda shakllangan.

XVI asrda Mavloni Burxon Lang, Said G'iyosiddin Sharfa, Mavloni Halil Sahof, Muhammad Badaxshiy kabi yetuk askiyachilar yetishib chiqqan, XVIII-XIX asrlarda esa bu ijod Farg'ona va Toshkentda rivojlangan. Farg'onada Dehqon Shernazarov (1860-1942), Toshkentda Saidahmad askiyachi (1880-1940) kabi mashhur askiyachilar o'tgan va ularning dong'i uzoq hududlarga ham yoyilgan. Askiya san'ati bugungi kungacha an'anaviy davom etib kelmoqda.

XVIII asrlarga kelib esa sirk-dorbozlik san'ati ijodi ham o'ziga xos rivojlanishda davom etib, xalq orasidan ushbu san'at turlarining yetuk namoyandalari yetishib chiqqanlar va ular o'sha davrlardagi ajdodlarimizga sidqidildan xizmat qilganlar. Yuqorida qayd etilgan ijod turlarining barchasi hozirgi kungacha yanada boyib, o'zining samarali natijalariga erishib kelmoqda.

Quyida ushbu ijod turlari namoyandalari va ularning ijodlari haqidagi qisqacha ma'lumotlarni bermoqdamiz.

Abduzoyir sulolasi (1786-1860). Samarqandlik qo'g'irchoqbozlar avlodi. Abduzoyir - mehtar, surnaychi va qo'g'irchoqboz bo'lgan. Davomchisi Novvot bobo esa (1835-1904) qo'g'irchoqboz, doirachi, raqqos va sozanda edi. U qo'g'irchoq teatrining bir turi - «chodir xayol» ustasi bo'lib, xalq san'ati an'analari asosida muvaqqat chodir teatri tashkil qilib, tomoshalar ko'rsatgan. Ularning davomchisi Quli bobo Novvotov esa qo'g'irchoqboz va surnaychi bo'lib, to Buxoro amirligi tugatilguncha va undan keyin ham qo'lga kiyiladigan qo'g'irchoqlar tomoshalarini ko'rsatib, xalqqa xizmat qilib kelgan.

Abdukarimxo'ja sulolasi - g'ijduvonlik qo'g'irchoqbozlar sulolasi:

- 1) Abdukarimxo'ja (1800-1870) - surnaychi va qo'g'irchoqboz;
- 2) Siddiq Kalon (1858-1940) - sozanda va maqomchi hofiz, qo'g'irchoqboz. Masxaraboz, qo'g'irchoqboz va nayrangbozlar guruhiga rahbarlik qilgan. Guruhning tarkibida XIX asrning mashhur san'atkorlaridan Fayzi mehtar, Shodi puchuq, To'xta nog'orachi, Aziz muallaq, Hamro masxaraboz, Sayfiddin sherboz kabilar xalqqa xizmat qilgan.
- 3) Xolmurod bobo Siddiqov (1891-1967) - qo'g'irchoqboz. Sulolaning bu vakili xonliklar davrining so'nggi paytigacha va keyingi davrlarda ham o'z san'ati bilan xalqqa tomoshalar ko'rsatgan.

Abdulla fonus (1828-1914). Toshkentlik xalq qiziqchisi va taqlid ustasi. Asosiy kasbi fonus yasab sotish bo'lgan. Turli yoshdagi kishilarga, qush va hayvonlarga taqlid qilgan. Taqlidlari ko'pincha achchiq kulgi va hajvdan iborat bo'lgan. Shu yo'l bilan u turmushdagi nohaqlik va qusurlarni, xurofot va bid'atlarni qoralagan.

- 1.XVII asr - XIX asrning birinchi yarmi Qo'qon xonligi madaniyati qanday ahvolda edi?
- 2.XVII asr - XIX asrning birinchi yarmi Hiva xonligida ijod qilgan tarixnavis, shoirlardagi kimlarni bilasiz?
3. XVII asr - XIX asrning birinchi yarmi Buxoro amirligida madaniyat rivoji qay darajada edi?
- 4.Madrasalarda ta'lim necha bosqichga bo'lingan?
- 5.Xorazm me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlari.
- 6.Qo'qon hajvchilik san'ati haqida nimalar bilasiz?

10-mavzuning seminar mashg'ulotlariga qo'shimcha manba:
ME'MORCHILIK MADANIYATI.

Kosonsoy jome masjidi (XVIII asr). Namanganda. Atrofi devorli maydonga qurilgan. Masjid eshigi naqshinkor. Bino bezagida oq va novvot ranglardan unumli foydalanilgan.

Ko'hna Ark (1686-1688 yillar va XIX asr). Xivada. Anushaxonning o'g'li Arangxon ko'hna Arkning devorlarini 1686-1688 yillarda qurdira boshlagan. Qurilish XIX asrda ham davom etgan. Arkda to'rt xovli, zarbxona, masjid, haram, Oq Shayx bobo ko'shki, mulozimlar xonalari, omborxona va otxonalar bo'lgan.

Miyon hazrat madrasasi (XVIII asr). Qo'qonda. Madrasa ko'p hovlili. Ko'p ustunli masjid ham bor. Hovlilar atrofi hujralardan iborat. Bezaklari oddiy.

Mavlonbuva maqbarasi (1806). Namangan. Shoir Mavlonbuva madrasasi janubrog'ida peshtoq-gumbazli ziyoratxona qad ko'targan. Ziyoratxona ichi ganch suvoqli, moybo'yoq bilan gul solingan.

Modarixon maqbarasi (1825). Qo'qonda. Modarixon (xon onasi) hazirasiga xon avlodlariga mansub ayollar qo'yilgan. Hozir maqbaraning gumbazli xonasi, ikki minorasi saqlanib qolgan.

Mozori Sharif madrasasi (1882). Xivada. Muhammad Rahimxon II Feruz buyrug'i bilan usta Qalandar Ko'chim qurgan. Madrasa bir qavatli. Koshinlar bilan bezatilgan. Hovli atrofida hujralar joylashgan.

Kaptarli majmuasi (XIX asr). Marg'ilonda. Masjid, minora, maqbara va uning hovlisida gumbazli darvozaxona hamda to'rt bo'lakli kaptarxonadan iborat bo'lgan bino va inshootlardan iborat.

Imoratbobo majmuasi (XVIII - XIX asrlar). Xorazm viloyatidagi Said Shapoat Aziz maqbarasi. Mirmuhammad Aziz maqbarasi va yana bir nomsiz maqbara hamda qabriston shimolidagi masjiddan iborat. Maqbaralar ikki xonali, go'rxona va ziyoratxonadan tashkil topgan.

Ichan qal'a (Ichkari qal'a, asosi miloddan avvalgi V asr, tashqarisi XVIII-XIX asrlar). Xivaning ichkari qismi. 26 gektarga yaqin maydon devor bilan o'ralgan va 4 ta darvozasi (Bog'cha, Tosh, Polvon ota, Dasht) bor. Qal'ada asrlar mobaynida qurilgan ansambllar bo'lib, saroylar, ma'muriy binolar, turar joylar, madrasalardan iborat.

Kalta minor - Ko'k minor (1852). Xivada. Eng katta va baland qilib qurishga mo'ljallangan (taxminan 70-80 m.) inshoot. Afsuski, xonning vafoti bilan chala qolgan. Hozirgi holatida balandligi 26 metr, asosining diametri 14,2 metr. Oq, yashil, feruza rangli koshinlar bilan bezatilgan.

Kamol qozi madrasasi (XIX asr). Qo'qonda. Darsxona, ayvonli masjid va hujralardan iborat. Bezakli, hashamatli qurilma. Darsxonaning tomi gumbazli.

Gul masjid (1875). Qashaqadaryoda. Guldor bezaklar bilan bezatilgan. Chortoq tarxli, bir ustunli xonaqohdan va uch ayvondan iborat masjid. Bezaklar ganch o'ymakorligida bajarilgan.

Dahmai shohon. (XIX asr). Qo'qonda shohlar dahmasi (hazira). Norbo'tabiy va uning avlodlari dafn etilgan dahma-sag'analar bor. Masjid ayvoni chiroyli, naqshinkor bezatilgan.

Devona Buva maqbarasi (XIX asr). Namanganda. Ziyoratgoh - hazira. Go'rxona va ayvondan iborat. Oldi peshtoqli, tomi gumbazli, to'rt tomonida eshik o'rni bor. Naqsh va o'ymakorlikdan yaxshi foydalanilgan.

Zudmurod Masjidi (XIX asr). Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Xo'ja Zudmurod qabristonida joylashgan. 3 tomoni ayvonli xonaqoh va minoradan iborat. Masjid qurilishida ustalardan najjorlar Muxtor va Abdurauf, naqqoshlar Mahmud, Naim, Sharif, gilkorlar Sa'dulla va Kamollar qatnashgan.

Abulqosim madrasasi (XIX asr). Toshkentdagi me'moriy yodgorlik. Madrasa, masjid va xonaqohdan iborat. Shayx Abulqosim tomonidan bunyod etilgan. Eski binosi - xonaqoh Mo'yi Muborak 1820 yilda qurilgan, madrasa esa 1850 yilda barpo etilgan. 1983 yildan buyon O'zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish jamiyatining Toshkent bo'limi hamda xalq hunarmandchiligi ustaxonalari joylashgan.

Abdullaxon madrasasi XIX asr o'rtalarida Xivaning Ichan qal'asidagi Olloqulixon va Qutlug' Murod inoq madrasalari oralig'ida qurilgan me'moriy yodgorlik. Abdullaxon xotirasiga onasi tomonidan qurdirilgan.

Amir To'ra madrasasi (1870). Xivadagi Ichan qal'a tarkibida. Muhammad Rahimxon II ning akasi Amir To'ra qurdirgan. Masjid, darsxona, hujralardan iborat.

Adolbobo maqbarasi - XVIII-XIX asrlarda Xivada bunyod etilgan me'moriy yodgorlik bo'lib, Ichan qal'aning sharqiy darvozasi tashqarisida joylashgan. Maqbara atrofida minora, masjid, hovuzdan iborat majmua barpo qilingan. O'sha davrning o'ziga xos san'ati bilan qurilgan ushbu maqbara hozir ham mavjud.

Mavzuni o'qitishda « **Menga so'z bering** » strategiyasidan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

“Menga so'z bering” strategiyasini o'tkazish tartibi

Bu strategiya- o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzu muhokama qilinayotgan masala yoki tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha shaxsiy fikr-mulohizalarini bildirish, fikrlarini dalillash bilan isbotlash, ularni himoya qilish, mantiqiy xulosalarni ilgari surish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ta'limiy hamkorlikni qaror toptirishga yordam beradi. Mashg'ulotlarda strategiyani qo'llash orqali o'quvchilar darsning tashkiliy jihatlari, samaradorligi hususida o'z fikrlarini bayon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quvchilar ishtirokida strategiyani qo'llash quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- 1.O'qituvchi o'rganilgan mavzu bo'yicha aniq muammoni tanlaydi.
- 2.O'quvchilarning muammo yuzasidan fikr yuritishlari uchun vaqt hajmi (6 daqiqa) belgilanadi.
- 3.O'quvchilar muammo yuzasidan mushohada yuritadi.
- 4.Belgilangan vaqt yakuniga yetkgach, o'quvchilar navbatma-navbat muammoning yechimi hususidagi fikrlarini bildiradi.
- 5.Jamoa o'qituvchi yordamida eng maqbul yechimni aniqlaydi.
- 6.O'qituvchi mashg'ulotni yakunlaydi.

11-Mavzu: Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida madaniyat (XIX asrning birinchi yarmi - XX asrning boshlari)

Reja:

- 1.Rossiya imperiyasining Turkistonda madaniyat sohasida olib borgan siyosati.
- 2.XIX asrning oxirgi choragidan Turkistonda rus-tuzem maktablarining tashkil topa boshlashi.
3. Me'morchilik madaniyati.
4. Tarixiy - badiiy asarlar va tarjimonlik ijodi.
5. Musiqa-qo'shiqchilik ijodi, musiqa nazariyasi namoyandalari.
- 6.Teatr, kino, qo'g'irchoqbozlik, qiziqchilik-masxarabozlik, askiya, sirk-dorbozlik san'ati ijodi.

Adabiyotlar:

- 1.Farg'ona vodiysida XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi madaniy hayot. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar jurnali. Toshkent, 1984. 1-soni.
- 2.Usmonov Q va boshqalar. O'zbekiston qaramlik va Mustaqqillik yillarida. T., O'qituvchi, 1996.
- 3.Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. Milliy istiqlol davri. T., O'qituvchi, 2003 y.

“Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida madaniyat” **mavzusini yoritish jarayonida o'qituvchi Rossiya imperiyasining Turkistonda mustamlakachilikni**

kuchaytirish siyosatiga e'tibor qaratadi. Ular bu ishni turli vosita va usullar bilan olib bordi. Ana shu usullardan biri Turkiston o'lkasiga rusiyzabon xalqlarni ommaviy suratda ko'chirish, mahalliy halqni qorong'ulik va zabunlikda caqlash edi.

Xalq maorifi tarmoqlari qattiq nazorat ostiga olindi, ruscha tartib-qoidalar joriy qilindi.

Imperiyaning Turkiston xalqlariga nisbatan «ma'rifatparvarlik» siyosatini Tashqi ishlar vazirligi amaldoridan birining e'tirofi aniq ifodalab beradi. U «O'rta Osiyo xalqlari o'z jaholatlari qorong'uligida tentirashlari uchun ularni madaniyatdan yiroq tutish lozim», deb yozgan edi. (K.YE. Bendrikov. Ocherki po istorii narodnogo obrazovaniya v Turkestane (1865-1924). M., 1960. Str. 27.)

Rus ma'muriyati mahalliy musulmon aholisining diniy e'tiqodi, his-tuyg'usiga nisbatan dushmanlik ko'zi bilan qarab, ularni «tuzemets» deb ataganlar va ikkinchi toifadagi fuqarolar sirasiga kiritganlar.

Rossiya imperiyasi ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi siyosatini mustamlakachilik manfaatlariga buysundirgan edi.

XIX asrning ohirgi choragidan Turkistonda rus-tuzem maktablari tashkil topa boshladi. Ularni ochishdan asosiy maqsad mustamlaka o'lkalari uchun tarjimonlar tayyorlash bo'lib, rus amaldorlariga ruschani yaxshi bilgan kadrlar kerak edi. Shuning uchun bu maktablardagi asosiy ta'lim mahalliy bolalarni keng bilimdon qilib tarbiyalash emas, balki faqat rus tilini egallashga qaratilgan.

Rus-tuzem maktablarida o'quv kuni ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda ikki soatlik mashg'ulotni rus o'qituvchisi (o'quv, yozuv, hisob buyicha), ikkinchi qismda saboqni o'zbek muallimi olib borgan. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884 yil 19 dekabrda Toshkentda tashkil etilgan. 1917 yil boshlarida hozirgi O'zbekiston hududida shunday maktablarning 84 tasi faoliyat ko'rsatgan. Mahalliy aholi uchun eski maktab hamda madrasalar asosiy ta'lim o'choqlari bo'lsada, ular bilan bir qatorda rus mustamlakachilari va musulmon mutaassiblari hohish va irodasidan qat'i nazar, yangi usul - jadid maktablari tashkil topa boshladi.

Turkistonni Rossiya imperiyasi bosib olganidan so'ng nima uchun rus olimlari o'lkaning tabiati, tabiiy boyliklari, iqtisodi va tarixini o'rganish ishlarini ko'paytirganlar, degan savol bilan talabalarga murojaat qilinadi. So'ngra ularning javoblari umumlashtirilib, mustamlakachi ma'murlarning bu sohani o'rganishdan manfaatdorligini asoslab berish bilan birga, ilmiy jamiyatlar, muassasalarning tashkil topishi va o'lkaning ilmiy jihatdan tadqiq etilishi ilm-fanning rivojiga turtki bo'lganligi ta'kidlab o'tiladi.

Umuman, bu davr ilm-fani, adabiyoti va san'atida Yevropa madaniyatining ta'siri ko'zga tashlana boshladi.

Adabiyotning mazkur davriga nazar solinsa, iste'dodli o'zbek shoir va adiblaridan **Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Xamza, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy** kabilar yashab ijod qildilar. Qoraqalpoq adabiyotining yorqin namoyandalaridan **Ajiniyoz va Berdaq** shular jumlasidandir. Ular jamiyat illatlari-jaholat, nodonlik, qoloqlikka qarshi kurashib, o'z asarlarida mustamlakachilik sharoitidagi halqning irodasini, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish yulidagi his-tuyg'ularini ifodalashga intildilar. **Proza va publitsistka** paydo bo'ldi. Shuningdek,

ma'rifatchilik mafkurasi, milliy - ozodlik g'oyasi, milliy ruh bu yangi adabiyotning muhim xususiyatiga aylandi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston **tasviriy sanati** o'zining yangicha shakllanish davriga asta-sekin kirib kela boshladi. Asosan bu davrga Yevropaning ilg'or tasviriy san'ati ananalari rus va boshqa halqlarning vakillari orqali o'z ta'sirini o'tkazdi. Asta-sekin mahalliy an'analar bilan uyg'un rivojlangan tasviriy san'atimiz rivojiga M. Novikov, L. Bure, S. Yudim, I. Kazakov, P. Kuznetsov, T. Nikitin, O. Tatevosyan singari rassomlar salmoqli hissa qo'shdilar.

Me'morchilik va amaliy bezak san'atida ham o'zgarishlar yuz berdi. Me'morchilikda mahalliy an'analar asosida ishlangan yodgorliklarga nisbatan yevropacha uslubda qurilgan binolar yetakchi o'rinni egalladi.

Mahalliy binokor ustalar qurilishda rus me'morchiligiga hos uslublarni qo'llay boshladilar. Jumladan, to'g'ri to'rtburchak yuzli (salloti) g'isht, tunuka, faner, oyna kabi qurilish ashyolaridan keng foydalanildi. Honalarni bezashda naqshli tasvirlardan tashqari mavzuli **devoriy rasmlar** ham urfga kirdi.

Amaliy bezak san'atida davr ruhi an'alarga erkin ijodiy yondashishda, avvalo, naqshning aniq tasviriy mavzular bilan boyishida o'z ifodasini topdi. **Kandakorlikda** hayvon, qush, baliq, memoriy obidalar tasviriga keng kiritildi. Sopol idishlar bezagi ham shunga o'xshash tasvirlar bilan bezatila boshlandi. Bu kabi o'zgarishlar **matoga gul bosish, kashtachilikda** o'z aksini topdi.

Bu davrda tarixiy - badiiy asarlar va tarjimonlik ijodi rivojlandi. Ularning ayrimlariga to'xtalamiz:

Muhammad Siddiq Rushdiy (XIX asr). Taxminan Sharqiy Turkistonlik. O'zbek shoiri, tarjimon, tarixchi, olim. Ilmiy-adabiy merosi haqida ma'lumotlar kam. Uning «Tazkirai ul-avliyot turkiy» nomli qimmatli asari XX asr oxirlarida topildi. Bu asar Yorkent hokimi Xoja Kefakbek iltimosiga ko'ra yozilgan. Muallif asarda 83 ta avliyo buzrukvorlar haqida qimmatli ma'lumotlarni zikr qiladi. Asarda ularning ilm-fan, din, adabiyot olamida tutgan o'rni, maslagi, ilmiy qudrati haqida ham bayon etiladi. Shuningdek, muallif o'z asarida Sharq falsafiy-diniy qarashlari, xususan, tasavvuf ta'limoti, mohiyati, uning yuzlab atamalarining lug'aviy ma'nosi to'g'risida keng ma'lumot bergan.

Hoji Yusuf (1842-1925) Xo'jandlik. Olim, sayyoh geograf. U fors, arab, yunon, ingliz va fransuz tillarini mukammal bilgan. Yoshligida Misrga borib, 5 yil madrasada o'qiydi. Riyoziyot, astronomiya, hikmat, arab va fors adabiyoti bo'yicha puxta bilim oladi. 7 yil mudarrislik qiladi. 12 yildan so'ng vataniga qaytadi. Shundan so'ng safarga chiqib Yunoniston, Suriyada bo'ladi. Keyingi safarida Ispaniya, Fransiya, Xabashiston, Italiya, Jazoir, Turkiya, Rossiya (Peterburg)da bo'ladi. Bu yurtlar haqida ma'lumotlar to'playdi. Keyinroq Orenburg, Moskva, Odessa orqali Ovrupa va Afrika mamlakatlarida ham bo'ladi.

Yurtimiz tarixida uchinchi globusni aynan shu ajoyib sayyoh va olim Hoji Yusuf yasagan. U xo'jandlik zargar, naqqosh, rassom, duradgor va sayyohlar bilan maslahatlashib, shoir Toshxo'ja Asiriy, Xusayn Roshe', Abdullo Fayoz, misgar Nurmuhammad, usta Yoqubxon va boshqalarning yordami bilan 1895 yilda yasagan ushbu yer kurrasining shakli-kurrai arz, ya'ni, globus Moskva, Peterburg, Toshkent

va Samarqand shaharlaridagi turli ko'rgazmalarda namoyish etilgan. Hoji Yusuf bu benuqson ixtirosi uchun mualliflik guvohnomasini ham olgan. Shuningdek, Hoji Yusuf yerning tuzilishi va sayyoralarni o'rganish yuzasidan bir qator risolalar ham yozgan.

Salmonxo'ja Samarqandiy (XIX asr). Tarixchi olim. Buxoro amiri Muzaffar buyrug'i bilan «Raximxon davridan boshlab Mang'itlar davlatining tafsili va bayoni» asarini yozib, unda ko'rsatilgan davr tarixi to'liq bayon etilgan. Asar qo'lyozmasi Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Mirzo Olim Toshkandiy (XIX asr). Tarixchi olim, shoir. Qo'qon xonlari Xudoyorxon va Mallaxon saroylarida mushrif (nazoratchi) bo'lib ishlagan. Mirzo Olim XIX asr oxirida yozgan «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin» (Sultonlar shajarasi va xoqonlar tarixi) asari bilan mashhur bo'lgan. Asar Farg'onaning XV-XIX asrlar orasidagi turixini o'z ichiga oladi. Mirzo Olim o'zbek va tojik tillarida «Mushrif» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan.

Mirzo Samarqandiy (XIX asr). Samarqandlik tarixchi va tarjimon. U «Ro'znomayi safari Iskandarko'l», «Moskva ko'rgazmasi kundaligi» asarlarining muallifi. «Iskandarko'l safari kundaligi» asari O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, etnografiyasi va arxeologiyasini o'rganishda muhim manbadir.

Buxoriy Mirzo Shams (XIX asr). Tarixnavis olim. Buxoro amiri saroyida munshiylik qilgan. Buxoriy «Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Ho'qand va Qoshg'ar» (Buxoro, Qo'qon va Qashqarning ayrim voqea-hodisalari bayoni) asarini yaratgan.

Ahmad Donish (1826-1897). Buxorolik. Shoir, musavvir, xattot, me'mor, mirzo, yozuvchi-mudarris, ma'rifat targ'ibotchisi, davlat arbobi bo'lgan Ahmad Donishning serqirra ijodi o'ziga xosdir. Yuqoridagi hunar va sohalarni to'liq egallagan bu olim. Buxoro amiri Nasrullo va amir Muzaffarlarning Peterburgga yuborilgan elchilari qatorida ham bo'lgan. 1865 yilda u yulduzlarning joylashish tartibi haqida birinchi hay'atshunoslik risolasi «Manozir ul-kavokib»ni yozgan. Bu asar o'sha davrda yulduzlar turkumi va ularning samoviy o'rnashuvi haqidagi muxtasar bir qo'llanma edi.

Ahmad Donish «Tarix haqida risola» asarida esa ashtarxoniylar sulolasi xonlarining yuz yillik tarixi haqida ko'pgina ma'lumotlar bergan. U 15 yil davomida o'zining yirik «Navodir ul-vaqoye» («Nodir voqealar») asarini yaratgan. Unda muallif juda ko'p ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, adabiy, axloqiy-ta'limiy, irfoniy-ma'rifiy masalalar xususida zamonasining ilg'or, peshqadam ziyolisi, olimi sifatida mulohaza yuritadi. Muallif o'z fikrlarini tarixiy voqealar, mashhur kishilar hayoti hamda zamonasining bevosita o'zi bilan bog'liq hikoyatlar, naql va tamsillar bilan tasdiqlab, dalillab beradi.

Mazkur asar 1965 yilda tojik tilidan o'zbekchaga o'girilib, nashr qilingan.

Qori Qunduziy (1786-1857). Afg'onistonda tug'ilgan. Qo'qonda ijod qilgan. Shoir va tarixchi. Tug'ma ko'r bo'lgan. Buxoroda tahsil olib, «Hofizi Qur'on» bo'lib tanilgan. Arab tilining sarf va nahvi, fiqh, hadis va adabiyot ilmini chuqur egallagan. Umarxon Qo'qon taxtiga o'tirgach, Qunduziy ham Qo'qon shahriga butunlay ko'chib

kelgan. O'zbek va fors tillarida ijod qilgan. Qo'qon shoirlari va olimlari orasida e'tiborga ega bo'lgan.

«Maxfiy» va «Komiy» taxalluslari bilan g'azallar bitgan. Asosan, tarixni she'riy uslubda jamlagan «Tavorixi Manzuma» (Nazmiy tarixlar) asari bizgacha to'liq yetib kelgan. Asar XIX asr o'zbek mumtoz adabiyotining nodir namunalaridan biri bo'lishi bilan birga, Qo'qon xonligi tarixini yorituvchi muhim manbalardan biridir.

Qunduziyning muammo janriga bag'ishlangan «Hall ul-faroid» (Muammolarni yechish yo'llari), shariatga doir «Viqoya» asari asosida «Sharhi Viqoiya» nomli kitoblar yaratgani haqida ham ma'lumotlar bor.

Xumuliy. Jumaquli Urgutiy Samarqandiy (XIX asr). Shoir va yozuvchi. Buxoro amiri Nasrullo davrida Urgutda qozilik qilgan. O'zbek va tojik tillarida nasr va nazmda ijod qilish bilan birga tarixiy asarlar ham yozgan. Zamondosh olim va shoirlarning tarjimai holini yozib qoldirgan. Uning «Tarixi Xumuliy», «Manzumoti tarixiy», «Shoh va gado», «Shayx Musaxon at-Dahbidiyning tarjimai holi» nomli asarlari bor. Bu asarlarda darvesh shayxlar tarixi, mang'itlar sulolasi tarixi, shuningdek, 1870 yil tarixiy voqealari haqida ma'lumotlar berilgan.

Vozeh (XIX asr). Buxorolik. Asl ismi Qori Rahmatulloh. Shoir, adabiyotshunos, xattot, geograf. O'zbek, tojik, arab tillarida turli janrlarda ijod qilgan. Uning «Aqoid un-niso» (Ayollar uchun qoidalar) risolasi, «Savonih ul-masolik va farsix ul-mamolik» (Yo'llarning qulayliklari va mamlakatlarning masofalari) asarlarida qimmatli tarixiy ma'lumotlar berilgan. «Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob» (Suhbatdoshlar tarjimai holidan do'stlarga tuhfa) tazkirasida esa Qo'qon va Buxoro xonligida yashagan shoir va davlat arboblari haqida ma'lumot berilgan.

Abu Tohirxoja Samarqandiy (XIX asr). Tarixchi olim. Axloqqa oid «Axloqi Muzaffariy» asari Buxoro amiri Muzaffarga bag'ishlangan. «Samariya» asarida esa Samarqandning qadimgi davrlaridan XIX asrgacha bo'lgan tarixi tasvirlangan.

Sulaymon Buxoriy (1821-1880). Buxoro viloyatidan. Tilshunos olim, shoir, elchi va sayyoh. Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat qilgan. Istambulda matbaa ishlari bilan shug'ullanib, Yassaviy, So'fi Olloyor, Umarxonning kitoblarini nashr ettirgan. Uzoq yillar tadqiqot olib borib, «Lug'ati chig'atoy va turki usmoniy» nomli 2 jildli lug'at tuzgan. Lug'at muqaddimasiga 186 misrali «Manzumi chig'atoy» avtobiografik she'riy asarini kiritgan. Bu lug'atda geografik atamalar va joylar nomlari berilganligi bilan ham qimmatli manbadir. Unda Yaqin va O'rta Sharqdagi shaharlar va boshqa aholi maskanlari haqida ham nodir ma'lumotlar bor.

Muhammad YA'qub Buxoriy (XVIII asr II yarmi-XIX asr boshlari). Buxorolik tarixchi olim. M.YA'qubning bizgacha «Gulshan ul-muluk» (Podshohlar gulshani) nomli tarixiy asari yetib kelgan. Unda Buxoroning qadimgi tarixi, hukmdorlari shajarasi va muallif yashagan davr tarixi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Muhammad Sharif ibn Naqiy (XIX asr). Buxorolik tarixchi olim. Hayotiga oid ma'lumotlar saqlanmagan. Buxoro xonligi tarixiga oid «Toj ut-tavorix» (Yilnomalar

toji) asarini yozgan. Unda Chingizxon va uning avlodlari, shayboniylar va ashtarxoniylar tarixi, mang'itlarning shajarasi, amir Haydar hukmronligining dastlabki yillari voqealari bayoni berilgan. Asarning 2 nusxa qo'lyozmasi O'z FA SHI fondida saqlanmoqd.

Muhammad Mirolim Buxoriy (XIX asr). Buxorolik tarixchi olim. Amir Nasrulloxon davrida G'uzor hokimi Muhammad Olimbekning xizmatida bo'lgan va uning topshirig'i bilan «Fathnomai Sultoniyy» tarixiy kitobini yozgan. Asar muqaddima va 29 bobdan iborat. Asar amir Shohmurod (1785-1800) davridan to amir Nasrulloxon hukmronligining dastlabki yillarigacha Buxoro amirligida bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi. Asar qo'lyozmasi va ruscha nashri O'z FA SHI da saqlanmoqda.

Muhammad Solih Rahim Qoraxo'ja o'g'li (1830-1890). Toshkentlik tarixchi va geograf olim. Muhammad Solih bobosi mulla Abduraximxo'ja o'z nasabnomasi bilan shayx Xovandi Tohur (XIV asr) ga bog'lanishini va u Toshkentning «Qiyot» mahallasida tug'ilganini ta'kidlaydi. Muhammad Solihning 1863-1888 yillarda yozgan «Tarixi jadidai Toshkand» (Toshkentning yangi tarixi) asari Toshkent tarixiga bag'ishlangan birdan-bir kitobdir. Ikki jilddan iborat bu asarda umumiy tarix, Farg'ona, Turkiston, Toshkent tarixi hamda geografiyasiga oid ma'lumotlar berilgan.

Muhammad Rizo Ogahiy (XIX asr). Xorazmlik shoir va tarixchi olim. Olloqulixon topshirig'i bilan shoir Munis boshlagan «Firdavs ul-iqbol» asarining II jildini Ogahiy yozib tugatadi. Shuningdek, u tojik tilidan «Shoh va gado» dostonini o'zbek tiliga shu darajada mahorat bilan she'riy uslubda tarjima qilganki, bu ish Ogahiyning obro'sini yana bir necha barobar orttirgan. Shuningdek, Ogahiy 20 dan ortiq ilmiy, tarixiy, badiiy asarlarni ham o'zbek tiliga tarjima qilgan. Nizomiy Ganjaviyning «Haft paykar», Shayx Sa'diyning «Guliston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Yusuf va Zulayxo», Xisrav va Hiloliyning asarlari shular jumlasidandir. Ogahiy «Firdavs ul-iqbol», «Riyozi ud-davla» (Davlat ishlari), «Zubdat ut-tavorix» (Tarixlar qaymog'i), «Jomi ul-voqeoti sultoniyy» (Sultonlar voqealariga doir), «Gulshani davlat», «Shohidi iqbol» tarixiy asarlarining muallifidir. Uning g'azallari hozirgacha ham xalq hofizlari tomonidan sevib kuylanmoqda.

XVIII asr II yarmi va XX asr boshlarida Mang'itlar hukmronligi ya'ni Buxoro amirligi davrida Muhammad Vafo Karminag'iyning «Tuhfai Xoniyy», Muhammad Sharifning «Toj ut-tavorix», Muhammad Mirolim Buxoriyning «Fatxnomai sultoniyy», Mirzo Abdulaziz Somiyning «Mang'it xonlari tarixi» kabi tarixiy asarlar yaratildi. Shuningdek, «Bo'z o'g'lon», «Yusuf va Ahmad», «Go'r o'g'li» turkumidagi dostonlar xalq orasida keng tarqaldi.

Rojiy (XIX asr 30-yillari-XX asr boshi). Xivalik. Ism-sharifi Muhammad Yusuf. Shoir, tarjimon, xattot, sozanda. Mumtoz adabiyot an'alarining yetuk davomchisi. Mirxondning «Ravzat us-safo» asarining 4-5-boblarini va boshqa bir qancha asarlarni fors tilidan o'zbek tiliga o'g'irgan. Qo'lyozmalari O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Saidrasul Saidazizov (1866-1933). Toshkentlik. Shoir, tarjimon. Rus-tuzem maktabini tugatgan. Madrasada mudarrislik qilgan. O'zbek, tojik, arab tillarida ijod

qilgan. «Ustozi avval» darsligining muallifi. U Krilov va Tolstoy asarlarini ilk bora o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Salohiddin Toshkandiy (XIX asr II yarmi-XX asr boshi). Toshkentlik adib. Hayotiga oid ma'lumotlar deyarli saqlanmagan. Bizgacha «Temurnoma» (1908) badiiy asarigina yetib kelgan. Muallif bu asarni yaratishda ko'pgina tarixiy, badiiy va diniy asarlardan foydalangan. Kitobda Movarounnahrda hukm surgan sulolalar tilga olingan va unda Amir Temurning bolaligidan to vafotigacha bosib o'tgan tarixiy yo'li qiziqarli hikoya qilinadi. Shuningdek, kitobda Islom va uning vakillariga ham keng o'rin berilib, unda 500 dan ortiq tarixiy shaxslar tilga olinadi.

Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934). Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida tug'ilgan. Shoir, xattot, tarjimon. Fors, arab tillarini bilgan. Uning bir qator she'rlari bizgacha yetib kelgan. «Tazkirai imomi A'zam», «Mulla Sidqiy Xondayliqiyning yuz nasihati», «Mezoni shariat», «Holoti Sidqiy» kabi nasriy asarlarni yozgan. «Hikoyai latifa», «Bahrom va malika Gulandom», «Ajoyib ul-mahluqot», «O'g'ri va qozi», «Bo'ston» (Sa'diy) asarlarini tarjima qilgan.

Mirzo Abdulazim Somiy (1839-1908). Buxorolik tarixchi olim, xattot. Dastlab turli amaldorlar qo'lida kotiblik qilgan. Amir Muzaffar va Abdulahad davrlarida saroy munshiysi bo'lgan. «Shohlar qabristoni» masnaviysi, «Insho», «Tuhfai shohiy», «Hayol ko'zgusi», «Mang'it xukmdorlari tarixi» asarlarining muallifi. «Mang'it hukmdorlari tarixi» asari tarixchi L.P.Yepifanova tomonidan rus tiliga o'girilgan va nashr qilingan.

Mirzo Ho'qandiy (1880-1943). Qo'qonlik shoir va ma'rifatparvar. Adabiyot va xusnixat bilan ham shug'ullangan. XX asr boshida yangi usul maktabi qoshida «Ma'rifat» nomli kutubxona va nashriyot tashkil etgan. «Bolalar sovg'asi», «Dars rahbari», «Alifbo rahbari» kabi darsliklarni tarjima qilib nashr ettirgan. «Gulshani Mirzo», «Gulshani xayol» nomli darsliklar tuzgan. Fors tilidan Abduraxmon Jomiyning «Risolai muammo»sini tarjima qilgan. «Jumboq majmuasi» nomli topishmoqlar to'plamini nashr ettirgan.

Ajziy Siddiqiy (XIX asr II yarmi-XX asr boshlari). Samarqandlik ma'rifatparvar, shoir, tarjimon. Tolstoy, Krilov, Gogol asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan, darslik yozib, tarjimalaridan kiritgan. She'riy to'plam va dostonlari ham nashr etilgan. XX asr boshida yangi usuldagi maktab qurdirib, o'qituvchilik qilgan. Keng xalq ommasini ma'rifatga chorlash yo'lida katta jonbozlik ko'rsatgan.

Alamkash (1846-1924). Asl ismi Ubaydullo Islom o'g'li. Hozirgi G'allaorol tumani, Qizilqo'rg'on qishlog'idan. Shoir, xattot, tarjimon. Uning forschadan o'zbekchaga erkin tarjima qilgan mashhur «Chor kitob»i Toshkentda toshbosmada 3 marta qayta nashr etilgan.

Bayoniy (1858-1923). Xivalik. Asl ismi Muhammad Yusufbek bo'lib, o'zbek shoiri, tarixchisi, musiqashunosi hamda xattot va tarjimonidir. Suls, kufiy, rayhoni, shikasta xatlarini yaxshi bilgan, tanbur chertish va g'ijjak chalishda mohir bo'lgan. Xorazm tarixiga oid ikki asari va tarjimalari bizning kungacha yetib kelgan. U mumtoz she'riyatning deyarli barcha turlarida ijod qilgan.

Bayoniy o'zining mashhur «Shajarai Xorazmshohiy» tarixiy-memuar asarini yaratib, Munis va Ogahiy boshlagan ishni davom ettirgan. Bunda Yofasdan Qo'ng'iro't urug'igacha, Abulg'oziy Bahodirxondan Asfandiyorxongacha o'tgan xonlar hukmronligi davri tarixi yoritilgan. Muallifning «Xorazm tarixi» asari esa «Shajarai Xorazmshohiy»dagi voqealarni to'ldirgan. 16 bobdan iborat bu asarning 8 bobi bizgacha yetib kelgan.

Bayoniy arabchadan Darvesh Ahmad («Saxoyif ul-axbor»), forschadan Binoiy («Shayboniynoma»), Tabariy («Tarixi Tabariy») asarlarini o'zbek tiliga o'g'irgan. «Majmuati shuaro'i forsiy» to'plamini xusnixatda ko'chirgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919). Samarqandlik. Dramaturg, publitsist, din va jamoat arbobi. Yurtimizda jadidchilik harakati yetakchilaridan biri. Behbudiy yirik ma'rifatparvar sifatida ko'plab darsliklar hamda tarixiy kitoblar yaratgan va nashr ettirgan. «Risolai asbobi savod», «Risolai jug'rofiyai umroniy», «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy», «Kitobat ul-atfol», «Amaliyoti islom», «Tarixi islom» kitoblari shular jumlasidandir. 1911 yilda o'zining mashhur «Padarkush» dramasini yaratgan. Abdurauf Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi» asarini ruschaga tarjima qilib, nashr ettirgan.

Behbudiy matbuotimiz tarixida yirik maqolanavis sifatida alohida mavqega ega. Hozirgacha uning 300 ga yaqin turli xil mavzuga bag'ishlangan maqolalari aniqlangan.

Bositxon Zohidxon o'g'li (1878-1959). Toshkentlik. Taxallusi Xaqiriy. O'zbek tarjimoni, shoiri, tabibi. O'zbek va fors tillarida ijod qilgan, arab tilini yaxshi bilgan. G'azzoliyning «Daqiq ul-axbor» («Nozik xabarlar») asarini o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan. Xalq tabobatiga oid «Qonuni Bositiy», «Istilohot ul-atibbo fi intifo'ot al-hibbo» («Do'stlar foydalanadigan tibbiy atamalar») kabi asarlarni yaratgan. Ular O'z FA SHI da saqlanadi.

Umidiy (Havo'iy, Marg'iloniy) (1835 - 1905) - shoir, tarixchi. Hayoti Farg'ona va Marg'ilonda, Sharqiy Turkistonda o'tgan. Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlar bilan yaqin ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Uning nazmiy va nasriy yo'nalishida yozilgan hikoyalari, afsona va rivoyatlari to'plami mavjud. Umidiyning «Davlatnoma yoki tarixi Ho'qand» (1880 y.), «Maktubchai xon» (1884 y.), «Jangnoma» (1888 y.), «Hayrat ul-olam» va boshqa tarixiy, falsafiy-didaktik dostonlari bizgacha yetib kelgan. Asarlarining qo'lyozmalari O'z FA SHI hamda Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg bo'limi fondlarida saqlanmoqda.

Muso Sayramiy (1836-1917). Sayram tumanida tug'ilgan. Sharqiy Turkistonda ijod qilgan. Tarixchi, davlat arbobi, mudarris, adib va shoir. Uyg'ur olimi Mulla Usmon oxund xalfadan Qur'on, hadis, tarix, adabiyot, ilmi nujum, geografiya, arab va fors tillarini o'rgangan.

Sayramiy «Tazkirat ul-avliyo fi muftaxul imon» (Avliyolar tazkirasi – imon kaliti), «Dar bayoni As'hob ul-qahf» (G'or kishilari haqida), «Tarixi Hamidiya» (Hamidiya tarixi) kabi tarixiy asarlar, «Devoni masnaviy» she'rlar to'plami hamda «Salomnoma» asarining muallifidir. «Tarixi Hamidiya» asarida Turkiston-Mo'g'ulistonda hukm surgan xonliklar va xonlar, Yorkend xonligi (1465-1759), uni

xitoylar tomonidan bosib olinishi, yerli aholining mustaqillik kurashlari bayoni ta'riflangan. Sayramiyning asarlari Turkistonning XIV-XIX asrlari tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Gulshaniy (XIX asr II yarmi-XX asr boshi). Buxorolik tarixchi, shoir. Asl ismi Mulla Muhammad Sodiqxoja. Buxoro amirligining tarixiy geografiyasiga oid «Tarixi Xumoyun» asarini yaratgan. Asar rus tiliga tarjima qilingan. Unda amirlik hududidagi shahar, qasaba, qishloq va ulardagi aholi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Mahmud hakim Yayfoni (1850-1930). Tarixchi, tabib va adib. Unga qo'qonlik tabib Boqiyxon ustozlik qilgan. u «Hakimiy» taxallusi bilan she'rlar yozgan. «Tariq ul-ilot» (Davolash usuli), «Abu Ali ibn Sino qissasi», «Ma'dan ul-adviya» (Dori-darmonlar manbai), «Qonun ul-iloj» (Davolash qonuni), «Mujarraboti Mahmudiy» (Mahmud tajribalari), «Xullas ut-tavorix» (Tarixlar sarasi) kabi tabibliikka oid va tarixiy asarlarni yozib qoldirgan.

Laffasiy asl ismi Hasanmurod Muhammad Amin o'g'li (1880-1945). Xivada tug'ilgan. Shoir, tarixchi va tazkiranavis. Laffasiy o'zining tarixiy «Xiva shoir va adabiyotshunoslarining tarjimai hollari» asarida elga mashhur bo'lgan Munis Xorazmiy, Ogahiy, Rog'ib, Feruz va Chokar kabi 51 nafar xorazmlik ijodkorlarning tarjimai holi va ijodi haqida ma'lumot bergan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki bu davrda musiqa-qo'shiqchilik ijodi, musiqa nazariyasi namoyandalari yetishib chiqqa boshladi.

O'zbek millim qo'shiqchilik san'ati, istilochilik siyosatiga qaramasdan, o'zining umumiy an'anaviy rivojlanish yo'lida davom etdi. Ijrochilikning Buhoro, Xorazm, Qo'qon yo'llari to'la-to'kis saqlab qolindi va bunday usullarni yanada takomillashtirishda o'sha shaharlardagi mavjud an'anaviy maktablar muhim ahamiyat kasb etdi.

XX asr Turkiston o'lkasi madaniy hayotida 1916 yilda Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida **Muhitdin Qori Yokubov** tashkil etgan cholg'u sozlar ansambli, Namanganda usta **Ruzimat Isaboyev**, Qo'qonda **Hamza** tomonidan tuzilgan dastalar katta voqea bo'ldi.

O'zbek musiqa va qo'shiqchilik san'atini Sharq va Yevropaga tanitgan mashhur hofizlardan samarqandik **Hoji Abdulaziz Abdurasulov**, toshkentlik **Mulla To'ychi Toshmuhamedov**lar xalq orasida katta obro'ga ega bo'lib, o'z san'atlari bilan ko'pchilik san'at muhlislaring xurmatini qozondilar.

To'ychi hofiz soz jo'rligida ashula aytishning asoschilaridan bo'lib, Riga «Grammofon» jamiyati tomonidan 1905 yilda uning 25 ta xalq ko'shiqlari va mumtoz ashullalari yozib olinib tarqatildi.

Xorazm musiqa va maqom maktabining rivojida Xiva honi **Muhammad Rahimhon II (Feruz)**ning alohida o'rni bor. U hukmdorlik faoliyati bilan cheklanmasdan, badiiy ijod va san'at bilan qizg'in shug'ullangan. Feruz Xivada sozanda, shoir va xofizlarni, masharaboz, raqqosalarni to'plab ijod qildirgan va ularga g'amho'rlik qilgan. Uning rahnamoligida **Komil Xorazmiy** (1829—1899) birinchi bo'lib «**Xorazm tanbur notasi**»ni yozib, ilmiy asoslab bergan.

O'qituvchi shu o'rinda musiqa-qo'shiqchilik ijodi, musiqa nazariyasi namoyandalari haqida batafsil to'xtalsa mavzuning mohiyati ochiladi va talabalarga tushunarli bo'ladi. Masalan:

Miskin Qilich (1847-1906). Xivalik. Asli ismi Mulla Qilich. Turkman xalq shoiri, bastakor va sozanda. Uning qo'shiqlari xalq orasida shuhrat qozongan. 100 ga yaqin ishqiy, axloqiy, ijtimoiy mavzulardagi qo'shiqlari, «Botir Napis», «Bekzoda Qurbon», «Tovqi» kabi dostonlari shogirdlari va xalq qo'shiqchilari tomonidan yozib qoldirilgan.

Madumar Hofiz (1850-1930). Isfaralik. Diapazoni keng, kuchli va baland ovozli xonanda. Qo'qon ijrochilik maktabi rivojiga munosib hissa qo'shgan. Maqom, Farg'ona-Toshkent qo'shiqchilik yo'llarini hamda katta ashulani mahorat bilan ijro etgan. To'ychi Hofiz, Hamroqul qori, Yunus Rajabiy kabi mashhur hofizlar Madumar Hofizning shogirdlari edi.

Rustam Mehtar (1860-1933). Andijonlik. Mehtar-nog'orachilar boshlig'i ma'nosida. Soz chalishni otasi Yusufali mehtardan va Buxorolik Hojimat mehtardan o'rgangan. Yoshligidan nog'ora, karnay va dutorda mashq qilgan bo'lsada, asosan, surnayda mohir ijrochi bo'lgan. Repertuaridan xalq musiqasi yo'llari hamda maqom yo'llari o'rin olgan. Uning ijrochilik an'analari shogirdlari - Ashurali mehtar va o'g'li Odilbek Rustamovlar davom ettirgan.

Sodirxon Hofiz (1847-1931). Xo'jandlik. Hofiz, sozanda, bastakor. Poshsho Oxun va Said Buzrukxo'jalar qo'lida tarbiyalanib, xonandalik, sozandalik va maqom sirlarini o'zlashtirgan. 20 yoshida «Xonaqoi hofiz» maqomiga muyassar bo'lgan. Xususan, Qo'qon xonaqohlarida ijodiy faoliyat ko'rsatgan. Erka qori, Madumar hofiz, sozandalar - Karimqul begi, Ismoil naychi, Domla Halim, Xoji Abdulazizlar bilan yaqindan ijodiy hamkorlik qilgan.

U 20 dan ortiq mumtoz asarlar ijod qilgan. «Ushshoqi Sodirxon», «Talqinchai Qashqarchai Ushshoqi Sodirxon», «Savti Chorgoh Munojoti», «Shahnoz» va boshqalar shular jumlasidan. «Shashmaqom» zaminidagi o'ziga xos maqom yo'llari talqini va unga asoslangan bastakorlik maktabini yaratgan.

Usta Shodi Azizov (1878-1943). G'ijduvon tumanida tug'ilgan. Xonanda, sozanda, raqqos. Buxoro-Samarqand musiqa uslubi vakili. Bolalikdan milliy raqs, masxarabozlikka qiziqib, xalq sayillari, to'ylarida qatnashib yurgan. Ijodi orqali shuhrat qozonib, 1895 yilda Buxoro amiri saroyiga chaqirilgan. Shashmaqom yo'llarini Ota Jaloldan o'rgangan va o'zi ham ko'plab shogirdlar yetishtirgan.

Farzinxon Hofiz (1840-XX asr boshlari). Toshkentlik xonanda va sozanda (dutor, tanbur). Dastlab Toshkent to'y-tomoshalarida, «Sharqiya» kechalarida ishtirok etib, keyinchalik Isfara, O'sh, Turkiston va boshqa joylarda bo'lib o'tadigan sayllarda, qo'shiq bellashuvlarida qatnashgan. O'zining keng diapazon, yoqimli, shirali, dardli, his-tuyg'ularga boy ijro uslubi bilan shuhrat qozongan. Muqimiy unga hofizlarning «beki» sifatida nisbat bergan. Furqat Farzinxon Hofiz ismini o'z she'rida tilga olib bunday yozgan:

«Ko'rarsan anda Farzinxon degonni,
Menga bir oshnoyi mehribonni ... ».

Uning repertuaridan Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, katta ashulalar va o‘zi bastalagan ashulalar joy olgan. U shuningdek, Xaziniy, Vijdiy, Yassaviy va boshqalarning she‘rlariga aytiladigan diniy ashulalar bilan ham dovrug‘ qozongan. Uning ijrosidagi ashulalar XX asr boshida grammofonga yozib olingan.

Shoir Piri Komil (XIX asr II yarmi - XX asr boshlari). Xivalik. Ismi Abdurasul. Yozuvchi oilasidan chiqqan. Eski maktab, madrasa ilmini egallagan. Ayni paytda iste‘dodli xattot, yetuk san‘atkor bo‘lgan. Nota maqomlarini, Xorazm 6 yarim maqomini to‘liq egallagan.

Abdusoat Vahobov (1875-1934). Farg‘onalik. Musiqa bilan yoshligidan mustaqil ravishda, keyinroq toshkentlik mashhur dutorchi Ilhomjon bilan birga shug‘ullangan. U ijrochilik faoliyatini Karimbekxo‘ja g‘ijjakchi, Shobarot va Karimbekxon tanburchilar, Ilyos Hoji changchilar bilan birga havaskorlik xalq cholg‘ulari asnsamblida boshlagan. 15 yil davomida jamoa sayillarida, ishchi klublarda, konsertlarda chiqishlar qilganlar. Repertuarini asosan raqs kuylari, Farg‘ona-Toshkent maqomlaridan parchalar tashkil qilgan.

Yusuf Xarrot Chokar (XIX asr II yarmi - XX asr boshi). Xivalik. Ismi Muhammad Yusuf, adabiy tahallusi Chokar bo‘lib, san‘atkor oilasida tavallud topgan. U Xorazm 6 yarim maqomini to‘liq egallagan. Shuningdek, xattotlik san‘atidan ham xabardor bo‘lgan. Ko‘plab she‘rlari shu kungacha qo‘shiq qilib aytib kelinadi.

Madali Hofiz (1876-1931) - Marg‘ilonlik mashhur hofiz Madalixon Rahmatillayevdir. Xaziniy, Muqimiy, Rojiy kabi shoirlar bilan yaqin ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. Yoshlikdan katta ashula ijrochilariga ergashib, ulardan ijrochilik mahoratini o‘zlashtirgan va keyinchalik butun Farg‘ona vodiysidagi eng mashhur hofizlardan biriga aylangan.

Yana shuni ham ta‘kidlash joizki, XIX asr oxirida yashagan farg‘onalik ashulachi va sozandalarning ko‘pchiligi serqirra san‘atkor bo‘lishgan. Bir kishining o‘zi ikki-uch cholg‘u sozida chalishni puxta egallagan sozanda, bastakor, hofiz, qiziqchilar ko‘pchilikni tashkil etgan. Ba‘zilar o‘zlari uchun doimiy kerak bo‘lgan cholg‘u sozlarini yasash hunaridan ham xabardor bo‘lganlar. Ularning noyob iste‘dodi yana shu jihatdan qadrligi, ular nota yozuvlarisiz qanchadan-qancha xalq musiqa boyliklarini, shashmaqomlarni yodaki o‘rganganlar va esda saqlab qolib, o‘z navbatida shogirdlariga o‘tkazganlar. Farg‘ona vodiysida xalq professional musiqasi janriga kiruvchi «Shashmaqom»ning Farg‘ona-Toshkent yo‘llari va ayniqsa **katta ashula** keng tarqalgan.

O‘zbek san‘atkorlarining dong‘i faqat Turkiston o‘lkasidagina emas, balki qo‘shni, chet mamlakatlarga ham yetib borgan. Masalan, samarqandlik mashhur hofiz Xoji Abdulaziz Rasulov Eron, Afg‘oniston, Arabiston, Iroq, Hindiston va Yunoniston mamlakatlarida o‘z san‘atini namoyish qilgan. Toshkentlik Mulla To‘ychi Toshmuhammedovning ovozi Yorkent, G‘ulja, Chuguchak xalqlari sevib tinglaganlar.

Farg'ona vodiysining bir guruh san'atkorlari mashhur qiziqchi, musiqachi, raqqos Yusufjon Shakarjonov boshchiligida o'z san'atlarini Qashqarda ham namoyish etganlar.

XIX asrning 70-yillaridan boshlab Rossiyaning markaziy shaharlaridan va chet ellardan kelgan mashhur san'atkorlar, Toshkent, Samarqand, Qo'qon Andijon, Marg'ilon kabi shaharlarda spektakllar, konsertlar ko'rsata boshlaganlar.

Viloyat markazi bo'lgan Farg'ona shahrida va boshqa shaharlarda musiqa sozlari savdosi uchun maxsus do'konlar ochilgan, ularda rus cholg'u asboblari bilan bir qatorda chet ellardan keltirilgan cholg'u sozlari ham sotilgan.

Levicha Hofiz Boboxonov (1873yil Buxoro – 1926 yil Samarqand). Buxoro yahudiylari oilasidan chiqqan atoqli hofiz. Hofizlik san'atini buxorolik Borux va Yuno Ismoilovdan, chorjo'ylik Hojixon Hofizdan, keyinchalik Ota Jalol Nosirov kabi ustozlardan o'rgangan. Maqom yo'llarini tanbur va doira bilan o'ziga hos mahorat bilan ijro etgan. Diapazoni keng, tiniq va yoqimli ovozi bo'lgan. 1890 yildan Buxoro amiri saroyida xizmat qilgan. 1909 yilda Riga grammafona yozuvi firmasi taklifi bilan uning ijrosida bir necha maqom ashulalari yozib olingan. Mashhur qo'shiqchilar Shonazar Sohibov, Borux Zikriyev, Mixail Tolmasovlar uning shogirdlari bo'lganlar.

Muhammad Rahimxon II Feruz. (1844-1910). 47 yil hukmdorlik qilgan Xiva xoni. Adabiyot, san'atning fidoiy homiysi, ko'plab san'at sohiblariga, shoir-yozuvchilarga ijod qilishlari uchun sharoit yaratib bergan hukmdor.

Feruz o'zbek madaniyati tarixida o'ziga xos o'ringa ega. U davlat arbobi bo'lishi bilan birga iste'dodli shoir, zukko musiqashunos va san'atshunos, mohir sozanda, fan va madaniyatni, Xorazmning mashhur 6 yarim maqomini takomillashtirishda rahbarlik qilgan. Uning rahbarligida musiqa tarixi va nazariyasiga oid risolalar yozildi. Xorazmda miniatyura maktabi tashkil etilishining tashabbuskori bo'ldi. Uning homiyligida Turkistonda birinchi matbaa (nashr ishi) va Xorazmda ilk dorushshifo tashkil etildi. O'z saroyida esa salohiyatli adabiy muhit barpo etdi. «Majmuat ush-shuaro» tazkirasini tuzishga rahbarlik qildi. Feruz o'zi bastalagan kuylar, yaratgan ajoyib she'rlari bilan ham madaniyatimiz merosiga ulkan hissa qo'shgan betakror, serqirra ijodkorlardandir.

Devoniy (XIX - XX asrlar). Xorazmlik. Ismi Komiljon, otasining ismi Ismoil Muxrkan devon bo'lgan. U yozuvchi va musiqashunos oilasidan chiqqan.

Devoniy besh xil ilm-hunar: miltiq tuzatadigan usta, xushxat kotib, mohir shoir, usta naqqosh va nihoyat soz chaluvchi hunarlari sohibi edi. Bundan tashqari 6 yarim maqomni mukammal bilgan. 15 yoshidan shoirlik bilan shug'ullana boshlagan va ko'pincha xonning huzurida bo'lgan.

Mutrib xonaixarob (XIX - XX asrlar). Shoirning asl ismi Muhammad Hasan, otasining ismi Hoji tabib bo'lgan. Eski maktabni tugatgan. Ota kasbi bo'lmish tabibchilikdan, xattotlikdan yaxshi xabardor bo'lgan. Shuningdek, u she'rlar yozib, mohir sozanda ham bo'lgan. Mutrib 6 yarim maqomni to'liq bilgan va ularni ayta olgan. U mansabdor shaxs bo'lib, Muhammad Rahimxon davrida devonda ishlagan va she'rlarini devon holiga keltirgan. Taxminan 70 yoshlarida vafot etgan.

Shoir Otabek to'ra (XIX asr II yarmi - XX asr boshlari). Xon amaldorlaridan Hasanmurod Qushbegining farzandi edi. Muhammad Rahimxonga esa jiyan (opasini o'g'li) bo'lgan. Tahallusi Oqil. 1 yil hokimlik ham qilgan. 25 yoshidan shoirlik bilan shug'ullana boshlagan. Soz chalishga mohir bo'lib, 6 yarim maqomni mukammal chala bilgan. U kishining san'atdagi ustozlari Muhammad Yoqub pozachi bo'lgan. Ham tanbur, ham g'ijjak doyra, dutor chalgan. She'rlaridan devon ham ham tuzgan. U qatnashgan ziyofatlar, albatta uning sozi ishtirokisiz o'tmagan. Bobojon tarroxning yozishicha, ular Yoqub pozachi bilan deyarli har oqshom Otabek to'ranikiga borib, she'riyat va san'at bilan shug'ullanganlar.

Shoir Mirzo (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). Asl ismi Muhammad Rasul, Polvon Mirzaboshining o'g'li bo'lgan. Otasi vafotidan keyin u Mirzaboshi qilib saylangan. M.Rasul eski maktabni va madrasani to'liq bitirgan, xattotlikni egallagan. Otasi 12 maqomni 6 maqomga noatalashtirganda Muhammad Raximxon, Xudoybergan Muhrkan bilan birga Rasul ham ishtirok etgan va 6 maqomga yarim maqomni qo'shgan. Shuning uchun Xorazmda bu maqom 6 yarim maqom hisoblanadi. «Musabbih» maqomini yaratgan. Yarim maqomni ishlashda uning bilan birga Xudoybergan Muhrkan Devon, Otaniyoz Oxunlar ham hissa qo'shganlar. She'rlarini devon qildirgan. Salkam 70 yil umr ko'rgan.

Otaniyoz qori Xo'janiyoz o'g'li (1844-1928). Tahallusi Niyoziy. Ruhoniy oilasidan chiqqan va turli ilmlar sohibi bo'lgan. San'atga, xususan sozandachilikka qiziqishi katta bo'lib, Polvon Mirzaboshining olti maqomiga yarim maqom qo'shishda Mirzoga yordamlashgan. O'zi ham 6 yarim maqomni to'liq bilgan. Shuningdek, u mohir xattot ham bo'lgan. Uning san'atdagi qiziqishi o'g'li, mashhur Komiljon Otaniyozovga ham o'tgan. She'rlarini devon holiga keltirgan. 70 yoshlarida vafot etgan.

Ismoil Naychi (1847-1904). Qo'qonlik. Nay sozida mohir bo'lgan. O'zbek, tojik, uyg'ur va Turkistonning boshqa xalqlari orasida Ismoil Ustoz, Ismoil Ko'sa nomlari bilan ham mashhur bo'lgan. Faqirona hayot kechirgan. Bayot, Chorgoh, Ushshoq, Suvora singari mumtoz kuylarni nay sozida o'ziga xos uslubda ijro etgan va el orasida mashhur bo'lgan.

O'z san'atini Sharqiy Turkiston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya va boshqa mamlakatlarda namoyish etishga musharraf bo'lgan.

Komil Xorazmiy (1825-1899). Xivalik. Asl ismi Pahlavon Niyozmuhammad. Shoir, tarjimon, xattot, musiqashunos. Arab va fors tillarini mukammal bilgan. Sharq adabiyoti vakillari ijodini yaxshi o'rgangan.

Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon II davrida mirzaboshilik qilgan. U davlat arbobi sifatida ham faoliyat ko'rsatgan, biroq reaksiya guruhlari tomonidan ilg'or fikrli kishilar qatori Komil Xorazmiy ham ta'qib qilingan. Shunga qaramay, o'z ijodiy ishini tashlamagan. U Rossiyaga - Moskva va Peterburgga sayohat qilib, rus madaniyati, musiqasi bilan ham tanishgan. U o'zbek kuylarini yozib olish sohasida ham yangi yo'nalish - tanbur chizig'ini yaratgan. 1897 yilda Komil Xorazmiy Toshkentga kelgan. Teatr va gimnaziya bo'lgan. Keyinchalik, o'g'li Muhammad Rasul otasining ijodini davom ettirgan.

Orif Garmon (Orifjon Toshmatov) (XIX asr oxiri - XX asr I yarmi). Andijonlik. O'zbek aktyori, sozanda, garmonchi. Otasi Toshmat hofiz nomi bilan Andijonda mashhur bo'lgan. Orif otasidan dutor, amakisidan garmon chalishni o'rgangan. Uning amakisi Hoji garmon nomi bilan tanilgan edi. 1905 yildan boshlab Orif sayyor truppalarda aktyorlik va sozandachilik qilgan.

U Andijonda T.Jalilov boshchiligidagi tashkil etilgan «Sanoi nafisi» nomli to'garakning faol ishtirokchisi bo'lgan.

Ota Jalol Nosirov (1845-1928). Buxorolik. Maqomchi, xonanda, sozanda, bastakor. Onasi maqomlarni mohir ijrochisi bo'lganligi sabab Ota Jalol dastlabki maqom saboqlarini onasidan, so'ng maqom yo'llarini esa otasidan o'rgangan. Ota Jalol o'sha davrlarda Shahrisabz begi bo'lgan Muzaffarxon saroyida, so'ngra Karmanada (Hozirgi Navoiy) Amir Ahadxon saroyida, keyin esa amir Olimxon (Buxoro amiri) saroylaridagi san'atkorlarga rahbarlik qilgan. Ota Jalol Nosirov o'zbek va tojik maqom yo'llarini mohir bilimdoni va ijrochisi bo'lgan. Uning o'nlab mashhur shogirdlari Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz, Usto Shodi Azizov, SH.Sohibov, B.Fayzullayevlar ustoz ishini davom ettirdilar.

Matyoqub Xarratov (1867-1939). Xorazmlik. Maqomchi, xattot, dutor va g'ijjak sozlarining mohir ijrochisi. Xudoybergan Muhrkan, Niyozjon Xo'ja va Komil Xorazmiylarning shogirdi va izdoshi. U Komil Xorazmiy ixtiro etgan «Xorazm tanbur chizig'i»ni takomillashtirgan va uning vositasida Xorazm maqomlarini notaga olishda ijrochi, tadqiqotchi va xattot sifatida Muhammad Rasul Mirzaboshi bilan hamkorlik qilgan. Muhammad Rahimxon II saroyida sozanda va maqomchilarning ustози bo'lgan.

Matpano Xudoyberganov (XIX asr oxiri - XX asr I yarmi). Tahallusi Suhonvar (notiq). Lirik tenor ovozli, sozanda, tanburchi, dutorchi, maqomchi va shoir. Sozandalikni, xalq musiqasi va Xorazm maqomlarini otasi Xudoybergan Muhrkan va Matyoqub Xarratovlardan o'rgangan.

Boltaboy Rajabov (1878 y. Farg'ona-1960 y. Marg'ilon). Xonanda, o'zbek xalq hofizi. Asosan katta ashula turi bilan nom qozongan. Bu yo'nalishni bobosi Matholiq Hofizdan, tog'asi Mahsud hofizlardan o'rgangan. Keyinchalik esa Hamroqul qori, Turg'un sariq, Xolqora ota kabi hofizlardan tahsil olgan.

Rustam Mehtar Yusufalizoda (1860-1933). Andijonlik. Xalq sozandasi, mehtar (surnaychi). Laqabi Rustam soz. Otasi Yusufali mehtardan va Buxorolik Hojimat mehtardan soz chalishni o'rgangan. Yoshligida nog'ora, karnay va dutor chalib, xalq sayillarida faol ishtirok etgan. Ayniqsa, surnayda tengi yo'q bo'lgan. Surnayda «Haqqoniy», «Layzongul», «Ko'cha bog'i», «Charx» kabi kuylar va ko'plab maqom yo'llarini mohirlik bilan ijro etgan.

Andijon nog'oraxonasining mehtari bo'lgan.

Tolmasov Mixail Jo'rabekovich (1887 y. Buxoro - 1969 y. Samarqand). Maqomchi, xonanda, sozanda (tanbur, dutor, doira). Ota Jalol Nosirov va Levi Boboxonovlardan Shashmaqomning ashula va cholg'u yo'llarini o'rgangan. San'atkor Tolmasovlar sulolasining yirik vakili.

To'ychi Hofiz (1868-1943). Toshmuhamedov Mulla To'ychi. Toshkentlik. O'zbek ashulachilik va qo'shiqchilik san'atining yirik vakili. Kasbi to'quvchilik bo'lgan. To'ychi Hofiz yoshligida amakisi Qo'chqor otadan ashula aytish sirlarini o'rgangan. Ayniqsa, 1890 yilda Shojalil hofiz va Shobarot tanburchi jo'rligida «Shaxnoz-Gulyor» ashulalar sikli To'ychi Hofizga katta shuhrat keltiradi. Keyinchalik esa uning dovrug'i Turkiston o'lkasining shaharlari (Namangan, Xo'jand, O'sh, Marg'ilon, Andijon, Isfara va boshqalar) ga tarqalgan.

To'ychi Hofizning o'zi ijro etgan ashulalardan 25 tasi 1905 yil Riga shahrida, 1911 yil Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida gramplastinkaga yozdirilgan. To'ychi Hofizning o'zi ham 1908-1910 yillarda Farg'onadagi Adolatxon, Mozidaxon nomli ayol xonandalar ijrosidagi qator qo'shiqlarni ham birinchi marta gramplastinkaga yozdirgan.

1906-1912 yillarda To'ychi Hofiz tashabbusi bilan Andijon, Farg'ona, Xo'jand va boshqa shaharlarda grammafon va plastinkalar do'konlari tashkil etilgan. Bu do'konlarda o'zbek, rus va yevropacha kuy, qo'shiq va ashulalar yozilgan plastinkalar sotilgan.

To'ychi Hofiz 1900 yilda Eron, Turkiya, Italiya, Misr, Hindistonda, 1913 yilda Sharqiy Turkistondagi Qashg'ar, G'ulja, Yorkent kabi shaharlarda, 1914 yilda esa Chuguchak shahrida bo'lib, o'z san'atini namoyish etgan.

Usta Olim Komilov (XIX asr II yarmi - XX asr I yarmi). Sozanda (doira, nog'ora, kuy va usullar bilimdoni), pedagog, o'zbek raqs san'ati rivojiga ham katta hissa qo'shgan. O'zbek xalq raqs san'atini ham birinchi bo'lib sahnalashtirgan. Kambag'al to'quvchi oilasidan. Marg'ilonda Masaid otadan doira chalishni o'rgangan.

U Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva kabi raqs ustalarining ustozlari.

Usta Ro'zimatxon Isaboyev (XIX asr oxirlari - XX asr I yarmi). Namanganlik. Mashhur sozanda (tanbur, g'ijjak, chang). Oktabr to'ntarishigacha temirchilik va sozandalik qilgan. O'sha davrda Farg'ona vodiysida mashhur bo'lgan Jalolxon Hofiz va Ramazon Oxundan tanbur, g'ijjak va chang chalishni, cholg'u sozlari yasashni, «Ajam taronalari», «Navro'zi ajam», «Nasrullovi» kuylarini o'rgangan. Buxoroda Ota Jaloldan «Shashmaqom»ning ba'zi yo'llarini, Samarqandda Xoja Abdulazizdan «Samarqand ushshog'i», «Karimqulbegi», «Guluzorim» ashulalarini o'rgangan.

Iso Mahdum Buxoriy XIX asrda yashab ijod etgan yetuk musiqashunos va shoir. Shuningdek, kitobatchilik bilan ham shug'ullangan. Iso Mahdum, ayniqsa musiqa ijodida mashhur bo'lgan. Sadriddin Ayniyning yozishicha, u Shashmaqomni tanburda to'liq chala olgan. Shu xususda nota ham bitgani ma'lum.

Abduqodir Naychi Ismoilov (1888 y. - XX asr I yarmi). Qo'qonlik. Otasi Ismoil naychidan 13 yoshidanoq xalq kuylaridan «Tanovar», «Yovvoyi Chorgoh», «Suvora», «Sarbozcha», «Mirzadavlat», «Ajam» kabilarni to'liq o'rgana boshlagan va nay sozining mohir ustasi bo'lib yetishgan. 1908 yilda Farg'onada tashkil etilgan qishloq xo'jaligi xalqaro ko'rgazmasida o'sha davr mashhur san'atkorlaridan bo'lmish Hamroqul qori, Sodirxon hofiz, To'ychi hofiz, Yodgorxo'ja, Sultonxon

tanbur, Nurali qozoq, Abdug'affor, Abduqahhor hofizlar bilan birga yovvoyi maqom yo'llarini grammofonga yozdirgan.

Erka qori Karimov (1877 y. - XX asr I yarmi). Qo'qon yaqinidagi Tumor qishlog'ida tug'ilgan. O'zbek ashulachisi, askiyachi, katta (patnusaki) ashula san'atining yirik vakili. 2 yoshligida kasallanib, ko'zi ojiz bo'lib qolgan. Muqimiy, Furqat, Kamiy, Xaziniy, Charxiy g'azallariga moslab, katta ashulalar ijro etib xalqqa mashhur bo'lgan. Uning repertuarini mumtoz, maqom va zamonaviy ashulalar tashkil etgan. O'zi ham she'rlar ijod qilgan.

Sultonxon tanbur (XIX asr oxirlari - XX asr I yarmi). Chimkentlik. O'zbek xalq sozandasi, tanburchi. O'zbek va boshqa xalq kuylarini tanburda mohirlik bilan ijro etgan. 1905-1907 yillarda bir qancha o'zbek xalq ashula va kuylari, hamda Toshkent va Farg'onada mashhur bo'lgan maqom yo'llarini Sultonxon tanbur va To'ychi hofiz ijrosida Moskva shahrida grammofonga yozib olingan.

Ashurali Mahram (1825 - 1863). Marg'ilonlik. Sozanda, xonanda, mehtar, ipakdo'z. O'zining yoqimli va ta'sirli xush ovozi bilan Farg'ona vodiysida va Toshkentda mashhur bo'lgan. Ovozasi xon saroyigacha yetib, Xudoyorxon uni saroyga chaqirtiradi va o'zining yaqin mahrami darajasiga ko'taradi. Shuning uchun ham uni nomi yoniga mahram so'zi qo'shib aytilgan. Lekin xon saroyidagi ziddiyatli hayot Ashuraliga yoqmaydi va bir yo'lini qilib Toshkentga qochadi. Toshkentda o'z san'ati bilan xalqqa xizmat qilib yuradi. Ashurali bastalagan «Dugoh Husayn», «Chorgoh», «Bayot», «Gulyori Shahnoz» maqom yo'llari ayniqsa xalq orasida uning nomini yanada mashhur qilgan. U Farg'onada «Katta ashula», «Patnusaki ashula» turlari rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Toshkent va Farg'ona vodiysidagi bir necha o'nlab mashhur san'atkorlar uning izdoshlari va shogirdlaridir.

Bobojon Tarroh Xodim (1878 - XX asr II yarmi). Xivalik. Muhammad Rahimxon II Feruz saroyida 10 yildan ortiq shoirlar rahbari bo'lib ishlagan. Ijtimoiy kelib chiqishi ham yozuvchi oilasidan. Bobojon shoir, yozuvchi, xushxat sohibi, eski maktab bilimiga ega va ayni vaqtda Xorazm 6 yarim maqomini to'liq egallagan san'atkor bo'lgan. Soz chalib, qo'shiq aytgan. Shoirlar she'rlarini devon qilib tuzish ishlari bilan ham shug'ullangan. Muhammad Yoqub pozachi Bobojonga san'atda ustozlik qilgan. Bobojon tarroh o'zining «Xorazm navozandalari» risolasida Muhammad Rahimxon saroyida ijod qilgan bir necha o'nlab san'atkor va shoirlar haqida qimmatli ma'lumotlarni bayon etgan. Kitob bizgacha yetib kelgan.

Ahmadjon Qo'shnay Umrzoqov (1888 y.). Qo'qonlik. O'zbek xalq sozandasi. XIX asrning mashhur san'atkorlari Ro'zimat mehtar, Hamroqul surnaychi, Holiq qo'shnaychilarning iqtidorli shogirdi. Muhammad Umar, Abduqahhor hofiz, Abdurahmon hoji, Nazirxon, Shobarot tanburchilar bilan jo'rovozlikda «Bayot», «Ushshoq», «Dugoh Husayniy» kabi maqom yo'llaridagi ijrolari xalq orasida mashhur bo'lgan.

Dilkash Qori Mullo Karomat Tanburiy. Tug'ilgan yili noma'lum. 1912 yilda vafot etgan. Buxorolik shoir va musiqachi. She'r va musiqada Ahmad Donishning shogirdi. Sadriddin Ayniy «Namunai adabiyoti tojik» asarida Tanburiyni Buxoro

xalqi o'rtasida o'zining she'rlari va yoqimli kuylari bilan katta hurmat qozonganligini yozadi. U Amir Abdulahad saroyida mulozim lavozimida ham xizmat qilgan. Biroq bir yilcha o'tmay sil kasalidan vafot etgan. Devoni saqlanmagan. Tazkira va bayozlarda she'rlari uchrab turadi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov (XIX asr II yarmi - XX asr boshlari). Samarqandlik. Yirik bastakor, sozanda va ashulachi. Samarqand ashula va cholg'u yo'llarini to'liq o'rganib, keyin Buxoroda Shashmaqomning maqom yo'llarini o'rgangan, o'zi ham ko'plab kuylar bastalagan.

1887-1888 va 1907-1908 yillarda ikki marta xorijda sayohatda bo'lgan. Eron, Hindiston, Arabiston, Afg'oniston xalqlarining musiqa madaniyati va ijro yo'llari bilan tanishgan va u yerlarda o'zbek, tojik san'atini namoyish etgan. «Samarqand ushshog'i» qo'shig'ining muallifi. Uning repertuarini 200 dan ortiq xalq qo'shiqlari va maqom yo'llari tashkil etgan. 1909 yildan boshlab uning qo'shiqlari gramplatinkalarga yozila boshlagan.

Hoji tam-tam (XIX asr oxirlari - XX asr I yarmi). Samarqandlik. Asl ismi Hoji Qurbon Hamidov. Xalq qiziqchisi, xonanda va sozanda (doirachi). U qo'shiqni ko'pincha sozsiz, o'ziga-o'zi dutorga xos taqlidiy ohang bilan «tam-tam» so'zlarini jo'r qilib aytganligi uchun, unga shu laqab berilgan. Repertuarida o'zbek, tojik, uyg'ur, ozarbayjon, rus xalq qo'shiqlari, shuningdek laparlar va latifalar bo'lgan.

Domla Halim Ibodov (1878-1940). Buxoro - Toshkent. Ustoz xonanda va sozanda. To'quvchi hunarmand oilasida tug'ilgan. 10 yoshdan boshlab doira chalib, xalq qo'shiqlarini ijro eta boshlagan. Dastlab Sharofxon ustozdan, so'ngra esa Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos kabi yetuk ustozlardan ta'lim olgan. O'zi ham ustoz darajasiga yetgan. Domla Halim o'zbek va tojik maqom yo'llarini yoshligidan mukammal o'rgangan. San'at ahli o'rtasida avj qiluvchi, «Savtxon» degan nom olgan.

Abdulla Bulbul iso Hofiz o'g'li - XIX asr II yarmidan-XX asr boshlarigacha yashab ijod qilgan toshkentlik hofiz. O'zbek xonanda va sozandasi. G'ijjak, dutor, tanbur kabi milliy cholg'ularda chalinadigan kuylarning mohir ijrochisi. Xalq orasida yoqimli ovozi uchun «Bulbul» laqabini olgan.

Xalq orasida Navoiy, Fuzuliy, Furqat g'azallarini kuylagan. «Bayot», «Segoh», «Chorgoh», «Ushshoq», «Shahnozi Gulyor» kabi maqom yo'llarini Madumar Hofiz talqinidagi erkin («yovvoyi») usuldan soz usuliga o'tkazgan.

Abdurahmonbek (XIX asr). Shahrisabzlik mohir xonanda, sozanda ham bastakor bo'lib, o'zbek milliy qo'shiqlari tarkibidan joy olgan mashhur «Abdurahmonbegi» ashulalar turkumi va boshqa san'at asarlarining muallifi hamda yetuk talqinchidir. Bu turkum ashulalar to'plami keyingi asrlar milliy qo'shiqchiligimiz rivojida o'ziga xos asos bo'lib xizmat qilgan.

Otag'iyos Abdug'aniyev (1858-1927). Buxorlik mashhur va mohir tanburchi. Shashmaqom cholg'u yo'llarini mukammal egallab, ularning har birini o'ziga xos uslubda ijro etgan. Bu ijrolar Shashmaqomning keyingi asrlardagi rivojida va takomillashuvida muhim ahamiyat kasb etgan.

Bolohovuz masjidi (XVII-XX asrlar). Buxoroda. Katta gumbazli xonaqoh, masjid (1712), hujralar (XIX asr) ayvon, minora (1911-1917) va hovuzdan iborat.

Ismamud ota majmuasi (XVII - XX asrlar). Turkmanistonda, Qo'hn Urganch hududida. Avliyo Iso Muhammad va shahar hokimi Sulton Muhammad (Ismamud) nomi bilan atalgan. Maqbara uch xona - go'rxona, qorixona va tilovatxonadan iborat. Maqbara sharqida 15 gumbazli dolon (usti berk ko'cha) - «Tosh ko'cha» qurilgan. Sag'analar bor. Masjid ko'p xonali bo'lib, unda ayvon, oshxona, shayx uyi va xonaqoh kabilar mavjud.

Abdulazizxo'ja madrasasi - 1909 yil Qarshida bunyod etilgan me'moriy yodgorlik bo'lib, u mahalliy me'moriy an'analarning soddalashtirilgan shaklida g'isht va ganchdan qurilgan. Masjid darsxonalar, hujralardan iborat. Madrasa deyarli bezaksiz. Hozir unda Qashqadaryo viloyati tarix – o'lkashunoslik muzeyi joylashgan.

Abdurasulboy madrasasi - 1606 yil Xivada barpo etilgan me'moriy yodgorlik. Ikki hovlili bu madrasa masjid va ko'plab hujralardan iborat. Peshtoq va dandanalariga koshindan bezaklar ishlangan.

Ahmadbek hoji mehmonxonasi (1905-1907). Andijonlik paxta zavodi egasi Ahmadbek hoji qurdirgan. Asosan bezakli oldi ayvonli xonalardan iborat. Idora vazifasini o'taydigan qismi yevropacha uslubda pardoqlangan.

Dishan qal'a (tashqari qal'a) - Xivaning rabod qismi. 1842 yilda Xiva xoni Olloqulixon Xivani tashqi hujumdan saqlash maqsadida devor bilan o'ragan. Uning uzunligi 6250 metr, balandligi esa 7-8 metr, devor qalinligi 5-6 metr bo'lgan Dishan qal'a 10 ta darvozali bo'lgan. O'tmishda Dishan qal'ada shaharning Tim va rastalari joylashgan. Hozirda esa ma'muriy-maishiy binolar va hiyobonlar barpo etilgan.

Bekmir madrasasi (1903). Qarshida. Ikki qavatli qurilgan, darsxona, masjid, yuqorisida hujralar joylashgan.

Bog'bonli masjid (1809). Xivada. Darvozaxonasi gumbazli, ikki yonida hujralar joylashgan. Oldi ayvonli gumbazli masjid yuqorida joylashgan. O'yma naqshlar eshik, ayvon shipi va ustunlarga ishlangan.

Jahonobod masjidi (1912). Andijonda. Mahalliy Madaliboy buyurtmasi bilan Isaboy hoji boshchiligida qurilgan. Masjid xonaqoh va ayvondan iborat. Manzarali naqsh gullar bilan bezatilgan. Bugungi kunda ta'mirlangan.

Islomxo'ja madrasasi (1908-1910). Xivada. Isfandiyorxonning vaziri va qaynotasi Islomxo'ja qurdirgan. Tor hovli atrofiga bir qavatli 42 ta hujra qurilgan.

Isfandiyor qabulxonasi (1912) Xivada. Oldi bog', chortoq tarxli bino. Ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan. Devorlariga ko'zgular ishlatilgan. Yevropa me'morchiligining ta'siri bor.

Ishoq Shayx masjidi (1912-1914). Namanganda. Ishoq Shayx rahbarligida qurilgan. 5 ustunli, 19 ustunli ayvon hamda biri gumbaz tomli, ikkinchisi tekis tomli kichik xonalardan iborat. Turli naqshlar bilan bezatilgan.

Muin xalfa bobo maqbarasi (XIX asr). Toshkentda. Muin xalfa o'zi uchun qurdirgan deb taxmin qilinadi. Maqbara gumbazli, bir xonali, pishiq g'ishtdan qurilgan. Xonadagi ikki sag'anaga Muin xalfa bobo va uning o'g'li dafn etilgan.

Do'sti xudo masjidi (XX asr boshlari). Farg'onada. Eshon Alixon buyurtmasi bilan usta Yoqub rahbarligida qurilgan. Xonaqoh va ikki yoni ayvondan iborat. Naqshlar bilan bezatilgan.

Usta Omonilla (XIX asr o'rtalari - 1900). Samarqandlik g'ishtkor, ganchkor, quruvchi. Registondagi barcha me'moriy obidalarni ta'mirlashda qatnashgan. Kalantarov uyi ro'parasidagi daha masjidini qurgan.

Usta Hudoybergan hoji (XIX asr oxiri - XX asr boshi). Xivalik g'ishtkor, toshtarosh. Madrasalar qurilishi ustasi. Islomxo'ja madrasa va minorasi uning sayi-harakatlari bilan qurilgan.

Usta Shirin Murodov (1879-1957). Buxorolik me'mor, ganch o'ymakori. Buxoro amirining Karmanadagi saroyini bezashda qatnashgan. Sitorai Mohi xosadagi Oq zal bezaklari uning san'ati namunasidir.

Olimjon Qosimjonov (1878-1952). Toshkentlik naqqosh. Toshkentdagi Amaliy san'at muzeyi binosini bezashda qatnashgan. Ko'pgina jamoat binolari bezaklari ham uning san'ati namunasidir.

O'zbek xalq teatri o'tgan asrda, asosan, ikki xilda namoyon bo'lgan: **masharaboz-qiziqchilar hamda ko'g'irchoq teatri**. Birinchi xili asli bir necha janrlardan: kichik satirik mazmundagi sahnalarni bajaruvchi masharaboz - qiziqchilardan, saxnalashtirilgan chiqishlar bajaruvchi yirik vakillardan, ya'ni askiyaboz, dorboz, muallaqchi, nayrangboz (fokuschi), yog'ochoyoq va musiqachilar qurilmasidan iborat bo'lgan. Ikkinchi hili qo'g'irchoq teatri yoki qo'g'irchoq o'yin xamda qo'l qo'g'irchog'i, ya'ni qo'l bilan boshqariladigan chiqishlar xamda ip bilan boshqariladigan ko'g'irchoq o'yin (chodir xayol)dan tashkil tongan.

Barcha xalq teatri san'atkorlari bir uyushmaga birikkanlar.

Masharaboz va qiziqchilar san'ati hazil va hajv yo'llariga ega bo'lib, hayotiy voqelikni aks ettirganligidan tomoshabinlarni mamnun qilgan. Bular orasida ajoyib ko'mik va hikoyachi, ko'pdan-ko'p xajviy asarlar muallifi **Yusufjon qiziq Shakarjonov** (1868—1959) mashhur edi. Yangi ko'rinishdagi milliy teatni yaratish ishiga jadidlar bosh-qosh bo'ldilar.

1911 yili Mahmudho'ja Bexbudiy dastlabki yozma milliy sahna asari «**Padarkush**» dramasini yaratdi.

1914 yilning 27 fevralida Toshkentda **Abdulla Avloniy** tuzgan teatr truppasi-O'zbek milliy teatrining birinchi mavsumi «Padarkush» bilan ochildi va muvaffaqiyat qozonib, el og'ziga tushdi. 1917 yilgacha o'zbek dramalarining soni 40 ga yetgan.

Muxokama qilinayotgan davrda kino, qiziqchilik-masharabozlik, askiya, sirk-dorbozlik san'ati ijodi namunalarini jiddiy rivojlandi deb aytishimiz mumkin. Ayniqsa ayollar qiziqchiligi yaxshi rivojlandi.

Ayollar qiziqchiligi (teatr) - XVIII-XIX asrlarda o'zbek xotin-qizlari orasida keng tarqalgan xalq og'zaki san'atining bir turi. XIX asrda Qo'qonda Iqlim dodho degan san'atkor rahbarligida ayol qiziqchilar guruhi tashkil etilgan. Guruh repertuari

qiziqchilik, kulgili hikoyalar, hajviy qo'shiqlar, raqs va yallalardan iborat bo'lgan. XIX asr va XX asr boshlarida Samarqand viloyati, G'us qishlog'idan Qursiya Rustamova, Ro'zixon Shoimova, Qashqadaryo viloyatidan Xongul Olimova, Basgul Qudratova, Toshkent viloyatidan Salomat Mutalova, Adolat Tursunova, Andijon viloyatidan Sojida Niyozmatova, Sottixon Ashurova kabi ayollardan ko'plab tanikli masxaraboz va qiziqchilar chiqqan. Bosh mavzu - xotin-qizlarning kundalik hayoti, o'y-fikrlari, dardlari, orzu-istaklari, taqdirleri bo'lgan.

Bidiyorshum (XVIII asr II yarmi - XIX asr I yarmi). Qo'qonlik. Asl ismi Muhammad Solih. O'zbek xalq an'anaviy teatrining aktyori va og'zaki pyesalar ijodkori. XVIII asrda Qo'qonda tashkil qilingan professional aktyorlar uyushmasining («Kasbi sozanda») yetakchisi. Hajviy she'rlar ham yozgan. Qo'shiqlarga kuylar bastalagan, raqslarni sahnalashtirgan. Aktyorlar uyushmasida Xudoyberdi ustoz, Rustam hofiz, Boymat hofiz, Abdurahmon pari, A'zamxon qiziq, Zokir eshon singari o'z davrining mashhur, el e'zozlagan qiziqchi aktyorlari, sozandalari, hofizlari va raqqoslari xalqqa astoydil xizmat qilganlar.

Xudoybergan Devonov (1878-1940). Xivalik. Ijodi Toshkentda davom etgan birinchi o'zbek kinooperatori. 1907-1908 yillarda Moskva va Peterburgdan teleskop, foto va kino asboblari olib kelib, ilk fotolaboratoriya tashkil qilgan. Bu laboratoriya Xorazmda kinostudiya vazifasini bajargan.

U «O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari», «Turkiston ko'rinishlari», «Xiva va xivaliklar» kabi qisqa metrajli filmlar yaratgan. Xorazm xalqi urf-odatleri tasvirlangan mingga yaqin suratlar ishlagan. Keyingi yillarda esa maktab, internatlar ochib, unda foto-kino ishlarini olib borgan.

1. Rossiya imperiyasining ma'murlari Turkiston o'lkasi xalqlarining milliy madaniyatiga kanda munosabatda bo'ldilar?
2. Mustamlakachilarning ta'lim sohasidagi siyosatining asosiy yunalishlarini ochib bering.
3. Kurilayotgan davrda me'morchilik, ko'shiqchilik va musiqa sanatida kanda o'zgarishlar yuz berdi?
4. Bu davrda o'zbek teatr san'ati kanda rivojlandi?
5. O'lkada ilmiy jamiyat va muassasalarning tashkil tonishi ilmfan rivojida kanda o'rin tutdi?

Mavzuni o'qitishda « **Musbat, manfiy, qiziqarli** » strategiyasidan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

“Musbat, manfiy, qiziqarli” texnologiyasi o'tkazish tartibi

“Musbat, manfiy, qiziqarli” strategiyasi- o'quvchilarning mavjud vaziyatning barcha detallarini puxta o'rganish asosida xulosa chiqarishga odatlantirish orqali ongini boyitish, tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida “Musbat, manfiy, qiziqarli” strategiyasini qo'llash o'quvchilarning ma'lum voqelik, hojisa yoki jarayonning barcha jihatlariga e'tiborni qaratish, ularning salbiy jihatlarini baholash, qiziqarli tomonlarini aniqlash va kengaytirishga doir

ko'nikma, malakalarini rivojlantirishda samarali sanaladi. Bunda asosiy e'tibor mavjud vaziyatning barcha ijobiy jihatlarini inobatga olishga qaratiladi. O'rganilayotgan vaziyat yuzasidan hulosa chiqarish, qaror qabul qilish, faqat u batafsil o'rganib chiqilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

O'quv fanlaridan bilimlarni o'zlashtirishda "Musbat, manfiy, qiziqarli" strategiyasini qo'llanilsa, u holda o'quvchilarning fikrlash samaradorligi bir necha marta oshadi. Ko'p hollarda bir qarorga kelishni talab qiladigan vaziyatlarda ushbu strategiyani qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bir vaqtning o'zida o'quvchilar faoliyatini o'rganish va baholash, tashhislash metodi ham hisoblanadi. Qo'llash qoidasi quyidagicha:

1-bosqich: Mavjud vaziyatning faqatgina ijobiy jihatlarini aniqlanadi.

2-bosqich: Mavjud vaziyatning faqatgina salbiy jihatlarini aniqlanadi.

3-bosqich: Mavjud vaziyatning faqatgina qiziqarli jihatlarini aniqlanadi.

Ta'lim jarayonida strategiyadan foydalanish muammoni oson, to'liq va batafsil o'rganishga yordam beradi.

12-Mavzu: Turkistondagi uchinchi madaniy uyg'onish - jadidlar renesansi davrida milliy madaniyatning yangilanishi (XIX asr oxiri - XX asrning boshlari)

Reja:

- 1.O'zbek madaniyat va ma'rifatchiligining rivojida jadidlar muxim o'rni.
- 2.Turkistonda jadid maktablarining tashkil etilishi.
- 4.Kitobat, xattotlik, musavvirlik va tasviriy san'at.
- 5.Maqomlar va shashmaqom ijodi.
- 6.Dostonchilik - baxshichilik ijodi.
- 7.Teatr, kino, qo'g'irchoqbozlik, qiziqchilik-masxarabozlik, askiya, sirk-dorbozlik san'ati ijodi.
- 8.Amaliy san'at, hunarmandchilik madaniyati.

Adabiyotlar:

- 1.Usmonov Q va boshqalar. O'zbekiston qaramlik va Mustaqqillik yillarida. T., O'qituvchi, 1996.
- 2.Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. Milliy istiqlol davri. T., O'qituvchi, 2003.
- 3.O'zbekiston Respublikasi. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1997.
- 4.O'zbekiston tarixi (qisqacha ma'lumotnoma). T., Sharq, 2000 y.

Shuni alohida qayd qilish zarurki, o'zbek ma'rifatchiligining rivojida jadidlar muhim o'rinni egallaydi.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida keng quloch yoyib rivojlandi. Ammo jadidchi (arabcha «yangi»)lar harakati faqat madaniy-ma'rifiy harakat, ya'ni eski maktablarning qiyin o'qitish tizimiga nisbatan yangi usuliga asoslangan o'kitishga o'tishdangina iborat emasdi. U ayni chog'da keng, chuqur mazmundagi ma'naviy-ma'rifiy, milliy taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o'z ichiga olgan edi.

Bu harakatning vujudga kelishida O'rta Osiyodagi demokratik harakatdan tashqari Usmonli turk saltanatidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy g'oya va harakatlarning ta'siri sezilarli bo'lgan. Ma'rifatchilikdan boshlangan jadidchilik keyinchalik kuchli siyosiy harakatga aylangan.

Jadidchilik harakatining ilxomchisi va tashkilotchisi qrim-tatar ziyolilarining ilg'or vakili **Ismoil G'aspirali** edi.

O'qituvchi Turkistondagi jadidchilik harakatining atoqli namoyandalari: **Mahmudho'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat** va boshqalarning faoliyati bilan tanishtirishda qo'shimcha manbalar, hususan, «**Unutilmas siymolar**» qo'llanmasidagi (T.«Akademiya», 1999) rasmlar va materiallardan unumli foydalanishi mumkin.

Bunda jadidlar maorifi, matbuoti, san'ati xamda xayriya jamiyatlari haqida ma'lumot berib o'tish zarur.

Jadidlar maorifning diniy tizimini ham zamonaviylashtirishga urinib ko'rishdi. XX asr oxirida Turkistonda ularning yangi usuldagi dastlabki maktablari paydo bo'ldi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'lkada yuzga yaqin shu xil maktab bo'lib, ularda 8-10 ming bola tahsil olgan. **Hamza, Uyg'un, Oybek** kabi buyuk yozuvchi-shoirlar ham ma'lumot olishni shu maktabdan boshlashgan. XX asr boshlarida bu maktablarda **tatar, turk, fors va ozarbayjonlar** yozgan darsliklar bilan bir qatorda **turkistonlik** mualliflarning darsliklaridan ham foydalanila boshlandi. Qat'iy tizim, darsliklar yo'qligiga qaramay jadidlar talabalar amaliy bilim olishlari uchun urinishardi.

Yangi usul maktabidagi o'quv dasturi **turkiy yoki forsiy tilda o'qish, yozishni, arifmetika, tibbiyot, tarix jug'rofiyani** o'z ichiga olardi. Unda shuningdek **din asoslarini** o'rgatishga katta e'tibor qilinardi, ya'ni bu dastur shu paytgacha qo'llanilgan dasturga nisbatan ancha keng bilim berardi. Bu xil maktabdagi ta'lim talabalarni nafaqat jamiyatda biron o'rin egallash, balki uni o'zgartirish uchun tayyorlardi edi. Bu tariqa o'zgartirish dastlab madaniyatda sezildi. Toshkentdagi madrasalarning birida dars beruvchi **Munavvar Qori** yangi dasturlardan birini yaratgan, qator buyuk yozuvchilar dastlab shu yerda o'qishgan. Shu madrasada bo'lajak shoir va romanchi **Oybek** tahsil olayotgan paytda dastur quyidagi fanlardan iborat edi: **diniy ta'limot, muqaddas an'analar, islom ta'limoti tarixi, arab gramatikasi, meros huquqi, arifmetika, butunjahon jug'rofiyasi, islom tarixi, muqaddas tarix, arabiy va turkiy imlo.**

Rossiya imperiyasidagi turli-tuman musulmon islohatchi guruhlarining vakillari **Munavvar qori** va uning izdoshlari tajribasini o'rganib, yangi usul maktablarining o'quv dasturini muayyan mezonga solishga urinishdi.

Diniy muttasiblikka qarshi jadidlik harakatining taniqli mafkurachisi **Abdurauf Rashid o'g'li Fitrat** (1886-1938) katta hissa qo'shdi. Jumladan, u o'zining "**Munozara**" nomli mashhur asarida Buxoro ulamolarining nodonligi va poraxo'riligini ayyovsiz ochib tashladi. "**Hind sayyohining sarguzashtlari**" nomli boshqa asarida esa Fitrat ruhoniylar o'z mavqeini suiste'mol qilgani amirlikning **Buxoro, Qarshi va boshqa shaharlari** iqtisodiy tanazzulga yuz tutganligining asosiy sababi qilib ko'rsatdi.

Bu davrda **kitobat, xattotlik, musavvirlik va tasviriy san'at** yaxshi rivojlandi deyishimiz mumkin. Ulardan misollar keltiramiz:

Nodir (XVIII - XIX asr). Qo'qon shahrida tug'ilib, ijod qilgan. Norbo'tabiydan Muhammad Ali davrigacha saroyda kitobat sohasida xizmat qilib kelgan. Umarxonga atab ham kitob yozgan va she'riyatda ham ijobiy natijalarga erishib, umrining oxirigacha (90 yoshlarigacha) ijod qilgan. Nodir she'ridan 4 misra:

«Sahar vaqtda ko'ngil qushlarig'a yor kelg'aymu,
Yuzidin boda rang olgan o'shal dildor kelgaymu,
So'zing boshdin oyoq rayhon isidek bo'ldi to afzo
Jahon imulkida Nodir nazmidek guftor kelgaymu».

Sharifiy - XIX asr boshlarida Farg'ona vodiysining Koson hududida yashab, ijod qilgan. Asl ismi Muhammad Amin bo'lib, xusnixatda, xattotlikda davrining yetugi bo'lgan. Saroyda devon kotibiyatida xizmat qilgan va she'riyatga ham ixlosi baland bo'lgan. Sharifiy she'ridan ikki misra:

«Ey, Eram parizodi, kir bu dam xayol ichra
Jon qushi navo cheksun gulshani visol ichra».

Komil Xorazmiy (XIX asr). Asl ismi Pahlavon Niyoz. Yetuk shoir va musiqashunos. Xiva xoni Muhammad Raximxon II Feruz saroyida devonbegi (bosh kotib) lavozimida ishlagan. Shuningdek, naqqoshlik va xusnixatda ham yetuk bo'lib, bu ishlar rivojiga ham salmoqli hissa qo'shgan.

Komil Xorazmiy tarjimonlikda ham mohir bo'lib, 1865 yilda Barxurdor bin Mahmud Turkman Farohiyning (tahallusi Mumtoz) «Mahbub ul-qulub» yoki «Mahfiloro» (majlisga ziynat beruvchi) asarini, 1869-70 yillarda Faxriddin Ali Sayfiyning «Latoyif ul-tavoyif» (turli toifalarning latifalari) asarini forschadan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Alisher Navoiy «Xamsa»sining birinchi Xorazm toshbosma nashriga so'zboshi yozgan. Komil Xorazmiyning devoni qo'lyozmasi O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Iso Mahdum Buxoriy - XIX asrda yashab ijod etgan ilmiy, serqirra madaniyat namoyandasi. Madrasada dars bergan, ilm, she'riyat va musiqashunoslik bilan shug'ullangan. Ayni vaqtda kitobat hunarida ham muntazam shug'ullanib, ko'plab kitoblarni naqsh bilan bezashda hamda nashr ishlarida ham katta iz qoldirgan.

VozeH - asl ismi Qori Rahmatillo VozeH. XIX asrda Buxoroda yashab o'tgan. 27 yoshida madrasani tugatgach, she'riyatda samarali ijod qilib, boy meros qoldirgan. Ayni vaqtda asosiy shug'ullanadigan kasbi kitobat hunari bo'lgan. Butun umri qo'lyozma asarlarni kitob holiga keltirib, nashr qilish ishi bilan o'tgan. Naqsh san'atidan ham yetarlicha xabardor bo'lgan.

Abdolvahob Mirzo - XIX asrda yashab ijod qilgan buxorolik mashhur xattot. Arab va fors tillaridagi 100 ga yaqin qo'lyozmalarni **shikasta** va **nasta'liq** xatida ko'chirgan. U ko'chirgan asarlaridan Jaloliddin Rumiy masnaviylari, Nozim Xiraviyning «Yusuf va Zulayxo»si O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Abdukarim xattot. XIX asrda yashab, ijod etgan samarqandlik yetuk kotib. Alisher Navoiyning «Xamsa» asari nusxalaridan birini, xirotlik shoir Nozim Xiraviyning «Yusuf va Zulayxo» dostonini ko'chirgan. Bu qo'lyozmalar O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Abdullo kotib (XIX asr). Buxorolik yetuk xattot. Uning ko'chirgan qo'lyozmalaridan Xisomiddin Buxoriyning «Voqeoti Xisomiy», Rukniddin Sheroziyning «Sharx ul-fusus», Abdulqodir Bedilning «Chahor unsur», Husayn Koshifiyning «Anvori Suhayliy» («Kalila va Dimna») kabi asarlar O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Abdulhaq kotib. XIX asrda Toshkentda yashab, ijod qilgan xattot. Buxoroda ilm o'rganib, Toshkentdagi madrasalarning birida mudarrislik qilgan. Ta'liq, riqo', suls, nasta'liq xatlarini yaxshi bilgan. Uning ko'chirgan 10 dan ortiq qo'lyozmasi O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Qoriy Xo'qandiy. 1828-1906 yillarda yashab, ijod qilgan shoir va xattot. XIX asr o'zbek adabiyotining iste'dodli vakillaridan biri. Arab va fors tillarini, sarf, nahv va lug'at ilmini chuqur o'zlashtirgan. Hasan qori domladan qiroat ilmini o'rgangan. «Hofizi Qur'on» unvoniga sazovor bo'lgan. G'oziyog'liq mahallasidagi katta masjidda uzoq yillar imomlik ham qilgan.

Qoriy xusnixat va xattotlikda ham yetuk bo'lganligi sababli, u ko'chirgan «Devon»i, Mazjub Namangoniyning «Devon»i, Bahoviddin Naqshbandiyning risolasi, Muqimiy bilan hamkorlikda ko'chirgan katta bayozi va yana bir qancha asarlar bizgacha yetib kelgan.

Otajon Abdalov - XIX asr II yarmi - XX asr boshlarida yashab ijod qilgan ilk o'zbek matbaachisi, noshiri, kitobat ishlarining mohir ustasi. 1874 yildan Xiva shahrida Muhammad Raximxon II saroyida tashkil etilgan toshbosmada ish faoliyatini boshlagan. Abdunosir Farohiyning tarixiy «Nisab us-Sibyon» asarini toshbosmadan chiqarib, xonga taqdim etgan. 1876-1910 yillar davomida Abdalov Xiva matbaasida o'ndan ortiq yirik hajmdagi kitoblarni bosmadan chiqargan. Alisher Navoiy «Xamsa»sining «Hayrat ul-Abror» qismi, «Xazoyin ul-maoniy», «Chor darvesh», Ogahiyning «Tavizul oshiqin» asari, Feruzning g'azallari hamda «Majmuat ush-shuaro» to'plamlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Abdulmannon Kotib (XIX asr oxiri-XX asr I yarmi). Toshkentlik xattot. U tomonidan nasta'liq xatida ko'chirilgan 20 dan ortiq qo'lyozma O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Dabiriy Kattaqo'rg'oniy (XIX asr II yarmi-XX asr boshlari). Asl ismi Ostonaqul Abdushukur o'g'li. Payshanba qishlog'idan, shoir va xattot. O'zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Xiromiyning «Chor darvesh» dostonini o'z qo'li bilan ko'chirib, muqaddima va so'nggi so'z bilan Kogonda nashr ettirgan.

Devoniy (XIX asr II yarmi - XX asr I yarmi). Xivalik shoir, san'atshunos va xattot. Fors tilini yaxshi bilgan va Feruz saroyida bir qancha muddat kotiblik ham qilgan. U o'zidan avval o'tgan ijodkorlar qo'l-yozmalarini mahorat bilan ko'chirgan. Devonlari O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Muhammad Yunus Toib (XIX asr - vafoti 1907 y.). Toshkentlik shoir va xattot. Yorkent va Qo'qonda ham yashagan. Sharq klassiklari asarlariga naziralar bog'lagan, qasidalariga javob yozgan, tarix va marsiyalar yaratgan. Farg'ona tarixi haqidagi «Hadoiq ul-anvor» asarida Qo'qon xoni Muhammadalixonning davri to'liq bayon etilgan. 1905 yilda «Tuhfai Toib» asarini yozgan. Muhammad Yunus Toib qo'lyozmalari O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Nadimiy (XIX asr II yarmi-XX asr boshlari). Xivalik xattot va shoir. Akasi Matyoqub Xarrotidan xusnixat qoidalarini o'rgangan. Nadimiy kitobat qilgan Abudlvohit al Muftiyning «Ajoyib ul-qisas» asari tarjimasini, zamondosh shoirlardan Shinosiy devoni, Tabibiyning 2 ta devoni va o'zi tarjima qilgan «Vomiy va Uzro» dostoni hamda o'zining 3 ta devoni O'z FA SHI fondida saqlanmoqda.

Xudoybergan Muhrkan (1822-1920). Xivalik xattot, naqqosh va bastakor. To'p quyuvchi usta Muhammad Panohning o'g'li. Otasidan to'p quyishni, xattot usta Ermon xalfadan xattotlikni, muhrchi usta Islom xo'jadan muhrkanlikni o'rgangan. Xudoybergan Muhammad Raximxon II saroyi kutubxonasidagi kitoblarning asosiy qismini chiroyli, nafis yozuvlarda ko'chirgan. Marmar taxtalar, o'ratosh (poyustun)larni chiroyli yozuv va nafis naqshlar bilan, she'riy tarixlarni marmar toshga o'yib yozgan va gullar bilan bezagan. Xivadagi Said Mohro'yjon maqbarasi, Asfandiyorxon xarami va qabulxonasi, Yusuf yasovulboshi va Polvon qori madrasalari, Islomxo'ja minorasi va maqbarasida Xudoybergan ishlarining namunalari saqlangan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan ijodkorlar qatorida XVII asr miniatyurasidagi portret san'atining mahoratli ustalaridan Xoja Muhammad Musavvir, Davlat Muhammad kabi rassomlar va ularning ijodlari haqidagi ma'lumotlar ham ayrim manbalarda uchraydi. Ularda, ayniqsa, Xoja Muhammad Musavvir Xirot, Samarqand, Buxorodagi sobiq maktablar an'analarining yirik davomchisi ekanligi ta'kidlanadi.

XVIII-XIX asrlarda yurtimizda ijod qilgan tasviriy san'at ustalaridan Ahmad Donish, Mulla Husniddin, Mulla Ortiq, Rahmatiy, Ahmad Kalla, Ibrohim Davron kabi rassomlarning ijodiy faoliyatlari ham muhim ahamiyatga molikligini ta'kidlash joiz.

Bu davrda maqomlar va shashmaqom san'ati rivoj topdi. Juda ko'p taniqli san'at arboblari anashu davrda yetishib chiqdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

MAQOMLAR VA SHASHMAQOM IJODI

O'tgan ajdodlarimiz ijodiga mansub, bir necha yuz yillik tarixga ega bo'lgan Maqom va Shashmaqom san'ati musiqa-qo'shiqchiligimizning bebaho va betakror gultojisi hisoblanadi. Ular keyingi asrlar hamda hozirgi zamon milliy san'atimizning mustahkam poydevori va asosi, bitmas-tuganmas sarchashmasi bo'lib kelmoqda. Ko'rilayotgan davrlarda yurtimizning barcha hududlari xalqlari madaniy hayotiga, xususan, musiqa-qo'shiqchilik yo'nalishiga sinchiklab nazar solinsa, bu davrlarda hamma o'tgan davrlardagidek, san'at o'sha davr ajdodlarimiz hayotining ham doimiy ajralmas qismi bo'lib qolaverganini kuzatish mumkin. O'rta Osiyo mintaqasida tarixan shakllangan Maqomot deyilganda – Buxoro Shashmaqomi, Xorazm Maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari hamda ular zaminida yuzaga kelgan va kelayotgan zamonaviy navlar nazarda tutiladi.

Buxoro Shashmaqomi

Yurtimizda XVI-XX asr boshlari davrining dastlabki o'n yilliklaridayoq xalq madaniy hayotida, xususan, ijod sohasida, temuriylar davridagi Samarqand, Hirotida

rivojlangan boy madaniy an'analarining navbatdagi vorisi sifatida Buxoro maydonga chiqdi. O'sha davr hukmdorlari shaharga ko'zga ko'ringan ilmu ma'rifat, adabiyot va san'at ahllarini intilishiga sabab bo'lgan sharoitni vujudga keltirdiki, natijada she'riyat, musiqa va tasviriy san'atning «Buxoro maktabi» deb nom olgan uslubi taraqqiy etdi. Bu davrlarda hukmdorlar xonlar saroylarida xizmatda bo'lgan yirik san'atshunoslar, olimlar, bastakorlar bo'lmish Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa musiqa nazariyotchilari o'zlarining maqomlar tarixi va tavsifi nazariyasiga bag'ishlangan yirik musiqiy risolalarini yaratdilar, bu asarlar hozirgi kungacha o'zining ahamiyati va salohiyatini yo'qotmay, ayniqsa san'atning maqom yo'nalishi mutaxassisleri va muxlislari uchun muhim qo'llanma bo'lib kelmoqda. XVIII asr II yarmidan esa Buxoroda vujudga kelgan xalq san'atidagi mahalliy, o'ziga xos uslublar asosida Buxoro Shashmaqomi paydo bo'la boshladi.

Bu, avvalgi maqom yo'llarining Shashmaqom tizimiga aylanishi shunchaki yuzaki holat bo'lmay, balki - qadimiy maqom an'analarini yangi ijtimoiy-madaniy muhitda ijodiy o'zlashtirish, ularni mahalliy kuy va qo'shiqlarning o'ziga xosligi bilan to'ldirilishi jarayoni edi. O'sha davrlardan hozirgi kungacha «Shashmaqom» ham «Maqom»lar qatorida o'zbek va tojik xalqlari san'atining bebaho, o'lmas madaniy boyligiga aylanib qoldi.

Xorazm maqomlari va Xorazm nota chizig'i

XVI asr boshlarida vujudga kelgan Xiva xonligida to'xtab yakun topgunga qadar 40 ga yaqin hukmdorlar rahbarlik qilgan bo'lsa, ular orasida davlatchilik, iqtisod va madaniyat taraqqiyotiga katta xissa qo'shib nom qoldirganlari ham ko'pchilikni tashkil etadi. Abulg'oziy Bahodirxon, Sherg'ozixon, Muhammad Rahimxon I, Olloqulixon, Muhammad Aminxon, Said Muhammadxon, Muhammad Raximxon II Feruzlar shular jumlasidandir.

Xorazmda xalq orasidan yetishib chiqqan yetuk san'atkor Niyozjon Xo'ja Buxoroga borib, Shashmaqom yo'llarini, uni tanburda ijro etishni ustozidan o'rganib, Xivaga qaytib uni targ'ib etishda katta xizmat qiladi. Avvallari Xorazmda mumtoz musiqalar asosan dutorda ijro etilib kelingan bo'lsa, endi tanbur ham o'ziga xos o'ringa ega bo'la boshlandi va shu davrdan e'tiboran tanbur va dutor maqomlariga ajratish tushunchalari ham vujudga keladi. Yangi tanbur maqomlarini aniqlashtirish va muntazamlashtirish asosida yangi turkumlar vujudga kela boshlaydi. Natijada Maqomotda yangi, mustaqil oqim - Xorazm «6 yarim maqomi» ko'rinishidagi yo'nalishga asos solindi.

Bu esa yurtimizning Xiva xonligi hududi xalqi musiqa-qo'shiqchilik san'atida ham yangi yo'nalishning paydo bo'lishi edi.

Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzoda tomonidan XX asr boshlarida yaratilgan va 1925 yilda Moskvada nashr etilgan «Xorazm musiqiy tarixchasi»da Xorazm 6 yarim maqomi haqida ham zarur ma'lumotlar bayoni berilgan.

Xiva xonligida 47 yil hukmronlik qilgan Muhammad Rahimxon II (Feruz) davrning o'ziga xos tomoni shundaki, bu davr o'tgan davrlardan o'zining madaniy hayotdagi yuksak ravnaqi bilan ancha ajralib turadi. Xon saroyida Feruzning

tashabbusi va homiyligida yaratilgan madaniy muhit, ya'ni tashkil etilgan o'ziga xos «madaniy markaz», uning a'zolarining ijodi Xorazm san'atini yanada yuksaklarga ko'tardi. Feruz tashabbusi bilan Xorazm maqomlarini notalashtirish ishiga qo'l urildi va bu vazifa eng yetuk olim, shoir, musiqashunoslardan biri Komil Xorazmiyga topshirildi. Bu ish muvaffaqiyatli amalga oshirilgach, uni sozandalar orasida «Tanbur chizig'i», ilmiy manbalarda esa «Xorazm tanbur notasi» va «Xorazm tabulaturasi» deb nomlandi (tabulatura - maxsus nota yozuvi demakdir).

Komil Xorazmiy nota yozuvining tanburga moslangan maxsus yangi uslubini yaratdi. Bu, albatta, o'sha davrda Xorazm madaniy hayotidagi, xususan san'atidagi muhim, o'ziga xos kashfiyotlardan edi.

Farg'ona - Toshkent maqomlari

Maqomotning uchinchi yirik yo'nalishi Farg'ona va Toshkent vohalari bilan bog'liq bo'lib, bu hududlarda vujudga kelgan mumtoz musiqa tizimi umumlashtirilib «Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari» deb ataladi. XVIII asrda shakllana boshlagan ushbu yo'nalish XIX asr oxirlari-XX asr boshlarida Toshkent va Farg'onada har biri alohida maktab sifatida ko'rilib, mustaqil nomlar bilan yuritilgan. Jumladan, «Toshkent maqomlari», «Turkiston maqomlari» va «Farg'ona maqomlari».

O'zining mohiyati va mazmuniga ko'ra Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari Shashmaqom, Xorazm maqomlari yoki boshqa bir tizimning ko'chirmasi emas, balki mahalliy sozandalar tomonidan ishlangan shakldir. Tarixiy asarlar, musiqiy risolalar va adabiy tazkiralarda Farg'ona vodiysi hamda Toshkentdan chiqqan yetuk sozandalarning nomlari ko'plab tilga olinadi. Ularning XIX asrdagi eng yirik ustozlari Xudoyberdi ustoz bo'lib, uning ijodi yo'nalishida Farg'ona va Toshkent vohalarida bir necha o'nlab shogirdlar ijod qilganlar. O'z navbatida ular ham bu an'anani davom ettirib, bu ijodni o'z shogirdlari orqali keyingi avlodga yetkazganlar. XX asr boshlarida esa ushbu yo'nalishda mashhur Ashurali Mahramning yirik maktabi vujudga keldi va uning ham bir necha o'nlab shogirdlari Farg'ona, Toshkent, Qo'qon, Isfara, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Chimkent, Qashqar, Samarqand, Urganch kabi qator shahar-viloyatlarda, qishloqlarda samarali ijod qildilar.

Qo'qondagi saroy san'atkorlariga Xudoyberdi ustoz rahbarlik qilgan bo'lsa, uning shogirdi Ashurali Mahram esa saroydan tashqarida erkin ijod qildi. Shuni ham ta'kidlash joizki, Xudoyorxon hukmronligi davrida ma'lum bir muddat san'atni va san'atkorlarni ta'qib etish, tazyiq o'tkazish kabi juda noxush munosabatlar vujudga kelib, bir qator mashhur san'atkorlarning markaz (Qo'qon) dan uzoqroq joylarga borib yashashlariga to'g'ri keldi. Bu davr san'atining yirik vakili Mulla To'ychi hofiz Toshmuhamedovning ijodi ham juda diqqatga sazovor bo'lib, uning ustoz-shogird munosabatlari rivojiga qo'shgan hissasi Farg'ona-Toshkent maqomlari avloddan-avlodga o'tkazish an'alarini davom etishida muhim o'rin tutdi.

Shu tariqa, XVI-XX asr boshlari xonliklar davri madaniyati tarixida, jumladan maqomlar san'ati tarixida ushbu davr ijodkorlari, xususan shu yo'nalish namoyandalari bu san'atni kelajak avlodga, yetkazish yo'lida o'z ijodlari bilan salmoqli hissa qo'shdilar.

Sherna baxshi (Shernazar Beknazar o'g'li) (1855 y. - XX asr I yarmi). Surxondaryo viloyatidan. Baxshi, dostonchi. Sherobod dostonchilik maktabi vakili. Baxshilar oilasida tug'ilgan. 9-10 yoshlaridayoq do'mbira chalib, kuylay boshlagan. Sherobodlik Qosim baxshiga shogird tushgan. Sheroboddagina emas, Surxondaryo, Qashqadaryo, hatto Turkmaniston va Tojikistonda ham mashhur bo'lgan. Uning repertuarida 50 dan ortiq doston, termalar va do'mbira kuylari bo'lgan. Rajab baxshi, Yusuf baxshi, Mardonqul baxshi kabi 20 dan ortiq shogirdlar yetishtirgan.

Hurlimon (1861-1906). Mo'ynoq tumani. Qoraqalpoq shoira-baxshisi. Xalq orasida «Baxshi qiz» laqabi bilan mashhur bo'lgan. Berdaqning qizi. Adabiyot va san'atga yoshligidan qiziqqan. Otasidan ko'plab qo'shiq va dostonlar o'rgangan. «Bozirgon», «Oshiq Nansab», «Davlatyorbek» dostonlarini xalq ichida kuylagan. Turli marosim qo'shiqlarini mahorat bilan ijro etgan. Navoiy, Mahtumquli ijodini mutolaa qilib, ularga ergashib she'rlar ham yozgan. Hurlimonning qo'shiq va dostonlari Qoraqalpoq va Xorazm aholisi o'rtasida mashhur bo'lgan.

«Kelinoy» - XIX asrda yaratilgan xalq dostoni. Surxondaryoda, Qashqadaryoda, shuningdek, Tojikiston va Turkistonning janubiy hududlarida yashovchi o'zbeklar o'rtasida keng tarqalgan. Dastlab naql, rivoyat va termalar sifatida yuzaga kelgan. Keyinchalik esa yaxlit va mustaqil syujetli doston shakliga keltirgan. «Kelinoy»da va shu turkumdagi boshqa dostonlarda xotin-qizlar erki va xalq ozodligi masalalari ilgari surilgan.

Nurmon Abduvoy o'g'li (1862-1940). Samarqand viloyati, Poyariq tumanida tug'ilgan. O'zbek xalq dostonchisi. 40 yoshida Abduxoliq baxshidan fотиha olib, mustaqil dostonchi bo'lib yetishgan. Dastlab an'anaviy doston va termalarni kuylagan. Ayniqsa uning «Namoz» haqida chorizmga qarshi kurashgan Namoz Pirimqul o'g'li haqidagi dostoni o'zbek xalq og'zaki adabiyotida o'chmas iz qoldirgan. Uni Namoz o'lgandan so'ng ham kuylab yurganligi uchun ham ta'qib etilib, 1914 yilda qamoqqa olingan. 1917 yilda ozodlikka chiqarilgan.

Abulla Nurali o'g'li XIX asr II yarmi - XX asr I yarmida yashab ijod etgan kitoblik baxshi-shoir. Yoshligidan cho'ponlardan do'mbira chertishni o'rgangan. Abdulla XIX asr II yarmi va XX asr boshlarida yashagan Shahrisabz dostonchilik maktabining yirik vakili Rajab baxshining shogirdi. Uning dostonchilik yo'llarini to'liq o'rganib, 25 yoshida mustaqil dostonchi bo'lib yetishgan. U, ayniqsa qahramonlik dostonlarini sho'x aytishi, kuylarini yoqimli ijro etishi bilan boshqa dostonchilardan ajralib turgan.

Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937). Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumani, Qo'rg'on qishlog'idan. O'zbek xalq shoiri va dostonchisi. Uning otabobolari, qarindoshlari dostonchi o'tgan (Yodgor, Lafas, Mulla Tosh, Mulla Xolmurod, Tilla Kampir, Sulton Kampir, Jumanbulbul, Jossoq, Yorlaqab kabilar o'z davrining mashhur baxshilari edi). Ergash Jumanbulbul o'g'lining dostonchi va shoir bo'lib yetishuvida oilasi va yashagan qishlog'idagi adabiy muhit muhim o'rin tutgan.

1887-1889 yillarda Ergash Jumanbulbul o'g'li Buxoro amirligining Nurota bekligida Mirza (kotib) bo'lib ishlab, mahalliy amaldorlarni xalqqa qilayotgan zulmining guvohi bo'ldi va tezda bu vazifadan voz kechgan. O'lkada qaxatchilik,

vabo tarqalib ukalari, singillar, farzandlari vafot etgan. 15 yilga yaqin dostonchilik qilmay oddiy, og‘ir mehnat bilan shug‘ullangan. Turkistonda sho‘rolar hukmronligi o‘rnatilgach, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li amirlik hududidan chiqib ketib shahar, qishloqlarda qissaxonlik, she‘rxonlik va dostonchilik qila boshlaydi va dostonchilik san‘ati rivojiga ulkan hissa qo‘shadi. Uning ijodi boy va xilma-xil bo‘lgan. 30 ga yaqin dostonlarni va termalarni yod bilgan.

Islom Shoir Nazar o‘g‘li (1874-1958). Samarqand viloyati, Narpay tumanidan. O‘zbek xalq baxshisi. Bolalikdan do‘mbira soziga mehr qo‘ygan. Katta bobosi Rajab shoir o‘z davrini mohir va mashhur baxshisi bo‘lgan. Islom o‘z bobosidan va ustozi Ernazar shoirdan dostonlar aytishni o‘rgangan. 22 yoshidan dostonlarni do‘mbira sozi bilan kuylab, el orasida tanila boshlagan. Ayniqsa u kuylagan «Alpomish», «Kuntug‘mush», «Orzigul», «Avazxon», «Sohibqiron», «Gulixiromon» kabi dostonlar el orasida keng tarqalgan. Shuningdek, Islom shoir xalq qo‘shiqlari va ertaklarini ham mahorat bilan kuylagan. XX asr boshlaridagi davr voqealarini boshidan kechirgan shoir bu davrning yaxshi-yomon kunlarini o‘z ijodida ko‘rsatishga harakat qilgan.

Qurbonboy Jirov Tojiboy o‘g‘li (1876-1958). To‘rtko‘l tumanidan. Dostonchi. Jiye nmurod Jirovning yaqin shogirdi. Yoshligidan xalq qo‘shiqlari va dostonlaridan parchalar yodlab yurgan. Dostonlarni o‘zbek va qoraqalpoq tillarida kuylagan. Uning repertuarida 20 dan ortiq doston bo‘lgan. Shundan «Alpomish», «Qirq qiz», «Shirin bilan Shakar» 17 ta dostonlari yozib olingan.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li (1872-1955). Jizzax viloyatidan. O‘zbek xalq shoiri, baxshi. Yo‘ldosh Mulla Murod o‘g‘lining shogirdi. Bulung‘ur dostonchilik maktabining eng yirik va so‘nggi vakili. Yetimlikda o‘sib, cho‘ponlik qilgan. Yoshligida do‘mbira chertishni, terma aytishni mashq qilgan. 20 yoshlarida Yo‘ldosh shoirdan dostonchilik sirlarini o‘rgangan. 25-26 yoshlarida yetuk dostonchi sifatida tanilgan.

U «Alpomish», «Yodgor», «Murodxon», «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi», «Zulfizar» kabi 40 dan ortiq xalq dostonlarini yoddan bilgan va yuksak mahorat bilan kuylagan. Fozilning ustozi Yo‘ldosh shoir o‘z davrining mashhur dostonchi-baxshisi Yo‘ldosh bulbulning shogirdi bo‘lgan. Yo‘ldosh bulbulga esa o‘z navbatida XVIII asrning II yarmida yashab ijod etgan Muhammad shoir ustozlik qilgan. Ushbu maktab Chinni baxshi, Tovbuzar shoir, Sultonmurod, Qo‘ldosh, Rahim bulbul, Jo‘ra, Fozil shoir kabi o‘nlab dostonchilarni birlashtirgan. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, bu yirik maktab vakillari Farg‘ona vodiysidagi o‘zbek dostonchilariga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatganlar. Shuning uchun ham vodiydagi mashhur baxshilar, jumladan, Yangiqo‘rg‘on tumanidagi Ko‘lbuqon dostonchilari o‘z ustozlarini Bulung‘ur dostonchilik maktabi bilan bog‘laydilar.

Usmon Mamatqul o‘g‘li (1880-1941). Uchqo‘rg‘on tumanidan chiqqan o‘zbek xalq dostonchisi. Undan «Bo‘tako‘z», «Shohdarxon», «Qunduz bilan Yulduz» dostonlari yozib olingan. «Bo‘tako‘z», «Shohdarxon» dostonlari alohida kitob holida ham nashr etilib, kitobxonlarga taqdim etilgan.

Mardonqul Avliyoqul o'g'li (1886-1966). Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanidan chiqqan o'zbek xalq dostonchisi. Mardonqul brigada boshlig'i, qishloq oqsoqoli bo'lib ishlagan. Otasi mohir do'mbirachi bo'lgan. Ustozi Sherna Beknazar o'g'lidan 20 dan ortiq xalq dostonlarini o'rgangan va kuylab yurgan. Mardonquldan «Alpomish», «Zayidqul», «Ollonazar Olchinbek» kabi qator dostonlar yozib olingan.

1911-1913 yillarda **teatr sanatining** zamonaviylashtirilishi Turkistonning qishloq aholisi dunyoqarashini shakllantirishda katta o'rin tutdi. Bu borada bevosita raqiblarni yo'qligidan jadidlar bu san'atdan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishlari mumkin edi. Jadid teatrining olti yillik faoliyati mobaynida kamida 25 ta pyesa yaratildi.

Jadid dramaturglari bu asarlarida xilma-xil hayotiy muammolarni ko'tarib chiqishdi. 1917 yilga qadar ular insonning kamolotga yetishish qobiliyatiga ishonishardi, bu esa xatto eng tushkun kayfiyatdagi pyesalarga hayotiy ruh bag'ishlard. Haqiqiy mashohada bevosita raqiblarning yo'qligidan jadidlar inqirozga yuz tutishning oldini olishdagi asosiy vosita deb bilishdi. Turkistonning yangi ziyolilari dastlabki **pyesalarida** XX asr qadriyatlarini himoya qilishdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" pyesasida islom dinining Tukistondagi inqirozini ko'rsatadi. Padarkushlikni insonning ma'naviy inqiroziga qiyoslab, najotni maorifdan kutadi, maorifni esa xalqqa "poklangan din" bera oladi, deb hisoblaydi. O'sha kezlari dinga murojaat qilish, jamiyatning ma'naviy hayotida u hal qiluvchi rol o'ynaydi deb bilish tabiiy hol edi albatta.

Boshqa mashhur pyesalar orasida **Nusratullo Qudratulloning "To'y"** asarini ko'rsatib o'tish mumkin. **Abdulla Badriy "Juvonmard"** pyesasida o'zi hoxlamagan insonga majburan turmushga uzatilgan qizning fojeali qismatini ko'rsatish orqali xotin-qizlarning jamiyatdagi huquqsizligi muammosini ko'taradi.

"Zaharli hayot", "Baxtsiz kuyov" pyesalarida **Hamza bilan Qodiriy** ham majburan nikohni qoralashadi.

Teatr san'atidagi islohotlar haqida jadid matbuoti xabar berib turardi. **Behbudiy** nashr etgan **"Samarqand"** va **"Oyna"**, shuningdek, **Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'ja o'g'li** muharrirlik qilgan **"Sadoi Turkiston"** ro'znomalari 1917 yil oktabriga qadar chop etilgan yigirma uch ro'znomayu oynomalar orasida eng nufuzlilari edi.

O'qituvchi o'rganilayotgan davrda qo'g'irchoqbozlik, qiziqchilik-masxarabozlik, askiya, sirk-dorbozlik san'ati ijodi yaxshi rivojlanganligiga talabalarning diqqatini tortishi lozim.

Doniyor qo'g'irchoqboz (XIX asr II yarmi - XX asr 60-yillari). Buxorolik. Xalq qo'g'irchoq teatri ustasi. Tomoshalarni o'zbek va tojik tillarda ko'rsatgan. Bobosi Abdulla, otasi Shohsuvor ham san'atkor bo'lganlar. Surnay chalishni otasidan va Ashir qora mehtardan, qo'g'irchoq o'ynatishni esa o'sha davr mashhur qo'g'irchoqbozi Zarif Misgardan o'rgangan. Doniyor 1910 yilda o'z guruhini tuzgan va mashhur qo'g'irchoqbozlar bo'lmish Ko'rhoji va Kenja Jumayevlar bilan ishlagan.

Jo'ra qayroq avlodi - G'ijduvonlik xalq qo'g'irchoqbozlari:

1) Jo'ra qayroq (1796-1898) - mashhur xalq qo'g'irchoqbozi, raqqos (qayroq bilan raqsga tushgan), surnaychi, qo'g'irchoqbozlar guruhining rahbari.

2) Hamro (1818-1910) - «Chodir hayol» xalq qo'g'irchoq teatrining taniqli ustasi.

3) Narzullo va Nasrullo Hamroyevlar (XX asr I yarmi), asosan, sho'rolar davrida qo'g'irchoqbozlik san'atini davomchilari bo'lgan.

Zarif Misgar (XIX asr). Buxorolik atoqli qo'g'irchoqboz. Yoshligidan raqqoslik qilgan, so'ng surnaychi (mehtar) sifatida qo'g'irchoqbozlar bilan tomoshalar ko'rsatgan, masxarabozlik ham qilgan. XIX asr o'rtalaridan Buxoro amiri saroyidagi qo'g'irchoqbozlar va raqqoslar guruhlariga rahbarlik qilgan. Mashhur Doniyor qo'g'irchoqboz ham Zarif Misgarining shogirdi bo'lgan.

Zokir Eshon to'dasi - XIX asr II yarmida Qo'qonda ijod qilgan o'zbek professional aktyorlar to'dasi Korfarmoni (guruh rahbari). Ushbu guruh Zokir eshon, Rizo qiyiq, Sa'di maxsum, Normat qiziq, Boybuva qiziq, Mo'min qishloqi, Baxrom qiziq, Usmon qiziq, Ro'zi gov, Davlat qiziq, Avliyoxon qiziq kabi 30 dan ortiq qiziqchi-aktyor, hofiz, sozanda va raqqoslardan iborat bo'lgan. Qo'qon xonligining barcha shahar qishloqlarida xalqqa tomoshalar ko'rsatishgan. Repertuarlari satirik sahnalar, hajviya, askiya, musiqa, qo'shiq, ashula va raqslardan iborat bo'lgan.

Matholiq qiziq (1840-1910). Andijonlik. Qo'qon qiziqchilar teatrining taniqli aktyori. 1860-1972 yillarda Qo'qonda mashhur Zokir Eshonning qiziqchilar guruhida ishlagan. 1892 yilda Andijonda Amir qiziq, Jo'ra qiziq, Bashir qiziq, Kal Nazar, Hasan qiziq kabilardan iborat truppa tashkil qilgan. U yaratgan «Zarkokil», «Domla», «Hoji kampir», «Qozi», «Ketmon tilash» kabi obrazlari bilan el orasida mashhur bo'lgan.

Sa'di maxsum (1825-1889). Marg'ilonlik o'zbek an'anaviy teatrining atoqli namoyandasi, xalq qiziqchisi. Zokir eshon truppasida ishlagan. «Attor», «Jafokash er», «Domla», «Chavandoz», «Bedana» kabi xilma-xil qiziq obrazlar yaratib, xalq e'tiborini qozongan. Zokir eshon vafotidan so'ng u o'z truppasini tuzgan va o'z repertuari, tajribasini mahalliy qiziqchilarga o'rgatgan. Mashhur qiziqchilar Yusufjon qiziq Shakarjonov, Mamajon maxsum Umrzoqov, Sulaymon qori Mirzamaxmudov, Usmon qori Raimboyev va boshqalar uning shogirdlaridir.

Mizrob masxara (1848-1918). Shahrisabz tumani, Vardon qishlog'ida tug'ilgan. O'zbek an'anaviy teatrining atoqli namoyandasi. Mashhur Boboyor masxarabozga ergashgan. 1878 yilda o'z guruhini tuzgan. Unda Muhammad Diyor, Muhammad Nazar, Bo'ta daroz, Turdiali masxarabozlar, Mavloncha va Muhammadali raqqoslar, Avazmurod doirachi, Ergash surnaychi, Ro'zi karnaychi kabi mashshoqlar uyushgan edi. Mizrob tomonidan turli rollar, obrazlar yaratilgan va kuldiruvchi, ba'zan yig'latuvchi hajviy ashula va o'yinlar ijro etilgan.

Normat qiziq sulolasi (1849-1919). Qo'qonda ijod qilgan. Zokirjon qiziq guruhida katta qiziqchilardan ta'lim olgan. So'ng o'z guruhini tuzgan. Uning guruhida Ro'zi gov, Ismoil xo'roz, Lo'm-lo'm Mamajon, Azim bola, Boymat qiziq, Shomat qiziq kabi kulgi ustalari to'planib, elga xizmat qilishgan. Normat qiziq ularga

ham rahbarlik, ham ustozlik qilgan. Manbalarga ko'ra Normat qiziq 360 ta qiziqchilik tomoshasini bilgan va bir yil davomida har kuni yangi tomosha ko'rsatish imkoniga ega bo'lgan ekan. XX asr boshlaridan esa uning ishini o'g'li Po'latjon qiziq samarali davom ettirgan.

Toshkanboyevlar. O'zbek dorbozlari sulolasi asoschisi O'zbekiston va Rossiya xalq artisti, mehnat qahramoni Toshkanboy Egamberdiyev (1866-1963) dir. Toshkanboy o'z faoliyatini 7 yoshdan boshlab otasi Egamberdi hoji bilan xalq bayram va sayillarida, shahar maydonlarida dorbozlik o'yinlarini namoyish etishdan boshlagan. XIX asr 80-yillaridan boshlab mustaqil ishlagan, dorbozlik va simbozlik san'atini mukammal egallagan. Simdor ustida 20 dan ortiq mashqlar ijro etgan. Shuningdek, 25-30 metr balandlikda tortilgan qiya dor ustida murakkab mashqlarni, chig'irida gimnastika usullarini bajargan. 1908 yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston sanoat va hunarmandchilik ko'rgazmasida qatnashib, «eng yaxshi dorboz va simboz» deb topilib, oltin medal va qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlangan.

Uning san'atini farzandlari, nevaralari davom ettirishgan.

To'la masxara (1842-1916). Buxoro yaqinidagi Demun qishlog'idan. Xalq masxaraboz. Masxarabozlikni ustoz. Sayfullo masxaradan (1797-1867) o'rgangan. Muzaffarxon saroyida teatr truppasining rahbari etib tayinlangan. Truppaga Jo'ra masxara, Ergash masxara, Murod siyoh, Sa'di masxara, Abdurauf oqsoqol, Xoliq masxara, Abdurasul korfarmon, Said Mirzaboshi, Kalli Abbos, Hamro garmon, Ota Ashraf mavlono, Usta Qudrat, Sharif bozinger, Egamberdi cho'pboz kabi 20 ga yaqin san'atkorlar uyushgan edi. To'la masxara o'z hamkasblari bilan yirik pyesa-spektakllar ham yaratgan. To'la masxaraning o'zi esa iqtidorli san'atkor, keng diapazonli aktyor, xushovoz xonanda, yaxshigina sozanda, yaxshi nutq sohibi bo'lgan. Uning kasbini o'g'li va shogirdlari davom ettirishgan.

Usmon qori Raimbekov (1886-1968). Marg'ilonlik xalq qiziqchisi. Qiziqchilikni Sa'di Maxsumdan o'rgangan. 20 yoshida rus sirkiga ishga kirib, Yusufjon qiziq bilan tanishadi va uning hamkoriga aylanadi. U og'zaki tanqidiy komediyalarda ham, qush va hayvonlar taqlidi ijrosida ham mashhur bo'lgan. Sirk masxarabozligini ham yaxshi bilgan. Yirik komediyalarda, askiya payrovlarida faol ishtirok etib shuhrat qozongan.

Xo'jayevlar sulolasi - O'zbek sirk artistlari sulolasi. Qo'qon va Toshkentda ijod qilganlar. Sulola a'zolari zamonaviy o'zbek sirkida chavandozlik va ot o'rgatish turi rivojiga katta hissa qo'shishgan. Sulola asoschisi Muhammad Xo'jayev (taxallusi «Chaqqon» - (1886-1971)). Ijodiy faoliyatini 8 yoshdan Baratboy rahbarligidagi sirk guruhida boshlab, muallaqchilik, havo gimnastikasi va masxarabozlik o'yinlarida ishtirok etgan. 1900 yildan namanganlik Mirzaahmad sirkida mashhur muallaqchi Qodir Abdullayev bilan ishlagan. 1905 yildan Mullaboy Mansurov sirkida faoliyatini davom ettirib, qiziqchilar va muallaqchilar guruhida faol qatnashib, shuhrat qozongan.

Keyinchalik uning qizi va o'g'li sirk san'atini davomchilari bo'lganlar.

Latofat Sarimsoqova va Rahmon Abduhalilovlar (XIX asr II yarmi - XX asr I yarmi). Ular rahbarligida ham o'lkamizda professional sirk jamoalari tashkil etilgan.

Ularning repertuari, asosan, an'anaviy o'yinlardan iborat bo'lib, ayrim hollarda Yevropa tomoshalarini ham o'z ichiga olgan. Chunki XIX asr oxirlaridan boshlab Turkiston o'lkasiga Yevropa uslubidagi bir qator sirk guruhlari gastrollarga kelishgan. Germaniya, Italiya, Fransiya, Angliya, Rossiya, Polsha sirk artistlari mahalliy aholini jahon sirki bilan tanishtirishgan. Bu voqea esa mahalliy aholi orasidagi sirk san'ati bilan astoydil qiziquvchilarga ta'sir etmay qolmagan.

Mirmulla Shermuhamedov (1886-1923). Toshkentlik. Shoir, yozuvchi, teatr tanqidchisi, tarjimon. Beklarbegi madrasasida, rus-tuzem maktabida taxsil olgan. O'zbek matbuotida malakali teatr tanqidchiligini boshlab bergan munaqqid. «Boy ila xizmatchi», «Hurriyat», «Zaxarli hayot», «Tuhmatchilar jazosi», «Andalusning so'nggi kunlari» kabi qator taqrizlarida milliy aktyorlik, rejissyorlik san'atiga, dramaturgiyaga xolisona baho bergan. U dublyaj san'atiga asos solgan tarjimonidir. «Turon» kinoteatrda namoyish etilgan filmlarni rus tilidan o'zbek tiliga bevosita tarjima qilib turgan.

Yusufjon qiziq Shakarjonov (1869-1959). Marg'ilonlik o'zbek an'anaviy teatrining yirik namoyandasi, raqs san'ati ustasi, mashhur qiziqchi. U 1881-1889 yillarda Zokirjon qiziq boshliq qo'qonlik qiziqchilar to'ldasida bevosita Sa'di Maxsumdan ta'lim oladi. 1888-1892 yillarda guruh bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqadi. «Chodir hayol» teatrida, xalq sayillarida, to'ylarda, xorijdan kelgan yirik uyushmalar tarkibida qiziqchilik tomoshalari ko'rsatadi. Taqlid, hajviy bo'rtirma obraz yaratishda, kulgi-hikoyada, askiya san'atida Yusufjon qiziqqa bas keladigani bo'lmagan. Ko'plab shogirdlar yetishtirgan.

1903 yilda u Said qissaxonga qo'shilib, Buxoroga boradi. 1904 yilda Toshkentda Mullaboy Mansurov sirkida Ortiq qiziq, Sobir qori, Qodir qiziq, Karim Zaripovlar bilan birga Samarqand, Farg'ona vodiysida, so'ngra Turkiston, Avliyo ota, Pishpakda bo'lib, o'zbek qiziqchiligi, xalq raqslarini namoyish etadi. 1905 yilda shu truppa tarkibida Qashqarda bir nechta komediyalarni ijro etadi.

U 1906 yilda Marg'ilonda qiziqchilar guruhini tuzadi. 1908 yilda Yusufjon qiziq guruhi (36 kishidan iborat) Farg'ona shahrida ko'rik-tanlovda qatnashadi. O'sha yili Yusufjon qiziq Abdurahmon Rahmonov (1870-1929) sirk uyushmasi bilan Buxoroga boradi. 1909 yilda Sankt-Peterburgga kelib, rus baletini tomosha qiladi va sirkda mashhur qiziqchi Anatoliy Durov bilan tanishadi.

Yusufjon qiziq 1908-1914 yillarda sirkchi Filip Yupatovning Andijon va Toshkentdagi chodir sirkida Ashir va Nazir qiziqchilar bilan birga qiziqchilik qiladi. 1914 yilda Rahmon Abduxalilovning milliy sirk uyushmasida Ortiq qiziq, Sobir qori, Muhammad chaqqon, Qodir qiziqqlar bilan komediyalarda ijro etadi.

U 1918 yilda Marg'ilonda qiziqchilar guruhini qaytadan tuzadi. Bu guruhda mashhur san'atkorlar Usmon qori, Sulaymon qiziq, Mamatbuva hofiz, Xudoybergan hofiz, Otaxo'ja raqqos, doirachi usta Olim Komilovlar faoliyat yurita boshlaydi. Shu guruhda Yusufjon qiziq Tamaraxonimga lapar va raqslardan tahsil beradi.

Shu o'rinda XIX asr - XX asr boshlarida Xorazmda ham masxarabozlik san'atida talaygina elga mashhur san'atkorlar yetishib chiqqanligini, ular shahar va qishloqlardagi to'yu tomoshalarda, turli hil sayl va tantanalarda faol ishtirok etib,

xalqqa astoydil xizmat qilganlarini aytib o'tish lozim. Ulardan Xivalik Xudobergan ko'r (1845-1940) bilan Matchon ko'r (1840-1910), Buvajon to'q-to'q (1870-1940) bilan Yopirdi masxaraboz (1880-1946), Matchon baqay (1865-1930), Urganchlik Navzolim bobo (1818-1925), Gurlanlik Buvajon sari (1851-1951), Mang'itdagi Qipchoq va Qilichvoy qishlog'idan yetishib chiqqan Quvvat kalta (1827-1910) bilan Matyoqub ko'r (1880-1920), Boltaqul masxaraboz (1853-1933) bilan Qirquin qiziq (1829-1915), aka-uka Eshmat (1853-1933) bilan Do'smat (1878-1923) masxaraboz, Raxmatulla o'g'li Qurbonniyoz masxaraboz (1851-1914), Yusuf sharlama (1870-1940), Qurbonboy sharlama (1877-1955) va boshqalarni Xorazmda tanilgan masxarabozlar va ijodkorlar bo'lganligini tarixiy manbalar tasdiqlab turibdi.

O'qituvchi talabalar diqqatini o'rganilayotgan davrlarda amaliy san'at, hunarmandchilik madaniyatining rivojlanishiga qaratadi va misollar keltirsa, dars qiziqarli va samarali o'tadi.

Arxeologik topilmalar, qadimiy yozma manbalar hududimizda **amaliy san'at, hunarmandchilik**ning namunalari mezolit davriga borib taqalishini isbotlab bergan. O'tgan ming yilliklar davomida ushbu madaniyat taraqqiy etib, tobora takomillashib borgan. Jumladan, bu san'at yurtimizda XVI-XX asr boshlarida ham o'ziga xos rivoj yo'liga bo'lgan.

To'g'ri, bu davrlarda tez-tez bo'lib turgan xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar tufayli badiiy hunarmandchilik ko'proq poytaxt - Buxoro va qisman boshqa yirik shaharlarda: Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo'qonda taraqqiy etib borgan.

Ayni vaqtda, O'zbekistonning barcha markazlarida, ipak, ip, jun matolar va tayyor buyumlar ishlab chiqarilgan, popop, chokli so'zanalari, zardo'z buyumlar tayyorlangan. Binolarni bezash, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik maktablari yo'lga qo'yilgan, amaliy bezakning mahalliy uslublari vujudga kelgan. Kashtachilik, teriga ishlov berish, zargarlik buyumlari yasash, shuningdek, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan, hayvonlarga qo'llaniladigan zarur buyumlar (egar-jabduq va h.k.) ishlab chiqarish rivojlangan. Xususan Rishton kulolchilik maktabi mahsulotlarining dong'i keng tarqalgan. G'ijduvon, Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, Toshkent kulollarining buyumlari ham o'ziga xos bo'lgan.

XX asr boshlariga kelib yurtimizning barcha hududlaridagi hunarmandchilikning qadimgi an'analarga asoslangan holda, yangi, zamonaviy ijodiy uslublar bilan boyitilgan rivojlanish jarayonlari boshlandi.

Quyida ushbu yo'nalish vakillaridan ayrimlarining nomlari va faoliyatlari haqida qisqacha ma'lumotlarni umumlashtirib, bayon etishga jazo qilindi.

Abdulla kulol - XIX asrda yashagan rishtonlik kulol. U Rishton va Qo'qonda koshinpaz usta sifatida mashhur bo'lgan. Shuningdek, Farg'ona kulollari ishlariga ham boshchilik qilgan. Xudoyorxon o'rdasining bosh fasadini rang-barang koshinlar bilan bezashda qatnashgan. Uning ishlaridan namunalar (sopol idishlar) O'zbekiston san'at va Qo'qon o'lkashunoslik muzeylarida saqlanmoqda.

Abdulla jin - XIX asr II yarmi - XX asr boshlarida yashagan koshinkor usta. Xivadagi Toshhovli, Pahlavon Mahmud maqbarasi va Qo'hna Ark (qabulxona va ayvon masjid) ning ichki va tashqi devorlarini koshin bilan bezagan. Uslubining rang-barangligi uning barcha naqshlarida namoyon bo'lgan.

Abdurayim Abdugʻofurov (XIX asr II yarmi - XX asr I yarmi). Toshkentlik xalq ustasi, Toshkent badiiy chitgarlik maktabining yetuk namoyandasi. Birinchi boʻlib matoga gul bosishda roʻyan oʻrniga alizarin ishlatgan ijodkor.

Kulijon Abduhakimov (XIX asr II yarmi - XX asr I yarmi). Buxorolik rixtagar boʻlib, otasi Abduhakim unga ustoz boʻlgan. Mis va bronzadan zulfin, xalqa, manqaldon, turli hajmda zanjirlarni katta mahorat bilan yasay olgan. U yasagan badiiy buyumlar hozirgacha yurtimiz muzeylarida saqlanmoqda.

Azimboy misgar (XIX asr oʻrtalari). Qoʻqonlik hunarmand. «Usta Mulla», «Katta misgar» nomlari bilan Fargʻona vodiysida shuhrat qozongan. Azimboy misgar yasagan chilim, qumgʻon, dastshu, oftoba va boshqa hunarmandchilik buyumlari Oʻzbekiston muzeylarida saqlanmoqda.

Toshpoʻlat Ayyubxoʻjayev (XIX asr). Toshkentlik oʻymakor usta. Otasi Ayyubxoʻjadan hunar oʻrgangan. Yogʻoch oʻymakorligining «pargari» uslubida ijod qilgan. Koʻplab shogirdlar ham yetishtirgan. Uning yongʻoq va chinor yogʻochlaridan yasalgan koʻp qirrali stol, kursi, quticha va chilimlarning nafis handasiy naqshlar bilan bezatilgan namunalari respublika muzeylarida saqlanmoqda.

Abduhafiz Jalilov (1869 - 1954). Samarqandlik duradgor, yogʻochsoz usta, naqqosh. Samarqand meʼmorchilik maktabining yirik vakili. Dastlab mashhur usta Neʼmatdan hunar oʻrgangan. Abduhafiz sinchli uy qurish, eshik, sandiqlarga bezak yasash va islamiy naqshlar chizishga mohir boʻlgan. Mashhur Fayzulla usta bilan birga ishlashgan. Abduqodir muhandis va usta Boqiyev guruhida ham ishlab, ulardan muqarnas va girix tuzish sirlarini puxta egallagan.

Ashir Gʻofurov (1876 - 1941). Oʻratepalik yogʻoch oʻymakori, naqqosh, oʻyma eshik va darvozalar ustasi. Ijodidan islamiy naqsh, choka pardozni keng qoʻllash, zaminini gurzi urib bezash keng oʻrin olgan.

Ota Polvonov (1867 - 1967). Xivalik yogʻoch oʻymakori. Bobosi usta Abdusattor, otasi usta Polvon oʻz davrining yirik hunarmandlari boʻlgan va Ota Polvonov ulardan hunar oʻrgangan. Xivadagi koʻpgina binolarning darvoza, eshik, ustunlarini bezashda qatnashgan. «Umid» ustalar oʻymakorlik toʻgaragiga rahbarlik ham qilgan.

Yusufjon Maʼrufjonov (1877 - 1960). Margʻilonlik yogʻoch oʻymakori, duradgor. Oʻyma naqshli eshik, rom, derazalar, javon, kursi, quticha kabilarni nihoyatda nozik did bilan tayyorlagan.

Xaydar Najmiddinov (1850 - 1960). Fargʻonalik oʻymakor naqqosh. Otasi Usta Najmiddindan hunar oʻrgangan. Fargʻona oʻymakorlik maktabining asoschisi. 1890 yildan boshlab Qoʻqonda oʻyma naqshli eshiklar va bezaklar yaratgan. «Ustasi parang» laqabini olgan. Ijodida pargari naqshning 30 dan ortiq turidan foydalangan.

Nurilla Narzullayev (1870 - 1939). Samarqandlik yogʻoch oʻymakori. Otasi usta Narzulla ham mashhur ustalardan boʻlgan. Nurilla usta eshik, darvozalarga oʻyma naqsh ishlash ustasi sifatida shuhrat qozongan.

Abdurahim Muntiyoni (XIX asr II yarmi - XX asr boshi). Samarqandlik duradgor usta. Qalandarxona masjidi (1898), Jo'sh qishlog'idagi Jo'sh masjidi (1907), Qoradaryo qishlog'idagi Qoradaryo masjidi (XIX asr oxiri) qurilishlarida faol qatnashib, o'z hunarini namoyish etgan.

Vois kulol (XIX asr o'rtalari - 1913 y.). Xorazmlik kulol, ko'zagar, koshinkor. Xivada qurilgan ko'pgina binolarni bezashda faol ishtirok etgan. Kulolchilikda shuhrat qozongan. Kulolchilikni otasi mashhur usta Ismoilidan o'rgangan. O'z davrida birinchi bo'lib koshingarlik ishini yo'lga qo'ygan. Isfandiyorxonning tarixiy saroyi va Yevropa tipidagi kasalxona binosini koshin bilan bezashda faol ishtirok etgan.

Nasriddin Ziyoqoriyev (1869 - 1942). Toshkentlik panjarasoz duradgor. Rang-barang naqshli panjara, eshik darcha, tuynuk, zinapoya, kabi me'moriy qismlar, 3-4 tabaqali to'siqlar yasagan. Ko'plab shogirdlar yetishtirgan.

Turob Miraliyev (1869 - 1942). Toshkentlik. Laganpaz kulol. Toshkent kulollik maktabining yirik namoyandasi. Kulollikda lagan yasash va uni bezashda mashhur bo'lgan. Otasi usta Mirvalidan hunar o'rgangan. U chizma gul solishning o'ziga xos uslubiga asos solgan.

Mirza Abdulla Buxoriy (1848 - 1918). Samarqandlik. Etnografiya va arxeologiya sohalari sohibi bo'lishi bilan bir qatorda to'quvchilik hunarini ham mukammal egallagan. Shoyi to'quvchilar oilasida tug'ilgan. U to'qigan atlas va beqasamlari bilan turli xalqaro ko'rgazmalarda Toshkent - 1886 y., Xarkov - 1887 y., Parij - 1889 y. kumush medallar va Toshkent ko'rgazmasi (1890) da katta oltin medal bilan taqdirlangan.

Rahmat Mirzayev (1878 - 1963). Buxorolik zardo'z. Buxoro zardo'zlik maktabining yirik vakili. Zardo'zlikni otasi va boshqa ustalardan o'rgangan. Yoshligidan mashhur Qori Hasan ustaxonasida ishlagan. Zardo'zlik rivojiga katta hissa qo'shgan. An'anaviy naqshlarni mahorat bilan qo'llab, amaliy san'at namunalari yaratgan, naqsh mujassamotlarini yangi xususiyatlar bilan boyitgan.

Muqaddam Mukarramov (XIX asr II yarmi - XX asr boshlari). Buxorolik kandakor. Kandakorlik maktabining yirik vakili. O'z davrining mashhur ustasi Olim Abdusalomovdan hunar o'rgangan. Mukarramov kandakorlikda ayniqsa an'anaviy naqshlarni mahorat bilan bajargan. An'anaviy naqshlar bilan Eron kandakorligi naqshlarini uyg'unlashtirib qo'llagan, buyumlarning badiiyligi va ifodaliligini oshirishga erishgan. U yaratgan buyumlar (la'li, dastsho'y va boshqalar) respublikamiz muzeylarida saqlanadi.

Karimbergan Rahmonberganov (1870 - 1959). Xivalik toshtarosh usta, muhrkan, kandakor. Bobosi Xudoybergan Muhrkan va otasi usta Rahmonbergandan hunar o'rgangan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II va Isfandiyorxon hovli saroyidagi, Qo'hna Ark, Islomxo'ja Madrasasi ayvonlaridagi ustunlarga marmardan o'yma naqshli poyustunlar ishlagan. Shuningdek, ko'pgina ta'mirlash ishlarida ham muntazam qatnashgan.

Usta Omonilla (XIX asr o'rtalari - 1900 y.) Samarqandlik g'ishtkor, ganchkor. Quruvchi usta Jalilning shogirdi. Registondagi barcha me'moriy obidalarni ta'mirlashda qatnashgan. Samarqanddagi Buxoro ko'chasida joylashgan daha masjidini usta Abdurashid bilan hamkorlikda qurgan. Tosh terish hunari bilan ham shuhrat qozongan.

Usta Rahim Obidov (XIX asr oxiri - 1924 y.). Samarqandlik toshtarosh usta. Toshtaroshlar sulolasi vakili. Toshkent, Qo'qon, Samarqandda katta ustaxonalari bo'lgan. Marmarni yo'nib, ko'za, poyustun, taxtachalar va boshqa turli buyumlar yasagan. Ko'plab shogirdlar tayyorlagan.

Usta Sharif Saidov (1887 - XX asr I yarmi). Buxorolik yog'och o'ymakori, duradgor usta. Usta Shirin Murodov bilan birga hunar o'rgangan, Buxoro amiri saroyida ishlagan. Ko'plab jamoat binolarini (Bolohovuz masjidi, Sitorai Mohi Xosa va b.) qurishda, Mir arab, Ko'kaldosh madrasalarining ta'miriy ishlarida qatnashgan.

Usta Shirin Murodov (1879 - 1957). Buxoro va Toshkentda ijod qilgan me'mor, ganch o'ymakori. Otasi Murod va bobosi usta Nodirdan hunar o'rgangan. Mustaqil usta sifatida Buxoro amirining Karmanadagi saroyini bezashda qatnashib, tanilgan. U o'z ijodida ganch o'ymakorligi an'alarini mahorat bilan qo'llab, yangi mazmun va shakllar bilan boyitgan. Ilk bora naqsh zaminida ko'zgudan foydalangan, ya'ni ko'zgu ustiga ganch naqshlar ishlab, jozibadorlikka erishgan.

Xudobergan Hoji (XIX asr oxiri - XX asr boshi). Xivalik g'ishtkor, toshtarosh usta. Madrasalar qurishga ixtisoslashgan. Ko'proq minora, guldasta, gumbaz kabi murakkab ishlarni bajargan. Islomxo'ja madrasasi va minorasi, Qozi kalon, Abdurasulboy madrasalari, Matpanoboy madrasasi, Tolip maxsum madrasasi va boshqa qurilishlarda Xudoybergan hoji hunarlaridan keng foydalanilgan.

Sulaymon Xo'jayev (1866 - 1947). Toshkentlik yog'och o'ymakori. Toshkent yog'och o'ymakorligi hunarining yirik vakili. Pargari va lavh bo'yicha mohir usta. 17 yoshigacha otasi bilan ishlab hunar o'rgangan. 1891 yildan usta Toshpo'lat Ayyubxo'jayevdan pargari usulini mukammal o'rgangan. Ko'plab yetuk shogirdlar tayyorlagan. O'quv ishlab chiqarish ustaxonalarida o'qituvchi, to'garaklarda rahbar bo'lib ishlagan. 1913 yildan boshlab Xo'jayev o'z badiiy asarlari bilan Sankt-Peterburg, Parij va boshqa xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etgan. Uning asarlari va naqshli buyumlari respublika va ko'plab xorijiy davlatlar muzeylarida saqlanadi.

Shukuriy Farg'oniy (XVIII-XIX asrlar). Farg'onalik shoir, hunarmand va naqqosh. Yoshligida Samarqandga kelib qolgan. Egarsozlik va naqqoshlikda mashhur bo'lgan. O'sha davrda Samarqandda qurilgan ko'pgina binolarda Shukuriyning naqshlari mavjud. Amir Nasrullo taklifi bilan Buxoroda ham naqqoshlik qilgan, she'riyatda ham mumtoz bo'lgan.

Qo'qon kandakorlik maktabi - XVIII-XIX asrlarda Qo'qonda shakllangan kandakorlik hunarmandchiligi san'atining o'ziga xos yo'nalishi. Bu usul o'ymasi sayoz, lekin aniqligi bilan ajralib turgan. O'simliksimon naqshlari ajoyib gullar hosil qiluvchi mayda qismlar, islimiy va girih naqshlari jozibador bo'lgan. XIX asr oxirlaridan bu san'atda naqsh tarkibida me'moriy obidalar, afsonaviy hayvonlar va

odamlar tasvirlana boshladi. Shuningdek, fabrikada ishlab chiqarilgan idishlar mashhur bo'la boshladi.

Ushbu maktab ustalaridan Siddiq Otoullayev, Otaulla Muhammad Rajab, Mulla Holiq, Fozil Otaullayev, Lutfulla Fozilovlar ishlari ayniqsa diqqatga sazovor bo'lgan.

Ibrohim Hafizov (1870 - 1940). Buxorolik me'mor. Hunarni otasi bilan birga ishlab, usta Xalilga shogird tushib o'rgangan. 1888 yildan mustaqil usta bo'lgan. Handasiy va islmiy naqsh ishlash san'atini puxta egallagan. Xon saroyida gilkorlik qilgan. ark saroyini qayta tiklashda, Buxoro shahridan Sitorai Mohi Xosagacha bo'lgan yo'lga tosh yotqizishda, Karmanadagi Abdulahadxon saroyi, Sarim Sulton, Chorbog' Sarimgari, Chorbog'gul saroylari qurilishida faol ishtirok etgan.

Alinazar qori (1881 - 1931). Qo'qonlik qori naqqosh, o'zbek misgar - naqqoshi. Badiiy o'ymakorlik hunarini qo'qonlik mashhur usta Hoji Fozil Otaulla o'g'lidan o'rgangan. Alinazar misdan ishlangan turli idishlarga Qo'qon uslubida milliy klassik naqshlar o'ygan va xilma-xil lirik baytlarni mohirona zarb qilgan, u naqsh bergan ajoyib idishlar O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda.

Asqar pichoqsoz (1878 - 1964). Andijon viloyatidan. Mashhur pichoqsoz usta. Bu hunarmand yashagan Qorasuv qishlog'i pichoqsozlikda Farg'ona vodiysida shuhrat topgan. U yerning ustalari yasagan pichoqlar uzoq-uzoq joylarga tarqalgan. Asqar bu hunarni Usta To'xtasindan o'rgangan. Ayni vaqtda Asqar o'z kasbini o'g'illari Bakirjon va Mamasaidlarga o'rgatgan va ular ham usta darajasiga erishgan.

Umrzoq Ahmedov (1887 - XX asr I yarmi). O'zbek xalq ustasi. Yog'ochga o'yma naqshlar ishlashi bilan tanilgan. Ahmedov Qo'qon va Marg'ilon o'ymakorlarining an'alarini rivojlantirgan. U lo'la pardoz uslubida yog'ochga naqshlar solishni mohirona bajargan. Yog'ochga naqsh o'yishda qora lak ishlatishni birinchi bo'lib rasm qilgan. Ahmedovning ayrim asarlari O'zbekiston Davlat san'at muzeyi va respublika xalq amaliy san'ati muzeyida saqlanmoqda.

Bekniyoz o'yimchi (1842 - 1924). Qoraqalpog'iston Respublikasi, Chimboy tumanidan. O'ymakor usta. U yasagan naqshlar juda nozik, murakkab, turli elementlarga boy bo'lib, nafisligi bilan ajralib turgan. Bekniyoz yasagan muhr, saboyoq, sandiq, erganak, ustun, eshik kabi san'at asarlari Moskvadagi Sharq xalqlari san'ati muzeyida va Sankt-Peterburgdagi etnografiya muzeyida saqlanmoqda.

Boybobo chinnisoz (XIX asr). Qo'qonlik. Mashhur kulol. U yasagan buyumlar shaklining mutanosibligi, chinnisining a'lo sifati bilan ajralib turgan. Idishlar naqshi nafis uslubda betakror mahorat bilan ishlangan. Uning yetuk shogirdlari ham ko'p bo'lgan. Jumladan, mashhur chinnisoz Muso Konibodomiy ham u bilan xamkorlikda ishlagan. Boybobo yasagan hunarmandchilik buyumlari O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanadi.

Abduqodir Boqiyev (1850 - 1932). Samarqandlik me'mor, muhandis, koshinkor. Samarqandda Boqiyev yaratgan 30 dan ortiq ko'rkam va xushbichim binolar saqlangan. U unutilgan o'zbek koshinkorlik namunalarini tiklagan.

Binolarning ichki va tashqi bezaklariga «qirma» naqshlarni mahorat bilan kiritib, qadimiy bezak uslubining imkoniyatlarini namoyish etishga erishgan.

1. Jadidchilik harakatining g'oyalari, maqsad va vazifalarini xamda ular faoliyatining asosiy yo'nalishlarini yoritib bering.
2. Adabiyot sohasida demokratik g'oyalar ruhining kuchayishi deganda nimani tushunasiz va o'zbek adabiyotini rivojida jadidlar qanday rol o'ynadilar?
3. Toshkent maqomlaridan Xorazm maqomlarining qanday farqi bor?
4. Shashmaqom deganda nimani tushunasiz?

Mavzuni o'qitishda « **Mantiqiy chalkash zanjir** » strategiyasidan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

“Mantiqiy chalkash zanjir” strategiyasi- bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jixatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o'qituvchi mavzuni yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri va noto'g'ri tartibda bayon etadi. O'quvchilarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto'g'ri ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri dalillarga aylantirish, mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirgan holda uzilgan “zanjirni” ulashdan iboratdir. Mashg'ulotda strategiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- o'qituvchi o'quvchilarni strategiyaning mohiyati bilan tanishtiradi;
- o'quvchilar bir necha kichik guruhlariga birlashtiriladi;
- kichik guruhlariga chalkash ma'lumotlarni o'zida ifodalagan tarqatmali materiallar beriladi;
- topshiriqlarni bajarish uchun vaqt hajmi: 5 daqiqa belgilanadi;
- kichik guruh tarqatmali materialda ifodalangan matndagi mantiqiy xato va chalkashliklarni aniqlab, uzilgan zanjirni “ulash”ga harakat qiladi;
- belgilangan vaqt yakunlangach, har bir guruhdan bir nafar vakil jamoaning topshiriq mazmuni va guruhning javoblari bilan tanishtiradi;
- jamoada guruhlarining javoblari yuzasidan muhokama tashkil etiladi;
- o'qituvchi jamoaning fikriga tayanib guruhlar ishini baholaydi.

Izoh: o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil ishlashini ta'minlash uchun har bir o'quvchiga mazmunini biroz o'zgartirgan holda alohida topshiriq berishi mumkin.

13-Mavzu: Kommunistik mustabid mustamlaka davrida «sotsialistik madaniyat» rivoji va uning mohiyati (1920-1991)

Reja:

1. Mustabid mustamlaka davrida «sotsialistik madaniyat» rivoji va uning mohiyati.
2. Sovet mustamlakachiligi davrida fan va adabiyot.
3. O'zbek romanchilik maktabi asos solinishi.
4. Yangi o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga poydevor qo'yilishi.

5. Sovet mustamlakachiligi davrida madaniyat, san'at, teatr.
6. Dostonchilik - baxshichilik ijodi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., UAJBNT, 2003 y.
2. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. «Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida». T., Sharq, 2000 y.
3. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. «O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida». T., Sharq, 2000 y.
4. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. «Mustaqil O'zbekiston tarixi». T., Sharq, 2000 y.
5. «Mustaqillik» (izohli ilmiy-ommabop lug'at). T., Sharq, 2000.

«Kommunistik mustabid mustamlaka davrida «sotsialistik madaniyat» rivoji va uning mohiyati» mavzusi **O'zbekistonning 20—30 va 50—80-91-yillardagi madaniy hayotini qamrab olgan. O'qituvchi bu mavzuni 20—30-yillardagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat Respublika ma'naviy-madaniy xayotida o'z aksini topganligini dalillar asosida ochib berish bilan boshlaydi.**

Sovet hokimiyati ilgari surgan sotsializm qurish rejasining tarkibiy qismi «**madaniy inqilob**» edi. O'zbekistonda «**madaniy inqilob**» siyosati «**shaklan milliy, mazmunan sotsialistik**» madaniyatni rivojlantirish qobig'iga o'rab amalga oshirildi. Sovetlarning bu tadbiri jamiyatning barcha jabhalari qatorida ilm-fan, madaniyat, san'at, maorif, oliy ta'lim sohalarini o'z izmiga solgan edi.

Bu vazifani amalga oshirish uchun tub yerli musulmon aholini tarixidan, tilidan, madaniyati va asrlar osha shakllangan milliy, diniy qadriyaglaridan begonalashtirish va mahrum qilish lozim edi.

Kommunistik partiyaning mustamlakachilik, tobelik mafkurasini aholining keng qatlamlari ongiga singdiradigan sovet ta'lim-tarbiya tizimini yaratishga muhim ahamiyat berildi. Buning uchun milliy ta'lim-tarbiya tizimini tag-tomiri bilan yo'q qilish talab qilinardi.

Sovet davlatining Turkiston xalqlari savodsizligini tugatish, maktablar qurish, mutaxassis xodimlar tayyorlash, madaniyat, san'atni rivojlantirishga bag'ishlangan tadbirlari o'lka aholisini «**kommunistik ruhda**» qayta tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, ularga yoppasiga «**kommunizm alifbosi**»ni o'rgatashdan iborat edi. 1921 yilgi hukumat qaroriga muvofik 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan savodsiz fuqarolarning hammasi davlat maktablarida va savodsizlikni tugatish kurslarida o'qitilishi lozim edi. 1929 yilga kelib bu kurslarni bitirganlar soni 70 mingtaga yetdi.

1920-yillarning ikkinchi yarmida sovet hokimiyati o'zining siyosiy va iqtisodiy mavqeini yanada mustaqkamlagach, bolshevikcha «**madaniy inqlob**»ga zo'r bsrildi. Yangi ziyoli kadrlarni shakllantirish, eski mavjud milliy ziyolilarni yo'q qilish ana shu maqsadlarni ko'zlab amalga oshirildi.

1928 yilga kelib Sovet hukumati O'zbekistonda eski milliy maktablar faoliyatini batamom taqiqlab qo'ydi.

1930 yili umumiy boshlang'ich ta'lim joriy etilib, 30-yillarning oxirlarida umumiy yetti yillik ta'limni amalga oshirishga kirishildi. Ammo bu sohada sifatga emas songa

qarab yondashuvning ustunlik qilishi, talim-tarbiyada mafkuraviy, sinfiy tamoyilga asoslanganligi jamiyatning madaniy holatiga yomon ta'sir o'tkazdi.

Sovet hukumati Respublikada milliy ta'lim va tarbiya tizimi ildiziga ikki marta halokatli zarba berdi. **Birinchisi**, 1929 yili arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvining lotinlashtirilgan alfavit asosidagi o'zbek yozuvi bilan almashtirilganligi bo'lsa, **ikkinchisi**, 1940 yilda «**O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasi asosidagi yangi alfavitga ko'chirish to'g'risidagi qonun**» edi.

1918 yilning 21 aprelida rus ziyolilari tomonidan Turkiston xalq universiteti ochildi. **Munavvarqori** rahbarligida tashkil etilgan ushbu universitetning musulmon bo'limi - **Musulmon xalq dorilfununi** faoliyati keyinchalik to'xtatib qo'yildi.

1920 yilda **Turkiston Davlat universiteti** (1923 yilda **SAGU**, 1960 yildan **ToshDU**, hozirda **Milliy universitet**) ta'sis qilindi. Universitet tarkibidan keyinchalik 15 dan ortiq oliy o'quv yurti ajralib chiqdi.

1920 yillarning o'rtalarida o'zbek tilida 17 nomda gazeta va jurnallar chiqqan, mahalliy va markaziy kutubxonalar 152 tani tashkil etgan, 2 oliy o'quv yurti, 5 ta muzey, 14 teatr, 19 kinoteatr faoliyat ko'rsatgan.

1922 yilda Turkiston, Buxoro va Horazmdan 70 ga yaqin yoshlar Germaniyaga o'qishga jo'natildi. afsuski, keyinchalik ularning mutaxassis bo'lib qaytganlari mustabidlik qatag'oniga uchradi.

1917 yil Oktabr to'ntarishidan keyin milliy adabiyot rivojida bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi.

1924 yilda Turkiston bolsheviklarning siyosatiga mos holda miliy-davlat chegaralanishi o'tkazilib, sovetlashtirilgach, O'zbekistonda «**Yangi jamiyat**» uchun kurash boshlandi. Jadidchilik ta'qib ostiga olindi. Erkin fikr deyarli to'xtadi.

Adabiyotda yangi tuzumga umid va shubha, e'tirof va e'tiroz kuchayib bordi. Xar xil madaniy-adabiy uyushmalar tashkil topdi. 1919 yilda **Fitrat** boshchiligida Toshkentda tuzilgan «**Chig'atoy gurungi**» uyushmasi yangi o'zbek milliy adabiyoti, tili va madaniyatini yaratish, adabiy-madaniy merosni to'plash va o'rganish, istis'dodlarga xar tomonlama ko'mak berishga harakat qildi. Ikkinchi tomondan, bu davrda sovetlarning g'oyaviy-sinfiy qarashlari ta'sirida totalitar tuzumning mahsuloti sifatida yuzaga kelgan turli ijodiy tashkilotlar, guruhlar, xususan, **proletar madaniyatini** shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan **proletkult** tobora kuchayib bordi.

Ana shu ruhda ijod qiluvchilar uyushmasi bo'lgan «**Qizil qalam**» 1928 yilda tuzildi. 1930 yilda uning o'rniga **O'zbekiston Proletar yozuvchilar uyushmasi** tashkil qilindi. 1934 yilda bu uyushma tugatilib, **O'zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasi** vujudga keldi.

Milliy qarashdagi jadid ijodkorlar Oktabr to'ntarishi g'oyalarini qo'llamasalar-da, millatning dunyoviy siyosiy madaniyatini va saviyasini oshirish uchun kurashni o'z faoliyatlarining bosh maqsadi qilib oldilar.

20-yillarning oxiri va 30-yillarning boshlariga kelib jadid ijodkorlari bilan bir qatorda, **Oybek, H.Olimjon, F.Fulom, Uyg'un, U.Nosir, Elbek, Botu, Abdulla Qahhor, X.Shams, Oydin, Mirtemir, Sobir Abdulla, Zulfiya, Amin Umariy** kabi qalam sohiblari adabiyot maydoniga kirib keldilar.

Bu davrda **Fitrat, Xamza, G‘ulom Zafariy o‘zbek dramaturgiyasining** eng yaxshi namunalarini yaratdilar. Abdula Qodiriy «**O‘tgan kunlar**» (1926), «**Mehrobdan chayon**» (1929) asarlari bilan **o‘zbek romanchilik maktabiga** asos soldi.

Yangi **o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga** poydevor qo‘yildi. Ayni naytda sovet adabiyotining dastlabki namunolari paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, o‘zbek adabiyotining **Fitrat va Cho‘lpon** kabi «keksa» avlodi vakillarining 30-yillarda erkin ijod etishiga yo‘l qo‘yilmadi. Keyinchalik, ya‘ni 1937-1938 yillarda adabiyotimiz va umuman madaniyatimizning eng sara arboblari yo‘q qilindi.

Kompartiya o‘z etiborini adabiyotga kirib kelgan yosh qalamkashlarning kommunistik ruhda shakllanishiga qaratdi. Barcha ijodkorlar partiya va sovet nazoratiga olindi. Sovet adabiyotining ijodiy metodi «**sotsialistik realizm**» deb belgilanib, undan tashqari bo‘lgan ijod rad etildi. Natijada sotsialistik g‘oyalar, sinfiy kurash, kollektivlashtirish mavzulari o‘zbek adabiyotida birinchi o‘ringa chiqqan boshladi, kommunist obrazi bu adabiyotning asosiy obraziga aylandi.

Ammo shunga qaramay bu davr adabiyoti muvaffaqiyatlarga erishdi. Masalan, tarjima badiiy ijodning muxim sohalaridan biri sifatida rivojlanib, o‘zbek yozuvchilari ijodiga roman, qissa, sonet, ballada, ocherk singari yangi janrlar kirib keldi.

Madaniy sohalarni mafkura izmiga solish din masalalarini xam chetda qoldirmadi. Marksizmga asoslangan sovet mafkurachilari islomning yuksak ilmiy-madaniy qimmatini inkor etib, unga nisbatan eski, qoloq, reaksiyon qarashlar degan ustqurmani tanlab oldilar.

Shuning uchun ham dinga va ruhoniylarga qarshi 30-yillarda «sovuq urush» e‘lon qilindi. Buning uchun maxsus “Kurashchan xudosizlar” tashkiloti tuzildi.

Sovetlashtirish siyosati **kino san‘atiga** ham kirib bordi va o‘z izmiga soldi. Ma‘lumki, **o‘zbekkinosining** shakllanishida kinooperator Hudoybergan Devonovning hizmatlari katta bo‘lgan.

Dastlab 1923 yilda Turkiston kino tashkiloti, 1924 yili «Buxkino» tashkil topdi. Bir qator xronikal, ilmiy-ommabon, hujjatli filmlar bilan «O‘lim minorasi», «Musulmon qizi» badiiy filmlari ham iishlab chiqildi.

1925 yilda har ikkala kino tashkiloti birlashtirilib, «**O‘zbek Davlat kino**» trest va uning qoshida «**Sharq yulduzi**» **kinofabrikasi** tashkil etildi.

1929 yilga kelib xronikal jurnalning 60 soni ekranga chiqarildi. «**Ikkinchi xotin**», «**Chodira**», «**Rovot qashqirlari**» kabi filmlar ishlandi.

30-yillarga kelib bu sohada anchagina milliy kadrlar yetishib chiqdi. **M.Qayumov, K.Yormatov, S.Ho‘jayev, N. Baniyev, E.Damroyev, G‘.A‘zamov, N.Rahimov** shular jumlasidandir.

Nabi G‘aniyev «**Ramazon**», «**Yigit**», G‘.A‘zamov «**Qilich**» singari filmlarni ekranga chiqardilar.

1937 yilda yaratilgan birinchi o‘zbek ovozli «**Qasam**» **badiiy filmi** madaniy hayotda muhim voqea bo‘ldi. 1939 yilda «**Azamat**» filmi ekranlashtirildi.

Shu yillarda **musiq va teatr san‘atida** xam iste‘dodli milliy kadrlar yetishib chiqdi. **M.Qori Yoqubov** tomonidan birinchi bo‘lib 1926 yilda **o‘zbek xalq musiq ansambli** tashkil etildi. Uning zaminida 1929 yili **O‘zbek davlat musiqali teatri**

tashkil topdi. O'zbek milliy musiqasini rivojlantirishda o'zbek kompozitorlaridan **To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Muhtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Mutavakkil Burhonovlar** ko'p mehnat qildilar.

O'zbek musiqa va vokal madaniyatining rivojlanishida 1936 yili Toshkentda ochilgan **davlat konservatoriyasi** muxim rol o'ynadi.

O'zbek milliy teatri rus, ozarbayjon, tatar teatr tomoshalari tasirida paydo bo'ldi. Bu ishda jadidlar jonbozlik ko'rsatdilar. Chunonchi, 1914 yilda «**Turon**» nomli madaniy va ma'rifiy jamiyat qoshida «**Turkiston**» nomi berilgan ilk havaskorlar truppasi **A.Avloniy** tomonidan tashkil etiladi. Truppada o'zbek milliy teatriing tashkilotchilaridan **M. Uyg'ur, mashhur dramaturg F. Zafariy** va boshqalar ijod qilgan. Uning repertuarida **Hamzaning «Zaharli xayot», Behbudiyning «Padarkush», A.Kodiriyning «Bahtsiz kuyov»** kabi spektakllari bo'lgan.

O'qituvchi bu drammruppa, keyinchalik **Hamza nomli akademik - hozirgi Milliy teatrimizning** tashkil topishida asos bo'lganligini ko'rsatib o'tishi muhim.

Jumladan, **M. Uyg'ur** 1918 yili shu jamiyat qoshida **o'zbek teatr truppasini** tuzadi. 1920 yilda u **O'lka Davlat namuna teatriga** aylantiriladi. 1925 yili bu teatr jamoasi Qo'qondagi Hamza tuzgan teatr truppasi bilan ko'shilib, Samarqandda faoliyat ko'rsatgan. 1929 yilda esa u **Hamza nomidagi O'zbek davlat drama teatri** maqomini olib, Toshkentda ish boshlagan. Respublikaning eng iqtidorli ijodiy kuchlarini birlashtirgan jamoa tez kunda **O'zbekistoi teatr madaniyatining** markaziga aylandi.

Teatrning birinchi aktyorlari **A.Hidoyatov, O.Jalilov, S.Olimov, Ziyo Sadrlar** xalq orasida zo'r e'tibor qozondilar. Keyinchalik ushbu jamoaga **SH.Burhonov, O.Ho'jayev, N.Rahimov, G'A'zamov, S.Eshonturayeva** singari aktyorlar kelib qo'shildilar.

30-yillarda teatrning **Shekspir («Xamlet», «Otello»), Hamza («Boy ila xizmatchi»)** asarlari asosida sahnalashtirilgan spektakllar shuhrat qozondi.

1928 yilda rus, 1929 yili **O'zbek yosh tomoshabinlar teatri** tashkil etildi. 1939 yilda **Davlat opera va balet teatri** ochildi.

1940 yilga kelib respublikada turli janrlarda 50 ta, jumladan, 47 ta milliy teatr ishlab turdi.

Bu davrda rus **rassomlari** tomonidan targ'ib etilgan tasviriy san'atning o'lka madaniyati uchun yangilik bo'lgan **rangtasvir, plakat, kitob va matbuot nashrlariga** mo'ljallangan **grafika, haykaltaroshlik** kabi turlari rivojlandi hamda yangicha hayot uchun kurashda kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Milliy kadrlar tayyorlashda **Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarda** tuzilgan **badiiy maktablar**, ochilgan **muzeylar**, shuningdek, rus **rassomlari (L.Bure, A.Nikolayev, A.Volkov, P. Benkov va b.)** muhim rol o'ynadi.

30-yillarning boshlarida **O'zbekistonda tasviriy san'at** ham rivojlandi. Bu yillarda **O.Tansiqboyev, B.Hamdamiy, A. Siddiqiy, L. Abdullayev, L.Nasriddinov** kabi o'zbek rassomlari ijod qilishga kirishgan edilar.

1938 yili **O'zbekistan rassomlar uyushmasi** tashkil etildi.

20-yillarda Respublikada dastlabki **ilmiy-tadqiqot muassasalari** ochildi.

20-yillar ohiri va 30-yillar boshida **Tropik tibbiyot instituti, Tibbiy parazitologiya va gelmintologiya ilmiy-tadqiqot instituti** hamda boshqa **ilmiy-muassasalar** tashkil topdi.

30-yillarda Respublikamiz hamda mintaqada ilm-fan ravnaqiga munosib hissa qo'shgan mahalliy millatga mansub olimlar yetishib chiqdilar. **Qori-Niyoziy, T.Sarimsoqov, O.Sodiqov, N.Dolimov, S.Yunusov, T.Zohidov, CH.Mo'minov, Y.G'ulomov, P.Soliyev** va ko'pgina olimlar yangi ilmiy yo'nalishlar hamda ilmiy maktablarning asoschilari bo'lib qoldilar.

Ilmiy tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirib turish uchun 1932 yili **Fan qo'mitasi** ta'sis etilib, 1940 yilda **Ittifoq Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali - O'z FAN** tuzildi.

«Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek halqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi»ni bayon qilishda O'zbekiston ishchi va mehnatkashlari bilan bir katorda, fan, maorif va madaniyat hodimlarining ushbu g'alabani qo'lga kiritishdagi hissalarini katta bo'lgani atroflicha ochib beriladi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq, O'zbekistonning boy manaviy madaniyatining qudratli salohiyati fashizmni tezroq, tor-mor qilishga safarbar qilindi.

Urush sharoitidagi ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishlari front va xalq ho'jaligi talablari hamda manfaatlariga moslashtirildi. Bu ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida 1943 yil noyabrda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etildi. Uning tarkibidagi 22 ta ilmiy muassasada 818 ilmiy xodimlar tadqiqot ishlarini olib bordilar O'zbekistonlik **matematika, fizika, mehanika** fani sohasidagi olimlar **aviatsiya, o'q-dori, harbiy texnika** sifatini oshirishga aloqador bo'lgan bir qancha ilmiy muammolarni hal qildilar.

Geolog olimlar qisqa muddatlarda **qalay, volfram, molibden, neft, toshko'mir, olovbardosh materiallar** konlarini topdilar.

Kimyogar olimlar **etil spirti, sirka kislotasini va qamishni quruq qayta ishlash natijasida ko'mir briketini** olishning yangi usullarini ishlab chikdilar. Respublika botaniklari **g'o'za, bug'doy va qand lavlagining** almashlab ekish usulini joriy etdilar.

O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning kimyo fakultetida urush davri tibbiyoti uchun zarur bo'lgan **narkoz efiri, xlorli kalsiy, kofein, streptotsit, sulfidin, nikotin kislotasi** ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Fakultet bazasida farmatsevtika zavodi tashkil etilib, maxalliy xomashyodan 15 ta yangi dori preparatlarini ishlab chiqarish usullarini kashf etdilar.

Tibbiyot olimlari **yaradorlarni tez tuzatish, gazdan zaxarlanish, karaxtlik, sepsisni** davolash usulini yaxshilash, **jarrohlik, neyroxirurgiyani** takomillashtirish bo'yicha samarali ish olib bordilar.

Metallurgiya, mashinasozlik, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi olimlar xam barakali mehnat qildilar. Urush yillarini qiyinchiligiga qaramay, O'zbekistonda Oliy va o'rta mahsus va maorif muassasalarining faoliyati to'xtab qolmadi. 1943 yil Respublikada 41 ta oliy o'quv yurti (ularning 12 tasi ko'chirib kelingan) va 50 ta o'rta maxsus bilim yurti faoliyat ko'rsatib, ularda urush yillari

davomida 20 mingdan ziyod oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar yetishtirildi.

Urush asoratlari umumta'lim makgablari faoliyatiga ta'sir qildi. O'qituvchilarning frontga yuborilishi, 350 dan ortiq maktab binosi xarbiy qismlar ixtiyoriga berilishi natijasida maktablar soni qisqardi. Lekin barcha qiyinchiliklarga qaramasdan umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi qonunni bajarish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi.

Og'ir sinov yillarida dushmanga qarshi umumhalq kurashiga **o'zbek adabiyoti** munosib xissa ko'shdi. **Oybek, H.Olimjon, Shayhzoda, F.Fulom, Uyg'un, S.Abdulla, Zulfiya, A.Qahhor** kabi shoir va yozuvchilar xalqni g'alabaga ruhlantiruvchi asarlar yaratdilar.

G'afur G'ulomning «Sen yetim emassan» she'ri urush yillaridagi she'riyat dostoniga o'chmas satr bo'lib kirdi.

Bu davr adabiyotining o'ziga hos xususiyatlaridan biri shundaki, **M.Ismoil, I.Muslim, Nazarmat, A.Rahmat, N.Safarov, I.Raxim, S.Jo'ra, Z.Fathullin** singari yozuvchi va jurnalistlar armiya saflariga jalb etilib, o'zbek tilida nashr etilgan front gazetalarida xizmat qildilar. Ular yurtdoshlarining harbiy jasoratlarini o'z ko'zlari bilan ko'rib, front xaqiqati bilan yo'g'rilgan she'r va ocherklar yozdilar. O'sha kezlarda Toshkentga evakuatsiya kilingan 200 ga yaqin yozuvchilar bilan O'zbek adiblarining hamkorligi yanada mustahkamlandi.

Dramaturgiya sohasida o'zbek xalqining dushmanga qarshi kurash sahifalarini aks ettiruvchi **«Muqanna» (H.Olimjon), «Jaloliddin Manguberdi» (M.Shayhzoda), «Mahmud Torobiy» (Oybek)** kabi dramalar yaratilib, sahnalashtirildi.

O'zbekistonning **teatr va musiqa san'ati arboblari** ham fashizmga qarshi faol kurashchilar safida bo'ldilar. Shu yillarda 35 ta mahalliy, 16 ta ko'chirib keltirilgan teatr ish olib bordi. **Bularda 203 ta yangi postanovka, 18568 marotaba spektakl va konsertlar ko'rsatildi.**

Urush yillarida Respublikamiz san'at ustalari 30 ta konsert brigadalariga bo'linib, frontdagi jangchilarga 35 ming, gospitallarda esa 26 ming konsert ko'rsatdilar.

Urushdagi g'alabaga **o'zbek kino san'ati** xam o'z hissasini ko'shdi. Bu sohada **K.Yormatov, N.G'aniyev, G'.A'zamov**, Toshkentga evakuatsiya qilingan kino ustalarining hamkorligida 3 ta film-konsert, 10 ta ovozli badiiy film yaratdilar. Ular orasida **«Nasriddin Buxoroda», «Tohir va Zuhra»** filmlari **o'zbek kinosi dovrug'ini dunyoga taratdi.**

Vatanparvarlik va insonparvarlik mavzulari **tasviriy san'atning barcha janrlarida** asosiy o'rinni egalladi.

A.Abdullayev, CH.Ahmarov, O'.Tansiqboyev, M.Nabiyev, O.Tatevosyan, V.Ufimsevlarning asarlari jahon urushi badiiy yilnomasiga muhim xissa bo'lib qo'shildi. Bular ichida, ayniqsa, **O'.Tansiqboyevning «Ko'qqisdan berilgan zarba», »Partizanlar»** deb nomlangan polotnolari diqqatga sazovordir.

Shunday qilib, urushda ko'lga kiritilgan g'alabaga **O'zbekiston fan va madaniyat xodimlari** o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan munosib hissa ko'shdilar.

O'qituvchi sovet hokimiyataning ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davridagi O'zbekistonning madaniy hayotini quyidagicha xulosalagani ma'qul:

Bu davr Respublikamizning madaniy hayoti savodxonlikning ortishi, aholi umumiy saviyasining yuksalishi bilan e'tiborli bo'ldi. Ammo 20-yillarning oxirlarida mamlakat hayotida ma'muriy buyruqbozlik tizimi tarkib topa boshladiki, u Respublika ijtimoiy-madaniy sohalarining yangidan barpo bo'lishini sekinlashtarib qo'ydi. E'lon qilingan sotsialistik insonparvarlik, adolat haqidagi g'oyalar bilan haqiqiy voqelik o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ldi. Ular milliy-ma'naviy hayotning asl mohiyatini noto'g'ri tushunish va ko'p asrlik ma'naviy qadriyatlarlardan voz kechish bilan ifodalanadi.

O'zbekistonning fashizmga qarshi urush yillaridagi fani, maorifi va madaniyati ikkinchi jahon urushiga bag'ishlangan mavzu tarkibida o'tiladi. Shu sababli bayon etilayotgan mavzuniig davomi sifatida Respublikamizning 1946—1990 yillardagi, ya'ni urushdan so'ng to mustaqilikka erishilgunga qadar kechgan madaniy hayoti o'rganiladi. 1946-1990 yillardagi mamlakatimiz madaniy xayotini ko'rib chiqishda faktik materiallar keng jalb qilinadi.

Dastavval, 1949-1952 yillarda O'zbekistonda qatag'onlikning yangi to'liqini asosan **madaniyat va fan arboblari**ga qaratilganligi, ularning asarlarida guyo millatchilik g'oyalari «mavjudligi» ayblash uchun bahona bo'lganligi qayd etaladi.

Buning oqibatida **Oybek, Mirtemir, Shayhzoda, M.Boboyev, Turob To'la, S.Abdulla, Habibiy** va boshqalarning nomlari badnom qilindi. **Shayhzoda, Shukrullo, Shuhrat, S.Ahmad** va boshqalar uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etildilar. Olimlardan: **H.Sulaymon, A.Boboxo'jayev, O.Aminov, V.Zohidovlar** o'z lavozimlaridan bo'shatildilar.

Shu bilan birga, afsonaviy **folklor syujetlariga asoslangan opera, balet ham, musiqa drama spektakllari ijodkorlari ham «zaharli» g'oyalarni targ'ib qilishda ayblandilar.**

O'zbekiston madaniyatining asossiz qatag'on qilingan ko'pgina arboblari 1956 yilda shahsga sig'inish fosh etilishi sharofati bilan batamom oqlandilar.

Shuni ta'kidlash joizki, ko'rsatilayotgan davrda O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalarining moddiy-tehnika jihatdan ta'minlanishi bo'yicha sobiq Sovet Respublikalari o'rtasida eng quyi pog'onada turardi. Masalan, 1969 yilda Rossiya aholisinit 10 ming nafariga 14 klub muassasasi to'g'ri kelsa, O'zbekistonda atigi 4 ta edi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarga davlat tomonidan ajratilgan mablag' aholi jon boshiga Estoniyada 21, 3 so'mni, O'zbekistonda 4, 5 so'mni tashkil qilardi.

Bu holat umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham mavjud edi. 1980-1981 o'quv yilida Respublikamizda mavjud maktablarning 69%i nobop binolarda joylashgan, 700 tasi avariya holatida bo'lib, qishloq maktablarining 75%ga yaqini vodoprovod va kanalizatsiyaga, yarmidan ko'prog'i markaziy isitish moslamalariga, oshxona va sport zallariga ega emas edi.

Fan, madaniyat va xalq ta'limiga qilinadigan sarf-xarajatlarni qo'shib xisoblaganda, ular byudjet mablag'larinig 2,7% foizidan ortmas edi.

Maktablar o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlangan bo'lsa ham, biroq oliy ma'lumotlilar ularning uchdan ikki qismini tashkil etardi.

Maktablarda ijtimoiy fanlarni o'qitish o'ta siyosiyashtirilgan bo'lib, O'zbekiston tarixi juda kam xajmda o'qitilardi. Ko'zdan kechirilayotgan davrda maorif sohasida

erishilgan yutuqlar bilan birga, yoshlarni milliy an'analar va ma'naviy-madaniy manbalardan uzoqlashtirish an'anasi ko'zga tashlanib bordi.

Umumta'lim maktablarining faoliyati o'sha davrda madaniy-ma'naviy hayotning barcha jabhasini qamrab olgan «rivojlangan sotsializm» g'oyasini o'quvchilarga singdirish, ularni «kommunistak ruhda» tarbiyalashdan iborat bo'ldi.

1985 yilda oliy o'quv yurtlari soni 42 tani, talabalar soni 285.5 ming kishini tashkil qildi. Shuningdek, Respublikada 249 ta o'rta maxsus bilim yurtlarida 281.7 ming o'quvchi bilim oldi. Biroq bu mikdor ko'rsatkichlaridagi siljish bo'lib, sifat ko'rsatkichlari bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassislar jahon g'alabalaridan orqada edi.

60-yillarning boshlarida **«shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat»** to'g'risidagi nazariya madaniyatlarning gullab-yashnashi va bir-biriga yaqinlashuvi to'g'risidagi yangi nom bilan almashtirildi.

U amalda millatlar bir-biriga qorishib, chatishib ketishi va shonli sovet xalqi tashkil topadi, degan ma'noni anglatar edi. Binobarin, bu **baynalminal madaniyat** yaratishga erishish vazifasini amalga oshirishni bildirardi.

Bunday milliy siyosat yoshlarni milliy-ma'naviy ildizlardan ajratib, milliy iftihar tuyg'ularini bo'g'ib qo'ydi. Respublikada urushdan keyingi yillarda fan sohasida yutuqlar qo'lga kiritildi. 80-yillarning o'rtalarida ilmiy-tadqiqot muassasalarinint soni 100 dan ortdi. Ularda fanning turli sohalari bo'yicha tadqiqotlar olib borildi, yuqori malakali jahon tan olgan olimlar masalan, **H.Abdullayev, O.Sodiqov, Q.Niyoziy, S.Yunusov** va boshqalar yetishib chikdi.

Biroq mustabid tuzumning ma'muriy buyruqbozlik usulini qo'llashi, yuqoridan turib «ko'rsatma» berishlar erkin ijodiy muhitni bo'g'ib, o'z salbiy ta'sirini o'tkazmay qo'ymadi. 1946-1991 yillar orasida O'zbek adabiyoti o'z taraqqiyotining murakkab va turli bosqichlaridan iborat davrni bosib o'tdi. Bular ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish yillarini (1945—1956); Stalin shaxsining fosh etilishi va xrushchevcha «iliqlik» yillarini (1956-1964); «Rivojlangan sotsializm» g'oyasi olg'a surilgan yillarni (1964-1985); «Qayta qurilish» yillarini (1985—1991) o'z ichiga olgan har to'rt bosqich shu yillarda ro'y bergan ijtimoiy voqealarga ko'ra nomlangan bo'lib, o'zbek adabiyotining taraqqiyot yo'li va tamoyillari ham shu davrda turlicha ko'rinishga ega bo'ldi.

Urushdan keyin partiya tomonidai yozuvchilarga sovet voqeligi uchun tipik bo'lmagan nuqsonlar va qiyinchilik tasviridan qochish hayotni «gulgun» ranglar bilan aks ettrish vazifasi topshirildi. Xayotda biror kamchilik ko'rgan har qanday ijodkor ta'qibga uchradi.

O'sha kezlarda adiblar va madaniyat xodimlariga nisbatan o'tkazilgan katag'onlik haqida yuqorida so'z yuritilganligi uchun, asosiy e'tibor bu davrdagi adabiyotning asosiy mazmunini nima tashkil etganligiga qaratiladi.

Urushdan keyingi davrda yana sotsialistik g'oyaviylikka zo'r berildi. Oybek **«Oltin shabadalar»**, Parda Tursun **«O'qituvchi»**, Asqad Muhtor **«Opa-singillar»**, Abdulla Qahhop **«Qo'shchinor chiroqlari»** romanlarini yozdilar. Bundan keyin qator qissa va dramalar yaratildiki, bular o'zbek adabiyoti «hosili» barakali bo'lganidan dalolat beradi.

She'riyatda tinchlik mavzusi keng ishlandi (**F.Fulom, Uyg'un, Zulfiya, Mirtemir**).

1956 yilda Stalin shaxsiga sig'inishning fosh etilishi munosabati bilan sovetlar mamlakati tarixiga «xrushchevcha iliqlik yillari» deb kirgan yangi davr boshlandi. Mamlakatda biroz bo'lsada, demokratik mezonlar tiklanishi adabiyotda o'z samarasini berdi. Barcha adabiy tur va janrlarda ijod kuchaydi.

60-yillarda adabiyotda yangi avlod paydo bo'ldi. **Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'.Umarbekov, E.Voxidov, A.Oripov, O'.Hoshimov, M.Ali, O.Matjon, R.Parfi** kabi ijodkorlar ijodida o'tmish va bugunni yangicha idrok etish, ijtimoiy turmush masalalariga adolat nuqtai nazaridan qarashga urinish ular maqsadining eng muhim xususiyatlarini tashkil etdi.

70-yillardan sovetlar mamlakatida boshlangan turg'unilik xolati davrida ijodiy erkinlik bo'g'ila boshlandi. Shunga qaramay yuqorida nomlari zikr kilingan adiblar va ularning izdoshlari mustamlakachilik va turg'unlik davri illatlariga qarshi adabiy ijodning **hikoya, she'r va publitsistika kabi usullaridan** foydalandilar.

Qayta ko'rish siyosati jamiyatning mazmun jihatdan yangilanishini ta'minlagan bo'lsada, biroq uning natijasi shu bo'ldiki, xalqlarda o'ziga xos milliy uyg'onish yuz berdi.

Qayta qurish davrida o'zbek adabiyoti yangi izga tushib, hayot haqiqatini tasvirlash, yaqin va olis o'tmishni markscha-lelincha aqidalardan xoli holda aks ettirish yo'lidan rivojlana boshladi. Bu davrda **publitsistika** o'zbek adabiyotining yetakchi janriga aylandi.

Publitsistlar Orol fojiasi va boqsha fojialar to'g'risida bong urib, o'zbek tilining Davlat tili maqomiga erishishi uchun kurashni boshlab berdilar, o'tmishda jabrdiyda bo'lgan yozuvchilar ijodini qayta baholash va adabiy xizmatlarini tiklash masalasini ko'tardilar.

1989 yil 21 oktabrda o'zbek taliga Davlat tili maqomining berilishi respublika ijtimoiy-madaniy hayotida katta tarixiy voqea bo'lib, mustaqillik sari tashlangan muhim qadam bo'ldi.

Mazkur davrda milliy-madaniy merosimizni o'rganishga bo'lgan qiziqish o'sdi, u ijtimoiy ehtiyojga aylandi, **milliy marosimlar, an'analar**ga munosabat o'zgardi. Xususan, dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni va rolga e'tibor kuchaydi. Diniy erkinliklar himoya qilina boshlandi.

O'qituvchi urushdan keyingi yillarda mustabid tuzumning milliy madaniyatni cheklashlariga qaramay, O'zbekiston san'ati rivojlanishda ma'lum natijalarga erishganini qayd etadi. Bu rivojlanish ziddiyatlarga tula bo'lsada, 1946—1990 yillarda O'zbekistonning teatr, kino, musiqa, tasviriy san'atida xalqning milliy ruhini teran aks ettirgan asarlar yaratildi. Masalan, **teatr san'atida «Oltin devor» (E.Vohidov), «Kelinlar qo'zg'oloni» (Said Ahmad), «Temir Hotin» (SH.Boshbekov), kino san'atida «Mahallada duv-duv gap» (SH.Abbosov), «O'tgan kunlar», «Maftuningman», «Yor-yor» (I. A'zamov), «Suyunchi», «Armon», (M.Abzalov)** va boshqalar o'sha yillar mahsulidir.

O'zbekistonda **musiqa san'ati** bu davrda rivoj toddi. Yangi musiqiy jamoalar - «Lazgi», «Shodlik», «Bahor» xalq raqs, «Yalla» vokal-cholg'u ansambllari, **M.Ashrafiy, M.Burhonov, M.Leviyev, T.Sodiqov, I.Akbarov, S.Boboyev,**

D.Zokirov, D.Ilyosov kabi bastakor va kompozitorlar bilan hamkorlikda yaratilgan yangi konsertlari bilan xorijiy mamlakatlarga tanildilar.

O'zbek **an'anaviy qo'shiqchilik san'ati akademik Yunus Rajabiy** nomi bilan bevosita bog'liqdir. U 5 jildli «**O'zbek xalq musiqasi**» to'plamini, «**Shashmaqom**»ning 6 jildini nashr ettirdi.

1963 yilda **O'zbekiston Davlat teleradiokomnaniyasi qoshida estrada orkestri** tashkil etilganidan so'ng **estrada qo'shiqchiligi** jadallashdi.

Botir Zokirov o'zbek estradasinig asoschilaridan biri va xushovoz xonanda sifatida xalq orasida shuhrat qozondi.

Shuni xam aytish kerakki, shu davr **radio va televideniyesi, matbuoti** xalq ommasini «**kommunistik**» ruhda tarbiyalashda «**sotsialistik madaniyat**»ning faol targ'ibotchi va tashviqotchisiga aylangan edi.

Milliy-ma'naviy madaniyat tarkibida **tasviriy san'at**ning o'zni alohida ekanligini ta'kidlash zarur.

Qayd etish lozimki, 1946-1991 yillar ichida monumental rassomchilikda **CH.Ahmarov, B.Jalolov, manzara janrida U.Tansiqboyev, N.Karaxan, portret janrida A.Abdullayev, M.Nabiyev, maishiy janrda R.Ahmedov, M.Saidov, Z.Inoyumov, rangtasvirda J.Umarbekov, R.Choriyev, A.Mirzayev, dastgox xaykaltaroshlitida D.Ruziboyev, M.Musayev, N.Boymatovlar** samarali ijod qilar.

50-80 yillarda **shaharsozlik** sohasida yuz bergan tub o'zgarishlar Respublikada monumental san'atning tez taraqqiy qilishiga sabab bo'ldi. Jamoat binolari va ma'muriy binolarning qiyofasi monumental san'at asarlari bilan boyitila boshlandi.

Rangtasvirchi rassomlar ijodida davrning eng muxim muammolarini aks ettirish ustuvor bo'ldi.

Qayta qurish davrida rassomlar ijodida azaliy kadriyatlar bilan zamona ruhining bog'lanishi muammolariga e'tibor kuchaydi.

Madaniyat masalalari hususida so'z yuritilar ekan, O'zbekistonning bu davrdagi **xalqaro madaniy aloqalari** hususida qisqa to'xtab o'tish joiz.

Chunonchi, 1958 yilda Toshkentda chet mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy aloqalar o'rnatish O'zbekiston jamiyatining tashkil etilganligi Rrespublikamizning **xalqaro madaniy aloqalari** rivojida muhim o'rin tutdi. Bu jamiyat 1980 yilga kelib, 118 ta mamlakat bilan aloqa o'rnatgan edi.

Umuman, 1946-1991 yillarda **O'zbekiston milliy madaniyatining** rivojlanishida ma'lum yutuqlarga erishildi. Ammo sovet «**madaniy siyosati**» natijasida o'zbek xalqi o'z yerida o'zini erkin xis qilolmasdi, haqiqiy **madaniyat an'alaridan, tarixiy madaniyatidan ko'p jihatdan mahrum bo'lgan edi.**

Bu davrda **dostonchilik va baxshichilik, ertakchilik** yaxshigina taraqqiy etdi deyishimiz mumkin. O'qituvchi shu o'rinda mavzuga doir ayrim misollarni keltiradi:

Haydar Boycha o'g'li (1882-1970). Yangiqo'rg'on tumanilik **o'zbek xalq baxshisi, ertakchisi.** Amakivachchasi CHo'liboy Ko'shal o'g'liga shogird tushgan. Haydar Boychadan «Qunduz bilan Yulduz», «Alpomish», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Go'ro'g'lining Avazni olib kelishi», «Avazning arazi», «Yusuf va Ahmad» kabi dostonlar, xalq ertaklari va termalar yozib olingan. Uning ko'pgina ertaklari «O'zbek xalq ertaklari» to'plamida nashr etilgan.

O'taniyoz Jirov (1884-1970). Qoraqalpog'istonlik oqin. Erpo'lat oqinning shogirdi. Yoshligidan xalq qo'shiqlarini kuylagan. Dastlab Boyniyoz baxshi qo'shiqlarini yod olib kuylab yurgan. 19 yoshidan esa ustozidan qo'biz chalishni, «Alpomish», «Ediga», «Shahriyor» dostonlarini o'rgangan.

O'taniyoz Jirovdan «Shahriyor» dostonining mukammal varianti yozib olingan. Rus va o'zbek tillariga tarjima qilinib, nashr ettirilgan. Undan yozib olingan doston, qo'biz kuylari, termalar O'zbekiston FA Qoraqalpog'iston filiali kutubxonasida saqlanmoqda.

Durdi Qilich (1886-1950). Turkman **xalq shoiri, baxshisi va xalq og'zaki ijodining bilimdoni. Ertakchisi.** Bolaligidan ko'zi ojiz bo'lgan. Baxshilardan doston aytishni o'rgangan. Ijro etgan dostonlari, yozgan she'rlari o'zbek, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O'z ijodida xalqning o'tmishi, qishloq mehnatkashlarining hayoti, ayollarning xaq-huquqini himoya qilish masalalarini kuylagan.

Yorlaqab Baxshi (1888-1971). Zomin tumanilik o'zbek dostonchisi. Dastlab mashhur baxshilardan Omon baxshiga, so'ngra esa Xudoynazar baxshiga shogird tushib, mohir dostonchi sifatida tanilgan. Yorlaqab baxshi ko'proq Farg'ona vodiysi tuman va qishloqlarida, Qirg'izistonning O'sh viloyatida dostonchilik bilan shug'ullangan. Yorlaqab baxshidan bir qancha an'anaviy va zamonaviy termalar va «Alpomish», «Malikai ayyor», «Choryor» dostonlari yozib olingan.


Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, xonliklar tarkibida bo'lgan hozirgi Tojikistonning janubida yashagan o'zbek-laqay baxshilari ijodi ham hozirgi Dang'ara tumani, Jorbuko'l qishlog'i baxshilari Haybat Shamol o'g'li (XIX asr), To'la Haybat o'g'li (XIX asr II yarmi-XX asr yarmi), Mustafouq Qunduz o'g'li (1883-1966), Shomurod Shamol o'g'li (1883-1964) va boshqalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, bir qancha dostonchilik maktablari ularni bir-biriga birlashtirgan.

1. Sovet tuzumining O'zbekistonda amalga oshirilgan «madaniy inkilob» siyosatining mohiyatini va milliy madaniyatga yetkazgan zarari tug'risida gapirib bering.
2. Xalqta'limi va oliy ta'limning rivojlanishida knday qiyinchilik va zidsiyatlar bor edi?
3. 20 — 30- yillarda badiiy ijod masalasida ikki yunalishni va o'zbek yozuvchilari ijodiga qanday yangi janrlar kirib kelganligini ko'rsatib bering.
4. Milliy istiqlol ruhda ijod qilgan adiblar asarlarida milliylik nimalardan iborat?
5. Bu davrda kiio, musiqa, teatr va tasviriy san'atda qanday o'zgarishlar yuz berdi?
6. Respublikada ilmfanning yuksalishi va olimlarimiz haqida hikoya kilib bering.
7. 20—30- yillar Uzbekistonning madaniy hayotida mavjud bo'lgan asosiy goyavny ziddiyatlar nimalardan iborat edi?
8. Urushdan keyin yozuvchi shoir va olimlar kanday bahonalar bilan ayblanib, qatag'onlikka uchradilar?

9. 1946—1990 yillarda respublikamiz milliy madaniya timing rivojlanishida qanday siljishlar va salbiy holatlar kuzatildi?
10. 1946—1990 yillar orasida o'zbek adabiyoti bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining murakkab bosqichlarini tahlil qilib bering.
11. Qayta ko'rish davrida o'zbek madaniyati kanday ahvolda edi?
12. O'zbekiston fan ahlining ikkinchi jahoi urushi yillarida fashizm ustidan kozonilgan g'alabaga ko'shgan hissasi nimalardan iborat bo'ldi?
13. Xalq ta'limi va mutaxassislar tayyorlash muammosi qay tarzda hal etildi?
14. O'zbek adabiyotining jangovarligini xarakterlab bering.
15. O'zbekistonning teatr, kino, musiqa, tasviriy san'ati arboblari fashizmga qarshi faol kurashchilar safida bo'lganliklariga misollar keltiring.

Mavzuni o'qitishda «**Qanday?**» **texnologiyasidan** foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

«Qanday?» texnologiyasi



“Qanday?” sxemasini tuzish qoidalari

1. Ko'pgina hollarda muammoni yechishda “nima qilish kerak”ligi to'g'risida o'ylanib qolmasligingiz kerak. Asosan muammo, uni yechishda “buni qanday qilish kerak?”, “qanday” asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo'ladi.

“Qanday” savollarining izchil berilishi quyidagilar imkonini beradi:

- muammoni yechish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo‘llarini ham tadqiq qilish;
quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo‘ysunadigan g‘oyalarni tuzilmasini aniqlaydilar.

Diagramma strategik darajadagi savollar bilan ishlashni boshlaydi. Muammoni yechishning pastki darajasi birinchi galdagi harakatlarning ro‘yxatiga mos keladi.

1. Barcha g‘oyalarni o‘ylab o‘tirmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezlikda yozish kerak;


Diagramma hech qachon tugallangan bo‘lmaydi: unga yangi g‘oyalarni kiritish mumkin;

Agarda chizmada savol uning “shoxlarida” bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U muammoni yechishning asosiysi bo‘lishi mumkin;

Yangi g‘oyalarni grafik ko‘rinishda: daraxt yoki kaskad ko‘rinishidami, yuqoridan pastgami yoki chapdan o‘ngda qayd qilinishini o‘zingiz hal etasiz;

Agarda siz o‘zingizga to‘g‘ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo‘nalishini namoyon bo‘lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

«Qanday?» iyerarxik diagrammasining sxematik ko‘rinishi



14-Mavzu: O‘zbekistondagi to‘rtinchi uyg‘onish istiqlool davrida milliy madaniyatning ravnaq topishi

Reja:

1. Istiqlool davrida milliy madaniyatning ravnaq topishi.
2. Mustaqillik yillarida ma‘naviy me‘ros va milliy qadriyatlarga e‘tiborning kuchaytirilishi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent: «O‘zbekiston», 1998.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. Toshkent: «O'zbekiston», 2008.
3. O'zbek adabiyoti. III jild. Toshkent: O'zDavnashr, 1959.
4. O'zbek adabiyoti. IV jild. I kitob. Toshkent: O'zDavnashr, 1960.
5. O'zbek adabiyoti. V jild. I kitob. Toshkent: O'zDavnashr, 1966.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti. I-XII jildlar.

“O'zbekistondagi to'rtinchi uyg'onish istiqlool davrida milliy madaniyatning ravnaq topishi” bilan talabalarni tanishtirish davomida mustaqillik sharofati tufayli xalqimiz ma'naviy zug'umlardan ozod bo'lgani, erkin fikrga, milliy tafakkurga, milliy tiklanishga keng yo'l ochilganligi xususida so'z yuritiladi. Bunda milliy tiklanish o'z-o'zidan sodir bo'lmasliga, buning uchun xalq dunyoqarashini milliy istiqlool ruhida shakllantirish zarurligi xususida gapiriladi. Bu, avvalo, ko'p jihatdan ma'naviyatga bog'liq ekanligini xar bir talaba chuqur anglab olishiga erishish kerak. Shu boisdan mustaqqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz ma'naviy merosini tiklash ishlari boshlanib ketganligiga e'tibor qaratiladi. Zero, jamiyat ma'naviyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Biron bir mamlakat o'z ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlamay turib, yuksak madaniyat taraqqiyoti darajasiga ko'tarila olmaydi.

Ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob meyorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlar majmuidir.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yaratish va o'rganish masalalari partiyaviy, sinfiy yondashuvlardan halos etildi, tarixiy voqealarni xolislik, haqqoniylik, tarixiylik tamoyillari asosida tadqiq etishga kirishildi.

Mustaqillik sharofati bilan **Abduholiq Rijduvoni, Bahouddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Burhoniddin Marg'inoniyning ruhi shod etildi. A.Qodiriy, CHo'lpon, Fitrat, Usmon Nosirlarning nomi, xurmati joyiga qo'yildi.**

YUNESKO qaroriga binoan, 1994 yilda ulug' olim Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, 1996 yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi jahon miqyosida nishonlandi. Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida Amir Temurga haykal o'rnatildi. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi tashkil etildi. 1997 yilda Buhoro va Hiva, 2000 yili Termiz shaharlarining 2500 yillik, Shahrisabz shahrining 2700 yillik bayrami keng nishonlandi. 1998 yilda Imom al-Buhoriy, Ahmad al-Farg'oniylarning 1200 yilligi, 1999 yilda Jaloliddin Manguberdining 800 yilligi, Alpomish dostonining 1000 yilligi, 2001 yilda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi »Avesto«ning 2700 yilligi tantana qilindi. Diniy qadriyatlar qayta tiklandi. Ramazon va Qurbon hayitlari, Navro'z bayramlari dam olish, bayram kuni bo'lib qoldi.

O'zbekiston fuqarolari Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Qur'oni Karim va xadislar chop etildi. Mamlakatimizda o'zbek tiliga davlat maqomi berildi.

Ma'naviyat va madaniyatimizni rivojlantirish yo'lida qo'yilgan muhim qadamlardan biri 1994 yilda Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazining tashkil etilishi bo'ldi. 1999 yilda Toshkentda «Hotira va Qadrlash kuni» munosabati bilan Mustaqillik maydonida «Xotira obidasi», 2005 yil dekabrda «Mustaqillik va Ezgulik» monumenti, 2000 yilda Yunusobod tumani hududida «Shahidlar xotirasi» maydoni majmui yaratildi. Bu ishlarning barchasiga mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov bosh-qosh bo'lmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatda ilm-fanga alohida e'tabor berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 8 iyuldagi Farmoni hamda uni amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fanni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari va innovatsiya faoliyati haqida»gi qarori mamlakatda fanni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Respublika olimlarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga yuborishga alohida e'tibor berildi. Shu yili respublika Vazirlar Mahkamasi xuzurida Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tashkil etilishi munosabati bilan Fanlar akademiyasining mavqei ortdi.

Xozirgi kunda O'zbekiston Fanlar akademiyasi bozor iqtisodiyoti sharoitida fan va texnika, madaniyat va ma'rifat sohasida chuqur va amaliy tadqiqotlarning samarali olib borilishiga asosiy e'tiborni qaratib, 11 ta ilmiy jurnal nashr etmoqda.

Ta'lim sohasida ham katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1997 yilda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda «2004 — 2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» qabul qilindi. Milliy dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy-madaniy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iborat. Uni bajarish esa umumdavlat, umummillat ishiga aylandi.

Isge'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qishni qo'llab-quvvatlash maqsadida «**Sog'lom avlod uchun**», «**Respublika bolalar fondi**», «**Ulug'bek**», «**Istedod**» jamg'armalari tashkil topdi.

Madaniyat sohasidagi tub o'zgarishlar, avvalo, **teatr san'ata, milliy musiqa, me'morchilik, adabiyot sohalarida** yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mustaqillik yillarida «**Turkiston**» saroyi, «**Milliy teatr**», **Davlat konservatoriyasining** yangi binolarining ochilishi, «**O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi**», «**Xalq amaliy san'ati muzeyi**»ning qayta jihozlanishi bu sohaga bo'lgan e'tiborning oshganidan dalolatdir.

Ayni paytda **o'zbek milliy teatr san'ati** rivojlanish va takomillashish jarayonni boshdan kechirmoqda.

Respublikada **musiqa va raqs san'atini** rivojlantirish maqsadida «**O'zbekiston — Vatanim manim**», «**Ofarin**», «**Nihol**» **qo'rik tanlovlari, an'anaviy «Sharq taronalari**» xalqaro musiqa festivallarining tashkil etilishi ayni muddao bo'ldi. Bu sohada ko'plab yosh ijodiy guruhlarining tuzilishi va ular faoliyatini istiqlol sharofatidan deb bilish darkor. Bugun **milliy-an'anaviy qo'shiqchiligimiz** bilan **milliy estrada san'ati** ham tabora rivojlanmoqda.

Mustaqillik **o'zbek adabiyoti** rivojida, **adabiyotshunoslik** fani taraqqiyotida ham yangi bosqichni boshlab berdi. Endi adabiyotga kommunistik partiyaviylik, sinfiylik

singari prinsiplar nuqtai nazaridan qarashlarga barham berildi. Yangi ilmiy va badiiy meyorlarga o'tish boshlandi.

Mumtoz adabiyotga munosabatda diniy adabiyot, feodal-klerikal adabiyot, saroy adabiyoti deyilgan tushuncha va millat adabiyotining reaksiya va progressiv deb ikkiga bo'linib o'rganishdek metodologik xato nazariyalarga chek qo'yildi.

Mustaqillik davri adabiyoti ayni jamiyat yangilanayotgan, hayot yangicha mazmun kasb egayotgan bir paytda ozod so'z, fikr va ozod inson taqdiri bilan bog'liq bo'lgan murakkab hodisani qamrab oldi. Milliy istiqlol adabiyoti shakllanishida badiiy publitsistika o'z imkoniyatlarini ko'rsata bildi. Shuningdek, ushbu adabiyotning shakllanishida **B.Ahmedovning «Amir Temur», T.Malikning «Shaytanat» romanlari, E.Vohidov, O.Matjon, A.Oripov, O.Dojiyeva, U.Doshimov, SH.Holmirzayev, Tog'ay Murod, X.Dustmuxammad, O'.Xoshimov, M.Yusuf** singari shoir va adiblarning badiiy, barkamol asarlari muhim hissa bo'lib qo'shildi.

O'qituvchi mustaqillik sharofati bilan **haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, tasviriy san'at, raqs va kino san'atida** ham ijobiy o'zgarishlar yuz berib, davr bilan hamnafas, an'anaviy va zamonaviy usullar uyg'unlashgan yetuk asarlar yaratilayotgani haqida qisqacha to'xtalib o'tishi lozim.

Yosh iste'dodlarni tarbiyalash, **milliy tasviriy, amaliy, miniatyura san'atimizning** noyob an'alarini boyitish, dunyoga tanitish maqsadida tashkil etilgan **O'zbekiston Badiiy akademiyasi** bu borada jidsiy faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, Badiiy akademiyaning a'zolari tomonidan katta mahorat bilan ishlangan sohibqiron **Amir Temur, Ahmad al-Farg'oniy, Jaloliddin Manguberdi, Alpomish** kabi haykaltaroshlik san'atining go'zal namunalari xalqimiz milliy g'ururi, iftixorini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda **yosh rassomlar G'apb tasviriy san'atini** puxta o'rganib, **avangardizm, modernizm** yo'nalishlarida samarali ijod qilmoqdalar. Albatta, bu milliylik nazardan soqit qilindi, degan gap emas. **Tasviriy san'at milliylik** o'zanida zamonaga moslanmoqda. **Arxitektura va qurilish** sohasida **Sharq va Fapb me'morchiligi** uyg'unlashgan **O'zbekiston Oliy Majlisi, Oq Saroy, Senat, Toshkent shahar hokimiyati binolarini, Toshkentning Chorsu bozori maydoni atrofidagi bino va inshootlarni** misol tariqasida qo'rsatib o'tish muhim.

Kino san'ati ustalari ham, mustabidlik va mustaqillik davrining mohiyatiga badiiyat vositasi bilan ochib berish yo'lida tinmay izlanmoqdalar. So'nggi yillarda ular tomonidan yaratilgan «Otamdan qolgan dalalar», «**Kichkina tabib**», «**Vois**», «**Vatan**», «**Shaytanat**» kabi badiiy filmlar tomoshabinlarga manzur bo'ldi.

Milliy-madaniy merosimizni o'rganish, an'alarimizni saqlash va rivojlantirish, allomalarimiz, fidoyi ajdodlarimiz xotirasini e'zozlash, ularning asarlarini yosh avlodga tanishtirish yo'lida «**Oltin meros**», «**Amir Temur**», «**Ulug'bek**», «**Shahidlar xotirasi**», «**O'zbek muzey**» kabi bir qator jamg'armalar barakali faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Bu yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishda **ommaviy axborot vositalari** ham muhim rol o'ynaydi.


Bugungi kunda **matbuot, televideniye, radio faoliyatini** yanada erkinlashtirish bilan **tele-radio industriya bozorini rivojlantirish**, tijorat va xududiy **nodavlat tele-radiostudiyalarning** faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Xulosa qilganda, O‘zbekiston o‘zining qisqa vaqtidagi mustaqillik yillari davomida iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi yutuqlari bilan bir qatorda, mafkuraviy-ma’naviy, madaniy ishlarga e’tiborini kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o‘z nufuzi va obro‘sinu yuqori ko‘tarmoqda.


1. Mustaqillik yillarida ma’naviy qadriyatlarni tiklash yo‘lida amalga oshirilgan tadbirlar haqida so‘zlang.
2. Milliy istiklol mafkurasi jamiyatimizning taraqqiyot dasturi ekanligini dalillar bilan asoslash.
3. Ilm-fan soxasini rivojlantirish borasidagi ishlar xususida gapiring.
4. Nima uchun O‘zbekiston taraqqiyotida talim ustivor soha xisoblanadi?
5. Ta’lim soxdsida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar hakida so‘zlang.
6. Milliy musiqa, teatr va kino san’ati sohasida qanday ishlar qilindi?
7. Adabiyot va adabiyotshunoslikda qanday tub o‘zgarishlar yuz berdi?
8. Mustaqillik sharofati bilan me’morchilik, tasviriy san’atda ro‘y bergan ijobiy o‘zgarishlar nimalardan iborat?

Mavzuni o‘qitishda **“Baliq skeleti”** chizmasidan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

“Baliq skeleti” chizmasi



Topshiriq: Ijodiy fikr yuritish jarayonini amalga oshirilish jarayonini “Baliq skeleti” chizmasi asosida ishlab chiqing.



X U L O S A o‘rnida shuni aytish mumkinki, Eng qadimgi davridan to XVI–XX asr 20–yillarigacha yurtimizning barcha hududlarida yashagan xalqlarning, xususan, ajdodlarimizning madaniy hayoti tarixiy-geografik hududdagi ijtimoiy–siyosiy tuzum sharoitlaridan kelib chiqqan holda rivoj topdi. Yurtimizning barcha shahar-qishloqlarida madaniy hayotning turli qirra va yo‘nalishlari o‘ziga xoslik asosida rivojlandi. Bu o‘tgan davrlarda yurtimizda hukmronlik qilgan xonlik hukmdorlari o‘rtasidagi va alohida har bir xonlikdagi ichki qarama–qarshiliklar, taxt uchun kurashlar, boylik, mol-dunyo uchun bo‘lib o‘tgan shafqatsiz xunrezliklar va boshqa talaygina o‘ta noxush voqea va holatlar bu rivojlanishni o‘sib borish darajasini anchagina pasaytirib yubordi. Lekin bu jarayonlarga qaramay, yurtimizda yashagan ajdodlarimiz, oddiy mehnatkash xalqdan to ularning ilmi–ziyoli qismigacha o‘zlari yoqtirgan soha va yo‘nalishlarda baholi qudrat ijod qilishga harakat qilganlar.

Madaniyat uning tarkibiy qismi bo‘lgan san‘atning barcha turlari sohasida salmoqli siljishlar, o‘rishlar ro‘y berdi, uning taniqli namoyandalari yetishib chiqdi. Biz ularning qisqacha ijodini manbalar asosida ta’riflash bilan har bir davr madaniyat sohasida o‘z yo‘nalishiga ega bo‘lganligini ochib berishga harakat qildik.

Bu davrda hunarmandchilik nafaqat yirik shaharlarda, balki qishloq joylarda ham o‘ziga xos yo‘nalishda bordi. Aynan shu davrda vujudga kelgan dostonchilik–baxshichilik keyingi asrlardagi yuksalishiga va hozirgi rivojiga mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Ilm–fanning rivoji asosida yuzlab tarixiy–badiiy asarlar, tarjima ishlari yaratildi. Ular madaniyatimiz xazinasida hozirgi kungacha bebaho meros bo‘lib qolmoqda.

Ushbu davrlarda yuzlab turli hajmdagi me’moriy inshootlarning bunyod etilganligi, ta’mir ishlarining bajarilganligi esa moddiy madaniyatning rivoji salmoqli bo‘lganligidan dalolat bermogda.

Bu davrda ham ijod ahli kitobat, xattotlik ishlarida amaliy san‘at, musavvirlik va tasviriy san‘at namunalaridan samarali foydalanib, o‘zlarining betakror san’atlarini yuzlab asarlarga muhrladilar. Adabiyotda, ayniqsa she’riyat ijodida yuqori yutuqlarga erishildi, deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ijodning tarixiy asarlar yaratish, she’riyat sohalari bilan xalqning deyarli barcha qatlami vakillari shug‘ullandilar. Darhaqiqat, o‘sha davrlarda yashab o‘tgan ajdodlarning aksariyati o‘zi shug‘ullanadigan asl kasbi va sohalari bilan bir qatorda o‘zida ijodning she’riyat, musiqa va boshqa yo‘nalishlarini ham astoydil egallaganliklaridan

o'rganilgan ma'lumot va manbalar ham shohidlik bermoqda. O'rni kelganda shuni ham ta'kidlash joizki, XVI asrning yirik mutafakkiri, shoir Hasanxoja Nisoriyning mashhur «Muzakkiri ahhob» asarida keltirilgan XVI asrda yashab, ijod qilgan shoirlar haqidagi ma'lumotlari ushbu kitobning she'riyatga bag'ishlangan bo'limini yanada boyishga sabab bo'ldi.

Shuningdek, qo'qonlik adabiyotshunos olim, shoir Po'latjon Domullo Qayyumovning «Tazkirai Qayyumiy» nomli tazkirasi va unda o'sha davrda yashab, ijod qilgan 300 ga yaqin shoiru shuarolar haqidagi berilgan ma'lumotlarning biz ko'rayotgan davrga tegishli bo'lganlaridan samarali foydalanganligimiz va kitobda hali elimizga deyarli butunlay ma'lum bo'lmagan nomlar va ularning ijodidan namunalar keltirganimiz ham mazkur kitobning nazariy qimmatini oshirdi, deb umid qilamiz.

Shuni ham qo'shimcha qilishni istardikki, ushbu davrlarda madaniyatning o'ziga xos rivojiga davlatlararo madaniy aloqalar ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Buxoro amirligining o'zbek-tojik qo'shiqchilari Hindistonda boburiylar saroylarida bir necha marta chiqish qilganlar.

Bu ma'lumotlar Boqiaiy Naiyning «Zamzamai vahdat» va Vojidiy Alixonning «Matla al-ulum va majma al-Funun» asarlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, o'sha davrlarda yurtimizdagi yirik shaharlarni Turkiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy, Moskva davlati, Qozon xonligi, Novgorod knyazliklari bilan ham faol madaniy aloqalarda bo'lganligini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, ushbu kitobda keltirilgan asosli tarixiy ma'lumotlar, madaniy hayotdagi o'ziga xos rivojlanishlar bayoni o'sha davrlar tarixi, jumladan, madaniyat tarixi haqida bir oz bo'lsa ham qimmatli ma'lumot beradi, degan umiddamiz. O'rni kelganda shuni ham unutmaslik lozimki, bu davrlar tarixini, uning madaniyati tarixini hali nihoyatda ko'p qirralari o'z ilmiy yechimini kutmoqda. Kelajakda bu borada hali talaygina ilmiy izlanishlar olib borilishi, tadqiqotlar o'tkazilishi aniqdir.

“O‘ZBEK XALQI MADANIYATI TARIXI” FANINI O‘QITISHGA DOIR QO‘SHIMCHA MANBALAR

Shuni alohida faxr bilan ta’kidlash mumkinki, xonliklar davrida ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan moddiy madaniyatimizga doir tarixiy-me’moriy yodgorliklar haqida yana talaygina ma’lumotlarimiz bor. Yuqorida esa ularning ayrimlari haqida qisqacha bo’lsa ham ta’rif berib o’tdik. Kitob hajmining birozgina bo’lsada cheklanganligini inobatga olib, ushbu metodik qo’llanmaga tegishli bo’lgan amaliy ishlar haqidagi navbatdagi ma’lumotlarni faqatgina nomlari, bunyod etilgan yillari, joylarinigina quyidagi ro’yxat orqali ko’rsatib o’tishni joiz deb bildik. Ular quyidagilardir:

- Mavlono Lutfullo majmuasi (XX asr boshi). Namangan.
- Matniyoz Devonbegi madrasasi (1872). Xiva.
- Matpanoboy madrasasi (1905). Xiva.
- Muhammad Aminxon madrasasi (1851-1855). Xiva.
- Muhammad Muharram majmuasi (1903). Xiva.
- Nisbatdor masjidi (1901). Samarqand.
- Nodir Devonbegi madrasasi (1630-1631). Samarqand.
- Norbo’tabiy madrasasi (XVIII asr). Qo’qon.
- Nurullaboy saroyi (1865-1912). Xiva.
- Olloqulixon madrasasi (1834-1835). Xiva.
- Olloqulixon karvonsaroyi va timi (1832-1833) Xiva.
- Ota Valixon to’ra masjidi (XX asr boshi). Namangan.
- Ota darvoza (1828-1829) Xiva.
- Otamurod Matriza qushbegi masjidi (1800). Xiva.
- Otajon boy madrasasi (1884). Xiva.
- Otaqo’zi madrasasi (XX asr boshi). Andijon.
- Oq masjid (XVIII-XIX asrlar). Xiva.
- Pansod masjidi (XX asr boshi). Shahrixon.
- Paxlavon Mahmud maqbarasi (1701). Xiva.
- Pandran masjidi (XV-XVI asrlar). Qashqadaryo.
- Polvon darvoza (1806). Xiva.
- Said Ahmadxo’ja madrasasi (XIX asr oxiri). Marg’ilon.
- Said Mahrumjon majmuasi (1884). Xiva.
- Said ota masjidi (XVIII asr). Xiva.
- Said ota masjidi (1766). Xorazm viloyati.
- Said otaliq madrasasi (XVI asr). Surxondaryo viloyati.
- Said Sholikorboy majmuasi (1842). Xiva.
- Samarqand namozgohi (1630). Samarqand.
- Sarroflar hammomi (XVI asr). Buxoro.
- Sirli masjid (XIX asr boshi). Namangan.
- Sitorai Mohi xosa (1825-1920). Buxoro.
- So’fi Olloyor masjidi (1713). Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani.
- Tolib mahsum madrasasi (1910). Xiva.

Toshdarvoza (XVIII-XIX asrlar). Xiva.
 Toqi zargaron (XVI asr). Buxoro.
 Toqi sarrofon (XVI asr). Buxoro.
 Toqi telpakfurushon (XVI). Buxoro.
 To'ramurod minorasi (1888). Xiva.
 To'rt Shabboz majmuasi (1874-1885). Xiva.
 Usmon Said bobo maqbarasi (XVI – XIX asrlar). Xorazm viloyati.
 Uch avliyo maqbarasi (1549, 1821). Xiva.
 Fayzobod xonaqohi (1598-1599). Buxoro.
 Xayrobod eshon maqbarasi (XVIII asr). Toshkent.
 Xalifa Hudoydod majmuasi (1777). Buxoro.
 Xalfa Tillo majmuasi (XX asr boshi). Qo'qon.
 Xarisbobo maqbarasi (XVIII - XIX asrlar). Xorazm viloyati.
 Xiva juma masjidi (1788). Xiva.
 Xudoyorxon saroyi (XIX asr II yarmi). Qo'qon.
 Xurjun madrasa (1688). Xiva.
 Xo'ja A'lambardor madrasasi (XIX asr). Toshkent.
 Xo'ja Amin qabri (XVIII asr). Namangan.
 Xo'ja Baxriddin maqbarasi (XIX asr). Toshkent.
 Xo'ja Doniyor maqbarasi (XX asr boshi). Samarqand.
 Xo'ja Zayniddin Xonaqohi (XVI asr I yarmi). Buxoro.
 Xo'ja Imkonagiy xonaqoh (XVI - XVII asrlar). Qashqadaryo viloyati.
 Xo'ja Mag'iz maqbarasi (XVIII asr I yarmi). Marg'ilon.
 Xo'ja Muharram madrasasi (1839). Xiva.
 Chadoq masjidi (XVIII asr). Namangan.
 Chaqar masjidi (1911). Marg'ilon.
 Chil avliyo minorasi (XIX asr). Xiva.
 Chor minor (1807). Buxoro.
 Chor bakr ansambli (XVI - XIX asrlar). Buxoro.
 Cho'pon ota masjid maqbarasi (XVIII - XX asrlar). Toshkent.
 Shayx Qalandarbobo maqbarasi (XVI asr). Xiva.
 Shayx Husaynbobo maqbarasi (XVI - XVIII asrlar). Xiva.
 Shayxontohur majmuasi (XV - XIX asrlar). Toshkent.
 Sharifboy madrasasi (XVIII asr). Qarshi.
 Sherdor madrasasi (1619-1636). Samarqand.
 Shermuhammad madrasasi (XVII - XVIII asrlar). Qarshi.
 Sherg'ozixon madrasasi (1719-1726). Xiva.
 Shovodxo'ja bobo maqbarasi (XVII - XVIII asrlar). Xorazm viloyati.
 Shohi Zinda ansambli (XI - XX asrlar). Samarqand.
 Shoxi Mardon majmuasi (XIX asr). Xorazm viloyati.
 Yunusxon maqbarasi (1559). Farg'ona viloyati.
 Yusufxon eshon maqbarasi (XVIII asr). Farg'ona viloyati.
 Yusuf Yasovulboshi madrasasi (1906). Xiva.
 O'g'lonjon ota maqbarasi (XVIII - XIX asrlar). Qamashi.
 Qalandarxona masjidi (1909-1910). Kattaqo'rg'on.

Qamashi sardobasi (1892). Qashqadaryo viloyati.
 Qarshi namozogohi, ko'k gumbaz (1590-1591). Qarshi.
 Kaffol Shoshiy maqbarasi (XVI asr). Toshkent.
 Qozi kalon madrasasi (1905). Xiva.
 Qorixona (1863-1877). Xiva.
 Qorixona xonaqohi (XVII - XVIII asrlar). Farg'ona viloyati.
 Qosim shayx xonaqohi (XVI - XX asrlar). Navoiy.
 Qutlug'murod Inoq madrasasi (1804-1812). Xiva.
 Qo'shdarvoza (XX asr boshi). Xiva.
 Qo'qon jome masjidi (1809-1822). Qo'qon.
 G'ishtli masjid (XX asr boshi). Qo'qon.
 G'oyibnazar madrasasi (XIX asr). Namangan.
 Hazrati Imom majmuasi (XVI - XX asrlar). Toshkent.
 Hazrati Xizr masjidi (XIX asr). Samarqand.
 Hasanmurod Qushbegi masjidi (XVIII - XIX asrlar). Xiva.
 Hofiz Ko'xakiy madrasasi (XVI asr). Toshkent.

Ushbu ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, XVI-XX asrlar boshlari madaniyati, ayniqsa moddiy madaniyat sohasida nihoyatda ulkan bunyodkorlik ta'mirlash ishlari amalga oshirilganki, ularning barchasini amaldagi isboti va dalilini ko'rishimiz, kuzatishimiz mumkin.

Yuqorida nomlari keltirilgan xonliklar davri moddiy madaniyatining bebaho durdonalari bo'lmish me'moriy yodgorliklarning barchasini bunyod etilishida o'zlarining zahmatli, zargarona, mahoratli san'atlari va fidokorona mehnatlari bilan ulkan hissa qo'shgan me'mor ustalarning o'rni, mehnati va san'ati alohidadir. Ushbu davrlarda xalq orasidan yetishib chiqqan yuzlab bunday me'morlar yashab, ijod etib, o'zlariga o'lmas haykal yasab ketganlar deb aytilsa, mubolag'a bo'lmas. Quyida ulardan ayrimlarining nomlari va xizmatlari haqida ham qisqacha ta'rif berishga jazm qilindiki, maqsad, aziz o'quvchi ular haqida ham bir oz ma'lumotga ega bo'lsinlar.

Izohli soʻzlar

Axtar	yulduz
Anfo	nafas, dam
Ashjor	daraxtlar
Amaliy sanʼat	xalq ijodiyotining muhim sohasi; Kundalik turmushda keng qoʻllaniladigan uy-roʻzgʻor buyumlari va boshqalarni shakl va badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan sanʼat darajasida yaratilishi
Arsa	1. Maydon, yalang joy; 2. Kenglik; 3. Olam, dunyo
Ashraf	eng sharaflı, eng hurmatlı
Abr	bulut
Afshon	sochuvchi, taratuvchi
Anbar	yoqimli hid, is
Amal	ish, ijod mahsuli. Sanʼatda kuy yoki qoʻshiqning yaratilgan shakli.
Baxr	suv, ummon
Bobur	sher
Boron	yomgʻir
Biym	xavf-xatar, qoʻrqinch, tahlika
Behjat	quvonch, shodlik
Bebok	dangalchi, uyatsiz
Behbud	1. Yaxshilik, toʻgʻrilik; 2. Foyda, najot
Badeʼ	goʻzal, nafis
Vaqf	bagʻishlangan, atalgan, tegishli
Voras	ozod, xalos
Vozeħ	aniq, ravshan, haqiqiy
Vahdat	birlik, yakkayu-yagonalik, tanholik, yolgʻizlik
Ganj	xazina
Gardun	osmon, falak

Daxi	o‘nlab
Dovot	siyoh
Dovar	hukmdor
Dabir	saroy kotibi
Jovidon	abadiy, mangu
Jovdona	abadiy
Ja‘di	bola
Zaliliy	(taxallus) - ma‘nosi - xorlikda, tubanlikda bu dunyo ishlaridan voz kechish, butunlay taqvorlikka berilish
Zumra	1. bo‘lak, qism; 2. xil, jins
Iydi	bayram, xayit bayrami
Itob	ta‘na, minnat, qahr-g‘azab
Kisvat	1. Kiyim, libos; 2. CHO‘ntak, kissa; 3. Ko‘rk, boylik
Koshin	1. Bezak uchun maxsus pishitilgan sirli sopol bezagi; 2. Kesma koshin
Klassik	mumtoz, namunali, mukammal, nuqsonsiz
Kompozitsiya	adabiy, badiiy asarlar qismlarining tuzilishi
Kanora	sohil, qirg‘oq, yon, taraf, tomon
Lavvoh	kitobat ijodida kitobning nomi va sarlavhalarni bezovchi
Musohib	suhbatdosh, ulfat
Malakut	farishta
Muqtado	imom
Mehna	Xurosondagi qishloq nomi
Mushaf	Qur‘oni Karim
Mug‘	otashparast qabila nomi
Mushk	yoqimli hidli atir
Matla‘	1. Avval, avvalgi bayt; 2. Chiqish joyi (oy, quyosh); 3. Boshlanish qismi

Muarrix	tarixchi
Majzub	aqldan ozgan, devona, majnun
Ma'vo	1. egallash, rom aylash, o'ziga butunlay jalb etish; 2. shaxsiy uy, turar joy
Maknun	yashiringan, pinhonlikda, oshkora emas
Muhib	1. Oshiq; 2. Do'st
Muztarib	tortinchoq, uyatchan
Munshiy	kotib
Maqbara	turbat - qabr ustiga o'rnatilgan maxsus qurilma, yodgorlik
Maqom	tartibga solingan, o'lchov, usul, yo'nalish, aniq parda, san'at turi
Madrasa	diniy oliy o'quv yurti
Masjid (machit)	ibodatgoh, musulmonlar jamoat bo'lib namoz o'qiydigan maxsus joy, bino
Majmua, ansambl	ma'lum me'moriy reja asosida o'zaro mutanosib qurilgan binolar yig'indisi
Me'mor	binokor usta, muhandis, loyihachi
Minora	baland, g'o'la shaklida qurilgan inshoot
Mumtoz	saralangan, tanlangan, eng yaxshilari degan ma'noda; masalan: mumtoz adabiyot, mumtoz kuy.
Mumsar	yetish, nasib etish, ko'rsatish
Munaqqid	tanqidchi
Manoqib	sifat, fazilat, xislat
Nochiyz	e'tiborsiz, qadrsiz
Najjor	usta, duradgor, binokor usta
Naf'a	foydali, bahrali
Nishot	shodlik, xursandchilik
Naqsh	1. Kuy, ashula, qo'shiq; 2. Binolarga ishlatiladigan bo'yoqli bezak turi
Novak	o'q, kamon o'qi
Osiy	gunohkor, isyonkor
Osori atiq	qadimgi dunyo, qadimiyat yodgorliklari, obidalari, qadimgi noyob, betakror san'at asarlari, buyumlari,

	nishonalari
Pechtob	o‘rilgan, jingala
Partav	yog‘du, nur, shu‘la, yorug‘lik
Peshrav	oldingi qatorda, avval, ilg‘or
Parchin	koshin turi. Turli ranglarda sirlanishi bilan farq qiladi.
Pargari	aylana, doira chiziq chizishga mo‘ljallangan asbob (sirkul) va uni yordamida bezak, naqsh yaratish
Roj	qaytuvchi
Rasta	qator, bozordagi do‘konlar qatori
Registon	1. Qumloq maydon; 2. Samarqanddagi me‘moriy majmua qurilgan joy
Ravoq	binoning ichi yoki oldidagi yarim doira shaklida ishlangan qismi; tokcha, yo‘lak, taxmon
Sang	tosh
Soyil	tilanchi, gado
Savsan	gulning nomi
Sulmanso	suman o‘simligiga o‘xshash
Sadr	mansab nomi
Sarrof	1. Pul maydalovchi, almashtiruvchi; 2. So‘z ustasi, suxandon
Saqqo	meshkob, teridan tikilgan qopda suv tashuvchi
Sahbo	qizil may, uzum suvi
Savt	tovush, ohang, ovoz, kuy
Sahhof	muqovasoz
Su‘ubat	qattiqchilik, qiyinchilik
Taloshum	talashuv, tortishuv, shovqin
Tiyra	qorong‘u, qora
Taqi	yana, shuningdek
Tatabbu’	1. Izidan, yo‘lidan borish; 2. Biror asarga o‘xshatib yozish
Taassub	1. Taqlid qilish; 2. Devonlarcha mukkadani ketish (fanatizm)
Takallum	so‘zlamoq

Tarahhum	rahm-shafqat qilish
To‘bi	jannat daraxti
Tarob yoki Torob	1. Shodlik, xursandlik; 2. Buxoro atrofidagi qadimgi qishloq nomi
Tatal	ko‘rinish, namoyon bo‘lish, jilvalanish
Tamkin	chidam, sabot, vazminlik
Tim	usti yopiq bozor. Baland tom bilan berkitilgan rasta
Toqi	1. Ravoq; 2. Qadimda uy tepasi to‘siniga tartib bilan terib chiqiladigan bezakli yog‘ochlar qatori
Tazkira	to‘plam
Utoja	tabib
Fard	yolg‘iz, yakka, tanho
Farxundov	saodatli
Furug‘	nur
Fag‘fur	Xitoy xoqoni mansabi nomi
Fusus	afsus
Xuvaydo	haqiqat, mavjudligi aniq, bor narsa
Xo‘bon	eng yaxshi, eng go‘zal
Xotif	chang solib tezlikda olib ketuvchi, bir lahzada
Xonaqoh	1. Gumbazli katta bino, xona; 2. Masjidning keng va katta xonasi
CHo‘bin	yog‘ochdan yasalgan, qurilgan
Chug‘z	1. Boyo‘g‘li; 2. Uzun, kokil
Shaybon	Chingizxon (Temuchin) ning katta farzandi Jo‘jining o‘g‘li nomi
Shaqoiq	baxtsiz, baxti qora, tuban
Shuaro	shoirlar, she‘riyat muxlislari
Shikva	shikoyat, nolish
YA’su	umidsizlik
O‘zRFASH I	O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti
Qamug‘	hamma, barcha

Qita'	ikki, uch yoki to'rt misradan iborat qisqa she'r
Qosido	elchi
Humoyun	qutlug', muborakli, baxtli
Hazira	xilxona (oila a'zolari hamda yaqin qarindoshlar jasadlarini maxsus ajratilgan joyga dafn etilishi)
Haqir	tuban, qadrsiz
Hodiy	yo'lga soluvchi
Hovar	kun chiqish, sharq

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. Karimov I.A. Amir Temur haqida soʻz. T., Oʻzbekistan, 1996.
2. Karimov I.A. «Barkamol avlod — Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori». Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida soʻzlagan nutq. T., "Sharq". 1997.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi — xalq eʼtiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., Oʻzbekistan, 2000.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. T., Sharq, 1998 .
5. Karimov I.A. Oʻzbekistan buyuk kelajak sari. T., 1998.
6. Karimov I.A. «Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh egishdir». «Xalq soʻzi» gazetasi, 2005 yil 29 yanvar.
7. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari, hamda manfaatlari — eng oliy qadriyat. «Xalq soʻzi» gazetasi. 2005 yil 8 dekabr.
8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. Toshkent: «Oʻzbekiston», 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat–yengilmas kuch. Toshkent: «Oʻzbekiston», 2008.
9. Abdullayev Z. Chor bakr. Toshkent: «Oʻzbekiston», 1984.
10. Akbarov I.A. Musiqa lugʻati. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987.
11. Bobojon Tarroh. Xorazm navozandalari. Toshkent: 1925.
12. Buxoriylar boʻstoni. Forschadan Samandar Vohidov tarjimasini. Toshkent: «Turondot» xususiy korxonasi, 1998.
13. Bobobekov Haydarbek. Qoʻqon tarixi. Toshkent: «Fan», 1996.
14. Darvish Ali Changi. Sredneaziatskiy traktat o muzike. Perevod s persidskogo prof. A.A.Semyonova. Tashkent, 1946.
15. Zohidov P.SH. Meʼmor olami. Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996.
16. Kalantarov Y.I. Kratkiy tadjiksko-russkiy slovar. M. 1955.
17. Murodov A. Oʻrta Osiyo xattotlik sanʼati tarixidan. Toshkent: 1971.
18. Maqsetov Q. Qoraqalpoq jirov baxshilari. Nukus, 1983.
19. Matyoqubov Otanazar. Maqomot. Toshkent: «Musiqa» nashriyoti, 2004.
20. Mualliflar jamoasi. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi. Toshkent: «Oʻqituvchi», 1980.
21. Nisoriy Hasanxoja. Muzakkiri ahhob (Doʻstlar yodnomasi). Forschadan Ismoil Bekjon tarjimasini. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
22. Oydinov Norsaid. Oʻzbekiston tasviriy sanʼati tarixidan lavhalar. Toshkent: «Oʻqituvchi», 1997.
23. Odilov A. Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik tarixi. Toshkent: «Oʻqituvchi», 1995.
24. Fargʻona vodiysida XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi madaniy hayot. Oʻzbekistonda ijtimoiy fanlar jurnali. Toshkent, 1984. 1-soni.
25. Oʻzbek adabiyoti. III jild. Toshkent: OʻzDavnashr, 1959.
26. Oʻzbek adabiyoti. IV jild. I kitob. Toshkent: OʻzDavnashr, 1960.
27. Oʻzbek adabiyoti. V jild. I kitob. Toshkent: OʻzDavnashr, 1966.

28. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti. I-XII jildlar.
29. Qayyumov Po'latjon Domulla. Tazkirai Qayyumiy. I-II-III jildlar. Toshkent: O'z R FA qo'lyozmalar tahririy nashriyoti bo'limi, 1998.
30. Qilichev To'ra. Xorazm xalq teatri. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
31. Qodirov M. O'zbek xalq og'zaki dramasi. Toshkent: «O'qituvchi», 1963.
32. Homidiy Hamidjon. Qo'hna Sharq darg'alari. Toshkent: «Sharq», 1999.
33. Hasanov Soli. Xorazm ma'rifati - olam ko'zgusi. Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
34. Hamidov Hojiakbar. Musiqa-qo'shiqchilik madaniyatimiz tarixidan. Toshkent: «O'qituvchi», 1995.
35. Hamidov Hojiakbar. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
36. Hakimov N., Karimov SH., Sodiqov M., Xakimjonov A. Vatan madaniyati tarixi. Toshkent: TDIU, 1995.
37. Abdunabiyev A.G. Vklad v mirovuyu sivilizatsiyu. T., Uzbekistan, 1998 y.
38. Abulg'azi B. Shajarai turk. T., CHo'lpon, 1992 y.
39. Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. T., O'qituvchi, 2001.
40. Bobur. Boburnoma. — T., Yulduzcha, 1998 y.
42. Buyuk siymolar, allomalar (uch kitob). T., Meros 1995, 1996, 1997 yy.
43. Dostchanov T., Xasanov S. Zvezdi akademii Mamuna. T., TMI. 2004 g.
44. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. T., O'qituvchi, 1994.
45. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. T., O'zbekiston, 1999 y.
46. Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. «Milliy istiqlool davri». T., Sharq, 2004.
47. Kamalova D.M. Uzbekskaia xudojestvennaya kultura. T., Ibn Sino, 1995g.
48. Kabirov M., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T., O'zbekiston, 1990.
49. Meros (to'plam) T., Kamalak, 1991.
50. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. T., Fan, 1993.
51. «Mustaqillik» (izohli ilmiy-ommabop lug'at). T., Sharq, 2000.
52. Muxamadjonov A. O'zbekiston tarixi. (7-sinf uchun darslik). T., O'qituvchi, 1999.
53. Nabiyev A. Tarixiy o'lkashunoslik. T., O'qituvchi, 1996.
54. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T., O'qituvchi, 1997.
55. Pugachenkova G.A., Rempel L.M. Istoriya iskusstva Uzbekistana. M., 1974 g.
56. Raxmatullayev T. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishda arxeologiya materiallaridan foydalanish. T., O'qituvchi, 1994.
57. Rtveladze E.V., Livshits V.A. Pamyatniki drevney pismennosti. T., 1985 g.
58. Sadullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T., Universitet, 1996.
59. Samarqand tarixi. Ikki jildlik. T., Fan, 1969 - 1971y.
60. Sulaymonova F. Sharq va **Fapb**. T., O'zbekiston, 1997 y.
61. Usmonov Q va boshqalar. O'zbekiston qaramlik va Mustaqillik yillarida. T., O'qituvchi, 1996 y.
62. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. Milliy istiqlool davri. T., O'qituvchi, 2003 y.
63. O'zbekiston Respublikasi. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1997 y.
64. O'zbekiston tarixi (qisqacha ma'lumotnoma). T., Sharq, 2000 y.
65. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., UAJBNT, 2003 y.

- 66.O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. «Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida». T., Sharq, 2000 y.
- 67.O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. «O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida». T., Sharq, 2000 y.
- 68.O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. «Mustaqil O'zbekiston tarixi». T., Sharq, 2000 y.
- 69.Qilichev T. Ko'hna qal'alar diyori. T., O'qituvchi, 1993 y.
- 70.Xasanov S. Xorazm ma'naviyati darg'alari. T., Adolat, 2001 y.